Tadqiqot.uz

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'P TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

YANGI O'ZBEKISTON: ILMIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ

2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN DNK



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJIY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00

WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

SENTYABR
№92

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР 2-ҚИСМ

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ЧАСТЬ-2

NEW UZBEKISTAN: SCIENTIFIC RESEARCH PART-2

ТОШКЕНТ-2026

УЎК 323(575.1)(063)
КБК 66.3(5Ў)я43
И-18
DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 92-кўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 197 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютукларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.
Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1.Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -
Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -
Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фарғона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидаги изланишлар –
Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-
Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви-
Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6.Журналистика-
Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –
Самигова Умида Хамидуллаевна (“Kinder land of Asia” НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)

8.Адабиёт-
PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни -
Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -
Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11.Жисмоний тарбия ва спорт-
Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -
Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -
Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)
14.Тасвирий санъат ва дизайн-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт-
Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -
Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари -
Доцент Сохадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –
Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19.Фармацевтика
Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20.Ветеринария
Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21.Кимё фанлари ютуқлари -
Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -
Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари -
Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -
Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси
© Tadiqiqot.uz

Page maker/Верстка/Сахифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакции журнала.
www.tadqiqot.uz
ООО Tadiqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail:
info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of
www.tadqiqot.uz
Tadiqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; E-mail:
info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

12.00.00 – Yuridik fanlar

INSON HUQUQLARINI CHEKLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI VA MUTANOSIBLIK (PROPORSIONALLIK) PRINSIPI: O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO‘LLANILISHI

Husanov Diyor Sheraluevich,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi deputati
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Mazkur tezisda 2023-yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaning 20- va 21-moddalari doirasida huquqlarni cheklash mexanizmi o‘rganildi. Shuningdek, mutanosiblik prinsipining mazmuni, uning sud amaliyoti va konstitutsiyaviy nazoratda qanday qo‘llanishi hamda bu boradagi hal etilmagan muammolar yoritildi. Shu bilan bir qatorda muallif huquqlarni cheklashning ikki darajali modelini va besh bosqichli “konstitutsiyaviy cheklov testi”ni ilgari suradi.*

Kalit so‘zlar: *mutanosiblik, yetarlilik, huquqiy ta’sir choralari, konstitutsiyaviy cheklov testi, Konstitutsiyaviy sud, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash.*

CONSTITUTIONAL BASIS FOR RESTRICTING HUMAN RIGHTS AND THE PRINCIPLE OF PROPORTIONALITY: THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL APPLICATION IN THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Husanov Diyor Sheraluevich,
Deputy of the Legislative Chamber of the
Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

Abstract. *This paper examines the mechanism for restricting rights under Articles*
20 and 21 of the Constitution, adopted in its new edition in 2023. It also explores the content of the principle of proportionality, how it is applied in judicial practice and constitutional review, and the unresolved problems in this area. In addition, the author proposes a two-tier model for restricting rights and a five-stage "constitutional restriction test."

Keywords: *proportionality, sufficiency, legal measures of influence, constitutional restriction test, Constitutional Court, direct application.*

Huquqiy davlat g‘oyasi haqida fikr yuritilar ekan, unga asosan davlat hokimiyati qayerda to‘xtashi kerak? degan savol paydo bo’ladi. Bunga 2023-yil 30-

aprelda referendumda ma’qullangan Konstitutsiya bu savolga aniq javob beradi. Konstitutsiyaning 21-moddaga ko‘ra, inson huquq va erkinliklarini faqat qonun asosida, moddada sanab o‘tilgan maqsadlar yo‘lida va zarur bo‘lgan miqdordagina cheklash mumkin. Shuningdek, 20-modda davlat organlari shaxsga nisbatan qo‘llaydigan har bir huquqiy ta’sir chorasi mutanosiblikka asoslanishi va qonunda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun yetarli bo‘lishi lozimligi haqidagi fikrlarni o’z ichiga oladi. Bu normalarning amaliy salmog‘ini raqamlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Konstitutsiyaviy sud 2025-yilda 81 ta qonunni va 386 ta boshqa normativ-huquqiy hujjatni Konstitutsiyaga muvofiqlik jihatidan tekshirdi. Bu ko’rsatkichlar 2024-yilda mos ravishda 70 va 218 ta edi. Murojaatlar soni 1400 tadan 1844 taga o‘sdi. Sudlar Konstitutsiyaga bevosita tayangan holatlar 2025-yilda 183 898 tani tashkil etgan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi mutanosiblik prinsipining O‘zbekiston konstitutsiyaviy tizimidagi mazmunini aniqlash va uni qo‘llash mezonlarini bir tizimga keltirishdan iboratdir. Ishda huquqiy matnlarni tahlil qilish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi.

Xususan, Konstitutsiya matnida to‘rtta o‘ziga xos jihat ajralib turadi. Birinchidan, cheklash maqsadlari yopiq ro‘yxat bilan berilganligi, ikkinchidan, “zarur bo‘lgan doirada” iborasi zarurlik mezonini bevosita norma darajasiga ko‘tarilganligi, uchinchidan, “yetarli” so‘zi chora belgilangan maqsadga erishishga yaroqli bo‘lishini talab qilishi va mutanosiblikni to‘ldiruvchi mustaqil mezon vazifasini bajarishligidadir. Hamda, inson va davlat organlari munosabatlarida qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga hal etiladi. Shuningdek, 20- va 21-moddalar birgalikda ikki darajali tizimni hosil qiladi.

Birinchi daraja me’yor darajasi, u 21-moddaga tegishli. Bu huquq chegarasini qonun chiqaruvchi belgilaydi va bunda qonuniylik, maqsadlarning yopiq ro‘yxati hamda zarurlik talablariga amal qilishi shart. Ayrim huquqlar uchun Konstitutsiyaning o‘zi maxsus cheklov tartibini belgilagan. Masalan, 33-modda axborot erkinligini cheklash maqsadlari qatoriga davlat sirini ham kiritadi. 31-modda yozishmalar sirini cheklash va uy-joyda tintuv o‘tkazishga faqat qonunga muvofiq hamda sud qarori bilan yo‘l qo‘yadi, hamda, uy-joyga kirish va uni ko‘zdan kechirish esa qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda mumkin. 27-moddaga ko‘ra, sud qarorisiz ushlab turish muddati 48 soatdan oshmasligi kerak. 32-modda harakatlanish erkinligini cheklash tartibini qonunga havola qiladi.

Ikkinchi daraja qo‘llash darajasi, u 20-moddaga bog‘liq. Bu yerda muayyan organ muayyan shaxsga nisbatan tanlagan chorasi mutanosib va yetarli bo‘lishi talab etiladi. Bunday ajratishning sababi shundaki, qonunning o‘zi Konstitutsiyaga zid bo‘lmasa ham, uning aniq vaziyatdagi qo‘llanishi nomutanosib bo‘lib chiqishi mumkin. Birinchi masalani konstitutsiyaviy nazorat hal qiladi, ikkinchisi sud nazorati doirasiga kiradi. Xalqaro miqyosda ham bu kabi yondashuvga duch kelamiz. Masalan, BMT Inson huquqlari qo‘mitasi mutanosiblik faqat cheklovni belgilovchi qonunda emas, uni qo‘llaydigan ma’muriy va sud organlarining faoliyatida ham saqlanishi shartligini ta’kidlagan [3, 14–15-bandlar].

Ikki modda o‘rtasida ichki keskinlik ham bor. 20-moddaning ikkinchi qismi sud qarorisiz cheklashni taqiqlaydi, 21-moddaning uchinchi qismi esa “qonunga muvofiq” bo‘lgan cheklashni joiz deb biladi. Bunga ko’ra, Konstitutsiyaning o‘zi sud qarorini talab qilgan hollarda (masalan, 27-, 31- va 47-moddalarda) bu talab so‘zsiz bajariladi. Qolgan hollarda huquqning umumiy chegarasini qonun belgilaydi, bunday cheklash esa 21-moddadagi shartlarga va 20-moddadagi mutanosiblik talabiga javob berishi kerak. Huquqdan mahrum etish esa Konstitutsiyada nazarda tutilgan istisnolardan (masalan, 27-moddadagi 48 soatlik muddat) tashqari faqat sud qarori bilan mumkin.

Amaliyotda mutanosiblik masalasi birinchi navbatda Oliy sud Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-son qarorida aks etgan. Qarorda sudlar davlat organlari qo‘llagan ta’sir choralarida mutanosiblik saqlanganini tekshirishga majbur etiladi. Shuningdek bunday choralar mutanosiblikka asoslanishi va qonun maqsadiga erishish uchun yetarli bo‘lishi yana bir bor ta’kidlanadi. 2024-yil 16-dekabrdagi 39-son qaror bilan kiritilgan tahrirga muvofiq, jazo va boshqa chora odil bo‘lishi, ya’ni huquqbuzarlikning og‘irligi, ayb darajasi, shaxsning ijtimoiy xavfliligi va insonparvarlik tamoyillariga mos kelishi shart. Plenum sudlarga “tegishli qonun qabul qilinmagan” degan bahona bilan Konstitutsiya normasini qo‘llashdan bosh tortmaslikni ham tushuntirgan. Bu esa mutanosiblikni bevosita qo‘llash uchun zamin yaratadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-noyabrdagi PF-188-son Farmoni vazirliklar, Bosh prokuratura va Oliy sudga 2024-yil 1-yanvargacha o‘zlariga biriktirilgan sohalardagi qonunosti hujjatlarini xatlovdan o‘tkazishni yuklagan. Xatlovda “huquqlar faqat qonunga muvofiq cheklanadi” talabiga hamda huquqiy ta’sir choralarining mutanosiblik va yetarlilik talabiga muvofiqligiga alohida e’tibor qaratish belgilangan. Shu tariqa mutanosiblik qonunosti hujjatlarini Konstitutsiyaga moslashtirishning ham o‘lchoviga aylandi. Ammo Farmon bir martalik qayta ko‘rib chiqishni nazarda tutadi, doimiy qonun ijodkorligi standartini emas.

Konstitutsiyaviy sudning 2025-yilgi axborotida mutanosiblikka oid bir qator tavsiya va takliflar bildirilgan. Xususan, harakatlanish erkinligini cheklash faqat oxirgi chora bo‘lishi, ya’ni boshqa vositalar maqsadga erishtira olmagandagina qo‘llanishi kerakligi qayd etilgan. Ma’muriy jarimaning umumiy chegarasi fuqarolar va xizmatchilar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari, mansabdor shaxslar uchun 10 baravari, ayrim huquqbuzarliklar uchun esa 450 baravarigacha bo‘lgani bois, bu tafovut uchun aniq mezonlar ishlab chiqish tavsiya etilgan. Jarimani qamoq bilan almashtirish tartibini qayta ko‘rib chiqish va majburiy jamoat ishlari kabi muqobil choralarni joriy etish taklif qilingan. Bundan tashqari, huquqni cheklovchi normalar kiritilgan loyihalar Adliya vazirligining huquqiy ekspertizasida alohida ajratilishi va jamoatchilik muhokamasidan o‘tishi zarur deb topilgan.

Mavjud amaliyot mutanosiblik mezonlari yagona tizimga solinmaganligi va Plenum qarorida prinsip bayon etilgan, lekin uni tekshirish uchun izchil bosqichlar berilmaganligi kabi muammolarni namoyon qiladi. Unga ko’ra bu holat sudlarga mutanosiblikni ketma-ket va bosqichma-bosqich tahlil qilishni qiyinlashtirishi

mumkin. Misol uchun Venetsiya komissiyasining Huquq ustuvorligi bo‘yicha nazorat ro‘yxati huquq cheklovlarini baholashda mutanosiblikni ham, o‘zboshimchalikka qarshi kafolatlarni ham alohida tekshiriladigan masala sifatida ko‘rsatadi. Hamda, Konstitutsiyaga havolalar soni tez o‘sganligini ko’rishimiz mumkin. Ya’ni, 2023-yilda 52 596 ta, 2024-yilda 168 767 ta, 2025-yilda 183 898 ta. Bu ijobiy dinamika, biroq havolalar sonining ko‘pligi ularning sifatli ekanini o‘zi anglatmaydi. Bundan tashqari, Konstitutsiyaviy sud sanksiyalar tizimini mutanosiblik prinsipi asosida qayta ko‘rib chiqish zarurligiga e’tibor qaratgan. Ayniqsa ma’muriy jarimalar va jarimani qamoqqa almashtirish masalasi e’tiborga loyiq.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi 2023-yilgi Konstitutsiyaning 20- va 21-moddalariga tayanib, huquqlarni cheklashning ikki darajali modeli asoslanganida va mutanosiblik tekshiruvining besh bosqichli tartibi O‘zbekiston konstitutsiyaviy matniga moslab taklif etilganidan iboratdir. Mutanosiblikning yaroqlilik, zarurlik va tor ma’nodagi mutanosiblik kabi tarkibiy qismlari qiyosiy konstitutsiyaviy huquqda anchadan beri ma’lum. Shu bois yangilik testning g‘oyasida emas, uni milliy konstitutsiya matniga bog‘lashda hamda qonuniylik va maqsad bosqichlarini alohida ajratishda. Ko‘rib chiqilgan rasmiy hujjatlarda bunday izchil bosqichli test alohida shakllantirilmagan. Konstitutsiyaviy sudning alohida ishlar bo‘yicha qarorlari tadqiqot doirasidan tashqarida qoldi. Shuning uchun takliflar amaldagi amaliyotni umumlashtirishga emas, uni tartibga solishga qaratilgan.

Xususan, 20-moddadagi “yetarli” so‘zi chora maqsadga erishishga yaroqli ekanini bildiradi, zarurlik esa 21-moddadagi “zarur bo‘lgan doirada” iborasidan kelib chiqadi. Konstitutsiya bu ikki talabni turli so‘zlar bilan ifodalagani ularni alohida bosqich sifatida ajratishga imkon beradi. Birinchi bosqichda qonuniy asos tekshiriladi. Bunda cheklash rasmiy qonunga, mahrum etish esa sud qaroriga tayanishi kerak. Qiyosiy nazariyada qonuniylik mutanosiblikni ko‘rishdan oldingi ostona talabi sanaladi va u bajarilmasa, mutanosiblikni tekshirishga hojat ham qolmaydi [7, 107–128-b.]. Ikkinchi bosqichda maqsad 21-moddadagi yopiq ro‘yxatga kirishi lozim; adabiyotda bu cheklovning to‘g‘ri maqsadini aniqlash deb ataladi [7, 245–302-b.]. Uchinchi bosqich yetarlilikni, ya’ni chora maqsadga erishishga yaroqli ekanini baholaydi. To‘rtinchi bosqich zarurlikni o‘rganadi: kamroq cheklovchi muqobil bormi va tanlangan chora oxirgi vositami; bu bosqichda qonun chiqaruvchi maqsadga xizmat qiladigan vositalar orasidan huquqni eng kam cheklaydiganini tanlashi kerak [7, 317–339-b.]. Beshinchi bosqichda tor ma’nodagi mutanosiblik, ya’ni manfaatlar muvozanati baholanadi va shubha qolsa, u inson foydasiga hal etiladi. Yaroqlilik, zarurlik va tor ma’nodagi mutanosiblikdan iborat bu uch qismli tuzilma Alexy tomonidan asoslangan sxema bilan mos keladi [8, 66-b.].

Manbalarni o’rganish davomida O‘zbekistonda mutanosiblik endi shunchaki nazariy g‘oya emas, balki u Konstitutsiyaning bevosita amal qiluvchi normasi, uning samarasi esa qo‘llash mexanizmlariga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu maqsadda Oliy sud Plenumining mutanosiblikka bag‘ishlangan alohida tushuntirishida yuqoridagi besh bosqichli testni mustahkamlash, normativ-huquqiy hujjat loyihalari

uchun huquqni cheklovchi normalar bo‘yicha “mutanosiblik tahlili” talabini kiritish, ma’muriy javobgarlik sanksiyalarini shu test asosida tizimli qayta ko‘rib chiqish, sud hujjatlarining asoslantiruvchi qismida mutanosiblik tahlilini ko‘rsatishni majburiy qilish kabi takliflar berib o’tiladi.

Adabiyotlar/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan yangi tahrir; 2026-yil 25-iyuldan kuchga kirgan o‘zgartirish bilan). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). https://lex.uz/docs/-6445145
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2025-yilda mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risidagi axboroti (2025-yil 30-dekabrdagi KSQ-5-son qarori bilan tasdiqlangan). Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.01.2026 й., 12/26/5/0010-сон.
3. UN Human Rights Committee. General Comment No. 27: Freedom of movement (Art. 12). CCPR/C/21/Rev.1/Add.9, 2 November 1999. https://www.refworld.org/legal/general/hrc/1999/46752
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi 16-son “Odil sudlovni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori (2024-yil 16-dekabrdagi 39-son qaror tahririda). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). https://www.lex.uz/en/docs/-6523654
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-noyabrdagi PF-188-son “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Farmoni. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.11.2023 й., 06/23/188/0835-сон.
6. Venice Commission. Rule of Law Checklist. CDL-AD(2016)007, adopted on 11–12 March 2016https://www.coe.int/en/web/venice-commission/-/cdl-ad-2016-007-e
7. Barak A. Proportionality: Constitutional Rights and their Limitations. Cambridge: Cambridge University Press, 2012. 638 p. https://www.cambridge.org/core/books/proportionality/6E9C523D5653FEE453068DEFECF4C4F5
8. Alexy R. A Theory of Constitutional Rights / transl. by J. Rivers. Oxford: Oxford University Press, 2002. 506 p. https://global.oup.com/academic/product/a-theory-of-constitutional-rights-9780198258216

SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA PROKURATURA ORGANLARIDA KOLLEGIAL QARORLAR QABUL QILISH: HUQUQIY IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR

Mexmanov Samar Lutfullo o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida prokuratura organlarida kollegial qaror qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirishning huquqiy va tashkiliy masalalari tahlil qilinadi. Prokuratura organlarida kollegiallik prinsipining mazmuni, qaror qabul qilish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning huquqiy imkoniyatlari hamda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqiy xavflar yoritiladi. Shuningdek, prokuratura organlarining kollegial faoliyatini raqamli transformatsiya qilish, sun’iy intellektdan yordamchi analitik vosita sifatida foydalanish hamda yakuniy qaror qabul qilishda inson omilini saqlab qolish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt, algoritmik iz, kollegial organlar, kollegial qaror qabul qilish, raqamli transformatsiya, huquqiy tartibga solish, prokuror mustaqilligi, raqamli texnologiyalar, huquqiy xavflar, inson nazorati.

Bugungi kunda raqamli transformatsiyaning yangi bosqichida sun’iy intellekt texnologiyalarining davlat boshqaruvi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga jadal integratsiyalashuvi huquqiy boshqaruv paradigmasining mazmun-mohiyatini qayta shakllantirib, huquqiy qarorlarni tayyorlash, tahlil qilish va qabul qilishning mavjud institutsional mexanizmlarini zamonaviy texnologik yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruviga joriy etish davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlangan [1]. Mazkur strategik hujjat sun’iy intellektni turli sohalarga joriy etish uchun tashkiliy, texnologik va huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirishni nazarda tutadi. 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son Farmon esa sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilab bergan bo’lsa, 2026-yilda sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy chegaralarini belgilash borasida yangi bosqich yuzaga keldi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-1115-son Qonuni bilan sun’iy intellektdan foydalanish natijasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qator qonunchilik o‘zgarishlari amalga kiritildi. Shu bilan birgalikda, 2026-yil 14-martda sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan

foydalanish bo‘yicha etika qoidalari davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Ushbu qoidalarning alohida ahamiyatga ega jihati shundaki, sun’iy intellekt tizimlari inson nazorati ostida bo‘lishi, ularning natijalari qayta ko‘rib chiqilishi va yakuniy qaror inson tomonidan qabul qilinishi nazarda tutilgan. Ushbu normativ yondashuvlar prokuratura organlarida kollegial qaror qabul qilish jarayonini raqamli transformatsiya qilish uchun ham muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Zero, prokuratura faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy maqsadi inson tomonidan amalga oshiriladigan huquqiy baholashni almashtirish emas, balki uni zamonaviy analitik vositalar bilan ta’minlashdan iborat bo‘lishi lozim. Shu sababli prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanish qarorlarning qonuniyligi, asoslantirilganligi, xolisligi va inson huquqlarining ustuvorligi bilan uyg‘un holda tashkil etilishi, yakuniy qaror uchun esa insoniy va institutsional javobgarlik saqlanib qolishi zarurdir. Aynan shu nuqtai nazardan, sun’iy intellektni prokuratura organlarida kollegial qaror qabul qilish jarayoniga joriy etish masalasiga oddiy texnologik yangilik sifatida emas, balki tashkiliy-huquqiy **institutning transformatsiyasi** sifatida yondashish lozim.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham aynan ushbu masala tobora ko‘proq tadqiq etilmoqda. UNESCOning Sun’iy intellekt etikasi bo‘yicha tavsiyasida inson huquqlari va inson qadr-qimmati sun’iy intellektdan foydalanishning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatilgan. Mazkur hujjatda shaffoflik, adolatlilik, inson nazorati, javobgarlik va tushuntiriluvchanlik kabi tamoyillar alohida ta’kidlangan. UNESCO yondashuviga ko‘ra, sun’iy intellekt tizimi qaror qabul qiluvchi insonning yakuniy mas’uliyatini almashtirmasligi kerak [2]. Xorijiy tadqiqotchilar **Dovilė Barysė** va **Roee Sarelning** ilmiy qarashlarida sun’iy intellektning huquqiy qaror qabul qilish jarayonlariga ta’siri masalasida texnologik samaradorlik bilan bir qatorda shaffoflik, hisobdorlik hamda inson nazoratini saqlab qolish zarurligi asoslab beriladi [3]. Ayniqsa **Roee Sarelning** ilmiy yondashuvi prokuratura organlarida kollegial qaror qabul qilish institutini sun’iy intellekt vositalari orqali takomillashtirishda muhim nazariy asos bo‘lib, bunda texnologik vositalarning qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki kollegial muhokamani qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatidagi maqomini belgilash alohida ahamiyat kasb etadi [4]. Haqiqatdan ham, prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanish masalasining dolzarbligi uning texnik imkoniyatlarida emas, balki ushbu texnologiyani kollegiallik, qonuniylik, prokuror mustaqilligi, inson huquqlari, shaffoflik va institutsional javobgarlik bilan qanday uyg‘unlashtirish mumkinligidadir.

Shu nuqtayi nazardan, muhim ilmiy savol yuzaga keladi. *Prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanish sharoitida kollegial qaror qabul qilishning mohiyati va funksional vazifalari qanday o‘zgaradi? Mazkur jarayonda texnologik vositalar kollegial muhokamaning o‘rnini egallamasdan, uning huquqiy va analitik imkoniyatlarini kengaytirishi uchun qanday tashkiliy-huquqiy mexanizmlar zarur?* Ushbu savollarga javob berish, avvalo, kollegial qaror qabul qilish institutining mohiyati va uning davlat boshqaruvidagi o‘rnini aniqlashtirishni talab etadi.

Kollegial qaror qabul qilish davlat organlarida bir masalani bir nechta vakolatli shaxsning fikr va pozitsiyalarini muhokama qilish orqali hal etishga asoslangan

tashkiliy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Uning asosiy afzalligi yakka shaxs qarorining subyektivligi xavfini kamaytirish, turli professional nuqtayi nazarlarni birlashtirish va qarorning asoslantirilganligini kuchaytirish imkoniyatidir. Prokuratura organlari faoliyatida kollegiallikni faqat qaror qabul qilishning tashkiliy shakli sifatida baholash yetarli emas. U, avvalo, qarorlarning qonuniyligi va institutsional barqarorligini ta’minlash vositasi sifatida namoyon bo‘lishi lozim. Prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanishning eng maqbul modeli uni qaror qabul qiluvchi subyekt emas, balki kollegial qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi analitik vosita sifatida shakllantirishdan iborat. Bunday model doirasida sun’iy intellekt, xususan, quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:

— katta hajmdagi huquqiy hujjatlar va ish materiallarini tezkor tahlil qilish;

— amaldagi qonunchilik normalarini tegishli faktik holatlar bilan bog‘lash;

— avvalgi qarorlar va huquqni qo‘llash amaliyotidagi tendensiyalarni aniqlash;

— qaror loyihasidagi mantiqiy yoki texnik nomuvofiqliklarni aniqlash;

— takrorlanuvchi huquqiy vazifalarni avtomatlashtirish;

— statistik ma’lumotlar asosida xavf indikatorlarini shakllantirish. Bu jarayonda sun’iy intellektning vazifasi “qaror berish” emas, balki qaror qabul qiluvchi shaxslarning axborot bilan ta’minlanganligini oshirish bo‘lishi lozim. Bu borada 2026-yilda O‘zbekistonda tasdiqlangan sun’iy intellektga asoslangan yechimlardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalarida ham tizim natijalaridan tavsiyaviy yoki ma’lumot uchun foydalanish, inson nazoratini saqlab qolish va yakuniy qarorni inson tomonidan qabul qilishga urg‘u berilgan [5]. Bu yondashuv prokuratura organlaridagi kollegial qarorlar uchun ham konseptual asos bo‘la oladi. Shundan kelib chiqib, prokuratura faoliyatida sun’iy intellektdan foydalanishning eng muhim huquqiy sharti — inson tomonidan mazmunli va real nazoratning saqlanishidir. Bunda **“inson nazorati”** faqat sun’iy intellekt tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyani tasdiqlash bilan cheklanmasligi kerak. Vakolatli prokuror yoki kollegial organ a’zolari, sun’iy intellekt foydalangan ma’lumotlar manbasini, algoritm yoki tizim bergan xulosaning asoslarini, ehtimoliy xatolar va cheklovlarni, inson huquqlariga ta’sir qiluvchi omillarni, qarorning qonuniy asoslarini mustaqil ravishda baholashi lozim. Bunday modelda sun’iy intellekt kollegiallikning o‘rnini egallamaydi. Aksincha, u kollegial muhokama uchun zarur bo‘lgan axborotni tezkor va tizimli shaklda taqdim etish orqali kollegiallikning sifatini oshiradi.

UNESCO tavsiyasida shaffoflik va tushuntiriluvchanlik inson huquqlari, javobgarlik va samarali huquqiy himoya mexanizmlarining muhim sharti sifatida qayd etilgan. Ayniqsa, sun’iy intellekt natijasiga asoslangan qarorni shaxs tomonidan e’tiroz qilish imkoniyati mavjud bo‘lishi uchun uning shakllanish mexanizmi ma’lum darajada tushunarli va kuzatiladigan bo‘lishi kerak [6]. Shu sababli prokuratura organlarida sun’iy intellekt tizimlarini joriy etishda **“algoritmik iz”** institutini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bunda tizim tomonidan foydalanilgan ma’lumotlar, berilgan tavsiya, inson tomonidan kiritilgan o‘zgartirishlar va yakuniy qaror o‘rtasidagi bog‘liqlik elektron shaklda qayd etib boriladi.

Sun’iy intellektning prokuratura faoliyatiga kirib kelishi yangi huquqiy savolni yuzaga chiqarmoqda: *“Agar sun’iy intellekt bergan tavsiya noto‘g‘ri bo‘lsa, buning uchun kim javob beradi”*? Albatta **“sun’iy intellekt javobgar bo‘la olmaydi”.** Chunki sun’iy intellekt mustaqil huquqiy javobgarlik subyekti sifatida emas, balki inson tomonidan yaratilgan va foydalaniladigan texnologik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun javobgarlik mexanizmi quyidagi subyektlar o‘rtasida aniq differensiallashtirilishi lozim deb o’ylaymiz: avvalo sun’iy intellekt tizimini ishlab chiquvchi, tizimni joriy etgan tashkilot, hamda yakuniy qarorni qabul qilgan vakolatli prokuror yoki kollegial organ. Bu boradagi zamonaviy ilmiy yondashuvlardan biri algoritmning o‘zidan ko‘ra, uni qo‘llayotgan institutsional muhitning javobgarligini tahlil qilish zarurligini ilgari suradi. Jumladan, **Ignacio Cofone** algoritmik qarorlarning qonuniyligi faqat algoritmning texnik ishonchliligiga emas, balki qarorni qabul qiluvchi institutda uni tushuntirish, baholash, e’tiroz qilish va qayta ko‘rib chiqish mexanizmlarining mavjudligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [7]. Darhaqiqat, bu yondashuv prokuratura organlari uchun juda muhimdir. Chunki sun’iy intellekt tizimi noto‘g‘ri tavsiya bergan taqdirda ham yakuniy huquqiy qarorni inson qabul qilgan bo‘lsa, uning qonuniyligi va asoslantirilganligi uchun insoniy institutsional javobgarlik saqlanib qolishi lozim albatta. Shu o’rinda eng muxim va dolzarb savol tug’iladi, *prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanishning huquqiy chegaralari qayerda, qanday belgilanadi?* Prokuratura faoliyatida sun’iy intellektni joriy etish cheklanmagan texnologik eksperiment sifatida emas, aniq huquqiy chegaralar doirasida amalga oshirilishi lozim. Bu chegara inson huquqlari, prokuror mustaqilligi, qonuniylik, shaxsga doir ma’lumotlarning oshkor bo’lmasligiga doir masalalar bilan cheklanishi lozim. Ayniqsa prokuratura organlarida jinoyat ishlari, shaxsning huquqiy maqomi yoki boshqa yuqori xavfli huquqiy masalalar bilan bog‘liq qarorlarda sun’iy intellektning mustaqil va yakuniy qaror qabul qiluvchi mexanizmga aylanishi maqbul emas. **2026-yilda O‘zbekistonning** boshqa davlat nazorati sohalarida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha qabul qilingan hujjatlar ham ushbu yo‘nalishning amaliy jihatdan rivojlanayotganini ko‘rsatadi [8]. *Masalan, davlat auditi faoliyatida sun’iy intellekt yordamida xavflarni barvaqt aniqlash, ma’lumotlarni intellektual tahlil qilish, qarorlar shaffofligini ta’minlash va raqamli iz mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan*. Bu tajriba prokuratura tizimida ham moslashtirilishi mumkin bo‘lgan institutsional yondashuvlarni ko‘rsatadi. Jumladan prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanish uchun quyidagi “inson nazoratidagi raqamli-kollegial qaror modeli”i taklif etiladi.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida prokuratura organlarida SI dan foydalanishni huquqiy jihatdan takomillashtirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalar keltiriladi

Birinchidan, prokuratura organlarida sun’iy intellektdan foydalanishning ichki idoraviy standartlarini ishlab chiqish zarur. Unda SI tizimlaridan foydalanish mumkin bo‘lgan va taqiqlangan holatlar aniq belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, kollegial organ qaror qabul qilishida sun’iy intellektdan foydalanilgan bo‘lsa, bu haqda tegishli elektron qayd kiritish va algoritmik izni saqlash tartibini joriy etish kerak.

Uchinchidan, sun’iy intellekt tizimlarini joriy etishdan oldin ularning inson huquqlari va huquqiy manfaatlarga ta’sirini baholashga qaratilgan **“AI Impact Assessment”** mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq. Sun’iy intellektning prokuratura organlari faoliyatiga joriy etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining raqamli transformatsiyasidagi yangi bosqich sifatida baholanishi mumkin. Biroq ushbu jarayonda texnologik samaradorlikni oshirish maqsadi huquqiy kafolatlarning zaiflashishiga olib kelmasligi kerak. Prokuratura organlarida sun’iy intellektning eng maqbul modeli uni mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki kollegial qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi intellektual-analitik vosita sifatida qo‘llashdan iborat. Prokuratura organlarida sun’iy intellektni joriy etishning istiqbolli modeli **“SI qaror qabul qiladi”** tamoyiliga emas, balki *“SI tahlil qiladi – inson tekshiradi – kollegial organ yakuniy qaror qabul qiladi”* tamoyiliga asoslanishi lozim. Aynan shu yondashuv texnologik innovatsiya bilan huquq ustuvorligi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 2024-yil 14-oktabr, PQ-358-son // URL: https://lex.uz/docs/-7158604

2. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. 2026 // URL: https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics.

3. Barysė D., Sarel R. Algorithms in the court: does it matter which part of the judicial decision-making is automated? // Artificial Intelligence and Law. – 2024. – Vol. 32. – P. 117–146 // URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s10506-022-09343-6

4. Barysė D., Sarel R. Algorithms in the court: does it matter which part of the judicial decision-making is automated? // Artificial Intelligence and Law. – 2024. – Vol. 32. – P. 117–146 // URL: https://link.springer.com/article/10.1007/s10506-022-09343-6

5. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirining “Sun’iy intellektga asoslangan yechimlarni yaratish, joriy qilish va ulardan foydalanish bo‘yicha etika qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i. 2026-yil 14-mart, ro‘yxat raqami 3787 // URL: https://lex.uz/docs/8083233.

6. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. 2021 // URL: https://www.unesco.org/en/artificial-intelligence/recommendation-ethics

7. Cofone I. Institutional Accountability in Algorithmic Adjudication: Beyond Trustworthy AI. – 2026

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat auditi faoliyatida sun’iy intellekt va raqamlashtirishni yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026-yil 6-iyul, PF-123-son // URL: https://lex.uz/docs/-8309048.

PROKURATURA ORGANLARIDA YUQORI TURUVCHI PROKUROR KO‘RSATMALARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH: YEVROPA STANDARTLARI VA MILLIY QONUNCHILIK

Mexmanov Samar Lutfullo o‘g‘li,
O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda prokuratura organlarida yuqori turuvchi prokuror tomonidan beriladigan ko‘rsatmalarning qonuniyligi va asosliligini qayta ko‘rib chiqishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari tadqiq etiladi. Prokuratura tizimining markazlashganligi va ierarxik bo‘ysunish prinsipi bir tomondan yagona qonuniylik siyosatini ta’minlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan quyi turuvchi prokurorning noqonuniy yoki asossiz ko‘rsatmaga nisbatan e’tiroz bildirish imkoniyatlarini aniq huquqiy kafolatlash zaruratini yuzaga keltiradi. Shunungdek Yevropa Kengashining CCPE Opinion No.18 (2023), Opinion No.19 (2024) hamda Venice Commissionning 2026-yildagi yondashuvlari tahlil qilinib, O‘zbekiston qonunchiligidagi takomillashtitish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar. Yagona model, ierarxik model, ko‘rsatma, kollegial organ, prokuror mustaqilligi, ierarxik bo‘ysunish, prokurorlar kengashi, qonuniylik, hisobdorlik, qaror izi.

Prokuratura organlari faoliyatining samaradorligi nafaqat ularning vakolatlari doirasi, balki ushbu vakolatlarni amalga oshirish jarayonida qonuniylik, mustaqillik, xolislik va hisobdorlik o‘rtasidagi muvozanat qay darajada ta’minlanganligi bilan ham belgilanadi. Mazkur masala, ayniqsa, prokuratura tizimining markazlashgan va ierarxik boshqaruv modeliga asoslangan davlatlarda alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida prokuratura organlari yagona markazlashgan tizimni tashkil etishi, quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va Bosh prokurorga bo‘ysunishi hamda hisobdorligi belgilangan. Shu bilan birga, yuqori turuvchi prokurorga quyi turuvchi prokurorga ko‘rsatma berish, shuningdek, uning, jumladan, protsessual qarorini o‘zgartirish yoki bekor qilish vakolati berilgan. Mazkur yondashuv prokuratura tizimida yagona amaliyotni ta’minlash va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun muhim bo‘lsa-da, yuqori turuvchi prokurorning ko‘rsatmasi qonunga zid yoki yetarlicha asoslantirilmagan deb hisoblangan holatda quyi turuvchi prokurorning qanday mustaqil va institutsional tartibda e’tiroz bildirish imkoniyatiga ega bo‘lishi masalasini dolzarb qilib qo‘yadi.

Bu muammo nazariy masala bo‘libgina qolmaydi. Prokuratura organlari tomonidan **2025-yilda 168 823 ta prokuror nazorati** hujjati qo‘llangan, **28 961 ta taqdimnoma** kiritilgan, **273 703 ta murojaat** ko‘rib chiqilgan va **385 891 nafar** shaxsning buzilgan huquqlari tiklangan [1]. Mazkur ko‘rsatkichlar prokuratura

qarorlari va huquqiy pozitsiyalarining fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlari huquq hamda manfaatlariga amaliy ta’siri nihoyatda katta ekanini ko‘rsatadi. Shu sababli prokuratura ichidagi qarorlar ustidan institutsional ichki huquqiy nazorat mexanizmlarining mavjudligi va samaradorligi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Prokuratura faoliyatining **ierarxik modeli** yuqori turuvchi prokurorning quyi turuvchi prokurorga ko‘rsatma berishini tabiiy boshqaruv mexanizmi sifatida nazarda tutadi. Bunday tizimning ***asosiy afzalligi*** — prokuratura faoliyatining yagona siyosati va qonuniylikni ta’minlash bo‘yicha bir xil yondashuvning shakllanishidir. Biroq ierarxik bo‘ysunish har qanday ko‘rsatmaning avtomatik ravishda qonuniy va asosliligini anglatmaydi. Ayniqsa, ko‘rsatma muayyan protsessual qaror, shaxsning huquq va erkinliklariga ta’sir qiluvchi masala yoki dalillarga huquqiy baho berish bilan bog‘liq bo‘lsa, quyi turuvchi prokurorning professional va huquqiy pozitsiyasini mustaqil shakllantirish imkoniyati muhim kafolat hisoblanadi. Yevropa standartlarida ham aynan shu muvozanat masalasiga e’tibor qaratilmoqda. CCPEning 2024-yildagi Opinion No.19 hujjatida prokuratura xizmatlarini boshqarishning markazlashgan, markazlashmagan va aralash modellari mavjudligi qayd etilib, boshqaruv modeli qanday bo‘lishidan qat’i nazar, prokurorlarning mustaqilligi va xolisligini ta’minlash zarurligi ta’kidlangan [2]. Demak, zamonaviy yondashuvda **“ierarxiya yoki mustaqillik”** tarzidagi qarama-qarshilik emas, balki **“ierarxiya - mustaqillik kafolatlari”** modeli ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu masalaning eng dolzarb jihati 2026-yil 24-aprelda “Venetsiya komissiyasi” tomonidan e’lon qilingan Opinion No.1274/2026 hujjatida yaqqol namoyon bo‘ladi [3]. Venetsiya komissiyasi yuqori turuvchi prokurorning majburiy ko‘rsatmasining qonuniyligi masalasini huquqiy masala sifatida baholagan va bunday ko‘rsatmalarni qayta ko‘rib chiqish sud yoki prokurorlar kengashi kabi mustaqil kollegial organ tomonidan amalga oshirilishi mumkinligini qayd etgan. Komissiya bunday organ prokuratura ierarxiyasidan tashqarida bo‘lgani sababli qarorlarni obyektiv va shaffof ko‘rib chiqish uchun yaxshiroq imkoniyatga ega ekanini ta’kidlagan. *Bu yondashuvning ilmiy jihatdan muhim tomoni shundaki, kollegial organ yuqori turuvchi prokurorning vakolatlarini bekor qilish uchun emas, balki ierarxik vakolatning huquqiy chegaralarini ta’minlash uchun xizmat qiladi.*

Venetsiya komissiyasi ayni paytda bunday mexanizm cheklanmagan vakolatga ega bo‘lmasligi kerakligini ham ko‘rsatadi. Ya’ni mustaqil kollegial organ faqat yaqqol qonunga zid yoki yaqqol asossiz ko‘rsatmalar bo‘yicha e’tirozlarni ko‘rib chiqishi maqsadga muvofiq. Bu yondashuv prokuratura boshqaruvida muhim prinsipni shakllantiradi. Yuqori turuvchi prokurorning vakolati saqlanadi, biroq uning ko‘rsatmasi qonuniylik va asoslantirilganlik nuqtayi nazaridan institutsional nazoratdan butunlay xoli bo‘lmaydi.

Yevropa Kengashining CCPE Opinion No.18 (2023) hujjati prokurorlar kengashlarini prokuratura o‘zini o‘zi boshqarishining muhim instituti sifatida e’tirof etadi. CCPE bunday kengashlar prokuratura xizmatlarining mustaqil va xolis faoliyat yuritishini ta’minlashda institutsional ahamiyatga ega ekanini qayd etadi

[4]. Bunda Yevropada **yagona model** mavjud emas. Ayrim davlatlarda prokurorlar kengashi mavjud bo‘lsa, boshqa davlatlarda prokuratura o‘zini o‘zi boshqarish funksiyalari boshqa kollegial organlar orqali amalga oshiriladi. CCPE ham aynan yagona modelni majburiy deb belgilamaydi, balki mustaqillik, xolislik va samarali qaror qabul qilishni ta’minlovchi institutsional mexanizmlarni asosiy mezon sifatida ko‘radi [5]. Shu jihatdan O‘zbekiston uchun masalani xorijiy institutni to‘liq ko‘chirib olish tarzida emas, balki milliy prokuratura tizimining markazlashgan tuzilmasini saqlagan holda e’tirozlarni mustaqil kollegial ko‘rib chiqish mexanizmini yaratish nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston qonunchiligi yuqori turuvchi prokurorning quyi turuvchi prokurorga ko‘rsatma berish vakolatini aniq belgilaydi. Shu bilan birga, mazkur mexanizmning ikkinchi tomoni — quyi turuvchi prokurorning ko‘rsatmaning qonuniyligi yoki asosliligiga nisbatan e’tirozini ierarxiyadan tashqari mustaqil kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqish instituti alohida va aniq protsessual mexanizm sifatida shakllantirilmagan. *Bu holatda asosiy masala yuqori turuvchi prokurorning vakolatini cheklash emas, balki ushbu vakolatni amalga oshirishning protsessual kafolatlarini kuchaytirishdan iborat*. Boshqacha aytganda, O‘zbekiston prokuratura tizimida “Ko‘rsatmalarni qonuniylik nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqish komissiyasi” kabi maxsus kollegial mexanizmni joriy etish taklif qilinadi. Uning asosiy vakolatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin:

quyi turuvchi prokurorning yuqori turuvchi prokuror ko‘rsatmasiga nisbatan asoslantirilgan e’tirozini ko‘rib chiqish;

ko‘rsatmaning qonunchilikka muvofiqligini baholash;

ko‘rsatma protsessual mustaqillikka asossiz aralashuv hisoblanadimi yoki yo‘qligini aniqlash;

ko‘rsatmani o‘z kuchida qoldirish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish yuzasidan asoslantirilgan qaror qabul qilish;

qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

ko‘rib chiqish natijalarini elektron shaklda qayd etish. Bunda komissiya tarkibi aynan yuqori turuvchi prokuratura rahbariyati vakillaridan iborat bo‘lib qolmasligi, uning a’zolarini tanlash **ochiq, shaffof va professional** mezonlarga asoslanishi lozim. Bu yondashuv aynan Venetsiya komissiyasi 2026-yilgi tavsiyalariga ham mos keladi. Lekin, mazkur mexanizmni O‘zbekistonning prokuratura tizimini raqamlashtirish jarayonidan alohida ko‘rib chiqish ham to‘g‘ri emas. 2025-yil 3-noyabrda O‘zbekiston Prezidenti tomonidan “Raqamli prokuratura–2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-204-son Farmon qabul qilingan [6]. Ushbu hujjat prokuratura faoliyatini raqamlashtirishning strategik yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu sababli taklif qilinayotgan kollegial mexanizmni elektron shaklda tashkil etish mumkin. Masalan, har bir e’tiroz bo‘yicha elektron **“qaror izi” (decision trail)** shakllantirilishi Farmondagi vazifalarga to‘la mos keladi. Bunda ko‘rsatma berilgan sana, ko‘rsatma bergan mansabdor shaxs, ko‘rsatmaning huquqiy asosi, quyi turuvchi prokurorning e’tirozi, e’tirozning asoslari, kollegial organ a’zolarining pozitsiyasi, yakuniy qaror, qarorning huquqiy asoslari elektron tizimda qayd etilishi

mumkin. Bunday mexanizm kelgusida nafaqat ichki nazoratni, balki prokuratura faoliyatining hisobdorligi va institutsional xotirasini ham kuchaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, prokuratura tizimining markazlashganligi va ierarxik bo‘ysunish prinsipi o‘z-o‘zidan prokurorning funksional mustaqilligini inkor etmaydi. Muammo ierarxiyaning mavjudligida emas, balki yuqori turuvchi prokurorning ko‘rsatmasiga nisbatan huquqiy e’tiroz bildirishning samarali kafolatlari mavjud yoki mavjud emasligidadir.

Ikkinchidan, Yevropa standartlarida prokurorlarning mustaqilligi ierarxik boshqaruv tizimini to‘liq inkor etish sifatida emas, balki ierarxik vakolatlarni huquqiy cheklovlar hamda institutsional nazorat mexanizmlari bilan muvozanatlashtirish tamoyili sifatida qaralmoqda. Yevropa Kengashining Prokurorlar maqomi bo‘yicha maslahat kengashining 2023-yildagi 18-sonli va 2024-yildagi 19-sonli xulosalarida prokurorlarning mustaqilligi va xolisligini ta’minlash bilan bir qatorda, prokuratura organlarida samarali institutsional boshqaruvni ta’minlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilgan.

Uchinchidan, 2026-yilgi Venetsiya komissiyasi yondashuvi mazkur mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Komissiya majburiy prokuror ko‘rsatmalariga nisbatan e’tirozlarni mustaqil kollegial organ tomonidan qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini bevosita qo‘llab-quvvatlaydi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston qonunchiligida yuqori turuvchi prokurorning ko‘rsatma berish vakolati aniq belgilangan bo‘lsa-da, bunday ko‘rsatmalarga nisbatan ierarxiyadan tashqari mustaqil kollegial qayta ko‘rib chiqish mexanizmini yanada aniq institutsional va protsessual shakllantirish ilmiy-amaliy jihatdan muhimdir.

Beshinchidan, “Raqamli prokuratura–2030” strategiyasi sharoitida mazkur mexanizmni elektron shaklda tashkil etish, har bir e’tiroz va qarorning elektron izini shakllantirish hamda qaror qabul qilish jarayonini raqamli monitoring qilish imkoniyati mavjud. Shu asosda “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga yuqori turuvchi prokurorning ko‘rsatmasi qonunga zid yoki yaqqol asossiz deb hisoblangan taqdirda quyi turuvchi prokurorning asoslantirilgan e’tirozini mustaqil kollegial organ tomonidan ko‘rib chiqish huquqini nazarda tutuvchi normalarni kiritish taklif etiladi. Bunda mazkur organ vakolati barcha ko‘rsatmalarni qayta ko‘rib chiqishga emas, faqat qonunga zidligi yoki yaqqol asossizligi haqida asoslantirilgan e’tiroz bildirilgan ko‘rsatmalarga nisbatan tatbiq etilishi maqsadga muvofiq. Bu esa bir tomondan prokuratura tizimining markazlashganligini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan prokurorning funksional mustaqilligi va qonuniylik kafolatlarini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. Qonuniylikni mustahkamlash. 2025-yil yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar // URL: https://prokuratura.uz/qonuniylikmustahkamlash.

2. Yevropa prokurorlari maslahat kengashi (CCPE). Prokuratura xizmatlarini ularning mustaqilligi va xolisligini ta’minlash maqsadida boshqarish to‘g‘risidagi

19-sonli xulosa. 2024-yil. // URL: https://rm.coe.int/opinion-no-19-2024-of-the-ccpe/1680b25297
3. uropean Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Urgent Opinion on amendments to the laws governing the judiciary and prosecution service adopted on 28 January 2026. 24 April 2026, No. 1274/2026 // URL: https://www.venice.coe.int/webforms/documents/default.aspx?pdffile=CDL-PI%282026%29007-e
4. Consultative Council of European Prosecutors (CCPE). Opinion No. 18 (2023) on Councils of Prosecutors as key bodies of prosecutorial self-governance. 20 October 2023 // URL: https://rm.coe.int/opinion-no-18-2023-final/1680ad1b36
5. Consultative Council of European Prosecutors (CCPE). The CCPE adopts Opinion No. 18 (2023) on Councils of Prosecutors. 31 October 2023 // URL: https://www.coe.int/en/web/human-rights-and-rule-of-law/-/the-ccpe-adopts-opinion-no.-18-2023-on-councils-of-prosecutors
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli prokuratura — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2025-yil 3-noyabr, PF-204-son // URL: https://lex.uz/docs/-7813706

TA’LIM SOHASIDA PROKUROR NAZORATINING AMALGA OSHIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI

Qurbonov Sobir Sultonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda ta’lim sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining mazmun-mohiyati va predmeti tahlil qilinadi. Shuningdek, bu boradagi xalqaro hujjatlar hamda milliy va xorijiy olimlarning fikr-mulohazalari asosida mavzu ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Prokuror nazorati, davlat nazorati, ta’lim sohasi, ta’lim tizimi, ta’lim turlari, qonuniylik, huquq-tartibot.

Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining mohiyati va predmetini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim olish huquqining huquqiy tabiati va mazmunini tushunish bo‘yicha ilmiy kontseptsiyalar va doktrinalarni tahlil qilish orqali yangi ilmiy-nazariy g‘oyalar ishlab chiqish ham dolzarb hisoblanadi. Maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish bilan bog‘liq munosabatlar doimo davlat va jamiyat e’tiborida bo‘lib kelgan.

Prokuror nazorati davlat tomonidan qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlashning eng samarali, izchil va o‘ziga xos shakli hisoblanib, ta’lim sohasida bolalarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda muhim institutsional mexanizm vazifasini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 143-moddasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Bosh prokuror va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar [1]. Ushbu konstitutsiyaviy norma prokuror nazoratining yuridik kuchini belgilaydi va ta’lim sohasidagi boshqa davlat nazorati shakllari faoliyati ham prokuror nazorati doirasiga kirishini ko‘rsatib beradi.

Ta’lim sohasida prokuror nazoratining mohiyati va predmetini belgilashda xalqaro-huquqiy standartlar ham alohida muhim o‘rin tutadi. BMTning 1990 yilda qabul qilingan «Prokurorlarning roli to‘g‘risidagi ko‘rsatmalari»da prokurorlar adolat boshqaruvining muhim subyektlari sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, ular o‘z vakolatlarini amalga oshirishda inson huquqlari va asosiy erkinliklarga rioya etishlari lozimligi belgilangan [2]. Ushbu xalqaro hujjatning 15-bandida «prokurorlar davlat mansabdor shaxslari tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga, xususan korrupsiya, hokimiyatdan suiiste’mol qilish va inson huquqlarining jiddiy buzilishi holatlariga alohida e’tibor qaratishlari zarurligi» [3] ta’kidlangan. Bu norma prokurorlarning ta’lim sohasidagi mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilish vakolatining xalqaro-huquqiy asoslarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

BMT Jinoyatchilik va narkotiklarga qarshi kurashish idorasining (UNODC) Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi (IAP) bilan hamkorlikda tayyorlangan «Prokurorlarning maqomi va roli» bo‘yicha qo‘llanmasida prokuratura organlarining vakolatlari, hisobdorligi va mustaqilligi masalalari chuqur tahlil qilingan [4]. Qo‘llanmada prokuratura organlarining faoliyati «ustiidoraviy» va «universal» xarakterga ega bo‘lib, ma’lum bir huquqiy munosabatlar sohasi bilan chegaralangan idoraviy nazorat organlaridan prinsipial farq qilishi ko‘rsatilgan. Bu xususiyat O‘zbekistonda ham prokuratura organlarining ta’lim sohasidagi faoliyatini tavsiflashda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan «Prokurorlarning kasbiy mas’uliyati standartlari»da ham prokurorlarning inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta’minlashdagi roli alohida ta’kidlangan [5].

Yevropa Kengashining 2000-yildagi Rec(2000)19-sonli tavsiyanomasida «prokuraturaning jinoiy adolat tizimidagi roli belgilangan bo‘lib, unda prokurorlarning mustaqilligi, xolisligi va professionalligi tamoyillari alohida ko‘rsatib o‘tilgan» [6]. BMT Inson huquqlari kengashining 2012 yildagi ma’ruzasida «prokurorlarning mustaqilligi va xolisligi inson huquqlarini samarali targ‘ib qilishning muhim sharti» [7] ekani alohida qayd etilgan. Bu tamoyil ta’lim sohasida prokuror nazoratining obyektivligini va xolisligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi milly huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlardan ko‘rish mumkinki, prokuror nazorati instituti va uning vakolatlari nafaqat milliy balki xalqaro huquqiy asoslarga, standartlarga ham ega bo‘lib, bu prokuror nazoratini mohiyatini va amalga oshirish prinsiplarini to‘g‘ri tushunishda muhim doktrinal hamda amaliy asos vazifasini o‘taydi.

K.Tomashevskining «4A» konsepsiyasi nuqtayi nazaridan prokuror nazoratining ta’lim sohasidagi predmeti quyidagicha belgilanishi mumkin: ta’limning mavjudligi (availability) bo‘yicha — ta’lim muassasalari va malakali o‘qituvchilarning yetarliligini nazorat qilish; foydalanish imkoniyati (accessibility) bo‘yicha — bolalarning ta’lim olishdagi huquqiy, ma’muriy va moliyaviy to‘siqlarni bartaraf etilishini nazorat qilish; maqbulligi (acceptability) bo‘yicha — ta’lim mazmuni va sifatining belgilangan standartlarga mosligini tekshirish; moslashuvchanligi (adaptability) bo‘yicha — inklyuziv ta’lim talablarining bajarilishini nazorat qilish [8]. F.Koomans o‘zining tadqiqotida “ta’lim olish huquqining sud va kvazi-sud nazoratiga layoqatli ekanligini asoslab, davlatlarning ushbu huquqqa nisbatan majburiyatlari samarali nazorat mexanizmlari orqali ta’minlanishi mumkinligini ko‘rsatgan” [9]. K.D.Bayter esa “ta’lim huquqini himoya qilishda davlat nazorati mexanizmlarining xalqaro standartlarga muvofiq tashkil etilishi zarurligini ta’kidlagan” [10].

Prokuror nazoratining mohiyatini nazariy jihatdan tushunishda o‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Prokuror nazoratining tushunchasi va mohiyatini aniqlashda bir qator olimlarning yondashuvlari o‘xshash xulosalarga olib kelgan. G.Berdimuratova va M.Urazboyevlar prokuror nazoratiga quyidagicha ta’rif berganlar: «Prokuror nazorati deganda davlat nomidan maxsus vakolatga ega bo‘lgan mansabdor shaxslar-prokurorlar tomonidan qonun buzilish hollarini o‘z

vaqtida aniqlash va bartaraf qilish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyat tushunilishi lozim» [11]. Shu bilan birga, ular prokuror nazoratining kengaytirilgan ta’rifini ham keltirib, unda «qonunbuzarliklar, ularning sabablari va bunga imkon bergan sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, buzilgan qonuniylikni tiklash» [12] kabi muhim elementlar aks ettirilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu ta’rifda prokuror nazoratining preventiv funksiyasi ham aks ettirilgan bo‘lib, ta’lim sohasida qonunbuzarliklarning sabablari va sharoitlarini aniqlash bolalarning huquqlari buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasida vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining monitoringi va nazorati tizimini tubdan takomillashtirish [13] vazifasi belgilangan bo‘lsa, «Raqamli prokuratura — 2030» strategiyasida davlat organlari axborot tizimlarida «raqamli nazorat» funktsiyasini joriy etish, «Raqamli prokuror» axborot tizimlari majmuasini va Bosh prokuraturaning yagona integratsiyalashuv platformasini ishga tushirish [14] ustuvor vazifa etib qo‘yilgan. Mazkur vazifalar maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim sohalarida prokuror nazoratini tashkil etishga oid qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni dolzarb etib belgilamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1) Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. 143–модда.

2) Guidelines on the Role of Prosecutors. Adopted by the Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, 27 August to 7 September 1990. – UN Doc. A/CONF.144/28/Rev.1. – P. 189. // https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/Guidelines_on_the_Role_of_Prosecutors.pdf

3) Guidelines on the Role of Prosecutors. Adopted by the Eighth United Nations Congress on the Prevention of Crime and the Treatment of Offenders, Havana, 27 August to 7 September 1990. – UN Doc. A/CONF.144/28/Rev.1. – P. 189. // https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/Guidelines_on_the_Role_of_Prosecutors.pdf

4) UNODC. The Status and Role of Prosecutors: A United Nations Office on Drugs and Crime and International Association of Prosecutors Guide. – Vienna: United Nations, 2014. – P. 1–25. // https://www.unodc.org/documents/justice–and–prison–reform/14–07304_ebook.pdf

5) International Association of Prosecutors. Standards of Professional Responsibility and Statement of the Essential Duties and Rights of Prosecutors. – 23 April 1999. // https://www.icj.org/wp–content/uploads/2014/03/IAP–Standards–of–professional–responsibility–duties–rights–prosecutors–instruments–1999–eng.pdf

6) Council of Europe. Recommendation Rec(2000)19 of the Committee of Ministers to member States on the role of public prosecution in the criminal justice

system. – Adopted 6 October 2000. // https://www.icj.org/wp–content/uploads/2014/10/CoE–rec200019–role–public–prosecution.pdf

7) UN Human Rights Council. The independence and impartiality of the judiciary, jurors and assessors, and the independence of lawyers. – Doc. A/HRC/20/19. – 7 June 2012. – Para. 25–30. // https://www.icj.org/wp–content/uploads/2014/03/UN–Human–Rights–Council–independence–of–the–judiciary–resolution–A–HRC–RES–23–6–2013–eng.pdf

8) Tomaševski K. Human Rights Obligations in Education: The 4–A Scheme. – Nijmegen: Wolf Legal Publishers, 2006. – P. 12–15.

9) Coomans F. Justiciability of the Right to Education // Erasmus Law Review. – 2009. – Vol. 2, No. 4. – P. 427–443.

10) Beiter K.D. The Protection of the Right to Education by International Law. – Leiden: Martinus Nijhoff Publishers, 2006. – P. 45–80.

11) Бердимуратова Г., Уразбоев М. Хорижий Мамлакатларда Прокурор Назорати // Жамият ва инновациялар. – Special Issue – 02 (2022). – ISSN 2181–1415. – Б. 355.

12) Бердимуратова Г., Уразбоев М. Хорижий Мамлакатларда Прокурор Назорати // Жамият ва инновациялар. – Special Issue – 02 (2022). – Б. 356.

13) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2026 йил 16 февралдаги «Мамлакат тараққиётининг 2030 йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-21-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 17.02.2026 й., 06/26/21/0145-сон.

14) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 ноябрдаги «Рақамли прокуратура – 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-204-сон Фармони // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 05.11.2025 й., 06/25/204/1013-сон.

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA PROKUROR NAZORATI: TAHLIL VA TAKLIF

Qurbonov Sobir Sultonovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda prokuratura organlari tomonidan maktabgacha ta’lim tizimida qonunchilik ijrosi ta’minlanishini nazorat qilish masalalari ochib beriladi. Ushbu sohada prokuror nazoratini takomillashtitish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar. maktabgacha ta’lim, maktabgacha ta’lim muassasalari, prokuror nazorati, qonuniylik.

O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatida maktabgacha ta’lim tizimida qonunchilik ijrosini ta’minlash masalasi alohida o‘rin egallaydi. Mustaqillik yillarida, ayniqsa 2017-yildan boshlab Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar doirasida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan qayta qurish, bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining tashkil etilishi, «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi Qonunning (O‘RQ-595, 16.12.2019-y.) qabul qilinishi, davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining joriy etilishi, «Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonning imzolanishi maktabgacha ta’lim sohasidagi islohotlarning izchil va tizimli xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tizimining jadal rivojlanishi va kengayishi bu sohada qonunchilik ijrosi ustidan prokuratura organlari tomonidan samarali nazorat o‘rnatish zaruratini qo‘ymoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida budjet mablag‘larini o‘zlashtirish, ulardagi sanitariya-gigiyena talablarining buzilishi, bolalar ovqatlanishi sifatining pasayishi, pedagog kadrlarning mehnat huquqlarining poymol etilishi, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatini ko‘payib borayotganligi ushbu sohada prokuror nazoratini yanada kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Ushbu paragrafda maktabgacha ta’lim muassasalarida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining nazariy asoslari, qonunchilik bazasi, amaliy holatini tahlil qilish, ushbu sohadagi prokuror nazoratini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Konstitutsiyaning 50-moddasining uchinchi va beshinchi qismlari belgilangan konstitutsiyaviy normalar maktabgacha ta’lim muassasalarida prokuror nazoratining konstitutsiyaviy huquqiy asosini tashkil qiladi [1]. «Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi» degan konstitutsiyaviy norma davlatning ijobiy majburiyatini, ya’ni maktabgacha ta’lim infratuzilmasini

rivojlantirish, moliyalashtirish, kadrlar bilan ta’minlash kabi masalalarda faol harakat qilish majburiyatini ko‘rsatadi. «Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat nazoratidadir» degan norma esa davlatning nazorat funksiyasini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlaydi. Bizningcha, Konstitutsiyaning ushbu normasi prokuror nazoratining maktabgacha ta’lim sohasidagi predmetini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi konstitutsiyaviy normalardan kelib chiqsak ushbu sohada prokuror nazorati quyidagi masalalarni qamrab olishi lozim: maktabgacha ta’lim muassasalarining davlat standartlariga muvofiqligi; bolalarning hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfsiz sharoitlarning yaratilganligi; pedagogik kadrlarning malaka talablariga javob berishi; bolalarni ovqatlantirish sifati va sanitariya normalariga rioya qilinishi. Ushbu yo‘nalishlarning keng qamrovliligi va muhimligi nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyati ustidan prokuror nazorati masalalari ham alohida tartibga solinish zaruratini taqozo etadi.

Konstitutsiyaning 44-moddasining ikkinchi qismi “bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi har qanday shakllari taqiqlanishini belgilaydi” [2]. Ushbu norma maktabgacha ta’lim muassasalarida prokuror nazoratining muhim konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. Bizningcha «aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi» iborasi keng ma’noda talqin qilish zarur, maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalar uchun yaratilgan sharoitlar, o‘yin-mashg‘ulotlar tartibi, bolalarga munosabat masalalariga ham taalluqlidir. Bizningcha, prokuror nazorati doirasida ushbu Konstitutsiyaning 44-moddasining maktabgacha ta’lim muassasalariga nisbatan tatbiq etilishi bo‘yicha aniq mezonlar ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Qayd etish zarurki, amaliyotda maktabgacha ta’lim muassasalari binolarining qonunsiz tarzda boshqa maqsadlarga o‘zlashtirilishi, ta’lim muassasalari uchun ajratilgan yer uchastkalarining maqsadsiz foydalanilishi holatlari uchramoqda. A.O.Isayeva esa maktabgacha ta’lim tarmog‘ini kengaytirish borasidagi muammolarga e’tibor qaratib: «Prokurorlar tomonidan... maktabgacha ta’lim tashkilotlarini noqonuniy qayta ixtisoslashtirish va begonalashtirish faktlari... aniqlanmoqda» [3] deb yozgan. Bu fikr O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim muassasalari binolarining maqsadsiz o‘zlashtirilishi holatlariga qarshi prokuror nazoratini kuchaytirish lozimligini ko‘rsatib beradi. Bizningcha, ushbu masalani maktabgacha ta’lim sohasidagi ahamiyati ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Prokuror nazorati doirasida maktabgacha ta’lim muassasalari binolarining qonuniy maqsadlarda foydalanilishini tekshirish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tizimida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dunyoda so‘nggi yillarda tadqiq etilayotgan muhim ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Xitoy olimlari Jin Huang va Cancan Xiong maktabgacha ta’lim qonunchiligining rivojlanishini tahlil etib, “davlat yetakchiligini mustahkamlash, bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni kafolatlash tamoyillarini maktabgacha ta’lim qonunchiligining asosiy prinsiplari sifatida ko‘rsatib o‘tganlar” [4]. Olimlar 2024-yilda Xitoy Xalq Respublikasining “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinishini tahlil

etib, qonunda xavfsizlik boshqaruvi, to‘lovlar va xarajatlar, moliyaviy mablag‘lar, sifat monitoringi masalalari bo‘yicha nazorat mexanizmlari batafsil ishlab chiqilganligini ko‘rsatib o‘tganlar. Xitoyning ushbu qonunida bog‘cha xodimlarining malaka talablariga rioya etilishi va bolalarning jismoniy xavfsizligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan. Bizningcha, Xitoy tajribasi O‘zbekiston uchun ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, maktabgacha ta’lim sohasida alohida qonunning mavjudligi prokuror nazorati predmetini aniqlash va uni amalga oshirishning huquqiy asosini mustahkamlashda ijobiy tajriba sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Jiang Yong, Zhang Beibei va boshqalar Xitoyning 2035-yilga qadar maktabgacha ta’limni rivojlantirish strategiyasini tadqiq etib, «aqlli bog‘cha» (intelligent preschool) konsepsiyasini ilgari surganlar” [5]. Ekspertlar ma’lumotlar bazalari va raqamli platformalar orqali ta’lim sifatini monitoring qilish, ota-onalar uchun shaxsiy kabinetlar yaratish kabi innovatsion yondashuvlarni taklif etganlar. Bizningcha, ushbu yondashuv O‘zbekistonda ham qo‘llanilishi mumkin, chunki nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish axborot tizimi (NMTTBAT) ma’lumotlariga tayanib prokuror nazorati tekshirishlar samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Bu o‘z navbatida qonuniylikni ta’minlash samaradorligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Zhang Xitoyda maktabgacha ta’lim siyosati islohotlarini kompleks tahlil qilib, “davlatning xususiy sektorni rivojlantirishni rag‘batlantirish bilan bir vaqtda sifat va xavfsizlik standartlarini qat’iy nazorat qilish zarurligini ko‘rsatgan” [6]. Muallif maktabgacha ta’lim muassasalarida «maktablashtirish» tendensiyasining oldini olish zaruligini ham alohida ta’kidlagan. Bizningcha, masalasi O‘zbekistonda ham nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni keskin oshayotgan bir sharoitda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi balansni ushlash, ularning sifat standartlariga rioya etishi ustidan prokuror nazoratini to‘g‘ri tashkil qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim sohasida prokuror nazoratining nazariy va amaliy jihatlari MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham keng tadqiq etilgan. I.R.Xromenkov va L.M.Rubanlar maktabgacha ta’lim sohasidagi prokuror nazoratining ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatib, quyidagilarni qayd etadilar: «Ta’lim sohasidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat, davlat va munitsipal ta’lim muassasalari tomonidan fuqarolarning maktabgacha, umumiy ta’limga bepul va ochiq kirimi huquqlarini... amalga oshirishini ta’minlash – bu voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, nazoratsizlik va huquqbuzarlikning oldini olishning muhim vositasidir» [7]. Shuningdek, mualliflar “Rossiya Federatsiyasining deyarli barcha subyektlarida prokurorlar tomonidan bog‘chalarda bolalarni qarash va parvarish uchun ota-onalardan noqonuniy to‘lov undirish holatlari aniqlanganligini, ota-onalar to‘loviga kiradigan xarajatlar ro‘yxatining noqonuniy kengaytirilganligini ta’kidlaganlar” [8]. Bu tajriba O‘zbekiston uchun ham dolzarb sanaladi. Har yili ushbu masala maktabgacha ta’lim muasasalarida ko‘tarilib ijtimoiy tarmoqlarda muhokama qilinadi.

Bizningcha, «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasi doirasida maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatida qonunchilik ijrosini nazorat qilish prokuror nazoratining alohida ustuvor yo‘nalishi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berildi. Bosh prokuraturaning tashkiliy-buyruqlarida maktabgacha ta’lim sohasida prokuror nazoratining alohida ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1) Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (янги таҳрирда). 2023 йил 1 майда қабул қилинган. – Тошкент, 2023. – 50-модда.

2) Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси (янги таҳрирда). – 44-модда.

3) Исаева А.О. Прокурорский надзор в сфере защиты прав несовершеннолетних // Аллея науки. – 2018. – Т. 4, № 6(22). – С. 695–701.

4) Huang, J., Xiong, C. Policy Review of Preschool Education Legislation in China // ECNU Review of Education. – 2025. – Vol. 8, No. 2. – P. 382–394.

5) Jiang, Y., Zhang, B., Zhao, Y., Zheng, C. China's Preschool Education Toward 2035: Views of Key Policy Experts // ECNU Review of Education. – 2022. – Vol. 5, No. 2. – P. 345–367.

6) Zhang J. Shaping the future: Analysing early childhood education policy reforms and development in China //European Journal of Education. – 2025. – Т. 60. – №. 1. – С. e70055.

7) Хроменков И.Р., Рубан Л.М. Актуальные проблемы организации прокурорского надзора в сфере образования // Электронный ресурс. – 2017. – С. 2.

8) Хроменков И.Р., Рубан Л.М. Кўрсатилган асар. – С. 3–4.

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

НАСИЛИЕ И МАССОВЫЕ УБИЙСТВА АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКОГО НАСЕЛЕНИЯ ЗАНГЕЗУРА, ОСУЩЕСТВЛЯВШИЕСЯ АРМЯНСКИМИ ВООРУЖЁННЫМИ ФОРМИРОВАНИЯМИ В 1918–1920 ГГ.: ИСТОРИКО-ДОКУМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Мурадов Намиг Вагиф оглы
независимый исследователь,
магистр по направлению 46.04.02
«Документоведение и архивоведение»,
член Молодежного совета
Общины Западного Азербайджана,
г. Баку, Азербайджан
ORCID: 0009-0008-3725-4975
E-mail: namiqmuradov999@gmail.

Аннотация: В тезисе рассматриваются массовые убийства, разрушение населённых пунктов и вынужденное перемещение азербайджанского населения Зангезура в 1918–1920 гг. На основе документов Чрезвычайной следственной комиссии АДР и дипломатической переписки анализируются демографические изменения в регионе.

Ключевые слова: Зангезур, азербайджанцы, АДР, 1918–1920 гг., архивные документы.

Введение

Распад Российской империи и события 1917 г. обострили межэтнические отношения на Южном Кавказе: Зангезурский уезд стал зоной вооружённого противостояния, разрушения селений и депортации населения.

Цель — критический анализ документальных свидетельств о насилии против тюрко-мусульманского населения Зангезура в 1918–1920 гг. на основе источниковедческого и сравнительно-исторического подходов.

Основные результаты исследования

Ключевой источник — материалы Чрезвычайной следственной комиссии (ЧСК) АДР: только за лето–осень 1918 г. в Зангезуре зафиксировано разрушение **115 мусульманских населённых пунктов**.

Комиссия фиксировала пол и возраст пострадавших: погибло и умерло от ран **3 257 мужчин, 2 276 женщин и 2 196 детей**, ранено — 1 060 мужчин, 794 женщины и 485 детей; совокупно подтверждено **10 068 жертв**.

Эти данные не окончательны за весь период, так как судьба многих лиц осталась неустановленной, что подтверждают и рапорты британских, и американских представителей.

Историко-демографические последствия

По посемейным спискам 1886 г. в Зангезурском уезде проживало 116 747 человек: **77 060 азербайджанцев (татар)** и 34 281 армянин — тюрко-мусульманское население составляло абсолютное большинство.

События 1918–1920 гг. разрушили эту структуру: гибель людей и массовое бегство надолго деформировали этническую карту уезда.

Научная новизна и практические рекомендации

Новизна работы — в сопоставлении материалов ЧСК АДР с документами зарубежных архивов. Практические шаги:

- Создание цифровой базы источников по Зангезуру.
- Карта разрушенных сёл и маршрутов беженцев.
- Публикация документов против искажений истории.

Заключение

Документы ЧСК АДР и дипломатические материалы подтверждают массовое насилие против азербайджанцев Зангезура в 1918–1920 гг., унёсшее тысячи жизней и уничтожившее 115 сёл; необходимы дальнейшие межархивные исследования.

Литература

1. Карабах–Зангезур: 1918 г. Азербайджанские погромы в документах: материалы Чрезвычайной следственной комиссии при правительстве Азербайджанской Демократической Республики. Баку, 2023.

2. Азербайджанская Демократическая Республика: 1918–1920. Документы и материалы. Баку, 1998.

5. British National Archives Documents on the History of the South Caucasus 1918–1920. Vol. 1. Baku: Turhan IPO, 2020.

8. Azerbaycan belgelerinde Ermeni sorunu: 1918–1920. Ankara: T.C. Başbakanlık Devlet Arşivleri Genel Müdürlüğü, Cumhuriyet Arşivi Daire Başkanlığı, 2001.

9. Пашаев А. А. Геноцид, депортация и территориальные претензии армян к азербайджанскому народу (XIX–XX вв.). Баку: Элм ве техсил, 2013.

10. Hovhannisyan L. Zangezur in U.S. State Department Documents (1919–1920). Historia i Świat. 2024. Vol. 13. P. 361–370. DOI: 10.34739/his.2024.13.21.

ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA DAVRIDA JANUBIY OROL BO‘YI XALQLARINING AHVOLI

Bekbaulieva Nasiba Barliqbay qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi, Nukus sh.

Аннотация: В статье рассматриваются исторические события, произошедшие в общественной, социально-экономической и культурной жизни населения Южного Приаралья во второй половине XIX века, в частности после захвата Россией земель Южного Приаралья в 1873 году. Анализируются причины возникновения недовольства среди населения региона в результате проводимой Российской империей колониальной политики. Места, где происходили народные выступления, подтверждаются научными и фактическимиматериалами.

Ключевые слова: Российская империя, Южное Приаралье, Хивинское ханство, каракалпаки, история, колониальная политика.

Abstract: The article examines the historical events that took place in the social, socio-economic, and cultural life of the population of the Southern Aral Sea region in the second half of the 19th century, particularly as a result of the Russian Empire’s conquest of the lands of the Southern Aral Sea region in 1873. The causes of growing discontent among the population of the region as a consequence of the colonial policy pursued by the Russian Empire are analyzed. The locations where popular uprisings took place are substantiated by scientific and factual evidence.

Keywords: Russian Empire, Southern Aral Sea region, Khiva Khanate, Karakalpaks, history, colonial policy.

XIX asrning ikkinchi yarmida, ya‘ni 1873-yilda Janubiy Orol bo‘yi yerlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi oqibatida xalqning ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy va madaniy hayotida o‘zgarishlar yuz berdi.

1873-yil yozida Xiva xoni bilan Rossiya protektorati to‘g‘risida shartnoma tuzilishi natijasida asosiy qoraqalpoq aholisining Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida yashagan qismi Rossiyaga qo‘shib olindi. Bir qancha vaqtdan keyinchalik Turkiston general-gubernatorligining Sirdaryo viloyati Amudaryo bo‘limi tashkil etildi.

Ammo 1873-yildan keyin ham Xiva hukumati xonlik ichida o‘z hokimiyatini to‘liq saqlab qoldi va aslida rus istilosidan faqat yutdi, chunki rus chorizmi timsolida ishonchli qo‘llab-quvvatlandi. Xiva butunlay rus chorizmining ta’sir doirasiga tushib qoldi va rus sanoat hamda moliya kapitali tomonidan ekspluatatsiya ob’ektiga aylandi. Istilodan keyingi chorizm Xiva xonligida mustamlakachilik hukmronligi va eng shafqatsiz milliy zulm rejimini o‘rnatdi. Amudaryo bo‘limida harbiy-zulmga asoslangan ma’muriy tartib va uning huquqlarini e’tiborsiz qoldirishda ayblanadi. Podshoh ma’muriyati ijrochilarga nisbatan talablarini qondirish uchun qurolli kuch ishlatgan. Masalan, 1874-yilda Chimboy urug‘ oqsoqollari aholi soni haqida

ma’lumot berishdan bosh tortganlarida, ularni qurolli otryadni qurshab olib, ma’muriyat talablarini bajarishga majbur qildi.

Davlat apparati butunlay rus amaldorlari, xiva xonligi va uning amaldorlari qo‘lida edi. Mahalliy aholi vakillari bo‘limning boshqaruv apparatiga kiritilmadi.

Chorizm va Xiva xonlari xalqni jaholatda saqlash maqsadida ona tili va yozuvning rivojlanishiga, maktablar va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarning ochilishiga to‘sqinlik qildilar. Chor ma’muriyati tomonidan mahalliy aholining turmushini yaxshilash uchun hech qanday chora ko‘rilmagan. Avvalgidek, Rossiyaga qo‘shilishdan oldingi kabi, Amudaryo bo‘limida va Xiva xonligida turli kasalliklar avj olgan, o‘lim darajasi yuqori bo‘lgan [1.40].

Rossiya imperiyasi bosib olingan xalqlarni sun’iy ravishda bir-biridan ajratish siyosatini amalga oshirdi, bu esa yaqqol ko‘rinib turdi. Qoraqalpoqlar butun hududni Rossiyaga qo‘shib olishni so‘ragan bo‘lsalar-da, Podsho Rossiyasi chap qirg‘oq qoraqalpoqlarini Xiva xonligi qo‘l ostida qoldirdi.

Rossiya imperiyasi hukumati Xiva xonlari kabi xalq ommasining zolimlarga qarshi chiqishidan qo‘rqib, milliy adovat siyosatini davom ettirdi. Biroq bu bilan mehnatkashlarning chiqishlarini to‘xtatib qo‘yish hukumatga qarshi chiqishning iloji bo‘lmadi. Og‘ir davlat soliqlari va yig‘imlari, milliy va ma’muriy iqtisodiy zulm, muntazam ocharchilik, mehnatkashlar o‘rtasida oziq-ovqat yetishmasligidan kelib chiqadigan kasalliklarning ko‘payishi mavjud tartib-qoidalardan aholining noroziligini kuchaytirib, chidasa bo‘lmaydigan ahvolga olib keldi.

Tarixchi professor K.Sariboev asarida aholining chorizmdan noroziligi soliq to‘lashdan va yer ishlarini bajarishdan bosh tortishi, ma’muriyat vakillariga hujum qilishi va hokazo harakatlari tadqiq qilinadi. Masalan, 1875-yilda Chimboy dehqonlari Sho‘raxon uchastkasiga kanallar tozalash uchun borishdan, 1882-yilda esa Sho‘rtomboy sug‘orish tarmog‘ida ishlashdan bosh tortadi.

Shu yili Sho‘raxan uchastkasining Tomdi volosti qo‘yboqarlari o‘tov yig‘imini ko‘paytirishga qarshi chiqdilar. Podsho ma’muriyatiga bu volost soliqni uzoq vaqtdan beri to‘lab kelardi. 1887-yildan 1891-yilgacha Baba Goklen boshchiligidagi bir guruh odamlar tomonidan podsho ma’muriyatining Saribiy va Nukus volostlari hududidagi vakillariga qarshi harakatlar olib borildi [2.32-33].

Tarixchi olim J. Ubbiniyazovning ta‘kidlashicha 1899-yil 6-martda Chimboy uchastkasining Talliq volosti dehqonlari ovul oqsoqolini saylash natijasidan norozi bo‘lib, ushbu volostda bo‘lganlarida uchastka boshlig‘i Kornilov va uning odamlariga hujum qilishdi [3.23].

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Rossiya imperiyasining olib borgan siyosati mahalliy aholi orasida bir qansha norozilik holatlarini keltirib chiqargan.

Amudaryo bo‘limi tashkil etilgan dastlabki yillarda rus ma’murlari bo‘limda iqtisodiy va siyosiy ahvolni mustahkamlashga intilib, bir qator tadbirlarni amalga oshirdilar. Masalan, 1875-yilda Qoraqalpoqlarga polkovnik Nosovich boshchiligidagi maxsus tashkiliy komissiya tomonidan dehqonchilik, yerdan foydalanish, soliqlar, hududiy-ma’muriy tuzilishga ruxsat berildi. Komissiya faoliyati natijasida bo‘limda chap qirg‘oqdagi diniy muassasalar va Xiva zodagonlarining vaqf mulklari tugatildi. Sho‘raxon uchastkasining 400 ming

desyatina yeri metropoliya mulkiga o‘tkazildi, Chimboy uchastkasining yerlari ham davlat mulki deb tan olindi, ularning bir qismi rasmiy sotish va sotib olish huquqi bilan aholiga biriktirildi.

Rossiya imperiyasi ma’murlari butun Rossiya bozorining paxtaga bo‘lgan ehtiyojini hisobga olib, paxta ekin maydonlarini kengaytirish choralarini ko‘rdilar. Paxta, beda ekinlarining ekin maydoni va ularning hosildorligi oshdi. Amudaryo bo‘limida 1891-yili 1220 desyatina yerga paxta ekilib, undan 13220 pud mahsulot yetishtirilgan bo‘lsa, 1906-yilda 4960 desyatina maydonga paxta ekilib, 400 ming pudga yaqin hosil yig‘ilgan. XX asrning oxirida Xiva xonligida paxtaning ekin maydoni barcha ekiladigan yerning 9 foizini egallagan bo‘lsa, XX asrning boshida u 15,8 foizga kengaygan. Paxtaning mahalliy naviga qaraganda Amerika navi ko‘proq rivojlandi. 1888-1906-yillar oralig‘ida bo‘limda paxtaning mahalliy navini ekish maydoni 1497 desyatinadan 2670 desyatinaga ko‘paydi, va shu yillar oralig‘ida amerikan navining ekin maydoni 2 desyatinadan 1840 desyatinaga ortdi.

Agar 1899-yilda bo‘limdan Rossiyaga 120 ming pud paxta ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1906-yilda 464 ming va 1911-yilda 665 ming pud paxta ishlab chiqarilgan [2.20].

Tarixchi B.V Luninnig xabar berishicha katta miqyosda, Xiva hukmronligi davridagidan ko‘ra, uy hunarmandchiligi: jun va paxta ishlab chiqarish rivojlangan qog‘oz, gazlama, palos, kigiz, o‘tovlar uchun gilam mahsulotlari, kanop, kendir va arqonlar tayyorlash o‘sti. XIX asr oxirida savdo ahamiyatiga ega bo‘lgan baliq ovlash kasbi eng ko‘p tarqalgan edi. Baliqchilik ruslarning asosiy mashg‘ulotiga aylandi. Dengiz bo‘yi viloyatlari aholisi – qoraqalpoqlar, qozoqlar va urallik ko‘chmanchi kazaklar, 1876-yildayoq aka-uka Vanyushinalar xarid qilish bo‘yicha korxona tashkil etishdi. Qo’ng’irotda baliq do‘konlari ochildi, Rossiyaga birinchi baliq partiyalari jo‘natila boshlandi [4.113].

XIX asr oxirida Nukus yaqinidagi Ko‘k qishlog‘ida 10 ta rus baliq sanoatchilari yashagan, ularda 60 ga yaqin urallik kazaklar va 300-400 qoraqalpoq baliqchilari yollanib ishlagan. XIX asr oxirida Orol dengizining butun baliq ovlash sanoati yirik Orenburg savdogari Makeev qo‘lida edi. Undan tashqari Qoraqalpog‘istondan baliqfurush aka-uka Gorshkovlar, Kirillin va Japdibeklar ham baliq sotib olishgan. Baliq mahsulotlari Kazalinskka, u yerdan esa Rossiyaning markaziy shaharlariga jo‘natilgan [5.234].

Tarixchi olim Ya.Dosumovnin tadqiqotlarida Xiva xonligida va Amudaryo bo‘limida yashovchi qishloq xalqlari O‘rta Osiyo, Qozog‘istonning boshqa joylaridagi kabi o‘troq va ko‘chmanchi bo‘lib ikkiga bo‘lingan. O‘troq xalqlarning ko‘pchiligi Sho‘raxon uchastkasiga joylashgan, Chimboy uchastkasining aholisi esa asosan yarim ko‘chmanchilar bo‘lgan. Xiva xonligi qo‘l ostidagi barcha aholining 90% dan ko‘prog‘i o‘troq, qolganlari esa ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi tarzida turmush kechirgan edi” [6.12].

1910-yilga kelib Qoraqalpog‘istonda yirik baliq sanoatchilari paydo bo‘ldi va baliqchilik sanoati jamiyatlari tashkil etildi. O‘sha yili astrxanlik va kavkazlik baliq sanoatchilarini birlashtirgan “Xiva” aksiyadorlik jamiyati tuzildi. Orolning sharqiy qirg‘og‘ida ming nafar ovchiga ega kamida 30 ta baliqchilik korxonasi vujudga

keldi, Orolning janubida esa baliq qabul qilish punktlari va muzxonalar soni ko’paydi. Baliqchilik va yuk qayiqlari, baliq ovlash anjomlari ko‘paydi. 1888-yilda 500 ta baliq ovlash va yuk tashish korxonasi mavjud edi.

1911-yilda esa 620 ta qayiq, shundan 195 tasi dengizning janubida, 314 tasi daryoda baliq ovlash uchun ishlatilgan. To‘rlar, silliq to‘rlar, tuzoqlar, qamoqxonalar soni 1911-yilda 13 020 taga yetdi, ya’ni 1911-yildagiga qaraganda to‘rt baravar ko‘p edi. 1887-yilda baliqchilar soni 1903-yildagi 914 tadan 1913-yilda 2636 taga yetdi. Baliq ovlash 1909-yildagi 149 449 puddan 1913-yilda 669,1 ming pudgacha ko‘paydi [6.25].

Ruslar bilan bir qatorda qoraqalpoq baliq sanoatchilari ham paydo bo‘ldi. Masalan, XX asr boshlarida mo‘yten urug‘idan bo‘lgan, ko‘plab baliq ovlash qayiqlari va anjomlariga egalik qilgan Lepesboy ismli baliq sanoatchisi ma’lum edi. Lepesboyning 1916-1917-yillarga oid kirim va chiqim daftaridan ma’lum bo‘lishicha, baliq sanoatchilari baliqchilarga baliq ovlash anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari (shakar, choy), paxta matolarini qarzga berib, evaziga baliq bilan haq olgan, qolaversa, bu qarzlar uchun baliqchilardan katta foizlar undirib olingan, – deb qoraqalpoq baliqshi savdogarlarning ham o’rnini ko‘rsatib o‘tadi K.Jamalov o‘zining da’la yozuvlarida [7].

Keyinchalik 1915-yilda Lepes Joldas o‘g‘li Chimboy uchastkasining Ishim volostining volost boshqaruvchisi lavozimiga uch yillik muddatga saylanganligi va Rossiya imperiyasi qulagunga qadar ushbu lavozimni egallab turganligi haqida tarixchi olim Z.Saparov tadqiqot ishida keltirib o‘tilgan [8].

XIX asrning 70–80-yillarida mehnatkashlar o‘z vakillari orqali Amudaryo bo‘limi boshlig‘i nomiga Podsho va xon ma’muriyatining volost hamda boshqa mansabdor shaxslari tomonidan qilinayotgan zulmlar va noqonuniy xatti-harakatlar haqida ko‘plab shikoyatlar yozganlar. Mehnatkashlar bu shikoyat va arizalarning e’tiborsiz qolayotganiga ishonch hosil qilgach, asta-sekin faol harakatlarga o‘ta boshladilar. Jumladan, 1876-yil fevral oyida Sho‘raxon uchastkasining Xo‘jayor qishlog‘i aholisi jamoa bo‘lib Amudaryo bo‘limi boshlig‘i Ivanovning idorasiga kelib, ularni har yilgi irrigatsiya majburiyatidan ozod qilishni talab qilganlar.

Xalqning Rossiya imperiyasi zulmiga qarshi nafrati oshib borada va har xil joylarda norozilik namoyishlari vujudga kela boshlaydi. XX asr boshlarida, ayniqsa 1905-yil arafasida qoraqalpoq xalqining kurashi shu qadar jiddiy tus oldiki, Podsho ma’murlari ovullardagi xalq ommasining bir qator chiqishlarini “mavjud tartibga qarshi jinoyat“ deb baholaydilar. Bu “jinoyatlarni“ sodir etgan asosiy kuchlar shafqatsiz ijtimoiy va milliy-mustamlaka zulmiga uchragan dehqonlar, baliqchilar edi.

Amudaryo bo‘limi boshlig‘i 9-yanvar voqealari haqidagi xabarni olishi bilanoq, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qo‘zg‘olonlarni bostirish uchun harakatlar rejasini ishlab chiqadi. 1905-yil 14-yanvarda bo‘lim boshlig‘i polkovnik Susanin Petro-Aleksandrovsk harbiy garnizoni bo‘yicha maxfiy buyruq chiqaradi. Buyruqda aytilishicha, chaqirilgan taqdirda Petro-Aleksandrovsk garnizoni qo‘shinlari trevoga bo‘yicha quyidagilarga amal qilishlari kerak edi: shaharni, mahalliy xazinani, o‘q-dori omborini, pochta-telegraf idorasini, shahar qamoqxonasini mudofaa qilish,

mahbuslar orasida tartibsizliklar yuzaga kelgan taqdirda qorovulga yordam berish bo‘yicha topshiriqlar beriladi [9].

Professor Ya.M.Dosumovning ma’lumotlariga ko‘ra, birinchi rus inqilobi yillarida Amudaryo flotiliyasida bolshevik A.L.Timoshenko ishlagan [10.12]. 1906-yilda Petro-Aleksandrovskka surgun qilingan o‘n nafar siyosiy mahbus keldi. Podsho Rossiyasi hukumatiga qarshi chiqqan bir qancha siyosiy mahbuslar bu yerlarga surgun etilib turgan.

Janubiy Orol bo‘yi qoraqalpoqlarning Rossiya imperiyasi musamlakachiligi davridagi tarixini o‘rganishda arxiv hujjatlari, ular orasida Xiva xonligi va Amudaryo bo‘limiga doir ma‘lumotlar o‘lkaning iqtisodiy va ma’naviy hayotiga taalluqli, shuningdek, aholidan olinadigan soliq va majburiyatlarning bajarilishiga, yer masalalariga, dehqonchilikka oid ma’lumotlar alohida e’tiborga molik bo‘lib, ular qo‘zg‘olonlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sabablarini o‘rganishda katta ahamiyatga ega.

ADABYOTLAR:

1. Нурмухамедов М.К., Жданко Т.А., Камалов С.К. Каракалпаки. – Ташкент: Фан, 1971.

2. Сарыбаев Қ. Қарақалпақстанда жер-суў қатнасықлары тарийхынан. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1965.

3. Уббнннязов Ж. Қарақалпақстан биринши рус революциясы жылларында. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1966.

4. Лунин Б.В. К описанию народного промысла каракалпаков // Вестник ККФАНРУз. – Нукус, 1968. – №3-4.

5. Очерки истории Каракалпакской АССР (с древнейших времен до 1917 г.). Т. 1. – Ташкент: Наука, 1964.

6. Досумов Я.М. Очерки истории Каракалпакской АССР (1917-1927 гг.). – Ташкент: Изд. УзССР, 1960.

7. Jamalov K. Dala yozuvlari // O‘zRFA Qoraqalpog‘iston filiali kutubxonasining qo‘lyozmalar bo‘limi.

8. Saparov Z.S. Quyi Amudaryo mintaqasidagi mahalliy boshqaruvchilar va xalq botirlarining tarixi (XIX asr oxiri XX asr boshlari): Tar. fan. fals. d-ri (PhD). … diss. avtoref. – Nukus, 2026.

9. Уббиниязов Ж. Борьба Каракалпакского народа против социального и национально-колониального угнетения (конец XIX – начало XX в.): Автореф. дисс. … канд. ист. наук. – Нукус, 1969.

10. Досумов Я.М. Установление Советской власти в Каракалпакии. – Нукус, Каракалпакское государственное изд-во, 1957.

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

MARKAZIY OSIYODA “YUMSHOQ KUCH’NING SIYOSIY-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI

Azimova Zahroxon Alisher qizi
Pedagog-tadqiqotchi.
zahroazimova621@icloud.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda zamonaviy xalqaro munosabatlar va mintaqaviy siyosiy jarayonlarda "yumshoq kuch" konsepsiyasining nazariy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Markaziy Osiyo davlatlarida so'nggi yillarda shakllangan yangi siyosiy muloqot muhiti, madaniy-gumanitar aloqalar, ta'lim, turizm hamda jamoatchilik diplomatiyasining mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi institutsional xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yumshoq kuch, mintaqaviy diplomatiya, Markaziy Osiyo, siyosiy institutlar, madaniy-gumanitar hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik, Maslahat uchrashuvlari.

Hozirgi globallashuv va geosiyosiy transformatsiyalar davrida davlatlarning tashqi siyosiy ta'sir o'tkazish vositalari sezilarli o'zgarishga uchramoqda. An'anaviy "qattiq kuch" omillari bilan bir qatorda, mamlakatlarning madaniyati, qadriyatlari, ilm-fani, ta'lim tizimi va tashqi siyosiy jozibadorligiga asoslangan "yumshoq kuch" mexanizmlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasida so'nggi yillarda kuzatilayotgan tub o'zgarishlar, yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilishi va davlat rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy diplomatiyaning yangi qiyofasini yaratdi Masalan, Markaziy Osiyo mintaqasi yagona tarixiy-madaniy makon bo'lib, bu yerda yumshoq kuchning eng asosiy resursi xalqlarning asriy birodarligi, umumiy diniy-axloqiy qadriyatlari va tillarning yaqinligidir. Avvalo, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy diplomatiyaning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida shakllanmoqda. 2018-yildan boshlab muntazam tashkil etib kelinayotgan mazkur uchrashuvlar davlat rahbarlari o‘rtasida bevosita siyosiy muloqotni rivojlantirish, umumiy muammolarni muhokama qilish va o‘zaro manfaatli tashabbuslarni ilgari surish imkonini bermoqda. Ushbu mexanizmning muhim jihati shundaki, u mintaqadagi siyosiy ishonchni mustahkamlash bilan bir qatorda, davlatlar o‘rtasidagi mavjud masalalarni muzokara va kelishuv asosida hal etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, Maslahat uchrashuvlarini siyosiy institutlarning rivojlanish shakli va mintaqaviy diplomatiya va xalqaro munosabatlarning yangi institutsional mexanizmi sifatida baholash mumkin. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda Maslahat uchrashuvlari, turizm va xalq diplomatiyasi, ta’lim va ilmiy hamkorlik hamda madaniy-gumanitar almashinuvlar bir-birini to‘ldiruvchi institutsional mexanizmlar sifatida shakllanmoqda. Ularning umumiy xususiyati shundaki, mazkur mexanizmlar

majburlash yoki bosimga emas, balki o‘zaro manfaat, ishonch, jozibadorlik va muloqotga asoslanadi. Shu sababli ular Markaziy Osiyo davlatlarining yumshoq kuch salohiyatini shakllantirish va mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishning muhim vositalari sifatida baholanishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkin-ki, yumshoq kuchning samaradorligi davlatning boshqa subyektlarni majburlash yoki moddiy rag‘batlantirish orqali emas, balki o‘zining jozibadorligi, qadriyatlari, madaniyati va siyosiy yondashuvlari orqali hamkorlikka jalb eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyo sharoitida yumshoq kuchni faqat davlat imijining shakllanishi bilan cheklab qo‘yilmagan. U davlatlar o‘rtasidagi ishonchni oshirish, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi aloqalarni kengaytirish hamda umumiy mintaqaviy manfaatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi siyosiy-kommunikativ resurs sifatida namoyon bo‘ladi. Agar mazkur jarayon institutsional mexanizmlar bilan mustahkamlansa, yumshoq kuchning ramziy ta’siri amaliy siyosiy natijalarga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, Markaziy Osiyoda yumshoq kuchning istiqboli uning alohida madaniy yoki diplomatik tashabbuslar yig‘indisi sifatida emas, balki siyosiy institutlar, jamiyatlar va transmilliy aloqalarni birlashtiruvchi kompleks mexanizm sifatida shakllanishi bilan belgilanadi. Bunday yondashuv yumshoq kuchning mintaqaviy xavfsizlik, o‘zaro ishonch va barqaror taraqqiyot jarayonlariga ta’sirini yanada chuqurroq tadqiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
2. Central Asia Regional Economic Cooperation (CAREC). Regional Integration Outlook Reports.
3. Saidov S.Sh. “Yumshoq kuch” fenomeni va uning O‘zbekiston tashqi siyosatidagi ayrim jihatlari. — 2020.
4. Saidov S.Sh., Ergasheva G.Q. Xalq diplomatiyasi – Markaziy Osiyo hamkorligining muhim faktori.
5. Jumaqulov T. Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya jarayonlari: siyosiy-institutsional tahlil. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023.

CITIZEN PARTICIPATION AND INCLUSIVE GOVERNANCE: WHAT UZBEKISTAN CAN LEARN FROM SOUTH KOREA AND GERMANY

Rajabova Maftuna Ikrom qizi
Senior Lecturer at the Uzbekistan State World Languages University,
Doctor of Philosophy in Political Science (PhD)

ABSTRACT. This thesis compares the legal and institutional foundations of inclusive governance in the Republic of Uzbekistan with the experience of the Republic of Korea and the Federal Republic of Germany.

KEYWORDS: inclusive governance, citizen participation, public oversight, e-participation, participatory budgeting.

Today, the effectiveness of public governance is determined not only by the performance of state institutions but also by the extent to which citizens and civil society organizations participate in shaping and implementing public decisions. Globalization, social diversity, and the spread of digital technologies have made it increasingly important for governments to take the interests of different social groups into account, to ensure their political representation, and to involve them in decision-making processes. From this perspective, inclusive governance has become one of the modern approaches aimed at improving the relationship between the state and society, broadening citizens' role in governance, and ensuring equal opportunities.

Regardless of a person's origin or socio-economic status, inclusive governance is understood as a decision-making system in which all stakeholders have the opportunity to voice their views in shaping policies, laws, and institutional practices[1]. It ensures fair representation for different groups within governing structures, equal access to resources, and their active participation. This thesis analyzes how these principles have taken shape in Uzbekistan and compares them with the experience of the Republic of Korea and Germany.

The formation of inclusive-governance principles in Uzbekistan can be traced back to the early years of independence. On 26 September 1992, the draft Constitution of the Republic of Uzbekistan was submitted for nationwide discussion; the constitutional commission received nearly 600 letters containing more than 5,000 proposals, and a revised draft incorporating many of these proposals was submitted for a second round of public discussion on 21 November[2]. This process reflected the direct involvement of the population in shaping the country's fundamental legal document and marked an early expression of openness and public participation in Uzbekistan's governance system. A further legal foundation was laid by the 1997 Law “On Guarantees and Freedom of Access to Information,” which guaranteed citizens' right to freely seek, receive, and disseminate information about state activities[3].

Since then, institutional mechanisms have expanded considerably. The e-participation section of the Government portal, the President's Virtual Reception, and platforms such as “My Opinion,” “Public Control,” and “Open Budget” allow citizens to discuss draft legal documents, submit collective appeals, and take part in budget allocation. The 2018 Law “On Public Control” formalized public discussion, public hearings, monitoring, and expert review as institutional forms of citizen oversight[4], while a 2021 presidential resolution strengthened participatory budgeting through the “Open Budget” portal[5].

Comparing these mechanisms with international experience highlights their distinctive features. The Republic of Korea operates a similar function through its e-People platform, which integrates more than 900 central and local government agencies into a single system and guarantees a ministerial-level response to petitions that receive sufficient public support[6]. In this respect, Uzbekistan and the Republic of Korea share a common pattern: participation in both countries is institutionalized mainly through a single, state-initiated digital platform.

Germany illustrates a different institutional path. Its “Bürgerrat Demokratie” (Citizens' Assembly on Democracy) initiative involves randomly selected citizens in deliberation on matters of public governance and is organized and funded by civil-society organizations; this experience later led the Bundestag itself to organize an official citizens' assembly[7]. Unlike the state-led digital model found in Uzbekistan and the Republic of Korea, this represents a civil-society-driven institutional approach. The comparison suggests that Uzbekistan's public councils and e-participation platforms remain closer to a top-down model, while independent, civil-society-led deliberative institutions of the kind seen in Germany are still underdeveloped.

The social dimension of inclusive governance is further reinforced through mechanisms aimed at gender equality: the 2019 Law “On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men”[8] and the 2025 presidential decree setting a target of 40 percent female representation in the civil service by 2030[9] exemplify this direction.

Nevertheless, the existence of these institutional and legal mechanisms does not automatically guarantee inclusive outcomes in practice. As the OECD has observed, there is no automatic causal relationship between inclusiveness as a process (who participates and how) and inclusiveness as an outcome (how equitably resources and opportunities are distributed)[1]. The Korean and German cases confirm this: what matters is not merely the form of an institution — a digital platform or a citizens' assembly — but its actual influence on final decisions. Accordingly, the practical effectiveness of Uzbekistan's participatory mechanisms, rather than their formal existence, should become a central focus of monitoring and evaluation research.

In conclusion, the legal and institutional foundations of inclusive governance in Uzbekistan have developed step by step since independence, through the Constitution, legislation, and presidential decrees and resolutions. The comparative analysis with the Republic of Korea and Germany indicates that Uzbekistan's

participatory mechanisms are closer to a state-led digital model, while developing independent, civil-society-based deliberative institutions represents a promising direction for further reform. Strengthening the practical impact of existing mechanisms on actual policy decisions is essential for advancing inclusive governance in Uzbekistan.

REFERENCES:

1. OECD (2020). What does “inclusive governance” mean? Clarifying theory and practice. OECD Development Policy Papers, No. 27. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/960f5a97-en

2. Konstitutsiyamizning yaratilishi [The making of our Constitution, electronic resource] https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi

3. Law of the Republic of Uzbekistan No. 400-I of 24.04.1997 [electronic resource] https://lex.uz/docs/-1319

4. Law of the Republic of Uzbekistan No. O‘RQ-474 of 12.04.2018 [electronic resource] https://lex.uz/uz/docs/-3679092

5. Presidential Resolution of the Republic of Uzbekistan No. PQ-5250 of 22.09.2021 [electronic resource] https://test.lex.uz/en/docs/-5651405

6. Participedia. e-People Citizens’ Relation Management Platform (South Korea) [electronic resource] https://participedia.net/case/1233

7. Citizen Deliberation in Germany: Lessons from the ‘Bürgerrat Demokratie’ // West European Politics. Taylor & Francis, 2022.

8. Law of the Republic of Uzbekistan No. O‘RQ-562 of 02.09.2019 [electronic resource] https://test.lex.uz/uz/docs/-4494849

9. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-95 of 19.06.2025 [electronic resource] https://lex.uz/uz/docs/-7587464

MARKAZIY OSIYODA “YASHIL” IQTISODIYOT VA IQLIM DIPLOMATIYASINING SIYOSIY MEXANIZMLARI

Azimova Zahroxon Alisher qizi
Pedagog-tadqiqotchi.
zahroazimova621@icloud.com

Annotatsiya; Mazkur tezisda Markaziy Osiyoda “yashil” iqtisodiyot va iqlim diplomatiyasining mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi siyosiy-institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslari tanqisligi, cho‘llanish, muzliklarning qisqarishi, ekologik degradatsiya va energetik xavfsizlik masalalarining transchegaraviy xususiyat kasb etayotgani mintaqa davlatlari o‘rtasida hamkorlikni yangi siyosiy kun tartibiga olib chiqmoqda. Tadqiqotda “yashil” iqtisodiyot konsepsiyasi ekologik muammolarni hal qilish vositasi sifatidagina emas, balki iqtisodiy, energetik, ekologik va inson xavfsizligini o‘zaro bog‘lovchi siyosiy mexanizm sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, “yashil” iqtisodiyot, iqlim diplomatiyasi, mintaqaviy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, suv diplomatiyasi, energetik xavfsizlik, Orolbo‘yi, iqlim o‘zgarishi, siyosiy-institutsional mexanizmlar.

XXI asrda xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik tushunchasi an’anaviy harbiy xavfsizlik doirasidan chiqib, iqtisodiy, ekologik, energetik, oziq-ovqat va suv xavfsizligini ham qamrab olmoqda. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishi davlatlararo munosabatlarning iqtisodiy va siyosiy parametrlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omilga aylanmoqda. Bu holat tabiiy resurslar cheklangan, transchegaraviy daryolar mavjud bo‘lgan va iqlim o‘zgarishiga yuqori darajada ta’sirchan bo‘lgan Markaziy Osiyouchun alohida ahamiyatga ega.

Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekistonni qamrab oluvchi Markaziy Osiyo mintaqasida suv, energetika, qishloq xo‘jaligi va ekologik tizimlar o‘zaro chambarchas bog‘langan. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqada iqlim o‘zgarishi suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, qurg‘oqchilik, suv toshqinlari va boshqa tabiiy xavflarni kuchaytirmoqda. Qishloq xo‘jaligi esa chuchuk suvdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Shu sababli suv va energetika masalalarini alohida emas, balki yagona o‘zaro bog‘liq tizim sifatida boshqarish zarurati kuchaymoqda.

Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishining xavfsizlikka ta’siri, avvalo, suv resurslari bilan bog‘liq. Mintaqaning yuqori oqimida joylashgan Qirg‘iziston va Tojikiston suv-energetika resurslari jihatidan muhim o‘rin tutsa, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonning ayrim hududlari irrigatsiya va qishloq xo‘jaligi uchun suv resurslariga yuqori darajada bog‘langan. Mazkur o‘zaro bog‘liqlik suv, energetika va oziq-ovqat xavfsizligini bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan “yashil” iqtisodiyot va iqlim diplomatiyasi Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning tor doirasidan chiqib, mintaqaviy xavfsizlikni

ta’minlashning siyosiy-institutsional vositasiga aylanmoqda. “Yashil” iqtisodiyotkonsepsiyasi zamonaviy barqaror rivojlanish paradigmasiningmuhim tarkibiy qismlaridan biridir. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) “yashil” iqtisodiyotni inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash bilan birga ekologik xavflar va tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytiradigan iqtisodiy tizim sifatida izohlaydi. Uning asosiy xususiyatlari kam uglerodli rivojlanish, resurslardan samarali foydalanish va ijtimoiy inklyuzivlikdan iborat. Shundan kelib chiqib, “yashil” iqtisodiyot faqat qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy ishlab chiqarish, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, shaharsozlik, chiqindilarni boshqarish va investitsiya siyosatini ekologik mezonlar asosida qayta tashkil etishni anglatadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgani va mintaqadagi asosiy daryo havzalari, irrigatsiya tizimlari hamda Orolbo‘yi hududi bilan bevosita bog‘liqligi sababli iqlim diplomatiyasida muhim o‘rin egallaydi. O‘zbekistonning ekologik diplomatiyasida Orolbo‘yi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Orol fojiasining oqibatlari faqat O‘zbekiston hududi bilan cheklanmay, butun Markaziy Osiyo ekologik tizimiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois Orolbo‘yi muammosining xalqaro va mintaqaviy kun tartibiga olib chiqilishi O‘zbekistonning ekologik diplomatiyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston uchun iqlim diplomatiyasining yana bir muhim jihati — Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi siyosiy ishonchni mustahkamlashdir.

Iqlim, suv va ekologiya masalalarida muntazam muloqot davlatlar o‘rtasidagi boshqa siyosiy va iqtisodiy yo‘nalishlardagi hamkorlik uchun ham institutsional zamin yaratishi mumkin. Markaziy Osiyoda “yashil” iqtisodiyot va iqlim diplomatiyasini yanada rivojlantirish uchun mavjud siyosiy institutlarni kuchaytirish bilan birga yangi mexanizmlarni shakllantirish zarur.

Markaziy Osiyoda iqlim o‘zgarishi ekologik muammo doirasidan chiqib, mintaqaviy xavfsizlikning ko‘p o‘lchovli omiliga aylanmoqda. Suv tanqisligi, muzliklarning qisqarishi, cho‘llanish, Orolbo‘yi ekologik inqirozi, energetik ehtiyojlar va oziq-ovqat xavfsizligi bir-biri bilan chambarchas bog‘langan. Shu nuqtayi nazardan “yashil” iqtisodiyot va iqlim diplomatiyasini mintaqaviy xavfsizlikning siyosiy-institutsional mexanizmi sifatida tadqiq etish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mazkur mexanizmning asosiy elementlarini davlatlararo siyosiy muloqot, suv diplomatiyasi, energetik hamkorlik, qayta tiklanuvchi energiya, iqlim moliyasi, ekologik monitoring, ilmiy-texnik hamkorlik va xalqaro institutlar bilan sheriklik tashkil etadI.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, CAREC mexanizmlari, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi, suv-energetika dasturlari hamda 2026-yilda shakllangan yangi mintaqaviy ekologik hamkorlik tashabbuslari ushbu jarayonning institutsional asoslarini kengaytirmoqda. 2026-yilgi Regional Ekologik sammitda aylanma iqtisodiyot, muzliklar, bioxilma-xillik va havo ifloslanishi bo‘yicha yangi mintaqaviy sherikliklarning ilgari surilgani ham ekologik masalalarning mintaqaviy siyosiy kun tartibida tobora yuqori o‘rin egallayotganini ko‘rsatadi. Maqolaning ilmiy jihatdan asosiy xulosasi shundan iboratki, Markaziy

Osiyoda “yashil” iqtisodiyot va iqlim diplomatiyasi ekologik muammolarni boshqarishning alohida siyosati emas, balki mintaqaviy xavfsizlikning iqtisodiy, energetik, suv, ekologik va inson xavfsizligi komponentlarini o‘zaro bog‘lovchi kompleks siyosiy-institutsional tizim sifatida shakllanmoqda. Bunda kelgusida mintaqaviy iqlim siyosatini milliy strategiyalar bilan uyg‘unlashtirish, umumiy iqlim ma’lumotlari tizimini yaratish, transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarish, yashil investitsiyalarni muvofiqlashtirish va qo‘shma ekologik loyihalarni ko‘paytirish Markaziy Osiyoda uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashning muhim shartlari bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. UNEP. What is an Inclusive Green Economy? United Nations Environment Programme.

2. UNEP. Green Economy. United Nations Environment Programme.

UNFCCC.

3. Nationally Determined Contributions (NDCs). United Nations Framework Convention on Climate Change.

4. UNFCCC. Nationally Determined Contributions under the Paris Agreement: Synthesis Report by the Secretariat. 2024.

5. UN ESCAP. Water for all: How far has North and Central Asia advanced on SDG 6? 2026.

6. UN ESCAP. The Aral Sea, Central Asian Countries and Climate Change in the 21st Century. 2022.

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV BOSHQARUVNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Rajabova Maftuna Ikrom qizi
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA: ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv boshqaruvning normativ-huquqiy va institutsional asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat siyosiy tizimida inklyuziv boshqaruvni shakllantirish va takomillashtirishga alohida urg‘u beriladi.

KALIT SO‘ZLAR: inklyuziv boshqaruv, davlat siyosiy tizimi, fuqarolarning ishtiroki, jamoatchilik nazorati, elektron ishtirok.

XXI asrda zamonaviy davlat boshqaruvining samaradorligi nafaqat davlat institutlarining faoliyati, balki fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlarining davlat qarorlarini shakllantirish hamda amalga oshirish jarayonlaridagi ishtiroki bilan ham belgilanmoqda. Globallashuv, ijtimoiy xilma-xillik va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi davlat boshqaruvida turli ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini hisobga olish, ularning siyosiy jarayonlardagi vakilligini ta’minlash va qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb etish masalasini yanada dolzarb qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv boshqaruv davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni takomillashtirish, fuqarolarning boshqaruvdagi ishtirokini kengaytirish hamda teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda[1].

Inklyuziv boshqaruv kelib chiqishi, o‘ziga xosligi yoki ijtimoiy-iqtisodiy maqomidan qat’i nazar, barcha manfaatdor tomonlar siyosat, qonunlar va institutsional amaliyotlarni shakllantirishda o‘z fikrini bildirish imkoniyatiga ega bo‘lgan qarorlar qabul qilish tizimidir[1]. U boshqaruv tuzilmalarida turli guruhlarning adolatli vakilligini, resurslardan teng va adolatli foydalanish imkoniyatini hamda ularning faol ishtirokini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda inklyuziv boshqaruv tamoyillarining shakllanishi mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarning davlat boshqaruvi va huquqiy jarayonlardagi ishtirokini ta’minlashga qaratilgan amaliy jarayonlarda namoyon bo‘ldi. Xususan, 1992-yil 26-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasi umumxalq muhokamasiga e’lon qilindi. Muhokamalar davomida fuqarolarning taklif va fikr-mulohazalari yig‘ildi: Konstitutsiyaviy komissiyaga qariyb 600 ta xat kelib tushib, takliflar soni 5 mingdan oshdi. Loyiha 21-noyabr kuni takomillashtirilgan holda ikkinchi marta umumxalq muhokamasiga qo‘yildi va fuqarolar tomonidan bildirilgan ko‘plab takliflar uning yangi variantida o‘z aksini topdi[2]. Mazkur jarayon aholining davlatning asosiy huquqiy hujjatini

shakllantirishdagi bevosita ishtirokini ta’minlagan bo‘lib, O‘zbekistonda inklyuziv boshqaruvning jamoatchilik ishtiroki, fikrlar xilma-xilligini hisobga olish va davlat qarorlarining ochiqligi kabi muhim tamoyillari shakllanganini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda inklyuziv boshqaruvning ayrim tamoyillari mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab normativ-huquqiy jihatdan shakllana boshladi. Xususan, 1997-yil 24-apreldagi 400-I-son “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonun fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish, tadqiq etish, uzatish va tarqatish huquqini kafolatladi[3]. Mazkur huquqiy me’yorlar davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash hamda fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida xabardor va faol ishtirok etishi uchun huquqiy zamin yaratib, inklyuziv boshqaruvning dastlabki normativ asoslaridan birini shakllantirdi.

Inklyuziv boshqaruvning zamonaviy institutsional mexanizmlari raqamli texnologiyalar asosida fuqarolarning davlat boshqaruvi jarayonlaridagi ishtirokini kengaytirish bilan ham tavsiflanadi. O‘zbekiston Respublikasi hukumat portalining “Elektron ishtirok” bo‘limida fuqarolar va tadbirkorlik vakillarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini muhokama qilish va ularga takliflar kiritish, jamoaviy murojaatlar yuborish hamda budjet mablag‘larini taqsimlash jarayonida ishtirok etish imkoniyatlari belgilangan. Shuningdek, Prezident Virtual qabulxonasi, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portali, “Mening fikrim”, “Xalq nazorati” va “Ochiq budjet” kabi elektron platformalar davlat organlari bilan fuqarolar o‘rtasidagi muloqot va qayta aloqa mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda[4].

Ijtimoiy guruhlarning jamiyat va davlat hayotida ishtirok etishi uchun huquqiy shart-sharoitlarning yaratilishi ularning davlat boshqaruvi jarayonlarida ishtirokini ta’minlash mexanizmlari bilan ham to‘ldiriladi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni inklyuziv boshqaruvning muhim institutsional-huquqiy asoslaridan biridir. Mazkur Qonun davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish tartibini belgilab, jamoatchilik muhokamasi, jamoatchilik eshituvi, monitoringi, ekspertizasi va jamoatchilik fikrini o‘rganish kabi ishtirok shakllarini nazarda tutadi[5].

Jamoatchilik nazoratining huquqiy mexanizmlari bilan bir qatorda fuqarolarning davlat mablag‘larini taqsimlash jarayonidagi bevosita ishtirokini ta’minlash ham inklyuziv boshqaruvning muhim yo‘nalishidir. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentyabrdagi PQ-5250-son qarori muhim ahamiyatga ega. Mazkur qaror bilan “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish va fuqarolarni budjet jarayoniga faol jalb etish mexanizmlari kengaytirildi[6]. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmoni davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini oshirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biridir[7].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasida ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarning huquqlari davlat himoyasida ekani hamda ularning jamiyat

va davlat hayotida to‘laqonli ishtirok etishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlatning vazifasi sifatida belgilangan[8]. 2023-yilda yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi loyihasining ishlab chiqilishi va umumxalq muhokamasiga qo‘yilishi fuqarolarning davlatning asosiy siyosiy-huquqiy hujjatini shakllantirishdagi ishtirokining muhim ko‘rinishlaridan biri bo‘ldi[9]. Shuningdek, Prezidentning 2024-yil 19-fevraldagi PQ-75-son qarori normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda fuqarolik jamiyati va ilmiy hamjamiyat vakillarining ishtirokini kengaytirishni nazarda tutadi[10].

Davlat boshqaruvida inklyuzivlikni ta’minlash turli ijtimoiy guruhlarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi vakilligi va teng imkoniyatlarini kengaytirish bilan chambarchas bog‘liq. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va siyosiy-ma’muriy qarorlar qabul qilish jarayonlaridagi ishtiroki, rahbarlik lavozimlaridagi vakilligi hamda gender muvozanatini ta’minlash boshqaruvning inklyuziv xususiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi[11]. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentyabrdagi O‘RQ-562-son “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni[12] hamda Prezidentning 2025-yil 19-iyundagi PF-95-son Farmoni — unga ko‘ra davlat fuqarolik xizmatida xotin-qizlar ulushini 2030-yilgacha 40 foizga yetkazish belgilangan[13] — bu yo‘nalishning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

Biroq, mazkur institutsional-huquqiy mexanizmlarning mavjudligi ularning amaliyotda inklyuziv natijalarga olib kelishini avtomatik ravishda kafolatlamaydi. OECD tomonidan o‘tkazilgan tahlilga ko‘ra, ishtirokchilik jarayoni sifatidagi inklyuzivlik (kim va qanday tarzda qarorlar qabul qilishda ishtirok etadi) bilan natija sifatidagi inklyuzivlik (resurslar va imkoniyatlarning qanchalik teng taqsimlanishi) o‘rtasida avtomatik sabab-natija bog‘liqligi mavjud emas[1]. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda ko‘rib chiqilgan huquqiy va institutsional mexanizmlarning amaliy samaradorligini — ya’ni ular fuqarolarning davlat qarorlariga real ta’sir ko‘rsatish imkoniyatini qanchalik oshirganini — alohida monitoring va baholash tadqiqotlari orqali izchil kuzatib borish zarurati yuzaga keladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv boshqaruvning normativ-huquqiy va institutsional asoslari bosqichma-bosqich shakllanganini ko‘rsatdi. Fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi, axborotdan foydalanish, jamoatchilik nazorati, ochiqlik va tenglikni ta’minlashga qaratilgan huquqiy normalar mazkur tizimning asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi. Jamoatchilik muhokamasi, elektron ishtirok, tashabbusli budjet va gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini amaliy jihatdan kengaytirmoqda. Jarayonni yanada rivojlantirish uchun mavjud mexanizmlarning amaliy samaradorligini oshirish va jamoatchilik fikrining qarorlarga real ta’sirini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. OECD (2020). What does “inclusive governance” mean? Clarifying theory and practice. OECD Development Policy Papers, No. 27. OECD Publishing, Paris. https://doi.org/10.1787/960f5a97-en
2. Konstitutsiyamizning yaratilishi [elektron resurs] https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi
3. O‘zbekiston Respublikasining 24.04.1997 yildagi 400-I-sonli Qonuni [elektron resurs] https://lex.uz/docs/-1319
4. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali [elektron resurs] https://gov.uz/oz/pages/e-participation
5. O‘zbekiston Respublikasining 12.04.2018 yildagi O‘RQ-474-sonli Qonuni [elektron resurs] https://lex.uz/uz/docs/-3679092
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.09.2021 yildagi PQ-5250-sonli qarori [elektron resurs] https://test.lex.uz/en/docs/-5651405
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2022 yildagi PF-154-sonli Farmoni [elektron resurs] https://lex.uz/docs/-6066512
8. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi [elektron resurs] https://lex.uz/docs/-6445145
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti [elektron resurs] https://president.uz/oz/lists/view/6275
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.02.2024 yildagi PQ-75-sonli qarori [elektron resurs] https://test.lex.uz/docs/-6806476
11. Boboraxmatova M. Expanding women’s participation in public administration as a factor in enhancing governance effectiveness // Kelajak Texnologiyalari Va Sun’iy Intellekt. 2026. Vol. 1, No. 5. P. 9–14. DOI: 10.5281/zenodo.21892783.
12. O‘zbekiston Respublikasining 02.09.2019 yildagi O‘RQ-562-sonli Qonuni [elektron resurs] https://test.lex.uz/uz/docs/-4494849
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.06.2025 yildagi PF-95-sonli Farmoni [elektron resurs] https://lex.uz/uz/docs/-7587464

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

OILAVIY MULOQOTDA BILVOSITA MANIPULYATIV TA’SIRNING ADRESATI

Rasulova Mohigul Maxammadjon qizi

ANNOTATSIYA. Oilaviy muloqotda nutq kimga qaratilgani bilan yakuniy qarorni kim qabul qilishi har doim ham bir shaxsga to‘g‘ri kelmaydi. Ushbu tezisda Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» va Jane Austenning «Pride and Prejudice» romanlaridagi ikki oilaviy epizod qiyoslanib, bevosita suhbatdosh, xabarni yetkazuvchi shaxs va qaror egasi o‘rtasidagi farq tahlil qilinadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, bilvosita manipulyativ ta’sirni aniqlashda murojaat yo‘nalishi bilan cheklanib qolmasdan, talab yoki xabarning kim orqali yakuniy adresatga yetkazilgani va u qanday mazmunda qayta ifodalangani ham hisobga olinishi lozim.

KALIT SO‘ZLAR: oilaviy muloqot, bilvosita adresat, manipulyativ ta’sir, qaror egasi, xabar vositachisi, suhbat navbati.

Oilaviy muloqotda bir kishiga aytilgan talab yoki istak boshqa bir kishining tanlovini o‘zgartirishga qaratilgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bunday vaziyatni faqat grammatik murojaatga qarab tavsiflash yetarli emas. Gapni ayni paytda eshitayotgan shaxs, talabni keyingi ishtirokchiga yetkazayotgan vositachi va yakuniy qarorni qabul qiladigan shaxs turli kommunikativ mavqega ega bo‘ladi. Suhbat tahlilida qarshilik oldingi navbatda kutilgan harakatga nisbatan belgilanadi [1]. Ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqotda esa bilim, tajriba va oilaviy mavqe bilan bog‘liq ustunlik da’vosi nutqiy bosimning muhim manbalaridan biri bo‘lishi mumkin [2]. Shu nuqtai nazardan, oilaviy manipulyativ ta’sirning adresatini aniqlashda nutqiy harakatning kim orqali yakuniy qaror egasiga yetib borishini ko‘rsatish zarur.

Tahlil materiali sifatida A. Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romanidagi O‘zbek oyim bilan Yusufbek hoji suhbati hamda J. Austenning «Pride and Prejudice» romanidagi Bennetlar oilasi suhbati tanlandi [3; 4]. Har ikki epizodda nikoh masalasiga doir yakuniy qaror farzandga tegishli, biroq dastlabki bosim ota-onalar o‘rtasidagi suhbatda shakllanadi. Qiyosda uch savol asos qilib olindi: gap ayni paytda kimga aytilgan, rozilik kimdan kutilgan va talab yoki xabar farzandga qanday shaklda yetkazilgan? Badiiy dialoglar tabiiy oilaviy suhbatning to‘liq o‘rnini bosmaydi; shu sababli natijalar matndagi aniq nutqiy vaziyatlar doirasida talqin qilindi.

Qodiriy tasvirida O‘zbek oyim Otabekni Toshkentdan uylantirish niyatini eriga bildiradi. Yusufbek hoji avval o‘g‘lining xohishini so‘rash tarafdori bo‘ladi, keyin esa unashtirishga shoshilmaslik shartini qo‘yadi. O‘zbek oyimning «Unashmayman, lekin o‘g‘lingizga unashdiq, deb eshitdirarmiz» degan gapi suhbatdagi haqiqiy kelishuv bilan Otabekka yetkazilishi rejalashtirilgan xabarni bir-biridan ajratadi [3]. Gapning bevosita adresati Yusufbek hoji bo‘lsa-da, manipulyativ ta’sirning yakuniy nishoni suhbatda qatnashmayotgan Otabekdir. Yusufbek hojining «Ma’qul» javobi er-xotin o‘rtasidagi kelishuvni bildiradi, ammo Otabekning nikohga roziligini

anglatmaydi. Keyingi sahnada ota bu masalani deyarli hal etilgan qaror sifatida o‘g‘liga yetkazadi. Demak, dastlabki suhbatda rejalashtirilgan axborot almashinuvi keyingi nutqiy harakatda amalda yuzaga chiqadi.

Austenning 20-bobida Mr Collinsning taklifini rad etgan Elizabeth otasining savoliga «I have, sir» deb javob beradi. Mrs Bennet qizi taklifni qabul qilmasa, uni boshqa ko‘rmasligini aytadi: «Yes, or I will never see her again» [4]. Bu gap er oldida aytilgan bo‘lsa-da, undan nikohga rozilik kutilmaydi. Ona erini qizga bosim o‘tkazishda vositachi sifatida ko‘radi. Mr Bennet esa onaning talabini Elizabethga yetkazib, darhol unga zid bo‘lgan o‘z shartini kinoya bilan bildiradi. Natijada xabar uzatiladi, biroq dastlabki bosim to‘liq qo‘llab-quvvatlanmaydi. Elizabeth o‘z rad javobida qoladi. Shu sababli bu epizodda erning nutqiy roli O‘zbek oyim taklif qilgan rejani ma’qullab, keyinchalik Otabekka yetkazgan Yusufbek hojining roli bilan aynan bir xil emas.

Ikki epizodning umumiy jihati shundaki, ota-onalar o‘rtasidagi suhbat farzandning nikohga doir tanloviga qaratilgan. Biroq ta’sir vositasi va vositachining pozitsiyasi farqlanadi. Qodiriy matnida hali amalga oshmagan kelishuv amalga oshgandek ko‘rsatilishi rejalashtiriladi va keyingi suhbatda shu mazmun farzandga yetkaziladi. Austen matnida esa ona yaqinlikdan mahrum etish tahdidini ochiq ifodalaydi, ota esa bu bosimni takrorlash bilan birga uni kinoya orqali neytrallashtiradi. Shuning uchun oilaviy muloqotdagi uchinchi shaxs ishtirokini faqat «ota bosimi» yoki «ona bosimi» kabi umumiy nom bilan cheklash tahlilning aniqligini pasaytiradi. Xabarning qanchalik to‘g‘ri uzatilgani, vositachi uni qo‘llab-quvvatlagani yoki o‘zgartirgani va qaror egasining keyingi javobi alohida ko‘rilishi kerak.

Tahlil natijasida bilvosita manipulyativ ta’sirni tavsiflash uchun kamida uch kommunikativ o‘rin ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi: talabni ilgari suruvchi shaxs, uni eshitib keyingi ishtirokchiga yetkazuvchi vositachi va yakuniy qarorni qabul qiluvchi shaxs. Ushbu ajratish manipulyativ ta’sirning haqiqiy adresatini aniqroq ko‘rsatadi hamda suhbatdagi oddiy vositachilik bilan manipulyativ vositachilikni farqlash imkonini beradi. Amaliy jihatdan bunday yondashuv oilaviy diskurs, badiiy dialog va kundalik muloqot namunalarida bosimning qaysi bosqichda va kim orqali kuchayishini aniqlashda qo‘l keladi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu uch o‘rinli tahlil tartibini tabiiy oilaviy suhbat yozuvlari, intervyular va turli avlod vakillari ishtirokidagi muloqotlar asosida tekshirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Humă B., Joyce J. B., Raymond G. What Does “Resistance” Actually Look Like? The Respecification of Resistance as an Interactional Accomplishment // Journal of Language and Social Psychology. – 2023. – Vol. 42, № 5–6. – P. 497–522. DOI: 10.1177/0261927X231185525.

2. Liu R.-Y. Constructing Childhood in Social Interaction: How Parents Assert Epistemic Primacy over Their Children // Social Psychology Quarterly. – 2023. – Vol. 86, № 1. – P. 74–94. DOI: 10.1177/01902725221130751.

3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – 1926. – 24-bob. https://wikisource.org/wiki/O%27tkan_kunlar/24
4. Austen J. Pride and Prejudice. – 1813 (1817-yilgi nashr). – 20-bob. https://en.wikisource.org/wiki/Pride_and_Prejudice_(1817)/Chapter_20

BILINGVIZMNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Pratova Gulshoda O‘tkirbek qizi
pratovagulshoda1@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada bilingvizm hodisasining nazariy-lingvistik va psixolingvistik jihatlari yoritilgan. Bilingvizm tushunchasiga izohli va terminologik lug‘atlarda berilgan ta’riflar tahlil qilinib, uning ikki tilni bilish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda tarixan shakllangan o‘zbek-tojik til aloqalari Alisher Navoiy qarashlari hamda o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqotlar asosida ko‘rib chiqilgan. O‘zbek va tojik tillari o‘rtasidagi lingvistik ta’sir, interferensiya, kod almashish va funksional bilingvizm masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, bilingv bolalar nutqining shakllanishi va til egallash jarayonining psixolingvistik xususiyatlari tahlil qilinib, bilingvizmning mutlaq tenglik emas, balki turli kommunikativ vaziyatlarda tillarning funksional jihatdan farqlanishi bilan tavsiflanishi asoslangan.

Kalit so‘zlar. Bilingvizm, bilingv, ikki tillilik, til kontakti, o‘zbek-tojik bilingvizmi, interferensiya, kod almashish, til kompetensiyasi, psixolingvistika, bolalar nutqi, til egallash, funksional bilingvizm.

Ikki tillilik hodisasini o‘rganar ekanmiz, “Bilingvizm” fenomenonining sof izohiga to‘xtalib o‘tsak, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da unga quyidagicha ta’rif beriladi. “Bilingvizm (bi..+ lot. Lingua-til) ikki tilda so‘zlay olish; ikki tilni bilish; ikki tildan foydalanish; ikki tillilik o‘zbek-tojik bilingvizmi, o‘zbek-rus, o‘zbek-ingliz bilingvizmi. Bu dialekt… bilingvizmni saqlashiga qarab xarakterlanadi”[1]. Bundan tashqari, inglizlarning “Cambridge Dictionary & Thesaurus” lug‘atida ham ushbu atamaga “ikki tildan teng darajada foydalana olish” - “the fact of being able to use two languages equally well” tarzda ifodalanganligini ko‘rishimiz mumkin[2].

Qadimdan Markaziy Osiyo hududida turli xil etnik va til jamoalari o‘zaro aloqada yashab kelgan. Ushbu ijtimoiy-madaniy muhitda tillar o‘rtasidagi kontakt, funksional yo‘nalish hamda ikki tillilik hodisalari tabiiy jarayon sifatida shakllanib borgan. Turkiy va fors-tojik tillari o‘rtasidagi tarixiy hamkorlik, ularning adabiy va og‘zaki nutqidagi o‘zaro ta’siri mintaqa til taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va adabiy omillar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, tarixiy manbalarda o‘z aksini topgan. Bu jarayonni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan ilk izlanuvchilardan biri Alisher Navoiy bo’lib, u o‘zining “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy hamda forsiy tillarning ijtimoiy mavqei, funksional imkoniyatlari hamda qo‘llanish doirasi haqida muhim nazariy mulohazalarni ilgari suradi[3]. U turk va sart aholi o‘rtasidagi ikki

[1] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildli. Birinchi jild A-D. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. - B. 680.
[2] Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. Cambridge University Press, 2003. - P. 1550.
[3] Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiev. - Toshkent, 1940. - B. 54

tillilik hodisasini kuzatib, turkiy xalqlarning katta qismi fors tilini faol o‘zlashtirganini, kundalik muloqot va adabiy ijodda undan samarali foydalanganini qayd etadi. Hatto, ayrim turk shoirlarining fors tilida bitgan asarlari haqida ham ta’kidlaydi. Ammo A. Navoiy sart aholisi orasida turkiy tilni bilish darajasi ancha past ekanini, bu tilni tushunish va undan foydalanish ko‘lami cheklanganini alohida ko‘rsatadi. Bu holatni u ijtimoiy-lisoniy nomutannosiblik sifatida talqin qiladi. Ushbu kuzatishlar zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari, xususan, psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika nuqtayi narzaridan olib qaralganda, funksional bilingvizm va bir yoqlama til kompetensiyasi masalalarini yoritishda muhim manba bo‘la olishini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, turkiylarning fors tilini faol egallaganligi hamda forsiyzabonlar nutqida interferensiya hodisasining kuchliroq namoyon bo‘lishi tillar o‘rtasidagi o‘zaro kontaktni ko‘rsatadi.

O‘zbek tilshunosligida ham bir qator olimlarning tadqiqotlarida o‘zbek va tojik tillarining o‘zaro aloqalari, ularning bir-biriga ta’siri, shuningdek, O‘zbekiston hududida mavjud bilingvizm va multilingvizm shakllari izchil tadqiq etilgan. Ulardan K. Yusupovning “O‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri” - deb nomlangan tadqiqotda Farg‘ona viloyatida yashovchi tojik aholisining nutqiy amaliyotini tahlil qilib, til aloqalarining darajasi va xususiyatlarini aniqlashga kirishgan[4]. Tadqiqotda, asosan, tarixiy omillar, hududiy yaqinlik hamda ijtimoiy muhitning ikki til o‘rtasidagi munosabatlarga ta’siri, o‘zbek-tojik bilingvizmi sharoitida yuzaga keladigan leksik, fonetik, morfologik va sintaktik o‘zgarishlarni tahlil qilgan. Olim ikki til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir eng faol ravishda lug‘aviy qatlamda namoyon bo‘lishini, o‘zlashgan til birliklari esa qabul qiluvchi tilning fonetik va grammatik me’yorlariga moslashishini aniqlagan. Shuningdek, u bilingv muhitda interferensiya va kod almashish hodisalari keng tarqalishini qayd etib, til kontaktlari natijasida ayrim til birliklarining qo‘llanishida yaqinlashuv yuz bersa-da, har ikki tilning grammatik mustaqilligi saqlanib qolishini asoslab bergan.

Yana bir o‘zbek tilshunosligining ilg‘or tadqiqotchilaridan biri, X. G‘ulomovning “O‘zbek-tojik til aloqalari” nomli tadqiqot ishida ikki til uchun umumiy bo‘lgan leksik qatlamning shakllanish omillari tahlil qilinadi[5]. Tadqiqotchi o‘zbek va tojik xalqlarining uzoq asrlik qo‘shnichilik munosabatlari natijasida yuzaga kelgan o‘zaro ta’sir jarayonlarini konkret til materiallari asosida ko‘rsatib beradi. X. G‘ulomov til aloqalarini tasodifiy hodisa sifatida emas, balki tarixiy taraqqiyot mahsuli bo‘lgan qonuniy jarayon sifatida talqin etadi. Tadqiqotda o‘zaro ta’sir jarayonlari konkret til materiallari asosida ko‘rsatilib, leksik birliklarning almashinuvi, ma’no kengayishi va funksional moslashuvi misollar orqali tahlil qilinadi. Muallif ikki til o‘rtasidagi yaqinlik faqat lug‘aviy qatlam bilan cheklanmasligini, balki ayrim grammatik va uslubiy hodisalarda ham sezilarli iz qoldirganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, u bilingvizm hodisasini ikki tilda erkin muloqot qilish qobiliyati bilan tenglashtirmaydi; aksincha, har ikki til tizimida mustaqil fikrlay olish darajasi bilan baholash zarurligini aytadi. Bu yondashuv til egasining kommunikativ kompetensiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

[4] Yusupov K. O‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri. - Toshkent, 1974. - B. 13.
[5] Гуломов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. Т., 1983. - Б. 32.

M.T. Zokirovning ilmiy ishlarida bilingvizm, polilingvizm va til interferensiyasi hodisalari nazariy jihatdan asoslab berilgan[6]. U ham o‘z tadqiqotlarida bilingvizmni, shunchaki, ikki tilda muloqot qila olish emas, balki har ikki tilda mustaqil fikrlay olish darajasi bilan baholash zarur ekanligi haqida aytib o‘tadi. Tadqiqot ishlarida tojik tilidagi nisbatan ustunlik jihatlariga ko‘proq urg‘u berilganini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqotda til kontakti almashinuvi natijasida ikki til o‘rtasidagi singarmonizm hodisalariga ham aniqlik kiritib o‘tgan. O‘zbek-tojik bilingvizmi misolida interfrensiyaning fonetik va leksik bosqichlarda namoyon bo‘lishi haqida aniq dalillar ko‘rsatadi. Fikr ifodalashning asosiy birligi sifatida gap til tizimida markaziy o‘rin tutadi, chunki, aynan, gap orqali voqelikdagi predmet va hodisalar o‘rtasidagi munosabatlar ifodalanadi. Shu uchun ham, bilingvizmni baholashda mezon sifatida, boshqa tilda grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuza olish emas, balki shu tilda erkin fikirlash va mazmunni adekvat ifodalash qobiliyati muhim hisoblanadi. Til kopmetensiyasi, aynan, shu jihat bilan belgilanadi.

M.T. Zokirov hamda Z.V. Alimovaning “O‘zbek va tojik lisoniy aloqasi asoslari” nomli Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan darslik kitobida ham til kontakti bilingv, bilingvizm, polilingv, polilingvizm atamalari anglatgan tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq ekani aytiladi[7]. Muloqotning har ikki xil tilda amalga oshishini bilingvizm hodisasi sifatida izohlaydilar. Bundan tashqari, “Bilingvizm” atamasi anglatgan nutqiy imkoniyat interferensiya, assimilatsiya atamalari bilan nomlanuvchi tushunchalar bilan bog‘lanadi. Interferensiya jarayonida bilingv shaxs bir tilga xos linsoniy xususiyatlarni boshqa ikkinchi tilga o‘z-o‘zidan ko‘chirib qo‘yadi. Bu esa beixtiyor ikkala tilning bir biriga ta’sir etayotganini anglatadi.

O‘zbek tilshunosligida M.B. Shamsiyevaning “Bilingval bolalar nutqining psixolingvistik tadqiqi” nomli tadqiqot ishida 7-9 yoshli bolalar nutqi obyekt sifatida olingan bo‘lib, unda, dastlab, bilingv nutqning shakllanish jarayoni, bilingvizmning nutq qobiliyati rivojiga ta’siri, interferensiya jarayonlari, bilingv muhitda nutqning dekodlanish hamda kodlanish jarayonlari atroflicha ko‘rib chiqiladi[8]. M. Shamsiyevaning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tilni egallash davri bilingvizm rivojlanishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Erta yoshda o‘zlashtirilgan til miya tuzilmalari (nutq markazlari) bilan tabiiy integratsiyalashgani bois, bolalik davrida ikki tilda muloqot qilish bilingvizmni shakllantirishning eng maqbul yo‘li sanaladi. Uch yoshgacha bo‘lgan davrda bolada tillarni aralashtirish kuzatilsa-da, keyinchalik ular funksional jihatdan ajrala boshlaydi. Mutlaq teng bilingvizm amalda deyarli uchramasligi, ya’ni har bir til turli kommunikativ va ijtimoiy vaziyatlarda turlicha funksional yuklama bajarishi, odatda, bir til ta’lim va rasmiy muloqot sohasi bilan, ikkinchisi esa oilaviy-emotsional muhit bilan bog‘lanishi sababli til tajribasi doimo differensial xarakterga ega bo‘lishini ta’kidlab o‘tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[6] Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. НДА. Тошкент, 2007. - Б. 27.
[7] Zokirov M.T, Alimova Z.V. O‘zbek va tojik lisoniy aloqasi asoslari. - Toshkent. 2010. - B.15-27.
[8] Shamsiyeva M.B., Bilingv bolalar nutqining psiolingvistik tadqiqi. - Toshkent. 2023.- B. 35.

1. Alisher Navoiy. Muhokamatul-lug‘atayn. Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiev. - Toshkent, 1940. - B. 54
2. Zokirov M.T, Alimova Z.V. O‘zbek va tojik lisoniy aloqasi asoslari. - Toshkent. 2010. - B.15-27.
3. Shamsiyeva M.B., Bilingv bolalar nutqining psiolingvistik tadqiqi. - Toshkent. 2023.- B. 35.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5-jildli. Birinchi jild A-D. - Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. - B. 680.
5. Cambridge Advanced Learner’s Dictionary. Cambridge University Press, 2003. - P. 1550.
6. Yusupov K. O‘zbek va tojik tillarining o‘zaro ta’siri. - Toshkent, 1974. - B. 13.
7. Гуломов Х. Узбекско-таджикские языковые связи. Т., 1983. - Б. 32.
8. Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. НДА. Тошкент, 2007. - Б. 27.

INGLIZ VA O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA AKSIOLOGIK VA EMOTSIONAL FREYMINGNING MANIPULYATIV POTENSIALI

Tulanbayeva Shaxnozaxon Shavkatbekovna,
Andijon davlat chet tillari
instituti dotsenti, f.f.f.d.
E-mail: charostulanbayeva@gmail.com

ANNOTATSIYA. Ushbu tezisda ingliz va o‘zbek raqamli diskursida aksiologik hamda emotsional freymingning adresat talqiniga ta’siri tahlil qilinadi. Qadriyatga asoslangan baholash bilan emotsional reaksiyaning bir matn doirasida birikishi axborotning ayrim jihatlarini markazga olib chiqishi, boshqa jihatlarini esa kommunikativ fonda qoldirishi ko‘rsatib beriladi. Manipulyativ potensialni aniqlashda baholashning yashirinligi, emotsional bosim, muqobil talqinlarning torayishi, presuppozitsiya va harakatga undovchi birliklarning o‘zaro aloqasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Ingliz va o‘zbek materialini qiyoslashda yuzaki leksik moslikdan ko‘ra freymning funksional-pragmatik tuzilishiga ustuvor ahamiyat berish zarurligi asoslanadi.

KALIT SO‘ZLAR: freym, freyming, raqamli diskurs, aksiologik baholash, emotsional freyming, manipulyativ potensial, pragmatik ta’sir, presuppozitsiya, baholovchi leksika, ingliz tili, o‘zbek tili.

Raqamli muloqot sharoitida axborotning ta’sir kuchi faqat qanday fakt berilganiga emas, uning qaysi konseptual nuqtai nazardan taqdim etilganiga ham bog‘liq. Freyming voqea yoki predmetning ayrim belgilarini kommunikativ jihatdan ajratib ko‘rsatadi va adresat e’tiborini shu belgilar asosida tashkil etadi. R. Entman freymingni voqelikning ma’lum jihatlarini tanlab, ularni matnda ko‘proq ko‘zga tashlanadigan holga keltirish bilan bog‘laydi [1]. Mazkur yondashuv raqamli diskursni tahlil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi, negaki qisqa sarlavha, reklama matni, post, izoh yoki vizual-verbal birlik adresatga katta hajmdagi tushuntirishdan ko‘ra ixcham, ammo baholashga boy shaklda yetib boradi.

Aksiologik freyming axborotni muayyan qadriyat koordinatalari orqali idrok etishga yo‘naltiradi. “Yaxshi — yomon”, “xavfsiz — xavfli”, “ishonchli — ishonchsiz”, “nufuzli — oddiy”, “mas’uliyatli — befarq”, “tabiiy — sun’iy” singari qarama-qarshiliklar adresat uchun voqea yoki mahsulotni baholash mezonini oldindan belgilab berishi mumkin. Baholovchi birliklar har doim ochiq sifat yoki ravish shaklida kelmaydi. Ayrim hollarda baho presuppozitsiya, metaforik nomlash, taqqoslash, kategoriyalash yoki tanlov variantlarining o‘zidayoq joylashadi.

Baholash nazariyasida til birliklarining ijobiy yoki salbiy munosabatni yuzaga chiqarishi, shuningdek, muallif pozitsiyasining adresatga qanday uzatilishi alohida tadqiq etilgan [2; 3]. Raqamli diskursda esa aksiologik komponent ko‘pincha qisqa va esda qoladigan birliklar yordamida shakllanadi. Masalan, ingliz tilidagi *smart choice*, *trusted solution*, *premium experience*, *better future*, *clean choice* kabi

birikmalar predmetning aniq xususiyatini bayon qilishdan ko‘ra uni avvaldan ijobiy qadriyat maydoniga joylashtiradi. O‘zbek raqamli matnlarida “ishonchli tanlov”, “oilaga munosib”, “farzandingiz kelajagi uchun”, “sifatli hayot”, “to‘g‘ri tanlov” kabi konstruksiyalar shunga yaqin pragmatik vazifani bajarishi mumkin. Bunday birliklarning manipulyativ xususiyati alohida so‘zda emas, ular yaratadigan umumiy talqin yo‘nalishida namoyon bo‘ladi.

Emotsional freyming adresatning axborotni hissiy fon bilan birgalikda qayta ishlashiga ta’sir ko‘rsatadi. Qo‘rquv, xavotir, umid, faxr, hamdardlik, aybdorlik hissi, yo‘qotishdan cho‘chish yoki shoshilinchlik hissi raqamli matnda freymni kuchaytiruvchi omil sifatida yuzaga chiqadi. Emotsiyaning freyming bilan bog‘liqligi kommunikatsiya tadqiqotlarida ham qayd etilgan: bir xil mazmundagi xabar turli emotsional rakursda taqdim etilganda uning qabul qilinishi va keyingi talqini o‘zgarishi mumkin [4].

Aksiologik va emotsional komponentlar bir matnda tutashgan paytda ta’sir yanada sezilarli tus oladi. Masalan, ingliz raqamli diskursidagi *Protect what matters most* tipidagi konstruksiya “himoya” qadriyatini oila yoki yaqin insonlar bilan bog‘laydi va ayni paytda ehtimoliy xavf hissini faollashtiradi. *You deserve better* ifodasi o‘z-qadrini anglash bilan hozirgi holatdan qoniqmaslikni birlashtiradi. *Don’t miss your chance* esa imkoniyatni qadriyat sifatida ajratib, yo‘qotishdan cho‘chish hissini kuchaytiradi.

O‘zbek tilida “Oilangiz uchun eng ishonchli tanlov”, “Farzandingiz kelajagini bugundan o‘ylang”, “Imkoniyatni qo‘ldan boy bermang”, “Siz eng yaxshisiga loyiqsiz” kabi konstruksiyalar ham ikki qatlamli ta’sirni yuzaga keltirishi mumkin. Birinchi qatlamda oila, farzand kelajagi, ishonch, muvaffaqiyat yoki o‘ziga hurmat singari qadriyatlar faollashadi; ikkinchi qatlamda esa xavotir, umid, mas’uliyat, yo‘qotishdan cho‘chish yoxud o‘ziga nisbatan ijobiy hissiyot kuchayadi. Keltirilgan misollar muayyan korpusdan olingan statistik dalil emas, tahlil mezonini ko‘rsatishga mo‘ljallangan model konstruksiyalardir.

Shu o‘rinda emotsional yoki baholovchi freymning har bir ko‘rinishini manipulyatsiya sifatida talqin qilish metodologik jihatdan to‘g‘ri emas. Ochiq ishontirishda kommunikator o‘z pozitsiyasini bildiradi va adresat muqobil nuqtai nazarni ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Manipulyativ freymingda esa ta’sir niyati to‘liq oshkor etilmasligi, baholash fakt ko‘rinishida taqdim qilinishi yoki adresatning tanlov maydoni sun’iy tarzda toraytirilishi mumkin. T. van Dijk manipulyatsiyani kommunikativ va kognitiv nazorat bilan bog‘liq hodisa sifatida ko‘rib, ayniqsa, bilim va resurslar teng bo‘lmagan vaziyatlarda yashirin ta’sir ehtimoli ortishini ta’kidlaydi [5].

Shundan kelib chiqib, aksiologik-emotsional freymingning manipulyativ potensialini aniqlashda bir necha belgini birgalikda hisobga olish maqsadga muvofiq. Birinchidan, matnda biror qadriyatning oldindan ijobiy yoki salbiy deb qabul qilinishi talab etiladimi; ikkinchidan, shu baholashni kuchaytiruvchi emotsiya mavjudmi; uchinchidan, baho dalil sifatida ko‘rsatilayaptimi yoki muallif pozitsiyasi sifatida ochiq berilganmi; to‘rtinchidan, muqobil talqinlar matndan siqib chiqarilganmi; beshinchidan, adresatning tezkor qaroriga ta’sir qiluvchi

shoshilinchlik, xavotir, aybdorlik yoki ijtimoiy bosim komponentlari bormi. Alohida belgi manipulyatsiyani tasdiqlash uchun yetarli emas; ularning o‘zaro uyg‘unligi ancha ishonchli tahlil imkonini beradi.

Raqamli diskursning multimodal tabiati ham aksiologik va emotsional freymingni kuchaytiradi. Matn bilan bir qatorda tasvir, shrift o‘lchami, rang, emoji, qisqa video, ovoz, izohlar, reyting va foydalanuvchi reaksiyalari umumiy freymning tarkibiga kirishi mumkin. Masalan, verbal qismda “xavfsizlik” qadriyati ta’kidlangan bo‘lsa, vizual qatlamda bola, oila yoki himoya ramzi berilishi shu talqinni yanada barqarorlashtiradi. Shuning uchun raqamli matnni faqat leksik birliklar yig‘indisi sifatida o‘rganish yetarli emas; verbal va vizual vositalarning bir xil qadriyat-emotsiya yo‘nalishiga xizmat qilishi alohida qayd etilishi lozim.

Ingliz va o‘zbek materialini chog‘ishtirishda yana bir muhim masala yuzaga chiqadi. Bir tildagi baholovchi birlikning ikkinchi tilda lug‘aviy ekvivalentini topish freym ekvivalentligini anglatmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *peace of mind*, *you deserve it*, *smart choice* kabi formulalarning o‘zbek tilidagi ta’sir kuchi bevosita so‘zma-so‘z tarjima bilan aniqlanmaydi. Xuddi shuningdek, o‘zbek diskursidagi “oila uchun”, “farzand kelajagi”, “ishonch”, “mehr”, “baraka” singari qadriyat bilan bog‘liq nominatsiyalarni ingliz tiliga formal tarjima qilish ularning kommunikativ vaznini to‘liq ko‘rsatmasligi mumkin. Chog‘ishtirma tahlilda leksik moslikdan tashqari adresatga yuklanadigan baho, emotsional fon, presuppozitsiya va kutilayotgan xatti-harakat ham hisobga olinishi kerak.

Tadqiqot materialini kodlashda har bir freym uchun besh komponentni qayd etish taklif etiladi: freym obyekti, aksiologik tayanch, emotsional komponent, lingvistik ifoda vositasi hamda adresat uchun shakllantirilayotgan yashirin xulosa. Masalan, “Farzandingiz kelajagini bugun tanlang” konstruksiyasida freym obyekti — taklif qilinayotgan xizmat; aksiologik tayanch — farzand kelajagi va ota-onalik mas’uliyati; emotsional komponent — umid va xavotir; lingvistik vosita — direktiv shakl hamda vaqt ko‘rsatkichi; yashirin xulosa esa qarorni kechiktirish farzand manfaatiga zid bo‘lishi mumkin degan implitsit mazmundan iborat. Ana shunday tahlil ingliz va o‘zbek materiallarini bir xil parametrlar asosida qiyoslash imkonini beradi.

Aksiologik va emotsional freyming raqamli diskursda adresatning voqelikni baholash usuliga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Manipulyativ potensial qadriyat yoki emotsiyaning mavjudligidan emas, ularning yashirin kommunikativ maqsad bilan birikishi, alternativ talqinlarni cheklashi va adresatni ma’lum xulosaga oldindan yo‘naltirishidan kelib chiqadi. Shu sababli ingliz va o‘zbek raqamli diskursini o‘rganishda “qaysi emotsiya ishlatilgan?” yoki “qaysi baholovchi so‘z qatnashgan?” degan savollar bilan chegaralanish yetarli emas. Asosiy e’tibor qadriyat, emotsiya, presuppozitsiya va pragmatik niyatning bir matn ichidagi munosabatiga qaratilishi lozim. Mazkur yondashuv manipulyativ freymingni oddiy ekspressivlik yoki ochiq persuaziyadan farqlashda ham aniqroq mezon beradi.

Amaliy jihatdan, raqamli diskurs korpusini shakllantirishda aksiologik birliklar va emotsional markerlarni alohida ro‘yxatlashdan ko‘ra ularning kontekstual birikmalarini kodlash, ingliz va o‘zbek materiallarini funksional-

pragmatik ekvivalentlik asosida qiyoslash, shuningdek, verbal va vizual freymning bir-birini kuchaytirish holatlarini alohida belgilash tavsiya etiladi. Bunday yondashuv keyingi tadqiqotlarda freymingning manipulyativ darajasini izchil va tekshiriladigan mezonlar asosida tavsiflashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Entman R. M. Framing: Toward Clarification of a Fractured Paradigm // *Journal of Communication*. – 1993. – Vol. 43, No. 4. – P. 51–58.
2. Martin J. R., White P. R. R. *The Language of Evaluation: Appraisal in English*. – London: Palgrave Macmillan, 2005.
3. Bednarek M. *Evaluation in Media Discourse: Analysis of a Newspaper Corpus*. – London; New York: Continuum, 2006.
4. Nabi R. L. Exploring the Framing Effects of Emotion: Do Discrete Emotions Differentially Influence Information Accessibility, Information Seeking, and Policy Preference? // *Communication Research*. – 2003. – Vol. 30, No. 2. – P. 224–247.
5. van Dijk T. A. Discourse and Manipulation // *Discourse & Society*. – 2006. – Vol. 17, No. 3. – P. 359–383.
6. Chong D., Druckman J. N. Framing Theory // *Annual Review of Political Science*. – 2007. – Vol. 10. – P. 103–126.
7. Fillmore C. J. Frame Semantics // *Linguistics in the Morning Calm*. – Seoul: Hanshin Publishing, 1982. – P. 111–137.
8. Wierzbicka A. *Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999.

RAQAMLI MULOQOTDA INGLIZ VA O‘ZBEK YOSHLAR SLENGI MA’NOSINI FARQLOVCHI LINGVISTIK BELGILAR

To‘xtasinova Shoxsanam Abdujalil qizi
Andijon davlat texnika instituti
Tillar va gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: usmonjonova_sh95@mail.ru

ANNOTATSIYA: Tezisda ingliz va o‘zbek raqamli matnlarda sleng ma’nosini aniqlashga aloqador grammatik, leksik va kontekstual belgilar tekshiriladi. Reddit hamda Telegram parchalarida inkor, qisqartma, fe’llashuv, qo‘shimchalanish va oldingi xabarga murojaat tahlil qilinadi. Slengning lug‘aviy talqini so‘zlovchi bahosidan ajratiladi. Asl yozuv, transliteratsiya va ma’no yorlig‘ini alohida saqlash tartibi taklif etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: yoshlar slengi, kontekstual semantika, birikuvchanlik, inkor doirasi, konversiya, morfologik annotatsiya, transliteratsiya.

Kontekstga qarab talqini o‘zgaradigan sleng birligini lug‘atdagi izoh bilan tenglashtirish ayrim ma’no farqlarini yo‘qotadi. SlangTrack tadqiqotida ayni leksemaning sleng va nosleng qo‘llanishini ajratish alohida hisoblash vazifasi sifatida qo‘yilgan [1]. D. N. Satimova ingliz va o‘zbek yoshlar slengini qiyoslab, raqamli muloqotdagi qisqartmalar, o‘zlashmalar va aralash birikmalarni tavsiflagan [2, 146–153-b.]. Mazkur tezisda e’tibor shakllanish usullaridan ma’no tanlash dalillariga ko‘chiriladi: grammatik belgi, yonma-yon kelgan so‘z va oldingi xabar talqinni qay tarzda chegaralaydi?

Material Redditning r/IBO muhokamasi, Telegramdagi @FCANJAN va @cringe_community sahifalarining ochiq matnlaridan tanlandi. Inglizcha fe’llashuv hamda o‘zlashgan asosli birikma uchun 2020-yilgi dissertatsiyada qayd etilgan parchalar olindi [2–5]. Matn egalari yoshi mustaqil tekshirilmagan; misollar yoshlar slengi tadqiqotiga aloqador lingvistik holatlar sifatida tahlil qilinadi. Ulardan yosh guruhlari yoki tillar bo‘yicha chastota xulosasi chiqarilmaydi.

Inkor, qisqartirish va kontekstual ma’no

Redditdagi imtihonga tayyorgarlik haqidagi muhokama quyidagi savol bilan ochiladi [3]:

«am i cooked if theres 40 days for finals and i still havent started»

Mazmuni: «Yakuniy imtihonlargacha 40 kun qolib, hali tayyorgarlikni boshlamagan bo‘lsam, ishim bitganmi?» Finals va havent started birikmalari cooked shaklini ovqat pishirishdan uzoqlashtirib, imtihonda muvaffaqiyatsizlikka uchrash xavotiriga bog‘laydi. Savolga berilgan javobda inkor va ijobiy baho yonma-yon kelgan [3]:

«ur not cooked, you ROCK!»

Mazmuni: «Ishing bitgani yo‘q, sen zo‘rsan!» Ur shakli ayni sintaktik o‘rinda you are birikmasiga teng; uni your olmoshi bilan almashtirish gap tuzilishini buzadi.

Not cooked qo‘llanishida sleng ma’nosi saqlanib, muvaffaqiyatsizlik haqidagi taxmin inkor etiladi. Inkorni ko‘rgan zahoti cooked uchun «pishmagan» talqinini tanlash xato bo‘lardi. Oldingi savol imtihon vaziyatini, javobdagi you ROCK esa dalda beruvchi bahoni aniqlashtiradi. Annotatsiyada «muvaffaqiyatsizlik xavfi» ma’nosi, inkor doirasi va ijobiy munosabat alohida yozilishi lozim.

Qisqartma boshqa grammatik vazifaga ham o‘tadi. Satimova HuffPost materialidan «I LOL-ed, of course» parchasini keltirgan [2, 150-b.]. Mazmuni: «Albatta, kuldim». LOL-ed tarkibidagi -ed o‘tgan zamonni ifodalaydi; qisqartma gapda tuslangan fe’l o‘rnini egallaydi. Konversiya — shaklning boshqa so‘z turkumi vazifasiga o‘tishi — va keyingi grammatik shakllanish farqlanishi zarur. Tahliliy yozuvda asl LOL-ed, boshshakl LOL, fe’l belgisi va o‘tgan zamon qaydi birga saqlanadi. Iqtibos birlamchi sahifadan emas, dissertatsiyadagi qayddan olindi.

Oldingi xabar va harakat ishtirokchisi

Telegramdagi @FCANJAN kanalining 41591-xabarida «Бугун бизни жамоа ёрворди!» deyiladi [4]. Tahliliy transliteratsiya: «Bugun bizni jamoa yorvordi!» Undan oldingi 41590-xabarda «Nasaf» g‘alaba qozongani, «Andijon» esa munosib kurashgani aytilgan. Demak, yorvordi ayni o‘rinda «yutdi» degani emas; jamoaning o‘yiniga yuqori baho berilgan. Slengni avtomatik ravishda g‘alaba ma’nosiga tenglashtirish oldingi xabardagi natijaga zid talqin tug‘diradi.

41588-xabardagi «Сизлар бугун ёрвординглар!» jumlasi esa muxlislarga qaratilgan [4]. Tahliliy transliteratsiya: «Sizlar bugun yorvordinglar!» -di o‘tgan zamonni, -nglar ikkinchi shaxs ko‘plikni bildiradi. Murojaat egasi aniqlangach, baho futbol o‘ynashga emas, muxlislikka tegishli ekani anglashiladi. Ikkala misolda umumiy ma’no — «nihoyatda yaxshi bajarmoq» — yaqin; baholanayotgan faoliyat farqlanadi. Jamoa o‘yini va muxlislar qo‘llab-quvvatlashini dalilsiz ikkita mustaqil lug‘aviy ma’no sifatida belgilash o‘rniga, faoliyat turini qo‘shimcha kontekst maydonida qayd etish ma’qul.

Qo‘shimchalanish, aralash birikma va baho

@cringe_community kanalining tavsifida «Eng "sifatli" krinjlar kanali», 486-xabarning videosarlavhasida «Yil krinji» yozilgan [5]. Krinjlar tarkibidagi -lar ko‘plikni, krinji tarkibidagi -i uchinchi shaxs egalik shaklini ifodalaydi. Yil krinji birikmasida krinj muayyan holat yoki videoga berilgan nomlash-baho sifatida kelgan. «Sifatli» so‘zining qo‘shtirnoqqa olinishi ijobiy sifatning masofa bilan, ehtimol, kinoyaviy qo‘llanganini ko‘rsatadi. Faqat sifatli leksemasiga tayangan sentiment tahlili muallif bahosini noto‘g‘ri talqin qilishi mumkin. Video mazmuni tekshirilmagan; xulosa yozma sarlavha va kanal tavsifi bilan chegaralanadi.

Krinjlar va krinji shakllarida asos o‘zgarmagan, grammatik munosabat o‘zgargan. Shuning uchun har bir qo‘shimchali shaklga alohida ma’no raqami berish shart emas. Asosning o‘zbekcha qo‘shimchani qabul qilishi uning grammatik moslashganini ko‘rsatadi; sleng maqomi esa qo‘llanish va uslubiy dalil bilan asoslanadi. Qo‘shtirnoq yoki undov belgisi ham yakka holda kinoyaning isboti deb olinmaydi.

O‘zlashgan asos va o‘zbekcha fe’l birikishini Satimovaning raqamli

muloqotdan keltirgan «Мен охирги маълумотларни пост қилдим» misolida kuzatish mumkin [2, 148-b.]. Muallif post qilmoq birikmasini o‘zlashma slenglar qatorida tavsiflaydi. Mazkur tahlilda post qil-di-m tuzilishidagi zamon va shaxs belgilari, ma’lumotlarni to‘ldiruvchisi hamda platforma konteksti ajratiladi. Harakat — axborotni tarmoqqa joylash. O‘zlashma va yordamchi fe’lning birikishi sleng maqomini yolg‘iz o‘zi tasdiqlamaydi; misol semantik belgilashdagi chegaraviy holat sifatida olinadi. Tavsifni tayyor yorliq sifatida ko‘chirish o‘rniga, avvalgi tadqiqot talqini va yangi annotatsiya qarori alohida saqlanadi.

Yozuv variantlarini annotatsiyada saqlash

Kirill yozuvidagi ёрворди hamda uning lotincha yorvordi transliteratsiyasi bitta manba qo‘llanishiga tegishli. Transliteratsiyani ikkinchi mustaqil misol deb sanash mumkin emas. Asl matn o‘zgartirilmaydi; qidiruv uchun yaratilgan yozuv ko‘rinishi alohida maydonga joylanadi. Xuddi shu tartibda «bizni jamoa» birikmasining qaratqich munosabati tahlilda qayd etilib, iqtibos ichiga «bizning jamoa» shakli yashirincha kiritilmaydi. Ёрворди shaklining ma’no tavsifi manbadagi imloga emas, atrofidagi so‘zlar va oldingi xabarga tayangan holda yoziladi.

1-jadvalda tanlangan birliklar uchun kuzatiladigan belgi va talqin chegarasi jamlangan. Morfemik bo‘linishlar manba yozuvi emas, tahlil uchun kiritilgan qaydlardir.

1-jadval. Ma’no tanlash uchun ajratilgan belgilar

Birlik va manba	Kuzatiladigan belgi	Talqin chegarasi
cooked; ur not cooked [3]	Imtihon haqidagi savol; ur = you are; not inkori	Muvaffaqiyatsizlik xavfi va uning inkori; ovqatga aloqasiz
LOL-ed [2, 150-b.]	Qisqartmaning fe’l o‘rni; -ed zamon shakli	Kulish harakati; qisqartma va zamon alohida qayd etiladi
ёрворди; ёрвордингlар [4]	Jamoa yoki muxlislar; oldingi xabar; -di, -nglar	Yuqori baho; g‘alaba bilan tenglashtirilmaydi
krinjlar; krinji [5]	krinj-lar; krinj-i; baholovchi aniqlovchi	Ko‘plik va egalik; har bir shakl yangi ma’no emas
пост қилдим [2, 148-b.]	O‘zlashgan asos; qil-di-m; ma’lumotlarni to‘ldiruvchisi	Tarmoqqa joylash; o‘zlashish slengning yagona dalili emas

Taklif etilayotgan annotatsiyada asl parcha, tahliliy transliteratsiya, nishon birlik, lemma, morfologik belgi, kontekstual izoh, inkor doirasi va baho alohida qayd etiladi. Oldingi xabar identifikatori, manba va tekshirish sanasi saqlanadi. Yozuv turi tilga tenglashtirilmaydi; o‘zlashma bilan kod almashuvi farqlanadi. Ma’lumot yetishmasa, «kontekst yetarli emas» qaydi qo‘yiladi.

Lingvistik belgilarni tekshirish tartibi

Belgi foydaliligini mazkur parchalar bilan izohlash va uning avtomatik tahlildagi

hissasini o‘lchash — ikki alohida vazifa. Ikkinchisi uchun dastlab ma’lumotlar pilot, o‘quv, sozlash va yakuniy sinov qismlariga ajratilishi taklif etiladi. Bir yozishmaning savoli va javoblari, qayta joylangan matnlar hamda ularning transliteratsiyalari turli qismlarga tarqatilmaydi. Belgilar va ma’no tavsiflari pilot hamda o‘quv materialida ishlab chiqilib, sozlash qismida tekshiriladi. Yakuniy sinov to‘plami mazkur qarorlar tugagach ochiladi. Sinov ma’lumotining oldindan tahlilga aralashishi baholashni asossiz yuqori ko‘rsatishi mumkin [6].

Keyingi tajribada ayni til modeli avval faqat kontekst bilan, so‘ng kontekst va lingvistik belgilar bilan sinalishi mumkin. Model, o‘quv hajmi, nomzod ma’nolar va sinov matnlari bir xil saqlanadi. Inkor, grammatik shakl va oldingi xabar belgilari navbatma-navbat chiqarilib, ma’no tanlashdagi farq tekshiriladi. Ekspert tanlagan ma’no kirish belgilariga kiritilmaydi. Tezisda ko‘rilgan parchalar esa keyingi tajribaning yakuniy sinoviga olinmaydi.

Xulosa

Tahlil qilingan misollarda inkor sleng ma’nosini saqlagan holda taxminni rad etgan; oldingi xabar va murojaat egasi baholanayotgan faoliyatni aniqlashtirgan. Qo‘shimcha olish hamda fe’llashuv grammatik vazifani ko‘rsatgan, lekin har safar yangi lug‘aviy ma’no tug‘dirmagan. Asl yozuv, kontekstual talqin va so‘zlovchi bahosi annotatsiyada alohida qayd etilishi lozim. Grammatik ko‘rsatkichlar, birikuvchanlik, inkor doirasi va oldingi replikaning avtomatik ma’no tanlashga qo‘shgan hissasi mustaqil sinov materialida baholanishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aloraini A., Nenadic G., Schlegel V., Batista-Navarro R. The SlangTrack Dataset: Supporting the Detection of Words Used in Slang Senses // The Proceedings for the 6th International Workshop on Computational Approaches to Language Change (LChange’26). — Rabat: Association for Computational Linguistics, 2026. — P. 1–19. DOI: https://doi.org/10.18653/v1/2026.lchange-1.1.
2. Satimova D. N. Ingliz va o‘zbek yoshlar slengining qiyosiy tahlili: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Andijon: Andijon davlat universiteti, 2020. — 194 b. — Murojaat qilingan sahifalar: 146–153.
3. Reddit. r/IBO. Imtihonga tayyorgarlik haqidagi muhokama, 1rwjxkt; javob identifikatori: ob3xad0. Elektron matn. URL: https://zh.reddit.com/r/IBO/comments/1rwjxkt/am_i_cooked_if_theres_40_days_for_finals_and_i/. Murojaat sanasi: 11.10.2026.
4. ANDIJON ULTRAS BURGUT. Telegram, @FCANJAN. 41588, 41590 va 41591-xabarlar; ochiq veb-ko‘rinish. URL: https://t.me/s/FCANJAN/41583. Murojaat sanasi: 11.10.2026.
5. Cringe community. Telegram, @cringe_community. Kanal tavsifi va 486-xabarning yozma sarlavhasi. URL: https://t.me/cringe_community; https://t.me/s/cringe_community/490. Murojaat sanasi: 11.10.2026.
6. Kapoor S., Narayanan A. Leakage and the reproducibility crisis in machine-learning-based science // Patterns. — 2023. — Vol. 4, no. 9. — Article 100804. DOI: https://doi.org/10.1016/j.patter.2023.100804.

ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШДА РАҚАМЛИ МОНИТОРИНГ ВА “ЯШИЛ” МОЛИЯЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Сулнатов Азизбек Баходир ўғли
Озиқ-овқат ва қишлоқ хўжалиги соҳасида
стратегик ривожланиш ва тадқиқотлар халқаро
маркази кичик илмий ходими
azizbeksultanov@gmail.com

Аннотация. Мазкур тадқиқотда суғориладиган қишлоқ хўжалиги ерларининг мелиоратив ҳолатини яхшилашни иқтисодий рағбатлантиришда рақамли мониторинг ва “яшил” молиялаштириш воситаларидан фойдаланиш имкониятлари тадқиқ этилган. Ердан фойдаланувчиларни табиий ресурсларни сақлашга рағбатлантириш мақсадида “яшил” кредитлар, экотизим хизматлари учун тўловлар (PES), мелиоратив-экологик рейтинг ва махсус молиялаштириш инструментларини жорий этиш механизми ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: ер мелиорацияси, рақамли мониторинг, GIS, масофадан зондлаш, яшил молиялаштириш, яшил кредит.

Кириш. Иқлим ўзгариши, сув ресурслари тақчиллигининг кучайиши ва ер деградацияси қишлоқ хўжалигида ер-сув ресурсларидан фойдаланишнинг анъанавий моделларини қайта кўриб чиқишни талаб қилмоқда. Айниқса, суғорма деҳқончиликка асосланган ҳудудларда тупроқ шўрланиши, сизот сувлари сатҳининг ўзгариши ва ер унумдорлигининг пасайиши ишлаб чиқариш самарадорлигига салбий таъсир кўрсатувчи муҳим омиллар ҳисобланади.

Мелиоратив ҳолатнинг ёмонлашиши фақат муайян фермер хўжалигининг иқтисодий муаммоси эмас. У сув ресурслари сарфининг ортиши, ерларнинг ишлаб чиқаришдан чиқиб кетиши, озиқ-овқат ишлаб чиқариш имкониятларининг қисқариши ва экологик барқарорликнинг пасайишига олиб келиши мумкин. Шунинг учун ер мелиорациясига киритиладиган инвестициялар хусусий даромад билан бир қаторда жамият учун экологик ва ижтимоий наф ҳам яратади.

Мелиоратив тадбирларни рағбатлантиришда “яшил” молиялаштириш ва экотизим хизматлари учун тўлов Payment for Ecosystem Services (PES) каби механизмлардан фойдаланиш заруратини юзага келтиради.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқотда тизимли таҳлил, қиёсий таҳлил, институционал ёндашув, экологик-иқтисодий баҳолаш ва индикаторли баҳолаш усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар. Мелиоратив тадбирларни молиялаштиришдаги муҳим муаммолардан бири ахборот асимметриясидир. Молиялаштирувчи

ташкилот ёки давлат органи муайян ер майдонидаги ҳақиқий мелиоратив ҳолат, амалга оширилган тадбир ва унинг натижаси ҳақида доимий ва арзон маълумот олиш имконига эга бўлмаслиги мумкин. Анъанавий мониторингда катта ҳудудларни жойига чиққан ҳолда текшириш катта вақт ва молиявий ресурс талаб қилади. Рақамли мониторинг эса назорат харажатларини қисқартириш ва мелиоратив ҳолат ўзгаришини мунтазам кузатиш имконини кенгайтиради. Шу асосда мелиоратив ерларни рақамли бошқариш тизими қуйидаги ахборот блокларини қамраб олиши мақсадга мувофиқ (1-жадвал).

1-жавдал

Мелиоратив ерларни рақамли бошқариш тизими қуйидаги ахборот блоклари

Ахборот блоки	Асосий маълумот
GIS маълумотлари	ер майдони, контур, дренаж тармоқлари
Масофадан зондлаш	ўсимлик ва ер юзаси ҳолати
Тупроқ таҳлили	шўрланиш ва бошқа агрокимёвий хусусиятлар
Сув маълумотлари	сув сарфи ва сув таъминоти
Иқтисодий маълумотлар	харажат, ҳосил, даромад
Молиявий тарих	кредит ва лойиҳа натижалари

Ушбу маълумотларни ягона платформада бирлаштириш натижасида ер майдонининг нафақат агрономик, балки мелиоратив-инвестицион профилини шакллантириш мумкин. Тадқиқот доирасида ердан фойдаланувчилар учун Мелиоратив-экологик рейтинг (МЭР) тизимини жорий қилиш таклиф этилади.

Ушбу рейтинг оддий ер бонитети ёки тупроқ сифати баҳосидан фарқ қилиб, ердан фойдаланувчининг муайян давр мобайнида табиий ресурсларни қандай бошқарганини акс эттиради.

Рейтингда қуйидаги йўналишларни ҳисобга олиш мумкин. ернинг мелиоратив ҳолати динамикаси, сувдан фойдаланиш самарадорлиги, тупроқ деградациясининг олдини олиш тадбирлари, дренаж ва ирригация тизимларидан оқилона фойдаланиш, сув тежовчи ва ресурс тежовчи технологияларни жорий этиш, ер ҳолати бўйича мониторинг маълумотларининг ишончлилиги.

Натижада ердан фойдаланувчилар шартли равишда A, B, C ва D мелиоратив-экологик тоифаларга ажратилиши мумкин. Бу ерда муҳим жиҳат шундаки, рейтинг фермерни жазолаш механизми сифатида эмас, балки молиявий ресурслардан фойдаланиш шартларини табақалаштирувчи ахборот воситаси сифатида хизмат қилиши керак. Масалан, юқори рейтингга эга ердан фойдаланувчи “яшил” кредитдан қулайроқ шартларда фойдаланиши, экологик лойиҳаларда иштирок этиши мумкин.

Мелиоратив тадбирлар кўп ҳолларда катта бошланғич инвестицияни талаб қилади. Шунинг учун фақат фермернинг ўз маблағи ёки анъанавий банк кредитига таяниш мелиоратив инвестициялар ҳажмини чеклаб қўйиши мумкин. Ушбу муаммони ҳал этиш учун “яшил” кредит линияларидан фойдаланиш мумкин. Бунда молия ташкилоти учун ҳам янги имконият пайдо бўлади. GIS ва масофадан зондлаш маълумотлари инвестиция объектининг

ҳолатини мунтазам кузатиш имконини бергани сабабли экологик лойиҳалардаги ахборот хавфининг маълум қисми камайиши мумкин.

Мелиоратив ҳолатни яхшилашнинг яна бир истиқболли иқтисодий механизми экотизим хизматлари учун тўлов (PES) ҳисобланади. PES концепциясининг иқтисодий моҳияти шундан иборатки, жамият ёки бошқа манфаатдор томонлар учун экологик наф яратган субъект мазкур хизмат учун иқтисодий рағбат олади.

Мамлакатимиз шароитида таклиф этилаётган тизимни айрим ҳудудларда пилот лойиҳа сифатида синовдан ўтказиш мақсадга мувофиқ.

Биринчи босқичда танланган ҳудудда ерларнинг рақамли мелиоратив харитаси шакллантирилади. Иккинчи босқичда фермер хўжаликлари учун мелиоратив-экологик рейтинг тизими синовдан ўтказилади. Учинчи босқичда тижорат банклари ва бошқа молия институтлари билан ҳамкорликда “яшил” кредит маҳсулоти ишлаб чиқилади. Тўртинчи босқичда экологик хизматларни баҳолаш ва PES механизмининг пилот модели жорий этилади. Бешинчи босқичда GIS ва сунъий йўлдош маълумотлари асосида рақамли MRV тизими шакллантирилади.

Хулоса. Суғориладиган ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашга йўналтириладиган инвестицияларнинг самарадорлигини ошириш замонавий рақамли технологиялар ва иқтисодий рағбатлантириш инструментларини ўзаро интеграция қилишни талаб этади. Тадқиқот натижасида мелиоратив бошқарувнинг анъанавий “муаммони аниқлаш - маблағ ажратиш - тадбирни амалга ошириш” модели ўрнига “рақамли диагностика - инвестиция - мониторинг - верификация - экологик натижа - иқтисодий рағбат” модели таклиф этилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Qadir M., Quillérou E., Nangia V., Murtaza G., Singh M., Thomas R.J., Drechsel P., Noble A.D. Economics of salt-induced land degradation and restoration. Natural Resources Forum, 2014, 38(4), 282–295.

2. Salzman J., Bennett G., Carroll N., Goldstein A., Jenkins M. The global status and trends of Payments for Ecosystem Services. Nature Sustainability, 2018, 1, 136–144.

3. Wunder S. Revisiting the concept of payments for environmental services. Ecological Economics, 2015, 117, 234–243.

4. European Space Agency (ESA). *Sentinel-2 User Handbook*. European Space Agency.

5. Food and Agriculture Organization. *Remote Sensing for Agricultural Water Management*. FAO, Rome.

TASHQI MEHNAT MIGRANTLARINI PENSIYA TA’MINOTI TIZIMIGA JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Zokirova Gavhar Abdumannonovna
Termiz davlat universiteti “Moliya” kafedrasi
mustaqil izlanuvchisi
E-mail: zokirovag@tersu.uz
ORCID ID: 0009-0002-4200-4424

Annotatsiya. Ushbu tezisda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O‘zbekiston fuqarolarining milliy pensiya tizimidan chetda qolish muammosi, uning Pensiya jamg‘armasi badal bazasiga va kelgusidagi ijtimoiy xarajatlarga ta’siri tahlil qilinadi. 2025–2026-yillar ma’lumotlari asosida migrantlar uchun amaldagi ixtiyoriy ijtimoiy soliq mexanizmining cheklovlari hamda Rossiya Federatsiyasining MDH pensiya kelishuvidan chiqishi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi pensiya kelishuvining O‘zbekistonga tatbiq etilmasligi natijasida yuzaga kelgan huquqiy bo‘shliq ko‘rsatib berilgan. Pul o‘tkazmalari kanallariga bog‘langan «Migrant pensiya hisobi» mexanizmi taklif etilib, uning yillik moliyaviy samarasi uch ssenariy bo‘yicha baholangan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, pul o‘tkazmalari, pensiya qamrovi, ixtiyoriy ijtimoiy soliq, mehnat staji, pensiya huquqlarining portativligi, «Migrant pensiya hisobi», Pensiya jamg‘armasi.

Taqsimlovchi pensiya tizimining barqarorligi, avvalo, badal to‘lovchilar bazasining kengligiga bog‘liq. O‘zbekistonda band aholi 15,0 mln kishini tashkil etgani holda ijtimoiy soliq to‘lovchilar soni taxminan 6,0 mln kishi, ya’ni institutsional qamrov atigi 40 foiz darajasida qolmoqda. Natijada bir pensionerga o‘rtacha 1,4 nafar badal to‘lovchi to‘g‘ri kelmoqda, bu esa Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan barqarorlik uchun tavsiya etiladigan 4:1 nisbatidan bir necha barobar pastdir [6; 13]. Badal bazasidan chetda qolayotgan guruhlar orasida tashqi mehnat migrantlari alohida o‘rin tutadi: turli baholarga ko‘ra, ularning soni 2–3 mln kishini tashkil etadi va ularning aksariyati eng mahsuldor mehnat yoshidagi fuqarolardir.

Bu yerda o‘ziga xos paradoks kuzatiladi. Migrantlar mamlakatga valyuta tushumining eng yirik manbalaridan biri hisoblanadi: 2025-yilda transchegaraviy pul o‘tkazmalari 18,9 mlrd AQSh dollariga yetib, 2024-yilga nisbatan 27,2 foizga o‘sdi va YaIMning 12,8 foiziga teng bo‘ldi [4]. Biroq bu oqimlar pensiya tizimiga deyarli integratsiya qilinmagan. Migrant chet elda daromad topadi, lekin O‘zbekistonda pensiya huquqini shakllantirmaydi. Bu «kechiktirilgan ijtimoiy muammo»ni yuzaga keltiradi: 10–20 yildan so‘ng mamlakatga yetarli stajga ega bo‘lmagan yuz minglab keksalar qaytadi va ular budjet hisobidan moliyalashtiriladigan nafaqalarga da’vogar bo‘ladi, ya’ni sug‘urta yuklamasi sof fiskal yuklamaga aylanadi. Muammo ko‘lamini 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin.

1-jadval

Mehnat migratsiyasi va pensiya tizimi qamroviga oid asosiy ko‘rsatkichlar[9]

Ko‘rsatkich	Qiymati
Iqtisodiy faol aholi, mln kishi	15,8
Band aholi, mln kishi	15,0
Ijtimoiy soliq to‘lovchilar, mln kishi	6,0
Institutsional qamrov (badal to‘lovchilar / band aholi), %	40,0
Pensionerlar soni, mln kishi	4,2 dan ortiq
Bir pensionerga to‘g‘ri keladigan badal to‘lovchilar, kishi	1,4
Xorijdagi mehnat migrantlari (baho), mln kishi	2,0–3,0
Transchegaraviy pul o‘tkazmalari, mlrd AQSh dollari	14,8 (2024) / 18,9 (2025)
Pul o‘tkazmalarining YaIMdagi ulushi (2025), %	12,8
Kartaga P2P o‘tkazmalar ulushi (2025), %	46
To‘liq stajsiz pensiya tayinlanganlar ulushi (01.01.2026), %	61
O‘zini o‘zi band qilganlar uchun yillik ijtimoiy soliq (1 BHM), ming so‘m	440

1-jadval ma’lumotlari va amaldagi huquqiy baza tahlili migrantlarning pensiya tizimidan chetda qolishining uchta asosiy sababini ko‘rsatadi.

Birinchidan, amaldagi mexanizm ixtiyoriy va passiv xarakterga ega. PQ-4829-son qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan xorijda ishlayotgan fuqarolar o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga tenglashtirilgan va ular yiliga kamida 1 bazaviy hisoblash miqdori (hozirda 440 ming so‘m) miqdorida ijtimoiy soliq to‘lab, mehnat stajiga ega bo‘lishlari mumkin [2]. Biroq xulq-atvor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan ixtiyoriylik bu yerda samarali ishlamaydi: inson 20–30 yildan keyingi pensiyadan ko‘ra bugungi ehtiyojlarni ustun qo‘yadi. Buni Pensiya jamg‘armasi rahbariyati ham

[9] Muallif tomonidan Milliy statistika qo‘mitasi, Markaziy bank va Pensiya jamg‘armasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan [4; 5; 6].

tan olmoqda: 2026-yil 1-yanvar holatiga pensiya tayinlangan fuqarolarning 61 foizi talab etilgan to‘liq stajga ega emas [5].

Ikkinchidan, xalqaro huquqiy bo‘shliq yuzaga kelgan. 2025-yilning birinchi yarmida pul o‘tkazmalarining 78 foizi Rossiyadan kelib tushgan bo‘lsa-da [4], Rossiya Federatsiyasi 1992-yil 13-martdagi MDH pensiya ta’minoti sohasidagi kelishuvni denonsatsiya qilgan va u 2023-yil 1-yanvardan Rossiya uchun o‘z kuchini yo‘qotgan [8]. Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining 2019-yil 20-dekabrdagi pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi kelishuvi esa faqat a’zo davlatlar fuqarolariga taalluqli bo‘lib, O‘zbekiston kuzatuvchi maqomida bo‘lgani sababli o‘zbekistonlik migrantlarga tatbiq etilmaydi [7]. Natijada qirg‘izistonlik yoki qozog‘istonlik migrant Rossiyada to‘plagan pensiya huquqini o‘z vataniga «eksport» qila olgani holda, o‘zbekistonlik migrantning xorijdagi mehnat davri milliy pensiya maqsadlari uchun amalda yo‘qolib ketmoqda.

Uchinchidan, boshlangan islohot sharoitida xavf yanada ortmoqda. Jamoatchilik muhokamasiga chiqarilgan pensiya islohoti loyihasida eng kam ish stajini 2027–2034-yillarda 7 yildan 15 yilgacha bosqichma-bosqich oshirish, pensiya yoshini 2039-yilga qadar erkaklar uchun 63, ayollar uchun 58 yoshgacha uzaytirish hamda o‘zini o‘zi band qilganlar uchun badallarni majburiy shaklga o‘tkazish taklif etilgan [5]. Migrantlar huquqiy jihatdan o‘zini o‘zi band qilganlarga tenglashtirilganligi sababli, majburiylik ularga ham tegishli bo‘ladi, biroq xorijda bo‘lgan shaxsga nisbatan uni amalda ta’minlash mushkul. Eng kam staj talabining ikki baravardan ortiq oshishi esa migrantlarning pensiyasiz qolish ehtimolini keskin kuchaytiradi.

E’tiborlisi, to‘siq moliyaviy emas, balki institutsional xarakterga ega. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, bir oluvchiga to‘g‘ri keladigan yillik pul o‘tkazmalari o‘rtacha 2000–4000 AQSh dollarini tashkil etadi [4]. Yillik 440 ming so‘mlik badal (taxminan 37 dollar) ushbu oraliqning o‘rtacha qiymatiga nisbatan atigi 1,2 foizga teng. 15 yillik staj uchun jami badal esa 6,6 mln so‘mni tashkil etib, eng kam yoshga doir pensiyaning (983 ming so‘m) taxminan 7 oylik miqdoriga teng bo‘ladi. Demak, migrantlarni tizimga jalb qilishning asosiy shartlari to‘lovning qulayligi, xabardorlik va ishonchdir.

Mazkur xulosalardan kelib chiqib, pul o‘tkazmalari kanallariga bevosita bog‘langan «Migrant pensiya hisobi» mexanizmini joriy etish taklif etiladi. Uning mohiyati quyidagicha: migrant pul o‘tkazmasi ilovasi yoki bank kartasi orqali mablag‘ jo‘natganda, har bir o‘tkazmadan kichik qat’iy summa avtomatik ravishda (voz kechish huquqi saqlangan holda) Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va yillik 1 BHM yig‘ilganda staj avtomatik hisoblanadi; bundan tashqari, migrant xohishiga ko‘ra o‘tkazma summasining 1 foizini o‘zining shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘iga (JBPT) yo‘naltirishi mumkin. 2025-yilda o‘tkazmalarning 46 foizi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bank kartalariga P2P shaklida amalga oshirilgani [4] bunday mexanizm uchun tayyor raqamli infratuzilma mavjudligini ko‘rsatadi. O‘xshash yondashuv xalqaro amaliyotda ham sinalgan: Filippinda 2018-yilgi «Ijtimoiy xavfsizlik to‘g‘risida»gi qonun (RA 11199) bilan xorijdagi mehnat

migrantlari ijtimoiy sug‘urta tizimiga majburiy qamrab olingan [9]. Taklif etilayotgan mexanizmning yillik samarasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

«Migrant pensiya hisobi» joriy etilishining ssenariy baholashi (yillik, 2026-yil narxlarida)[10]

Ko‘rsatkich	Past (10%)	O‘rta (25%)	Yuqori (50%)
Ishtirokchilar soni, ming kishi	200	500	1 000
Ijtimoiy soliq tushumi (1 BHM), mlrd so‘m	88,0	220,0	440,0
Yil davomida shakllangan staj, ming kishi-yil	200	500	1 000
JBPTga 1 foizli ixtiyoriy ajratma, mlrd so‘m	71,0	177,6	355,2
Jami yillik oqim, mlrd so‘m	159,0	397,6	795,2
Badal to‘lovchilar / pensionerlar nisbati (amalda 1,4)	1,48	1,55	1,67

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, migrantlarning chorak qismi ishtirok etgan o‘rta ssenariyda Pensiya jamg‘armasi va JBPT tizimiga yiliga qariyb 400 mlrd so‘m mablag‘ kelib tushadi hamda har yili 500 ming kishi-yillik staj shakllanadi, badal to‘lovchilar va pensionerlar nisbati esa 1,4 dan 1,55 gacha yaxshilanadi. Joriy tushumlar hajmi jamg‘armaning 2025-yildagi o‘z daromadlariga (56,5 trln so‘m) nisbatan kichik bo‘lsa-da, mexanizmning asosiy samarasi uzoq muddatli: u kelgusida pensiya huquqisiz qaytadigan keksalar sonini kamaytiradi va budjetdan qoplanadigan ijtimoiy nafaqalar yukining oldini oladi. Ta’kidlash joizki, model deterministik bo‘lib, ishtirok darajasi va o‘rtacha o‘tkazma hajmi taxminiy parametrlar sifatida qabul qilingan.

Tahlillar asosida tashqi mehnat migrantlarini pensiya ta’minoti tizimiga jalb qilish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Xorijdagi fuqarolar uchun ijtimoiy soliqni pul o‘tkazmalari operatorlari va tijorat banklari ilovalari orqali «avtomatik qo‘shilish, erkin chiqish» tamoyili asosida to‘lash tartibini joriy etish hamda yillik 1 BHM to‘langanda stajni proaktiv tarzda hisoblash;

[10] Muallif hisob-kitoblari. Farazlar: migrantlar soni – 2,0 mln kishi; bir oluvchiga yillik o‘rtacha o‘tkazma – 3000 AQSh dollari; kurs – 1 dollar = 11 840 so‘m; 1 BHM = 440 ming so‘m; pensionerlar – 4,2 mln kishi.

2. Eng kam staj talabining oshirilishi munosabati bilan migrantlar uchun o‘tish davrini belgilash: 2021-yildan keyingi xorijdagi mehnat davrlari uchun badallarni orqaga qarab (5 yilgacha) to‘lash imkoniyatini berish;

3. Rossiya Federatsiyasi bilan ikki tomonlama pensiya ta’minoti to‘g‘risidagi shartnomani har bir davlat o‘z hududidagi staj uchun pensiya to‘lashi (proporsional tamoyil) asosida tuzish, Qozog‘iston, Janubiy Koreya va Turkiya bilan ijtimoiy ta’minot kelishuvlari bo‘yicha muzokaralarni faollashtirish;

4. 2026-yildan boshlab ixtiyoriy jamg‘armalar uchun joriy etilayotgan davlat qo‘shma moliyalashtirish mexanizmini migrantlarga ham tatbiq etish, bunda asos sifatida ish haqi o‘rniga JBPTga yo‘naltirilgan o‘tkazma summasini qabul qilish;

5. Pensiya jamg‘armasi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi va Markaziy bank ma’lumotlar bazalarini integratsiyalash hamda migrantlarning pensiya tizimidagi qamrovi ko‘rsatkichini har yili ochiq e’lon qilish.

Xulosa qilib aytganda, tashqi mehnat migratsiyasi O‘zbekiston pensiya tizimi uchun ham risk, ham imkoniyat manbaidir. Mamlakatga har yili kirib kelayotgan qariyb 19 mlrd dollarlik pul o‘tkazmalari oqimining kichik bir qismini rasmiy pensiya huquqlariga aylantirish badal bazasini kengaytirish, kelgusidagi keksalik qashshoqligining oldini olish va islohotning ijtimoiy adolatini ta’minlashning eng kam xarajatli yo‘llaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi Qonuni, 03.09.1993-yil (2025-yil 19-maydagi O‘RQ-1066-son Qonun tahririda).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4829-son qarori, 15.09.2020-yil.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-59-son Farmoni, 04.04.2024-yil.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Xalqaro migratsiya va jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari sharhi. – Toshkent, 2026.

5. Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijrochi direktori M.Atadjanovning pensiya islohoti bo‘yicha intervyusi // Spot.uz, 16.09.2026. https://www.spot.uz/oz/2026/09/16/pension/

6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Mehnat bozori asosiy ko‘rsatkichlari, 2025-yil. https://stat.uz

7. Соглашение о пенсионном обеспечении трудящихся государств – членов Евразийского экономического союза от 20 декабря 2019 года.

8. Федеральный закон от 11.06.2022 № 175-ФЗ «О денонсации Российской Федерацией Соглашения о гарантиях прав граждан государств – участников Содружества Независимых Государств в области пенсионного обеспечения».

9. Republic of the Philippines. Republic Act No. 11199 “Social Security Act of 2018”. – Manila, 2019.

10. ILO. World Social Protection Report 2020–22: Social Protection at the Crossroads. – Geneva: International Labour Office, 2021.

11. Holzmann R. Do Bilateral Social Security Agreements Deliver on the Portability of Pensions and Health Care Benefits? // IZA Policy Paper No. 111. – Bonn, 2016.

12. Zokirova G.A. Changes in the State Pension System in Uzbekistan // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – Vol. 9(12).

13. Zokirova G.A. Financial Condition and Sustainability Analysis of the Pension System in Uzbekistan.

KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI

Abruyev Abdumalik Oynazarovich
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro Universiteti mustaqil izlanuvchisi
Email: abruevabdumalik@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag‘allik darajasini qisqartirishning xorijiy tajribalari, xususan Xitoy tajribasi tahlil qilingan. Unda kambag‘allikning aholi daromadlari, bandlik, ta’lim, ijtimoiy farovonlik va jamiyat barqarorligiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, kambag‘allikni kamaytirishda manzilli ijtimoiy himoya, aholini kasb-hunarga o‘qitish, yangi ish o‘rinlari yaratish, qishloq hududlarini rivojlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarning ahamiyati ochib berilgan. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligi hamda daromadlarini oshirish imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, kambag‘allikni qisqartirish, xorijiy tajriba, Xitoy tajribasi, aholi daromadlari, bandlik, ijtimoiy himoya, tadbirkorlik, inson kapitali, hududiy rivojlanish, ijtimoiy siyosat, farovonlik.

Iqtisodiyotni rivojlantirish ma’lum dasturlar, iqtisodiy rejalar, strategik rejalar asosida amalga oshiriladi. Shu sababli mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda iqtisodiyotning ilg‘or usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mana shunday ilg‘or usullar sirasiga xorij tajribasidan samarali foydalanish va mahalliylashtirish birinchi galdagi iqtisodiy muammolarni hal etishda qo‘l keladi. Bunday usullarga aholi daromadlari, samarali bandligi, turmush tarzi va farovonligi oshishiga olib keluvchi yo‘llarni izlashda xorij tajribasini qo‘llash yuqori ahamiyat kasb etishini bildiradi. Bizningcha bunday usullar mahallalar kesimida ham kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini oshirishga olib keladigan drayverlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Iqtisodiyot oliy maktabi aholi daromadlari va turmush darajasi tahlil Markazining tadqiqotlariga ko‘ra, kambag‘allar toifasiga kiruvchi insonlarning xulq-atvori ma’lum yillar oralig‘ida quyidagicha tartibda o‘zgarar ekan: bunday insonlar kambag‘allikning dastlabki yilida o‘z jamg‘armalari, qarindosh-urug‘ va tanish-bilishlardan qarz olish hisobiga hozirgi paytdagi iste’mol va turmush sifati darajasini saqlab qolishga intiladi, barcha kuch va imkoniyatlarini ishga solib yangi yoki qo‘shimcha ish topishga harakat qiladi.

Bundan keyingi bosqich ikki yil davom etadi. Kambag‘al insonlar mazkur bosqichda iste’mol tarkibini o‘zgartira boshlaydi. Arzon tovarlarni ko‘proq sotib ola boshlaydi, qimmat xorijiy sayyohlik safarlarini ichki, arzon sayyohlik yo‘nalishlariga almashtiradi. Ammo oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli avvalgi darajada qoladi.

Kambag‘allikka tushgan insonlar uch yildan so‘ng ham munosib ish joyini topa olmasa, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymagan bo‘lsa, endi boshqa va hatto jinoiy daromad topish yo‘llarini izlay boshlaydi. Ular o‘z iste’mollarini keskin pasaytiradi.

Kambag‘allikning yettinchi yiliga kelib, inson o‘z holatiga ko‘nikadi va uni unumdor mehnat sohasiga qaytarish endi juda qiyin kechadi. U ishga chiqish yoki vaqtinchalik daromad keltiruvchi faoliyat turlari bilan shug‘ullanishdan ko‘ra, nafaqaga kun kechirishni, qarindoshlarning yordamiga ko‘z tikishni afzal biladi.

Kambag‘allik haqida so‘z yuritganda, u bitta inson uchun tegishli bo‘lgan muammo emasligini anglab yetishimiz lozim. Kambag‘allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Kambag‘allik bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sabablar tufayli tug‘ilishning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Kambag‘allar yetarlicha ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganliklari bois, malaka va kasbiy ko‘nikmalari past xodimlar safini to‘ldiradilar. Jamiyat uchun zarur bo‘lgan kasb egalari, xususan o‘qituvchi va shifokorlar yuqori daromadga ega bo‘lish maqsadida o‘z ish joylarini tashlab boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jinoyatchilikning o‘sishiga olib keladi, chunki tirikchilik qilish uchun insonlar daromad topishning noqonuniy yo‘llaridan ham foydalanishga majbur bo‘ladilar. Kambag‘allik jamiyatda daromadlarning keskin tabaqalanishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning chuqur ildiz otishiga sabab bo‘ladi.

Amerikalik iqtisodchi Jeffri Saks o‘zining “Kambag‘allikning intihosi” deb nomlanuvchi kitobida jamiyatning kambag‘allik changalidan qutulishiga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko‘rsatgan: inson kapitali, ishbilarmonlik kapitali, infratuzilma, tabiiy kapital, ijtimoiy o‘rnatilgan kapital va bilimlar kapitali.

Kambag‘allikni qisqartirish uchun davlat tomonidan ajratiladigan mablag‘lar miqdorini ko‘paytirishimiz, tadbirkorlarga turli imtiyoz va yengilliklar taqdim qilgan holda, ularni keng ko‘lamli xayriya ishlariga jalb qilishimiz mumkin. Ammo bunday tadbirlarni amalga oshirish bilangina jamiyatda kambag‘allik muammosini bartaraf qilishning deyarli imkoni yo‘q. Bunday tadbirlar aholining yashab qolishiga, shunchaki kun kechirishiga zamin yaratsada, kambag‘allik changalidan qutulib chiqishga imkon bermaydi.

Kambag‘allikka qarshi kurashishda dunyo mamlakatlari tajribasini o‘rganish va ulardan amaliyotda keng foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, O‘zbekistonda kambag‘allikka qarshi kurashish dasturlarini ishlab chiqishda Xitoy tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Xitoy bugungi kunda kambag‘allikni tugatish borasida juda katta ishlarni amalga oshirdi. Jahon bankining ma’lumotlariga ko‘ra, Xitoyda bugungi kunga kelib 850 million kishi qashshoqlik chegarasidan chiqarildi. Xitoyda kambag‘allik darajasi 1981 yilda 88% ni[11] tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkich mutloq tugatildi. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlardagi kambag‘allik darajasi bilan to‘la mos

[11] https://www.ebsco.com/research-starters/history/poverty-china

tushadi. Jumladan, kambag‘allik darajasi AQShda 1%, Shvetsiyada 0,61%,[12] Germaniyada 0,19%, Italiyada 1,5%ni tashkil etadi.

Xitoyda kambag‘allikka qarshi kurashish chora-tadbirlari quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Ko‘rsatilayotgan ijtimoiy himoya chora-tadbirlarining aniq manzilga yo‘naltirilganligi;

2. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mahalliy bozorlarni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlarining har jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi;

3. Kambag‘allikka qarshi kurashishda har bir hududning o‘ziga xos jihatlaridan kelib chiqib yondashish;

4. Xitoyda amalga oshiriluvchi ijtimoiy siyosat aholi turli qatlamlarining manfaatlarini qamrab olishga qaratilgan. Xususan, keksa yoshdagi aholi uchun tegishli ijtimoiy xizmatlarning sifatini oshirish maqsad qilib olingan bo‘lsa, mehnatga layoqatli va ayniqsa yoshlarning mehnat salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish Xitoyda kambag‘allikka qarshi kurashish siyosatining asosini tashkil etadi. Bunda asosiy e’tibor yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishga qaratiladi, ya’ni, “Insonlarga qarmoq berib, ularga baliq tutishni o‘rgatish kerak”, degan Konfutsiy ta’limotiga qat’iy amal qilinadi;

5. Qishloq hududlarida kambag‘allikni kamaytirish maqsadida qishloq hududlariga sanoat ishlab chiqarishini olib kirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini kuchaytirish;

6. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil etish amaliyotidan keng foydalanish;

7. Ijtimoiy dasturlarga yo‘naltirilgan har qanday mablag‘ning sarflanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish.

Jahon bankining qashshoqlikni kamaytirish bo‘yicha har ikki yilda e’lon qilinuvchi hisobotiga ko‘ra, dunyo aholisining deyarli 46%i (3,4 milliard kishi)kuniga 5,5 dollardan kamroq mablag‘ga kun kechiradi. 1,9 milliarddan ortiq kishi esa (dunyo aholisining 26,2%i) kuniga 3,2 dollardan kamroq mablag‘ hisobiga kun kechiradi. Kuniga 1,90 dollarga kun kechiruvchi eng qashshoq aholining ulushi dunyo bo‘yicha 10%gacha qisqargan bo‘lsa-da, hanuz dunyoda kambag‘allikni kamaytirish muammosi o‘z ahamiyatini yo‘qotganicha yo‘q.

“Oxfam” xalqaro tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘yicha yig‘ilayotgan soliq tushumlarining har bir dollariga to‘g‘ri keluvchi boylar to‘laydigan soliq atigi 4 sentni tashkil etar ekan[13]. Agar dunyo bo‘yicha eng boy insonlarning atigi 1%i to‘lanayotgan soliqlar miqdorini atigi 0,5%ga oshirsalar, dunyo mamlakatlari bo‘yicha bugungi kunda oddiy maktab ta’limidan bebahra qolayotgan 262 million bola uchun maktabga qatnash imkoniyati yaratilar ekan.

[12] https://tradingeconomics.com/sweden/at-risk-of-poverty-rate-eurostat-data.html

[13] https://www.oxfam.org/en/press-releases/richest-1-bag-nearly-twice-much-wealth-rest-world-put-together-over-past-two-years

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Sachs, J. D. «Kambag‘allikning intihosi: Bizning davrimiz uchun iqtisodiy imkoniyatlar». – Nyu-York: Penguin Press, 2005.
2. Jahon banki. «Kambag‘allik va umumiy farovonlik – 2022: Rivojlanish yo‘nalishini tuzatish». – Vashington: Jahon banki, 2022.
3. Jahon banki. «Xitoyda kambag‘allikni qisqartirishning qirq yilligi: Asosiy omillar, jahon uchun saboqlar va istiqboldagi yo‘nalishlar». – Vashington: Jahon banki, 2022.
4. Oxfam xalqaro tashkiloti. «Eng boylarning omon qolishi: Tengsizlikka qarshi kurashish uchun eng boy qatlamni soliqqa tortish zarurati». – Oksford: Oxfam International, 2023.
5. Osiyo taraqqiyot banki. «Osiyoda kambag‘allik va tengsizlik: O‘lchash, siyosat va tendensiyalar». – Manila: Osiyo taraqqiyot banki.
6. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi. «Inson taraqqiyoti to‘g‘risidagi hisobot». – Nyu-York: BMT Taraqqiyot dasturi.

MEHNATGA HAQ TO‘LASH XARAJATLARINING TASHKILOT MOLIYAVIY NATIJALARIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.

Jo‘rayeva Sitora Samadovna

Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti magistiranti

Annotatsiya: So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat tizimiga sezilarli o‘zgarishlar kiritildi. Hozirgi vaqtda asosiy ustuvor vazifalardan biri Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish, moliyaviy hisobotlarni modernizatsiya qilish hamda hisob va boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni tatbiq etishdan iborat. 2024-yilda hisob-kitoblarning raqamli tizimlari va moliyani avtomatlashtirilgan boshqarish texnologiyalari, ayniqsa, davlat sektori hamda ta’lim muassasalarida sezilarli darajada rivojlandi . Mazkur o‘zgarishlar ish haqi va ijtimoiy to‘lovlar hisobini yuritish hamda ularning auditini o‘tkazish tartib-taomillarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Kalit so‘zlar: Buxgalteriya hisobi, mehnatga haq to‘lash, ish haqi, ijtimoiy to‘lovlar, mehnat xarajatlari, moliyaviy natijalar, ekonometrik modellashtirish, ekonometrik tahlil, regressiya modeli, mehnat unumdorligi, moliyaviy nazorat, audit, raqamli texnologiyalar, moliyaviy hisobot, tashkilot faoliyati samaradorligi.

ABSTRACT

In recent years, significant changes have been introduced into the accounting and financial control system of the Republic of Uzbekistan. Currently, one of the key priorities is the implementation of International Financial Reporting Standards, modernization of financial reporting, and the integration of digital technologies into accounting and management processes. In 2024, digital accounting systems and automated financial management technologies developed significantly, particularly in the public sector and educational institutions. These changes have created a need to further improve the procedures for accounting for wages and social payments, as well as their auditing.

Keywords: Accounting, remuneration, wages, social payments, labor costs, financial results, econometric modeling, econometric analysis, regression model, labor productivity, financial control, audit, digital technologies, financial reporting, organizational performance.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ish haqi aholining turmush darajasi, tashkilot faoliyati samaradorligi va umuman iqtisodiy tizimga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi eng muhim va ta’sirchan iqtisodiy kategoriyalardan biridir. Ish haqi xodimlarni mehnati uchun mukofotlashning eng keng tarqalgan shakli hamda aholining aksariyat qismi

uchun asosiy daromad manbai hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi tizimi iqtisodiy, ijtimoiy va rag‘batlantiruvchi funksiyalarni bajarib, xodimlar mehnat unumdorligi bilan tashkilotning foydaliligi va samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi.

10. Ergasheva, A. F., & Oltinov, R. O. (2025). *The Impact of Small and Medium Enterprise Financing on Economic Growth: Empirical Evidence from Uzbekistan*. Innovation Science and Technology, 1(11). DOI: 10.5281/zenodo.17757039. https://zenodo.org/records/17757039

11. Akbarov, A. A. (2026). *Assessing the Economic Security of Small Businesses: A Composite Index Approach*. Enterprise Development and Microfinance, 36(2), 920–945. DOI: 10.64149/edm.v36i2.1142. https://papjournals.com/index.php/edm/article/view/1142

12.O'zbekiston Respublikasi milliy Statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayorlandi - www.stat.uz.

LOGISTIKA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH: RAQAMLI PLATFORMALARNING YUK TASHUVCHILAR FAOLIYATIGA TA’SIRI

Ochilov Ismat Ochilovich
Samarqand Iqtisodiyot va Servis instituti
ochilov.ismat2020@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada logistika jarayonlarini avtomatlashtirish sharoitida raqamli platformalarning yuk tashuvchilar faoliyatiga ta’siri tahlil qilinadi. Zamonaviy logistika tizimida transport operatsiyalarini rejalashtirish, yuklarni kuzatish, buyurtmalarni boshqarish, transport vositalarining harakat yo‘nalishlarini optimallashtirish va tashuvchi hamda buyurtmachi o‘rtasidagi axborot almashinuvini tezlashtirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati yoritilgan. Raqamli logistika platformalari transport kompaniyalariga mavjud resurslardan samarali foydalanish, bo‘sh qatnovlarni kamaytirish, xarajatlarni nazorat qilish hamda mijozlarga ko‘rsatiladigan xizmat sifatini oshirish imkonini berishi asoslab berilgan. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan texnologik, tashkiliy, axborot xavfsizligi va kadrlar malakasi bilan bog‘liq muammolar ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: logistika, avtomatlashtirish, raqamli platforma, yuk tashish, transport logistikasi, raqamlashtirish, sun’iy intellekt, logistika samaradorligi.

Global iqtisodiy aloqalarning murakkablashuvi, elektron tijorat hajmining kengayishi va mijozlarning yetkazib berish tezligiga bo‘lgan talablarining ortishi logistika tizimlarida yangi boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni taqozo qilmoqda. An’anaviy usullar asosida transport operatsiyalarini boshqarish katta hajmdagi buyurtmalar, transport vositalari va yuk oqimlarini bir vaqtning o‘zida muvofiqlashtirishda yetarlicha samarali bo‘lmay qolmoqda. Shu sababli transport-logistika sohasida raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, GPS monitoring, bulutli texnologiyalar va ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash vositalari tobora keng qo‘llanilmoqda. Raqamlashtirish logistika tizimining alohida operatsiyalarini avtomatlashtirish bilan cheklanmaydi. U yuk jo‘natuvchi, transport kompaniyasi, haydovchi, ombor, bojxona organlari va yakuniy iste’molchi o‘rtasida yagona axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchilar raqamli transformatsiya ta’minot zanjiridagi ma’lumotlar shaffofligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini tezroq qabul qilish imkoniyatini yaratishini ta’kidlaydilar [1, 27].

Raqamli logistika platformasi transport xizmatlariga oid ma’lumotlarni yagona axborot muhitida birlashtirish imkonini beradigan texnologik tizim hisoblanadi. Bunday platformalar orqali yuk buyurtmalarini qabul qilish, tashuvchini tanlash, transport vositasini biriktirish, yo‘nalishni belgilash, harakatni

kuzatib borish va bajarilgan xizmat bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Logistika sohasidagi raqamlashtirishning muhim vositalaridan biri Transportation Management System (TMS) hisoblanadi. Mazkur tizim transport operatsiyalarini rejalashtirish va nazorat qilishni avtomatlashtirib, bir nechta yukni bir transport vositasida optimal joylashtirish, eng samarali marshrutni aniqlash va yetkazib berish muddatini nazorat qilish imkonini beradi.

Raqamli ta’minot zanjirlarida axborot oqimi moddiy oqim bilan bir qatorda asosiy strategik resurslardan biriga aylanadi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash korxonaga talabni prognoz qilish, transport yuklamalarini aniqlash va resurslardan foydalanish bo‘yicha asoslangan qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi [2, 163]. GPS va telematika tizimlarining raqamli platformalar bilan integratsiyalashuvi esa transport vositasining real vaqt rejimidagi joylashuvi, tezligi, yoqilg‘i sarfi va belgilangan marshrutga rioya etilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nazorat qilish imkonini beradi. Natijada transport kompaniyasi operatsion jarayonni masofadan boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Avtomatlashtirishning yuk tashuvchilar faoliyatiga ta’siri, operatsion xarajatlarni kamayishida namoyon bo‘ladi. Transport kompaniyalari uchun muhim muammolardan biri avtomobilning yuksiz, ya’ni bo‘sh harakatlanishidir. Raqamli platformalar tashuvchilar va yuk jo‘natuvchilar haqidagi ma’lumotlarni birlashtirish orqali transport vositasi uchun qaytish yo‘nalishida ham mos yuk topish imkoniyatini kengaytiradi.

Ikkinchidan, avtomatlashtirilgan tizimlar marshrutlarni optimallashtiradi. Masofa, yetkazib berish vaqti, yo‘l holati, transport vositasining yuk ko‘tarish imkoniyati va boshqa parametrlar hisobga olinib, yo‘nalish shakllantiriladi. Natijada transport vositasidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun sharoit yaratiladi.

Uchinchidan, raqamli platformalar transport operatsiyalarining shaffofligini ta’minlaydi. Mijoz yukning qayerda ekanligi va taxminiy yetib kelish vaqtini kuzatishi mumkin. Bu buyurtmachi bilan tashuvchi o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga xizmat qiladi. Logistika 4.0 konsepsiyasida aynan real vaqt rejimida ma’lumot almashish transport va ta’minot zanjirining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi [3, 27].

To‘rtinchidan, elektron hujjat aylanishining joriy etilishi ma’muriy operatsiyalarni sezilarli ravishda soddalashtiradi. Buyurtma, hisob-faktura, yuk hujjati va boshqa ma’lumotlarni elektron shaklda shakllantirish qog‘oz hujjatlarga bog‘liqlikni kamaytiradi. Hujjatlarni avtomatik shakllantirish inson omili natijasida yuz beradigan texnik xatolar ehtimolini ham pasaytiradi.

Logistika jarayonlarini avtomatlashtirishning keyingi bosqichi sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar-Big Data texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq. Transport kompaniyalarida har kuni transport harakati, buyurtmalar, yoqilg‘i iste’moli, haydovchilarning ishlash tartibi va yetkazib berish muddatlari bo‘yicha katta hajmdagi axborot shakllanadi. Ushbu ma’lumotlarni analitik algoritmlar yordamida qayta ishlash transport vositalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, mavsumiy talabni baholash va xarajatlarni prognoz qilishga yordam

beradi. Katta ma’lumotlardan foydalanish ta’minot zanjiridagi noaniqliklarni kamaytirish va qarorlar sifatini oshirishga xizmat qilishi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan [4, 17].

Sun’iy intellekt texnologiyalari transport vositalariga texnik xizmat ko‘rsatishda ham muhim o‘rin tutadi. Avtomobillardan olinadigan texnik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali ayrim nosozliklarni oldindan aniqlash va transport vositasining kutilmagan to‘xtab qolishi xavfini kamaytirish mumkin.

Raqamli logistika platformalarining imkoniyatlariga qaramasdan, ularni joriy etishda bir qator muammolar mavjud. Birinchi muammo dasturiy va texnik infratuzilmani yaratish uchun boshlang‘ich investitsiyalar talab qilinishidir. Ayniqsa, kichik transport korxonalarida yangi tizimlarni joriy etish uchun moliyaviy va texnik imkoniyatlar cheklangan bo‘lishi mumkin.

Ikkinchi muammo turli axborot tizimlarining o‘zaro integratsiyasi bilan bog‘liq. Yuk jo‘natuvchi, tashuvchi, ombor va boshqa ishtirokchilarning turli dasturlardan foydalanishi ma’lumot almashinuvida nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Uchinchi muhim masala axborot xavfsizligidir. Raqamli logistika tizimida tijorat shartnomalari, yuklar, transport vositalari va mijozlar to‘g‘risidagi katta hajmdagi ma’lumotlar saqlanadi. Shu sababli kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish raqamlashtirish strategiyasining ajralmas elementi bo‘lishi zarur. Bundan tashqari, texnologik o‘zgarishlar xodimlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam rivojlantirib borishni talab qiladi. Logistika 4.0 sharoitida texnologiyalar bilan inson kapitalining uyg‘unligi samarali logistika tizimini shakllantirishning muhim sharti sifatida qaralmoqda [5, 31].

Xulosa. Logistika jarayonlarining avtomatlashtirilishi transport xizmatlari bozorining shakllanish tamoyillarini sezilarli darajada o‘zgartirmoqda. Raqamli platformalar yuk tashuvchilarga transport vositalarini samarali boshqarish, marshrutlarni optimallashtirish, bo‘sh qatnovlarni qisqartirish, xarajatlarni nazorat qilish va xizmatlarning shaffofligini oshirish imkoniyatini bermoqda. Shu bilan birga, avtomatlashtirish faqat yangi dasturiy mahsulotlarni sotib olish yoki elektron hujjatlarga o‘tishdan iborat emas. Yuqori natijaga erishish uchun transport korxonasining biznes jarayonlari, boshqaruv mexanizmlari va xodimlarning raqamli kompetensiyalari yagona tizim sifatida rivojlantirilishi lozim. Kelajakda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, IoT, bulutli texnologiyalar va avtomatik prognozlash tizimlarining transport-logistika platformalariga yanada chuqur integratsiyalashuvi kutiladi. Bunday sharoitda raqamli transformatsiyani izchil amalga oshirgan yuk tashuvchi korxonalar nafaqat operatsion samaradorlikni oshirish, balki xizmat ko‘rsatish sifati va bozor talablariga moslashuvchanligini ham kuchaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofmann E., Rüsch M. Industry 4.0 and the current status as well as future prospects on logistics // *Computers in Industry*. – 2017. – Vol. 89. – P. 23–34.
2. Büyüközkan G., Göçer F. Digital Supply Chain: Literature review and a

proposed framework for future research // *Computers in Industry*. – 2018. – Vol. 97. – P. 157–177.
3. Winkelhaus S., Grosse E.H. Logistics 4.0: A systematic review towards a new logistics system // *International Journal of Production Research*. – 2020. – Vol. 58, No. 1. – P. 18–43.
4. Kache F., Seuring S. Challenges and opportunities of digital information at the intersection of Big Data Analytics and supply chain management // *International Journal of Operations & Production Management*. – 2017. – Vol. 37, No. 1. – P. 10–36.
5. Barreto L., Amaral A., Pereira T. Industry 4.0 implications in logistics: an overview // *Procedia Manufacturing*. – 2017. – Vol. 13. – P. 1245–1252.

THE ROLE OF GREEN INDUSTRIALIZATION IN DEVELOPING COUNTRIES: A REVIEW OF THEORETICAL APPROACHES AND POLICY LESSONS

Yuldosheva Oygul
The University of World Economy and Diplomacy,
Assistant teacher of "International Economics" department
yuldosheva.o@uwed.uz

Abstract Developing countries must accelerate industrial growth while reducing carbon intensity, a task made harder by tightening climate commitments and new trade-related environmental regulation. This paper reviews the role of green industrialization in developing economies by synthesizing the literature on structural transformation, the Porter hypothesis, and industrial resource productivity. It argues that green industrialization can contribute to economic diversification, employment creation, and the preservation of export competitiveness, but that its outcomes depend on access to finance and technology and on the quality of state capabilities. The paper concludes that coordinated industrial policy, investment in green skills, and international cooperation are central to turning environmental constraints into development opportunities.

Keywords: green industrialization, developing countries, structural transformation, Porter hypothesis, trade competitiveness, green industrial policy

1. Introduction

The conventional industrialization model, in which economic growth is achieved at the expense of environmental quality, is increasingly difficult to sustain under global climate change. According to the IPCC, industry accounted for 14.1 $GtCO_2$-eq, or 24% of direct global anthropogenic greenhouse gas emissions in 2019, and for about 20 $GtCO_2$-eq, or 34%, when indirect emissions from power and heat generation are included [1]. For developing countries, this creates a dual imperative: to sustain growth and job creation while limiting environmental damage.

Green industrialization is understood here as more than the installation of pollution-control equipment. It refers to the restructuring of the productive base toward low-carbon technologies and the efficient use of energy and materials [2], [3]. The approach is closely related to inclusive green growth, which holds that greening growth is necessary, efficient, and affordable, but it cannot be presumed to be inclusive without deliberate policy design [4].

This paper brings together three strands of the literature (structural transformation, the Porter hypothesis, and resource productivity) and asks: through which channels can green industrialization support development in developing countries, and under what conditions do these benefits materialize?

The aim of this paper is to clarify the role of green industrialization in developing economies and to draw theoretical and policy conclusions from the existing literature.

Main body There are three roles stand out in the literature: economic diversification, employment creation, and market access. First, green industrialization can support economic diversification and resilience. Many developing economies depend on a narrow set of fossil fuel, mineral, or agricultural exports, which exposes them to external price shocks [5]. Altenburg et al. [3] pay particular attention to developing countries because of their need for growth and their high potential for transformation, given that they are not yet locked into unsustainable pathways. Rodrik [6] adds that green technologies lower the social costs of transition to a green growth path, and that the theoretical case for using industrial policy to facilitate them is strong.

Second, green industrialization has a social dimension. IRENA and ILO estimate that global renewable energy employment reached 16.6 million jobs in 2024, an increase of 2.3% over 2023, which was a marked slowdown in growth despite record capacity additions. The same review shows that these jobs are geographically concentrated: China alone accounts for about 7.3 million, or 44% of the total, and the five largest countries and regions hold over 85% of all jobs [7]. This concentration indicates that employment gains follow manufacturing and deployment capacity rather than arising automatically from the energy transition. Developing countries outside the leading producers therefore need deliberate strategies for building domestic supply chains and skills.

Third, green industrialization is increasingly linked to market access and trade competitiveness. The European Union's Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM), established by Regulation (EU) 2023/956 [8], applied a transitional reporting phase from October 2023 to December 2025, and its definitive regime starts on 1 January 2026 [8]. Regulation (EU) 2025/2083, which entered into force on 20 October 2025, simplified the mechanism, for example through a 50-tonne annual exemption threshold for small importers [9]. UNCTAD's 2021 modelling, which pre-dates these amendments, suggests that a CBAM shifts trade patterns toward countries with less carbon-intensive production and may reduce exports of developing countries, which makes cleaner production technologies and flanking measures important [10]. Exporters with carbon-intensive production therefore face growing pressure to decarbonize in order to maintain access to major markets. Two country cases illustrate how these roles translate into policy. In India, the Union Cabinet approved a Production Linked Incentive scheme for high-efficiency solar PV modules in April 2021, which pays selected manufacturers incentives on sales for five years after commissioning, with the stated aim of building a domestic manufacturing ecosystem and reducing import dependence in renewable energy [11]. The scale of the task is visible in employment: India's renewable energy workforce is estimated at about 1.3 million in 2024, against 7.3 million in China. In Morocco, the state-owned phosphate group OCP launched a US$13 billion Green Investment Program for 2023-2027, which combines raising fertilizer

capacity to a targeted 20 million tonnes by 2027 with supplying its industrial facilities exclusively with green energy by 2027 and a sectoral carbon-neutrality target for 2040 [12]. Since fertilizers are among the goods covered by the CBAM, such a program is consistent with the decarbonization pressure on exporters described above, although the cited summary does not present the CBAM as its motive. Both cases rely on state-led support that is limited in time (a five-year incentive in India and a 2023-2027 programme in Morocco), which is in line with the policy direction discussed.

The three roles discussed above can be read through three theoretical lenses. Structural transformation theory holds that long-term growth depends on shifting resources toward higher-productivity activities. Rodrik [13] documents that countries are running out of industrialization opportunities sooner and at much lower income levels than early industrializers, which weakens the traditional manufacturing-led path to growth. This source does not analyze green sectors directly, so the link to green industrialization is an interpretation rather than a finding: if conventional manufacturing opportunities are narrowing, green sectors may offer new opportunities for productive upgrading, provided that policy supports the accumulation of capabilities. This lens helps explain the diversification role.

The Porter hypothesis offers a second perspective, which bears on competitiveness. Porter and van der Linde [14] argued that properly crafted environmental standards can trigger innovation offsets that raise resource productivity, rather than simply adding to costs. Subsequent research has produced conflicting evidence. Ambec et al. [15] review two decades of theory and empirical work and conclude that outcomes depend on policy design and that the hypothesis is frequently misunderstood. The hypothesis should therefore be treated as conditional rather than universal. The reviewed sources do not test it specifically for developing countries, but its dependence on policy design suggests that the conditions may be harder to meet where technological capacity is limited.

The principal constraints are shortages of finance and technology. The World Bank [4] identifies political and behavioural inertia and a lack of financing instruments as major obstacles to greening growth. Clean technologies often involve high upfront costs, and the IPCC emphasizes that reducing industrial emissions requires coordinated action across value chains and depends heavily on innovation, commercialization, and market uptake policy [1]. Following from these constraints, green finance, concessional funding from international financial institutions, and technology transfer through trade and investment can be considered important enabling factors.

The literature also stresses the role of the state. Rodrik [6] argues that the practice of industrial policy can be improved by designing institutional frameworks that counter informational and political risks. Altenburg and Assmann [3] likewise present green industrial policy as a redirection of the instruments of industrial policy toward environmental sustainability. Governments are thus expected to act as active coordinators of investment and not merely as regulators.

Taken together, these points suggest three policy directions, which structure the conclusion. First, the employment shows that jobs follow domestic manufacturing and deployment capacity, which points to investment in green skills. Second, since institutional frameworks are needed to counter informational and political risks, public support is better designed with explicit time limits and performance conditions; this is an interpretation consistent with Rodrik's emphasis on institutional design. Third, because finance and technology constraints and trade-related regulation are shaped partly outside developing countries, international cooperation is needed.

Conclusion The reviewed literature suggests that green industrialization is increasingly a strategic requirement for developing countries rather than an optional supplement to growth policy. It can support diversification, create employment, and help maintain access to markets with tightening environmental requirements, although the magnitude of these benefits varies with policy design and national capacity.

Three policy implications follow. First, countries should invest in green skills through education, vocational training, and retraining programmes. Second, public support, including subsidies and tax incentives, should be directed toward clean technologies and be time-bound and performance-based. Third, international cooperation on finance, technology transfer, and regulatory alignment should be strengthened.

This review has limitations: it is a narrative review based on a limited set of sources and does not examine country cases in depth. Future research will account for regional differences, as the experiences of Asia, Africa, and Latin America differ in resource endowments, institutions, and integration into global value chains. More empirical work is also needed on the long-term trade and employment effects of green industrial policy in low- and middle-income economies.

References

[1] IPCC. (2022). Chapter 11: Industry. In *Climate change 2022: Mitigation of climate change. Contribution of Working Group III to the Sixth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change*. Cambridge University Press. https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg3/chapter/chapter-11/

[2] UNIDO. (2011). *Industrial development report 2011: Industrial energy efficiency for sustainable wealth creation*. United Nations Industrial Development Organization. https://unido.org/node/742

[3] Altenburg, T., Assmann, C., Rodrik, D., Padilla, E., Ambec, S., & Esposito, M. (2017). Green industrial policy: Concept, policies, country experiences. *Geneva, Bonn: UN Environment*, 2017-12. https://wedocs.unep.org/handle/20.500.11822/22277

[4] World Bank. (2012). *Inclusive green growth: The pathway to sustainable development*. World Bank. https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/6058

[5] UNCTAD. (2023). *State of commodity dependence 2023*. United

Nations Conference on Trade and Development. https://unctad.org/publication/state-commodity-dependence-2023

[6] Rodrik, D. (2014). Green industrial policy. *Oxford Review of Economic Policy, 30*(3), 469–491. https://doi.org/10.1093/oxrep/gru025

[7] IRENA & ILO. (2026). *Renewable energy and jobs: Annual review 2025*. International Renewable Energy Agency. https://www.irena.org/Publications/2026/Jan/Renewable-energy-and-jobs-Annual-review-2025

[8] European Parliament and Council. (2023). Regulation (EU) 2023/956 establishing a carbon border adjustment mechanism. *Official Journal of the European Union, L 130*. Overview and legal texts: https://taxation-customs.ec.europa.eu/carbon-border-adjustment-mechanism_en

[9] European Parliament and Council. (2025). Regulation (EU) 2025/2083 amending Regulation (EU) 2023/956 as regards simplifying and strengthening the carbon border adjustment mechanism. *Official Journal of the European Union*, 17 October 2025. https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=OJ:L_202502083

[10] UNCTAD. (2021). *A European Union carbon border adjustment mechanism: Implications for developing countries*. United Nations Conference on Trade and Development. https://unctad.org/publication/european-union-carbon-border-adjustment-mechanism-implications-developing-countries

[11] Ministry of New and Renewable Energy, Government of India. (n.d.). *Production Linked Incentive (PLI) scheme: National Programme on High Efficiency Solar PV Modules*. https://mnre.gov.in/production-linked-incentive-pli/

[12] International Energy Agency. (2023). *OCP Group Green Investment Program* [Policy database entry]. https://www.iea.org/policies/17251-ocp-group-green-investment-program

[13] Rodrik, D. (2016). Premature deindustrialization. *Journal of Economic Growth, 21*(1), 1–33. https://doi.org/10.1007/s10887-015-9122-3

[14] Porter, M. E., & van der Linde, C. (1995). Toward a new conception of the environment–competitiveness relationship. *Journal of Economic Perspectives, 9*(4), 97–118. https://doi.org/10.1257/jep.9.4.97

[15] Ambec, S., Cohen, M. A., Elgie, S., & Lanoie, P. (2013). The Porter hypothesis at 20: Can environmental regulation enhance innovation and competitiveness? *Review of Environmental Economics and Policy, 7*(1), 2–22. https://doi.org/10.1093/reep/res016

YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING FISKAL BOSHQARUV MEXANIZMLARI: NAZARIY VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR

Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi
Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda fiskal boshqaruv vositalarining nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda soliq ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish, budjet jarayonida shaffoflikni oshirish, fiskal raqamlashtirish mexanizmlarini keng joriy etish va institutsional islohotlarni amalga oshirish orqali norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga jalb etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida fiskal boshqaruv mexanizmlarining makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy adolatni mustahkamlash va investitsiya muhitini yaxshilashdagi strategik ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashirin iqtisodiyot, fiskal boshqaruv, soliq ma’muriyatchiligi, fiskal raqamlashtirish, budjet shaffofligi, institutsional islohotlar, makroiqtisodiy barqarorlik.

Kirish

Yashirin iqtisodiyot bugungi kunda global iqtisodiy tizimning dolzarb muammolaridan biri sifatida ilmiy hamjamiyat va davlat iqtisodiy siyosatining diqqat markazida turibdi. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) kabi nufuzli xalqaro institutlarning hisobotlariga ko‘ra, ayrim mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot hajmi rasmiy yalpi ichki mahsulotning yarmiga yaqinlashishi mumkin. Bu holat, bir tomondan, davlatning soliq tushumlari orqali moliyaviy resurslarni shakllantirish imkoniyatlarini cheklasa, ikkinchi tomondan, halol raqobat muhitiga va makroiqtisodiy barqarorlikka jiddiy xavf tug‘diradi.

Nazariy jihatdan yashirin iqtisodiyotning shakllanishi uchta asosiy yondashuv bilan izohlanadi. Birinchisi, neoklassik yondashuv bo‘lib, unda soliq yukining yuqoriligi va rasmiy tartibga solish talablarining ortiqcha murakkabligi yashirin iqtisodiy faoliyatning asosiy omillari sifatida qaraladi. Ikkinchisi, institutsional yondashuv bo‘lib, bunda korrupsiya, huquqiy bo‘shliqlar va davlat boshqaruvi samaradorligining pastligi norasmiy faoliyatni rag‘batlantiruvchi omillar sifatida talqin etiladi. Uchinchisi, ijtimoiy-psixologik yondashuv bo‘lib, u aholining davlat institutlariga ishonch darajasi, ijtimoiy odatlar va madaniy me’yorlarning yashirin iqtisodiyot shakllanishiga ta’sirini ochib beradi.

Amaliy nuqtayi nazardan, yashirin iqtisodiyot fiskal boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini baholash imkonini beruvchi muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Xususan, budjet jarayonida shaffoflikning yetarli

emasligi, soliq ma’muriyatchiligining an’anaviy boshqaruv usullariga tayanishi, nazorat va monitoring tizimlarining raqamli texnologiyalar bilan to‘liq integratsiyalashmaganligi iqtisodiy faoliyatning muayyan qismini norasmiy sektorda saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Shu bois zamonaviy fiskal boshqaruv vositalari nafaqat soliq tushumlarini shakllantirish va budjet muvozanatini ta’minlash, balki iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish hamda norasmiy iqtisodiy munosabatlarni qonuniy iqtisodiy muhitga jalb etish vazifasini ham bajarishi lozim.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarga asoslangan fiskal vositalar, jumladan, elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari va elektron soliq deklaratsiyalari yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning samarali mexanizmlari hisoblanadi. Estoniya, Janubiy Koreya va Chili kabi mamlakatlar tajribasi fiskal boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish nafaqat soliq intizomini mustahkamlash, balki iqtisodiy subyektlarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar sharhi

Yashirin iqtisodiyot muammosi global iqtisodiy taraqqiyotda hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi va OECD hisobotlari turli mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushi YAIMning 10 foizidan 50 foizigacha borishini qayd etadi [1]. Bu esa, bir tomondan, soliq tushumlarini kamaytiradi, ikkinchi tomondan esa rasmiy iqtisodiy faoliyatning samaradorligini pasaytiradi.

Yashirin iqtisodiyot nazariyasiga ilk asoslardan biri sifatida Allingham va Sandmo tomonidan ishlab chiqilgan soliq qochish modeli ko‘riladi [2]. Ushbu model soliq stavkalari, jazolash ehtimoli va iqtisodiy agentlarning qaror qabul qilish mexanizmini tushuntirib beradi. Keyinchalik Cowell yashirin iqtisodiyotni faqat soliq yuklari emas, balki iqtisodiy rag‘batlarning adolatsiz taqsimlanishi bilan ham bog‘ladi [3].

Institutsional iqtisodiyot vakillari yashirin iqtisodiyotni davlat boshqaruvi samaradorligi bilan bog‘lashadi. Northning tadqiqotida iqtisodiy faoliyatning samarali bo‘lishi institutsional tizimlarning barqarorligiga bog‘liqligi ta’kidlangan [4]. La Porta, Lopez-de-Silanes va Shleifer esa huquqiy institutlar zaif bo‘lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning yuqori bo‘lishini empirik dalillar asosida isbotlagan [5].

So‘nggi yillarda raqamlashtirish yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning samarali vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Pomeranzning Chilida olib borgan tadqiqotlari elektron hisob-fakturalar soliq tushumlarini keskin oshirganini ko‘rsatadi [6]. Slemrod va Gillitzer soliq ma’muriyatchiligida axborot texnologiyalarini keng qo‘llash soliqlardan bo‘yin tovlashni kamaytirishini ta’kidlaydi [7]. Shuningdek, Best, Brockmeyer va Klevenning tadqiqotlari avtomatlashtirilgan soliq ma’lumotlari norasmiy iqtisodiy faoliyatni qisqartirishda muhim omil ekanini ko‘rsatgan [8].

Yashirin iqtisodiyotni tushuntirishda ijtimoiy omillar ham muhim. Putnam

ijtimoiy kapital va davlatga bo‘lgan ishonch iqtisodiy faoliyatning rasmiy maydonda yuritilishiga ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [9]. Friedman, Johnson, Kaufmann va Zoido-Lobatón esa korrupsiya yuqori bo‘lgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning ulushi ham yuqori bo‘lishini empirik asoslar bilan tasdiqlagan [10].

Medina va Schneider 158 mamlakatni qamrab olgan tadqiqotida yashirin iqtisodiyotning asosiy determinantlari sifatida institutsional islohotlar, fiskal intizom va iqtisodiy shaffoflikni ko‘rsatgan [11]. Chong va Gradstein esa rivojlanayotgan mamlakatlarda soliq bazasini kengaytirish davlat boshqaruvi sifatini oshirish bilan bevosita bog‘liqligini ta’kidlaydi [12].

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini taqqoslama va tizimli tahlil yondashuvlari tashkil etadi. Avvalo, yashirin iqtisodiyotning nazariy tushunchalari va uni qisqartirishga qaratilgan fiskal boshqaruv vositalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida o‘rganildi. Ushbu jarayonda hujjatlar tahlili, institutsional yondashuv va konseptual qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Yashirin iqtisodiyotning mavjudligi ko‘plab mamlakatlarda fiskal siyosatning samaradorligini pasaytirib, makroiqtisodiy barqarorlikka putur yetkazmoqda. Bunday sharoitda fiskal boshqaruv vositalarining roli nafaqat soliq bazasini kengaytirish, balki iqtisodiy intizomni mustahkamlash, byudjet siyosatini muvozanatlashtirish va makroiqtisodiy islohotlarning barqarorligini ta’minlashda ham hal qiluvchi hisoblanadi. Quyida ikki jadval orqali turli davlatlar tajribasi nazariy va institutsional jihatdan tahlil qilinadi.

1-jadval.

Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda fiskal boshqaruv vositalarining asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni	Amaliy misollar
Soliq ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish	Soliq organlarining tashkiliy tuzilmasini isloh qilish, elektron tizimlarga o‘tish	Rivojlangan davlatlarda soliq deklaratsiyalarini to‘liq raqamlashtirish
Raqamli nazorat mexanizmlari	Onlayn kassa, elektron hisob-faktura, tranzaksiyalarni kuzatish	Yevropa Ittifoqida elektron hisob-fakturalar tizimi
Shaffoflikni oshirish	Byudjet ma’lumotlarining ochiqligi, fuqarolar uchun onlayn monitoring	Skandinaviya mamlakatlarida davlat xarajatlari ochiq portal orqali taqdim etilishi
Rag‘bat mexanizmlari	Soliq to‘lovchilar uchun imtiyozlar, soddalashtirilgan tartiblar	Kichik biznes uchun yengillashtirilgan soliq tizimlari

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi turli yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi. Soliq ma’muriyatchiligini modernizatsiya qilish orqali soliqqa bo‘yin tovlash imkoniyatlari kamayadi, raqamli nazorat mexanizmlari esa moliyaviy operatsiyalarning yashirin qolish ehtimolini minimallashtiradi. Shaffoflikning oshishi davlatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, rag‘bat mexanizmlari esa norasmiy sektordan rasmiy sektorga o‘tishni tezlashtiradi.

2-jadval.

Fiskal boshqaruv vositalarining makroiqtisodiy natijalari

Natija yo‘nalishi	**Fiskal boshqaruv ta’siri**	**Uzoq muddatli oqibatlar**
Davlat moliyaviy barqarorligi	Soliq tushumlarining ko‘payishi, byudjet defitsitining kamayishi	Davlat qarzi yukining pasayishi, fiskal mustahkamlik
Iqtisodiy o‘sish	Norasmiy faoliyatning rasmiy sektorga o‘tishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi	Yangi ish o‘rinlari va ishlab chiqarish hajmining ortishi
Ijtimoiy adolat	Soliq yukining teng taqsimlanishi, korrupsiya imkoniyatlarining qisqarishi	Jamiyatda tenglik va davlatga ishonchning kuchayishi
Institutsional rivojlanish	Soliq va byudjet boshqaruvining samaradorligi, huquqiy tizimning mustahkamlanishi	Davlat boshqaruvi sifatining oshishi, barqaror islohotlar

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi

Jadvalda keltirilganidek, fiskal boshqaruv vositalarining samarali qo‘llanishi makroiqtisodiy natijalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Davlat moliyaviy barqarorligining kuchayishi soliq tushumlari hisobiga ta’minlanadi, bu esa qarzga bog‘liqlikni kamaytiradi. Iqtisodiy o‘sish norasmiy faoliyatning qisqarishi bilan rag‘batlantiriladi, ijtimoiy adolatning ta’minlanishi esa soliqqa to‘liq rioya qiluvchi qatlamlar manfaatini himoya qiladi. Institutsional rivojlanish fiskal boshqaruvning sifatini oshirib, uzoq muddatli barqarorlikni kafolatlaydi.

Takliflar va xulosa

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha xorijiy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, fiskal boshqaruv vositalarining samaradorligi ularning kompleks qo‘llanilishiga, institutsional muhitga va ijtimoiy ishonch darajasiga bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, soliq ma’muriyatchiligini to‘liq raqamlashtirish orqali iqtisodiy operatsiyalarni kuzatish va soliq bazasini kengaytirish mexanizmlarini joriy etish zarur; ikkinchidan, byudjet jarayonida shaffoflikni ta’minlash, fuqarolar uchun ochiq ma’lumotlar platformalarini rivojlantirish orqali davlatga bo‘lgan ishonchni oshirish lozim;

uchinchidan, kichik biznes va o‘rta tadbirkorlikni rasmiy sektorga jalb etish uchun soddalashtirilgan soliq tartiblari va rag‘bat mexanizmlarini qo‘llash muhim; to‘rtinchidan, korrupsiya xavfini kamaytirish maqsadida fiskal nazorat institutlarini mustahkamlash va huquqiy javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash lozimki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash faqatgina fiskal vositalarni kuchaytirish emas, balki kengroq institutsional islohotlarni amalga oshirishni ham talab etadi. Davlat moliyaviy boshqaruvini takomillashtirish, soliqqa bo‘yin tovlashni kamaytirish va iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi, ijtimoiy adolat kuchayadi va investitsion muhit yanada jozibador bo‘ladi. Shu bois, fiskal boshqaruv vositalarining nazariy-metodologik asoslarini milliy sharoitga moslashtirish va amaliyotga joriy etish strategik ustuvor vazifa sifatida qaralishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Bank. (2020). *Global Economic Prospects*. Washington, DC: World Bank.
2. Allingham, M., & Sandmo, A. (1972). Income tax evasion: A theoretical analysis. *Journal of Public Economics*, 1(3–4), 323–338.
3. Cowell, F. (1990). *Cheating the Government: The Economics of Evasion*. Cambridge, MA: MIT Press.
4. North, D. C. (1997). Institutions, institutional change and economic performance. *Cambridge University Press*.
5. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2008). The economic consequences of legal origins. *Journal of Economic Literature*, 46(2), 285–332.
6. Pomeranz, D. (2015). No taxation without information: Deterrence and self-enforcement in the value added tax. *American Economic Review*, 105(8), 2539–2569.
7. Slemrod, J., & Gillitzer, C. (2014). *Tax Systems*. Cambridge, MA: MIT Press.
8. Best, M., Brockmeyer, A., & Kleven, H. (2015). Taxing firms: From incidence to evasion. *Journal of Public Economics*, 129, 1–17.
9. Putnam, R. (2000). *Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community*. New York: Simon & Schuster.
10. Friedman, E., Johnson, S., Kaufmann, D., & Zoido-Lobatón, P. (2000). Dodging the grabbing hand: The determinants of unofficial activity in 69 countries. *Journal of Public Economics*, 76(3), 459–493.
11. Medina, L., & Schneider, F. (2019). Shadow economies around the world: What did we learn over the last 20 years? *IMF Working Paper*, WP/18/17.
12. Chong, A., & Gradstein, M. (2007). Inequality and informality. *Journal of Public Economics*, 91(1–2), 159–179.

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SIFAT NAZORATINING METROLOGIK ASOSLARINI O‘QITISH HOLATINI BAHOLASH VA O‘QUV QIYINCHILIKLARINI ANIQLASH

Maxammetov Bexzodbek Salohiddinovich
Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi,
Umumiy fizika kafedrasi o‘qituvchisi
Email: bekzodbekmahammetov@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda sifat nazoratining metrologik asoslarini o‘qitish holatini o‘rganish uchun o‘quv hujjatlari, laboratoriya faoliyati va yozma ishlarni qiyoslash mezonlari taklif etiladi. Hisoblash, sinov sharoiti, standart tanlash hamda xulosani asoslashga oid qiyinchiliklar ajratiladi. Ishlab chiqarish jadvalidan tekshiruv topshirig‘i tuziladi. Takliflar pedagogik tajribada hali sinalmagan.

Kalit so‘zlar: metrologik tayyorgarlik, laboratoriya ta’limi, o‘quv qiyinchiliklari, o‘lchash sharoiti, standart, dalillash.

Metrologik tayyorgarlikni tekshirishda hisobning to‘g‘riligi bilan undan chiqarilgan xulosaning asoslanganligini ajratish lozim. Talaba formulani to‘g‘ri qo‘llagani holda o‘lchash shartini e’tibordan chetda qoldirsa, mahsulot sifati haqidagi hukm yetarli dalilga ega bo‘lmaydi. Shu sababli o‘qitish holatini baholashda dasturda belgilangan bilim, mashg‘ulotda bajarilgan amal va talabaning mustaqil izohi o‘zaro qiyoslanishi kerak.

Tezisning maqsadi sifat nazoratini o‘qitishdagi qiyinchiliklarni aniqlash uchun dalil yig‘ish va talqin etish mezonlarini asoslashdan iborat. Tahlilga ochiq modul hujjati, o‘lchashni o‘rgatishga oid tadqiqot va to‘qimachilik dissertatsiyasining tanlangan materiallari olindi. Auditoriya kuzatuvi, talabalarning yozma ishlarini yig‘ish hamda o‘qituvchilar so‘rovi o‘tkazilmagan. Shuning uchun taklif etilayotgan mezonlar muayyan ta’lim muassasasida qayd etilgan kamchiliklar ro‘yxati sifatida berilmaydi. Toshkent davlat texnika universitetining 2023-yil 28-avgustda tasdiqlangani ko‘rsatilgan O‘VMTU24705 kodli modul hujjati dasturiy tayyorgarlikning bir namunasidir. Uning yuklama jadvalida 30 soat ma’ruza, 30 soat laboratoriya mashg‘uloti va 60 soat mustaqil ta’lim belgilangan. Kutiladigan natijalar qatorida o‘lchash vositalarini qiyoslash va kalibrlashni tashkil etish ko‘nikmalari qayd qilingan [1; 2–4-b.]. Dasturda ko‘zda tutilgan tayyorgarlikni darsda erishilgan natija bilan tenglashtirib bo‘lmaydi; mazkur nusxa 2026-yildagi o‘qitish amaliyotining to‘liq tavsifi emas.

B. Pollard va hammualliflar o‘lchash noaniqligini o‘rgatishga oid tadqiqotida talabalarning javoblarini tanlangan qaror va uning izohi bo‘yicha tahlil qilgan. Ayrim yozma javoblar mulohazani to‘liq ochmagani uchun ularning mazmunini suhbat orqali aniqlashtirish zarurligi qayd etilgan [2]. To‘qimachilik ta’limi uchun olinadigan metodik xulosa shuki, hisobotda izohning yo‘qligi bilimning yo‘qligini

o‘z-o‘zidan tasdiqlamaydi; yetishmagan dalil bilan aniqlangan xato alohida qayd etilishi zarur.

O‘quv qiyinchiliklari hisoblash, sinov sharoitini hisobga olish, standartni tanlash va xulosani dalillash bo‘yicha tekshirilishi taklif etiladi. Atamalar talqinida talabaning hisoblashdagi adashishi metrologik o‘lchash xatoligi bilan aynanlashtirilmaydi. JCGM lug‘atida o‘lchash xatoligi o‘lchangan qiymat bilan tayanch qiymat ayirmasi sifatida, o‘lchash noaniqligi esa o‘lchanayotgan kattalikka nisbat beriladigan qiymatlar tarqoqligini mavjud axborot asosida tavsiflovchi parametr sifatida izohlangan [3; 2.16, 2.26-bandlar].

Amaldagi o‘qitishni o‘rganishda quyidagi tekshiruv mezonlaridan foydalanish mumkin. Jadvaldagi belgilar hali talabalarda kuzatilgan natijalar emas, keyingi kuzatuv va yozma ish tahlili uchun taklif etilgan mezonlardir.

1-jadval. O‘quv qiyinchiliklarini aniqlash uchun tekshiruv mezonlari

Tekshiriladigan jihat	**Yozma ishda izlanadigan belgi**	**Aniqlashtiruvchi topshiriq**
Hisoblash	Birlik yoki foizning hisoblash asosi chalkashtirilgan.	Amallarni birliklari bilan qayta yozish va izohlash.
Sinov sharoiti	Namuna tayyorlash, muhit yoki asbob sozlamasi qayd etilmagan.	Qiyoslash uchun zarur shartlarni bayonnomadan ko‘rsatish.
Standartni qo‘llash	Tanlangan hujjatning mahsulotga va sinov usuliga mosligi asoslanmagan.	Standartning tegishli bandi va qo‘llanish doirasini topish.
Xulosani dalillash	Bitta ko‘rsatkichdan mahsulotning umumiy sifatiga hukm chiqarilgan.	Tasdiqlangan fikr va qo‘shimcha dalil talab qiladigan hukmni ajratish.

Izoh: muallif taklif etgan mezonlar. Qaydning yo‘qligi amaldagi xato bilan tenglashtirilmaydi; qo‘shimcha savol yoki kuzatuv bilan aniqlashtiriladi.

Sinov sharoitini hisobga olish zarurati kasbiy materialda ham ochiladi. Maxammetov dissertatsiyasining 51-betida HVI o‘lchashlari uchun havo harorati 21 °C va namlik 65 foiz deb ko‘rsatilgan [4; 51-b.]. Ushbu sonlar manbadagi tavsif sifatida olinadi; barcha to‘qimachilik sinovlari uchun umumiy me’yor deb belgilanmaydi. Talabadan ayni ishda muhit qanday qayd etilgani va qaysi hujjat bilan qiyoslangani so‘ralishi lozim. Hisobotda sharoit yozilmagan bo‘lsa, o‘lchash noto‘g‘ri bajarilgan, degan hukmga shoshilmaslik kerak.

Dissertatsiyaning 87-betidagi 3.13-jadvalda 29,5 teks ip uchun «Neps 140% /km» satrida 29, «Neps 200% /km» satrida 6 qiymati berilgan [4; 87-b.]. Nazorat topshirig‘ida shu ikki satrni jarayonning oldingi va keyingi holati sifatida qiyoslash mumkinligi so‘raladi. Asosli javobda qayd etish chegaralari farqlanishi ko‘rsatiladi. Sonlarning 23 ta/km ayirmasi texnologik jarayonda nuqsonlar shuncha kamayganini isbotlamaydi. Topshiriq haqiqiy talaba xatosi sifatida emas, shunday talqinning mavjudligini tekshirish uchun tuzildi.

Dalil yig‘ish tartibida fan dasturidagi o‘quv natijasi tegishli laboratoriya topshirig‘i va baholash talabi bilan bog‘lanadi. Dasturda standartni tanlash ko‘zda tutilib, topshiriqda tayyor hujjat raqami berilgan bo‘lsa, talabaning tanlash ko‘nikmasi mazkur ish orqali tekshirilmaydi. Xuddi shuningdek, to‘ldirish uchun tayyor xulosa taqdim etilgan hisobot mustaqil dalillash haqida yetarli ma’lumot bermaydi. Shunday vaziyatlarni aniqlash uchun topshiriqning sharti, talabaning yozuvi va baholash mezoni yonma-yon o‘rganilishi taklif etiladi.

O‘qituvchilar bilan suhbatda «talabalar qiynaladimi?» degan umumiy savol o‘rniga xato namunasini, uning qaysi topshiriqda qaytarilganini va qanday tushuntirishdan keyin o‘zgarganini so‘rash maqsadga muvofiq. O‘qituvchi fikri yozma ish yoki kuzatuv bilan tasdiqlangandagina muayyan qiyinchilikka doir dalil sifatida olinadi. Talabalarning roziligi asosida yig‘ilgan ishlarda shaxsiy ma’lumotlar yashiriladi. Har bir holat «xato tasdiqlandi», «topshiriq doirasida xato aniqlanmadi» yoki «dalil yetarli emas» tarzida qayd etilishi mumkin; bittagina javobdan talabaning umumiy tayyorgarligi haqida hukm chiqarilmaydi.

Mazkur tekshiruvdan keyin yangi metodikaning vazifalari aniq belgilanadi: hisobni birliklar bilan izohlash, sinov shartlarini qayd etish, standart bandini mahsulotga mos tanlash va xulosani dalil doirasida yozish. Sun’iy intellekt yordami ham aniqlangan qiyinchilikka qarab rejalashtirilishi kerak. Dastur savolining qaysi o‘rinni tushuntirishga qaratilgani ko‘rsatiladi; bilimning o‘zlashtirilishi esa boshqa topshiriqni mustaqil bajarish orqali tekshiriladi.

Xulosa. Sifat nazoratining metrologik asoslarini o‘qitish holatini laboratoriya soatlari yoki umumiy baholar bilan to‘liq tavsiflab bo‘lmaydi. Asosiy dalil dasturdagi talabning mashg‘ulotda qanday bajarilgani va talabaning qarorini qay darajada asoslaganidir. Taklif etilgan mezonlar hisoblashdagi adashishni sinov va hujjatlashtirish kamchiliklaridan farqlashga qaratilgan. Qiyinchiliklarning tarqalishi va sabablari haqidagi xulosa tegishli o‘quv hujjatlari, kuzatuv, yozma ishlar va suhbat natijalari yig‘ilgandan keyin chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshkent davlat texnika universiteti. Methods of merological examination of measuring instruments: Module handbook. O‘VMTU24705. — Toshkent, 2023. — 2–4-b. Sarlavha manbadagi yozilishida berildi. Elektron manba.
2. Pollard B., Werth A., Hobbs R., Lewandowski H. J. Impact of a course transformation on students’ reasoning about measurement uncertainty // Physical Review Physics Education Research. — 2020. — Vol. 16. — 020160. DOI: 10.1103/PhysRevPhysEducRes.16.020160. Elektron manba.
3. JCGM. International vocabulary of metrology — Basic and general concepts and associated terms (VIM). 3rd ed. JCGM 200:2012. — 2012. — 2.16, 2.26-bandlar. Elektron manba.
4. Maxammetov B. S. Tolalarni yigirishga tayyorlashda texnologik omillarni ip sifatiga tasiri: magistrlik dissertatsiyasi. — Namangan: Namangan davlat texnika universiteti, 2026. — 112 b. — 51, 87-b. Taqdim etilgan qo‘lyozma; sarlavha manbadagi yozilishida berildi.

Matnni tayyorlash va tahrirlashda generativ sun’iy intellektdan foydalanildi. Nashrga yuboriladigan nusxani yakuniy tekshirish va tasdiqlash muallif zimmasida.

ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJIGA EGA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINI TA’MINLASHDA INKLYUZIV PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

Suyunova Kamola Jamshed qizi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Pedagogika 1-bosqich magistranti
Suvonova Kamola Rayimkulovna
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
Samarqand kampusi o‘qituvchisi, Phd

Annotatsiya. Ushbu maqolada inklyuziv ta’lim muhitida maxsus ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda qo‘llaniladigan pedagogik metodlarning samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktabining inklyuziv sinflari tanlab olindi. Ikki o‘quv yili davomida to‘plangan kuzatuv, so‘rovnoma va pedagogik eksperiment natijalari asosida differensiallashtirilgan o‘qitish, hamkorlikda o‘qitish (kooperativ metod), tyutorlik va individual ta’lim dasturi (ITD) kabi metodlarning o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasiga ta’sirini aniqlash maqsad qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, maxsus metodlar qo‘llanilgan eksperimental guruhda o‘quvchilarning tengdoshlari bilan muloqoti, sinf jamoasiga integratsiyasi va o‘z-o‘ziga ishonch ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: *inklyuziv ta’lim, ijtimoiy moslashuv, maxsus pedagogik metodlar, alohida ta’lim ehtiyoji, individual ta’lim dasturi, tyutorlik, differensiallashtirilgan o‘qitish*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida har bir bolaning, jumladan alohida ta’lim ehtiyojiga (ATE) ega o‘quvchilarning teng huquqli ta’lim olishi va jamiyatga to‘liq integratsiyalashuvi dolzarb pedagogik-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori bilan tasdiqlangan xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi hamda "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" ushbu yo‘nalishdagi davlat siyosatining huquqiy asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv sinfga jismoniy jihatdan joylashtirilgan o‘quvchining ta’lim jarayoniga to‘liq jalb etilishi avtomatik ravishda uning ijtimoiy moslashuvini ta’minlamaydi. Ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlashicha, inklyuziv ta’limning pedagogik mohiyati o‘quv dizaynini moslashtirish, to‘siqlarni bartaraf etish va o‘qitish metodlarini diversifikatsiya qilishda namoyon bo‘lsa, uning ijtimoiy mohiyati kamsitmaslik, integratsiya va sinf jamoasida hamjihatlik madaniyatini shakllantirishda ko‘rinadi. Shu nuqtai nazardan, maxsus pedagogik metodlarni tizimli qo‘llash ijtimoiy moslashuv jarayonini boshqarishning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotning maqsadi umumta’lim maktabi inklyuziv sinflarida maxsus pedagogik metodlarning (differensiallashtirilgan o‘qitish, kooperativ o‘qitish, tyutorlik, individual ta’lim dasturi) o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuv darajasiga ta’sirini empirik jihatdan aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: Inklyuziv ta’lim sharoitida ijtimoiy moslashuv tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish; Tanlangan maktab obyektida ijtimoiy moslashuv darajasini boshlang'ich bosqichda diagnostika qilish; Maxsus pedagogik metodlar asosida pedagogik eksperiment o‘tkazish; Eksperimental va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish; Natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida inklyuziv sinflar tashkil etilgan umumta’lim maktabi tanlandi (maktab shartli ravishda "N-maktab" deb belgilangan, ma’lumotlar tadqiqot etikasi talablariga muvofiq anonimlashtirilgan). Tadqiqot 2024-2025 va 2025-2026 o‘quv yillarini qamrab oldi, ya’ni jami ikki o‘quv yili davomida olib borildi.

Tadqiqotga N-maktabning 2- va 3-sinflaridagi jami 64 nafar o‘quvchi jalb etildi, shundan 14 nafari alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilar (eshitish va nutq nuqsoni, aqliy rivojlanish sur'atining susayishi, autizm spektri buzilishi tashxislari bo‘yicha) bo‘lib, ular Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qaroriga muvofiq inklyuziv sinflarga jalb qilingan.

O‘quvchilar ikki guruhga taqsimlandi: - Eksperimental guruh 32 nafar o‘quvchi (shundan 7 nafari ATE bilan), maxsus pedagogik metodlar qo‘llanilgan sinf; - Nazorat guruhi 32 nafar o‘quvchi (shundan 7 nafari ATE bilan), an'anaviy metodika bo‘yicha ta’lim olgan sinf.

Qo‘llanilgan tadqiqot metodlari

1. Kuzatuv metodi o‘quvchilarning tanaffus va darsdagi o‘zaro muloqoti, guruh ishidagi ishtiroki muntazam kuzatildi (haftada 2 marta, 8 oy davomida).

2. So‘rovnoma va anketa sinf jamoasidagi ijtimoiy-psixologik iqlimni aniqlash uchun o‘qituvchilar va ota-onalar orasida so‘rov o‘tkazildi.

3. Sotsiometrik metod o‘quvchilarning sinfdagi o‘zaro munosabatlari va guruhdagi mavqeyini aniqlash uchun qo‘llanildi.

4. Pedagogik eksperiment eksperimental guruhda quyidagi maxsus metodlar tizimli tatbiq etildi: -Differensiallashtirilgan o‘qitish har bir o‘quvchining individual imkoniyatiga mos topshiriqlar tizimi; - Kooperativ (hamkorlikdagi) o‘qitish kichik guruhlarda aralash tarkibli (ATEga ega va ega bo‘lmagan o‘quvchilar birga) loyiha va o‘yin faoliyati; -Tyutorlik/resurs o‘qituvchi yordami ATEga ega o‘quvchiga alohida pedagog-yordamchi biriktirilishi; - Individual ta’lim dasturi (ITD) har bir ATEga ega o‘quvchi uchun tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya xulosasi asosida moslashtirilgan dastur.

5. Statistik tahlil boshlang'ich va yakuniy diagnostika natijalari o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun qiyosiy foiz tahlili qo‘llanildi.

Natijalar va tahlil. Ijtimoiy moslashuv darajasi quyidagi to‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha baholandi: (1) tengdoshlar bilan muloqot faolligi, (2) guruh ishidagi

ishtirok darajasi, (3) sinf jamoasi tomonidan qabul qilinish (sotsiometrik status), (4) o‘z-o‘ziga ishonch va emotsional barqarorlik.

Boshlang'ich diagnostika ikki guruhda deyarli bir xil (statistik jihatdan sezilarli farqsiz) ko‘rsatkichni namoyon etdi, bu eksperimentning boshlang'ich shartlari teng ekanligini tasdiqladi. Ikki yillik tadqiqot yakunida eksperimental guruhda barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha 35 foiz punktdan ortiq o‘sish kuzatildi, nazorat guruhida esa o‘sish o‘rtacha 10-13 foiz punktni tashkil etdi, bu tabiiy yosh bilan bog'liq rivojlanish darajasiga to‘g'ri keladi. Alohida ta’lim ehtiyojiga ega 7 nafar o‘quvchi (eksperimental guruh) bo‘yicha sotsiometrik tahlil natijalari alohida e'tiborga molik: tadqiqot boshida ularning 5 nafari sinfda "izolyatsiyalangan" yoki "e'tiborsiz qolgan" toifasiga kirgan bo‘lsa, tadqiqot yakuniga kelib bu ko‘rsatkich 1 nafarga tushdi, qolgan 6 nafari "qabul qilingan" yoki "afzal ko‘rilgan" toifasiga o‘tdi. Nazorat guruhidagi ATEga ega 7 o‘quvchidan esa faqat 2 nafarida shunga o‘xshash ijobiy o‘zgarish qayd etildi.

O‘qituvchilar so‘rovnomasi natijalariga ko‘ra, respondentlarning 87 foizi kooperativ o‘qitish metodini, 81 foizi tyutorlik yordamini ijtimoiy moslashuvni tezlashtiruvchi eng samarali vosita sifatida baholadi. Ota-onalar so‘rovnomasida esa 78 foiz ota-ona farzandining sinfdoshlar bilan munosabatida ijobiy o‘zgarish sodir bo‘lganini qayd etdi.

Olingan natijalar inklyuziv ta’lim muhitida maxsus pedagogik metodlarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Bu xulosa boshqa tadqiqotchilarning fikrlari bilan ham mos keladi: xususan, boshlang'ich ta’limda inklyuziv tamoyillarni joriy etish samaradorligiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ham inklyuziv muhitda o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshgani qayd etilgan. Biroq bunday tadqiqotlarning aksariyati ko‘proq psixologik jihatlarga e'tibor qaratgan bo‘lsa, ushbu tadqiqotda aynan didaktik metodlar va interaktiv yondashuvlarning roli alohida ko‘rsatib berildi. Tadqiqot natijalari, shuningdek, milliy miqyosdagi statistik tendensiyalar bilan ham uyg'unlashadi. Respublika miqyosida inklyuziv ta’lim tashkil etilgan maktablar soni 2023-2024 o‘quv yilidagi 415 tadan 2024-2025 o‘quv yilida 530 taga yetgani inklyuziv amaliyotning kengayib borayotganini ko‘rsatadi, biroq maktablar sonining ko‘payishi o‘z-o‘zidan sifat ko‘rsatkichini ta’minlamaydi aynan sinf darajasidagi pedagogik metodika sifati hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda.

Tyutorlik va individual ta’lim dasturining yuqori samaradorligi shuni ko‘rsatadiki, resurs pedagog yordamisiz, faqat ATEga ega o‘quvchini oddiy sinfga "joylashtirish" ijtimoiy moslashuvni ta’minlamaydi. Bu, o‘z navbatida, tuman darajasidagi psixolog-metodistlar uchun maxsus malaka oshirish kurslarining hozircha yetarlicha tashkil etilmaganligi bilan bog'liq muammoni ham dolzarblashtiradi. Tadqiqot bitta maktab obyekti va nisbatan cheklangan namuna hajmi (64 nafar o‘quvchi) asosida olib borilgani uchun natijalarni butun respublika miqyosiga umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda bir nechta maktabni qamrab oluvchi kengroq namunaviy tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Xulosa. O‘tkazilgan ikki yillik pedagogik tadqiqot natijalari inklyuziv ta’lim muhitida maxsus pedagogik metodlar differensiallashtirilgan o‘qitish, kooperativ o‘qitish, tyutorlik va individual ta’lim dasturining kompleks qo‘llanilishi o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini sezilarli darajada (o‘rtacha 35 foiz punktdan ortiq) yaxshilashini ko‘rsatdi. Xususan: Aralash tarkibli kichik guruhlarda tashkil etiladigan kooperativ faoliyat sinf jamoasida o‘zaro hurmat va hamkorlik madaniyatini shakllantirishning eng samarali vositasi sifatida namoyon bo‘ldi. Tyutorlik xizmati alohida ta’lim ehtiyojiga ega o‘quvchilarning sotsiometrik statusini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Individual ta’lim dasturi o‘quvchining shaxsiy yutuqlarini ta’minlash orqali uning o‘z-o‘ziga ishonchini oshirdi, bu esa ijtimoiy faollikning o‘sishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Inklyuziv sinflarda kooperativ o‘qitish metodlarini tizimli tarzda dars rejalariga kiritish. Har bir inklyuziv sinfga resurs (tyutor) pedagog shtatini ajratish imkoniyatlarini kengaytirish. Tuman xalq ta’limi bo‘limlaridagi psixolog-metodistlar uchun maxsus malaka oshirish kurslarini yo‘lga qo‘yish. Sinf jamoasida ijtimoiy moslashuv darajasini sotsiometrik monitoring qilish tizimini joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida"gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risida"gi farmoni.

4. Inamov D.D. Inklyuziv ta’lim tizimini takomillashtirishda pedagogik yondashuvlar.-2025.

5. Shavkatova X., Goipova N.B. Inklyuziv ta’limning jamiyatda tutgan o‘rni. -2026.

6. Umumta’lim maktablarida inklyuziv ta’lim jarayonining ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish // Jamiyat va innovatsiyalar. -2023–2024.

7. Boshlang'ich ta’limda inklyuziv ta’lim tamoyillarini joriy etishning ahamiyati va samaradorligi // ACUMEN: International journal of multidisciplinary research. -2025.

8. UNICEF O‘zbekiston. Maktabgacha va maktab darajalarida inklyuziv va sifatli ta’limga sarmoya kiritish bo‘yicha hisobot materiallari, 2024–2025.

9. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim sektorida islohotlarni amalga oshirishda sheriklik to‘g'risidagi bitim (Global Partnership for Education), 2024.

10. "O‘zbekistonda 2030-yilgacha kamida 58 ta maktab quriladi" // Daryo.uz, 2025-yil. "Nogironligi bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limga qanday jalb etiladi" // Huquqplus.uz, 2025.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MEDIATIV MEXANIZMLARI

Uzakova Nazira To‘lqin qizi
Oriental universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda mediativ mexanizmlarning metodik ahamiyati tahlil qilinadi. Zamonaviy chet til ta’limida o‘qituvchining kasbiy kommunikativ faoliyati faqat chet tilida grammatik va leksik jihatdan to‘g‘ri nutq hosil qilish bilan cheklanmaydi. U axborotni qayta tuzish, mazmunni soddalashtirish, tushunchalarni izohlash, kommunikativ uzilishlarni bartaraf etish hamda turli lingvomadaniy tajribaga ega ta’lim oluvchilar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlash kabi mediativ faoliyatlarni ham qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediativ mexanizm, kasbiy muloqot kompetensiyasi, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, plurilingval yondashuv, kommunikativ strategiya, madaniyatlararo muloqot.

Zamonaviy oliy ta’lim sharoitida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi yangi mazmun kasb etmoqda. Bugungi o‘qituvchi nafaqat chet tilini mukammal bilishi, balki turli til va madaniy tajribaga ega ta’lim oluvchilar bilan muloqotni tashkil eta olishi, murakkab axborotni tushunarli shaklda qayta ifodalashi, kommunikativ muammolarni aniqlashi va ularni bartaraf etishning mos strategiyalarini tanlay olishi zarur.

Shu jihatdan kasbiy muloqot kompetensiyasi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining tayanch kasbiy kompetensiyalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur kompetensiya lingvistik bilim, kommunikativ ko‘nikma va pedagogik tajribaning oddiy yig‘indisi emas, balki kasbiy vaziyatga muvofiq ravishda ma’noni shakllantirish, uzatish, qayta talqin qilish va o‘zaro tushunishni boshqarish qobiliyatlarini birlashtiruvchi integrativ tuzilma hisoblanadi.

CEFR Companion Volume doirasida mediatsiyaning alohida kommunikativ faoliyat sifatida belgilanishi mazkur masalaga yangicha yondashish imkonini yaratdi. Mediatsiya jarayonida shaxs axborotni shunchaki bir tildan ikkinchi tilga o‘girmaydi. U mazmunni qabul qiluvchining ehtiyoji va kommunikativ vaziyat talablariga muvofiq tanlaydi, qayta tuzadi, soddalashtiradi, tushuntiradi yoki umumlashtiradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining faoliyatida mediatsiya bir qator kasbiy vazifalar bilan bevosita bog‘liq. O‘qituvchi murakkab grammatik yoki lingvistik hodisani turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun turlicha izohlashi, matndagi asosiy axborotni ajratib berishi, guruh muhokamasida yuzaga kelgan tushunmovchilikni bartaraf etishi yoki ingliz va o‘zbek kommunikativ

madaniyatidagi farqlarni sharhlashi mumkin. Mazkur holatlarning barchasida ma’noni mediatsiya qilish jarayoni amalga oshadi.

Kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda birinchi mexanizm sifatida reformulyatsiya mexanizmi ajratiladi. U mazmunni kommunikativ maqsadga muvofiq boshqa shaklda ifodalashni nazarda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchi akademik yoki metodik jihatdan murakkab axborotni talabaning til darajasiga moslashtira olishi, uni parafraz qilishi, qisqartirishi yoki umumlashtirishi zarur.

Ikkinchi mexanizm – mazmuniy adaptatsiya. Pedagogik muloqotda bir xil axborotni turli auditoriyalarga aynan bir xil shaklda taqdim etish samarali natija bermasligi mumkin. Shu sababli axborot hajmi, til murakkabligi, misollar va qo‘shimcha izohlar adresatning ehtiyoji va tayyorgarlik darajasiga muvofiqlashtirilishi lozim.

Uchinchi mexanizm-kommunikativ fasilitatsiya. O‘qituvchi muloqotni tashkil etuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi subyekt sifatida savollar orqali fikrni aniqlashtiradi, pozitsiyalarni o‘zaro bog‘laydi, barcha ishtirokchilar kommunikativ faolligini ta’minlaydi va yuzaga kelgan kommunikativ uzilishlarni bartaraf etadi.

To‘rtinchi mexanizm-lingvomadaniy talqin. Til birliklari muayyan madaniy va pragmatik mazmunni ham ifodalaydi. Shu bois bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi murojaat shakllari, xushmuomalalik strategiyalari, fikrga qo‘shilish yoki qarshi chiqish usullarining lingvomadaniy xususiyatlarini sharhlay olishi zarur.

Beshinchi mexanizm-plurilingval resurslarni maqsadli safarbar etish. Mazkur mexanizm ingliz, o‘zbek, rus yoki talabaning boshqa mavjud til resurslaridan aniq kommunikativ va didaktik maqsad yo‘lida foydalanishni nazarda tutadi. Bu ona tilidan cheksiz foydalanish emas, balki ma’noni tushunishga ko‘maklashuvchi va keyingi ingliz tilidagi kommunikativ faoliyatga olib keluvchi strategik vositadir.

Oltinchi mexanizm-refleksiv-pedagogik mediatsiya. Bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat mediativ strategiyani qo‘llashi, balki nima uchun aynan shu strategiya tanlanganini, uning adresatga qanday ta’sir ko‘rsatganini va boshqa vaziyatda qanday muqobil strategiyadan foydalanish mumkinligini tahlil qila olishi lozim.

1-jadval. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning mediativ mexanizmlari

Mediativ mexanizm	***Asosiy mazmuni***	***Rivojlantiriladigan kasbiy ko‘nikma***	***Namunaviy topshiriq***
Reformulyatsiya	Axborotni parafraz qilish, qisqartirish, umumlashtirish va qayta tuzish	Mazmunni tushunarli va aniq ifodalash	Murakkab inglizcha matn mazmunini B1 darajadagi talabaga tushuntirish
Mazmuniy adaptatsiya	Axborot hajmi va murakkabligini adresat	Auditoriyaga mos kasbiy nutq yaratish	Bir tushunchani boshlang‘ich va yuqori darajadagi talabalar uchun turlicha izohlash

	ehtiyojiga moslashtirish		
Kommunikativ fasilitatsiya	Muloqotni tashkil etish, aniqlashtirish va kommunikativ uzilishlarni bartaraf etish	Interaksiyani boshqarish va hamkorlikni ta’minlash	Guruh muhokamasidagi tushunmovchilikni aniqlash va vositachilik qilish
Lingvomadaniy talqin	Madaniy va pragmatik ma’nolarni izohlash	Madaniyatlararo muloqotni boshqarish	Ingliz va o‘zbek nutqiy odobidagi farqlarni kommunikativ vaziyat asosida tushuntirish
Plurilingval resurslarni safarbar etish	Turli til resurslaridan maqsadli va strategik foydalanish	Tillararo ma’no vositachiligini amalga oshirish	Ingliz tilidagi murakkab tushunchani qisqa o‘zbekcha izoh orqali tushuntirib, keyin ingliz tilida qayta ifodalash
Refleksiv-pedagogik mediatsiya	Tanlangan strategiyani pedagogik jihatdan tahlil qilish va baholash	Mustaqil metodik qaror qabul qilish	Qo‘llangan mediativ strategiyaning samaradorligini tahlil qilish va muqobil variant taklif etish

Jadvalda keltirilgan mediativ mexanizmlar o‘zaro izolyatsiyalangan hodisalar emas. Ular real pedagogik vaziyatda o‘zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo‘ladi. Masalan, murakkab madaniy tushunchani B1 darajadagi talabaga tushuntirishda bo‘lajak o‘qituvchi bir vaqtning o‘zida reformulyatsiya, mazmuniy adaptatsiya, lingvomadaniy talqin va plurilingval resurslardan foydalanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, mediativ faoliyatning samaradorligi alohida til ko‘nikmasi bilan emas, balki kommunikativ vaziyatni tahlil qilish va kerakli strategiyalarni o‘zaro uyg‘unlashtira olish qobiliyati bilan belgilanadi.

Mazkur mexanizmlarni rivojlantirish maxsus kasbiy yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini talab etadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisiga murakkab ilmiy matn mazmunini ma’lum darajadagi talabalar uchun tushuntirish, ingliz tilidagi axborotni o‘zbek auditoriyasi uchun qayta ishlab taqdim etish, guruh muhokamasida yuzaga kelgan tushunmovchilikni bartaraf etish yoki lingvomadaniy jihatdan murakkab vaziyatni sharhlash kabi topshiriqlar berilishi mumkin.

Bunday topshiriqlarning didaktik qiymati ularning real kasbiy faoliyatga yaqinligida namoyon bo‘ladi. Talaba til birliklarini tayyor shaklda takrorlamaydi, balki kelajakdagi pedagogik faoliyatiga xos kommunikativ muammoni hal qiladi.
Tahlil asosida mediativ mexanizmlar kasbiy muloqot kompetensiyasining to‘rtta o‘zaro bog‘liq tarkibiy komponentini rivojlantirishi aniqlanadi: lingvistik-reformulyativ, interaksion-kommunikativ, madaniyatlararo-pragmatik va pedagogik-mediativ komponentlar.

Lingvistik-reformulyativ komponent axborotni tushunarli shaklda qayta ifodalashni; interaksion-kommunikativ komponent o‘zaro muloqotni boshqarishni; madaniyatlararo-pragmatik komponent lingvomadaniy ma’nolarni interpretatsiya qilishni; pedagogik-mediativ komponent esa mediatsiyadan ongli ravishda ta’lim vositasi sifatida foydalanishni nazarda tutadi.

Mediativ faoliyatni baholashda faqat grammatik va leksik to‘g‘rilik yetarli mezon bo‘la olmaydi. Mazmunning adekvat saqlanishi, adresatga moslashtirilishi, mediativ strategiyaning maqsadga muvofiqligi, o‘zaro tushunishni ta’minlash darajasi, lingvomadaniy talqinning aniqligi va pedagogik samaradorlik ham baholash parametrlariga kiritilishi lozim.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda mediativ mexanizmlardan tizimli foydalanish zamonaviy pedagogik tayyorgarlikning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Reformulyatsiya, mazmuniy adaptatsiya, kommunikativ fasilitatsiya, lingvomadaniy talqin, plurilingval resurslarni maqsadli safarbar etish va refleksiv-pedagogik mediatsiya kelajakdagi ingliz tili o‘qituvchisiga turli kasbiy-kommunikativ vaziyatlarda ma’noni samarali vositalash imkonini beradi.

Mediatsiya bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat til kompetensiyasini, balki pedagogik muloqotni boshqarish, adresatning kommunikativ ehtiyojlariga moslashish, madaniy tafovutlarni izohlash va ko‘p tilli ta’lim muhitida o‘zaro tushunishni tashkil etish qobiliyatini rivojlantiruvchi kompleks metodik mexanizm sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. .Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing.
2. Jalolov, J. (2012). Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Jalolov, J. J., Makhkamova, G. T., & Ashurov, Sh. S. (2015). English Language Teaching Methodology: Theory and Practice.
4. Makhkamova, G. (2019). Razmyshleniya o kommunikativno-kumulyativnoy metodike obucheniya inostrannomu yazyku. Xorijiy filologiya: Til, adabiyot, ta’lim, 1(70), 13–18.
5. North, B., & Piccardo, E. (2016). Developing illustrative descriptors of aspects of mediation for the Common European Framework of Reference (CEFR). Language Teaching, 49(3), 455–459.

6. Piccardo, E., North, B., & Goodier, T. (2019). Broadening the scope of language education: Mediation, plurilingualism, and collaborative learning. Journal of E-Learning and Knowledge Society, 15(1), 17–36.
7. Stathopoulou, M. (2015). Cross-Language Mediation in Foreign Language Teaching and Testing. Bristol: Multilingual Matters.

SUN’IY INTELLEKT TAVSIYALARIGA ISHONISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Murodova Dilnoza Ahmad qizi,
Topex texnikumi psixologi
Email: dilnoza.murodova0392@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-9285-4646

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim talabalari tomonidan sun’iy intellekt tavsiyalariga ishonish va ularga amal qilishning psixologik omillari tanqidiy integrativ sharh asosida tahlil qilinadi. Ishonch tizimning haqiqiy ishonchliligi va kuzatiladigan foydalanish xulqidan farqlanib, kognitiv resurslar, oldingi tajriba, javobni idrok etish hamda vaziyat shartlarining o‘zaro bog‘liqligi yoritiladi. Adabiyotlar sintezi ishonchning tavsiya sifatiga mosligi baholash kompetensiyasi, tekshiriladigan dalillar va mustaqil tekshirish imkoniyati bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston oliy ta’limi uchun dalilni tekshirish va refleksiv foydalanishga yo‘naltirilgan, mahalliy empirik sinovni talab qiluvchi tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellektga ishonch, asoslangan ishonch, tavsiyaga amal qilish, avtomatlashtirishga tayanish, algoritmlardan qochish, algoritmik afzallik, AI savodxonligi, kognitiv refleksiya, ortiqcha ishonch, oliy ta’lim.

Generativ sun’iy intellekt talaba uchun matn tuzuvchi vositagina emas, balki izoh, yechim va tanlov tavsiya qiluvchi kognitiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida qo‘llanmoqda. Bunday vaziyatda muammo texnologiyadan foydalanishning o‘zida emas, foydalanuvchi tavsiyaning haqiqiy aniqligini har safar mustaqil tekshira olmasligidadir. Ishonch shu axborot yetishmasligini qoplovchi psixologik mexanizm bo‘lib, foydalanuvchining zaiflikni qabul qilgan holda tizim tavsiyasiga tayyor turishini anglatadi [1], [2]. Demak, tizimning obyektiv ishonchliligi – muayyan vazifalar to‘plamida barqaror to‘g‘ri ishlash xususiyati, ishonch esa ushbu xususiyat haqidagi subyektiv kutishdir. Obyektiv ishonchlilik va subyektiv kutish bir-biriga mos kelishi ham, bir-biridan farq qilishi ham mumkin.

Mazkur farq ta’limda ayniqsa muhim. Talaba javobning ravonligi, qat’iy ohangi yoki “aqlli” terminologiyasini kompetentlik belgisi deb qabul qilishi mumkin, holbuki lingvistik ishonchlilik faktik to‘g‘rilikning bevosita o‘lchovi bo‘la olmaydi. Ishonch ham tavsiyaga amal qilish bilan aynan bir narsa emas: talaba tizimga ishonsa-da, akademik qoida yoki o‘qituvchi talabi sabab tavsiyani ishlatmasligi; aksincha, vaqt bosimida shubha qilsa-da, undan nusxa olishi mumkin. Xuddi shuningdek, kelajakda foydalanish niyati kuzatilgan amaliy foydalanish o‘rnini bosa olmaydi. Shuning uchun tadqiqotlarda munosabat, niyat, tanlov va yakuniy javobdagi real tayanish alohida o‘lchanishi zarur [2], [3].

Adabiyotlarda aniq ziddiyat mavjud. Algoritmik xato ko‘ringach, odamlar ayrim hollarda algoritmdan inson ekspertiga qaraganda tezroq voz kechadi – bu algoritmlardan qochish deb ataladi [6]. Boshqa tajribalarda esa odamlar aynan algoritmik bahoni inson bahosidan ko‘proq qabul qilgan – algoritmik tavsiyani afzal ko‘rish kuzatilgan [7]. Qarama-qarshilik “odamlar AIga ishonadimi?” degan umumiy savol yetarli emasligini ko‘rsatadi: vazifa turi, xato ko‘rinishi, nazorat hissi, oldingi tajriba va tizim taqdimoti natijani o‘zgartiradi [8], [9]. Generativ AI erkin matn yaratadi, an’anaviy tavsiya tizimi foydalanuvchi yoki obyektlar o‘xshashligidan reyting beradi, avtomatlashtirilgan qaror vositasi esa ko‘pincha qat’iy tasnif yoki prognoz chiqaradi. Ularning “tavsiyasi” bir xil epistemik (ilmiy asoslangan) maqomga ega emas.

Bundan kelib chiqadiki oliy ta’lim talabalari kontekstida sun’iy intellekt tavsiyalariga ishonish va amal qilishning psixologik omillarini tizimlashtirish hamda ishonchni tavsiya sifati bilan moslashtiruvchi shartlarni nazariy asoslash dolzarb hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ilmiy adabiyotlarning tanqidiy integrativ sharhiga asoslanadi. Sun’iy intellekt va avtomatlashtirishga ishonch, algoritmik tavsiyalarni qabul qilish, kognitiv nazorat hamda AI savodxonligiga oid nazariy va empirik ishlar qiyosiy tahlil qilindi. Manbalar mavzuga aloqadorligi, tadqiqot dizayni va xulosalarining qo‘llanish chegaralari bo‘yicha baholanib, dalillar shaxsga, javobni idrok etishga va vaziyatga oid omillar doirasida umumlashtirildi.

ASOSIY QISM

Sun’iy intellekt tavsiyalariga ishonishning psixologik mazmunini ochib berishda, avvalo, foydalanuvchining subyektiv kutishlari bilan tizim faoliyatining haqiqiy ishonchliligini farqlash zarur. Ishonch shaxsning noaniqlik sharoitida tizim tavsiyasini qabul qilishga tayyorligini ifodalasa, ishonchlilik ushbu tizimning muayyan vazifani to‘g‘ri va izchil bajarish xususiyatidir [1], [2]. Ularning o‘zaro mos kelmasligi foydalanuvchining xato tavsiyaga ortiqcha tayanishi yoki foydali tavsiyani asossiz rad etishida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu sababli tahlilning markazida ishonch darajasining yuqoriligi emas, uning tavsiya sifati va vazifa shartlariga muvofiqligi turadi.

Xorijlik olimlardan Lee va See ishonchni noaniqlik va zaiflik sharoitida agent maqsadga erishishga yordam beradi degan munosabat sifatida izohlaydi [1]. Hoff va Bashir modelida esa dispozitsion ishonch, vaziyatga xos dastlabki ishonch va tajribada shakllanuvchi o‘rganilgan ishonch farqlanadi [2]. Bu farq talabada umumiy texnologik optimizm, muayyan platforma haqidagi oldindan tasavvur va konkret javoblar tarixining bir vaqtda ishlashini tushuntiradi. Ishonch psixologik holat bo‘lsa, tayanish kuzatiladigan tanlovdir. Biri ikkinchisining ehtimolini oshiradi, lekin uni to‘liq belgilamaydi.

Mazkur farqlashni avtomatlashtirishdan foydalanish haqidagi nazariy yondashuvlar to‘ldiradi. Parasuraman va Riley foydalanish, noto‘g‘ri foydalanish, foydalanmaslik va avtomatlashtirishni inson faoliyatiga nomuvofiq joriy etish holatlarini ajratadi [3]. Foydalanuvchining ortiqcha tayanishi bilan tizimni

tashkiliy jihatdan noto‘g‘ri joriy etish bir xil hodisa emas. Yetarli bo‘lmagan ishonch foydali yordamni rad etishga, ortiqcha ishonch esa xato tavsiyani nazoratsiz qabul qilishga olib kelishi mumkin. Asoslangan ishonch tizimning imkoniyatlari va cheklovlariga mos, yangi dalillar ta’sirida qayta ko‘rib chiqiladigan kutishni anglatadi. Ta’lim kontekstida uning amaliy ifodasi qarama-qarshi dalil aniqlanganda dastlabki qarorni asosli ravishda o‘zgartira olishdir.

Ishonchning shakllanishini tushuntirishda shaxsiy moyillik va o‘zaro ta’sir tajribasini birgalikda ko‘rib chiqish zarur. Umumiy ishonishga moyillik tizim haqida axborot yetishmagan dastlabki bosqichda muhim bo‘lsa, keyingi baholar kuzatilgan faoliyat natijalari bilan yangilanadi [2]. Muvaffaqiyatli tavsiyalar tizim kompetentligiga oid kutishni mustahkamlashi, aniqlangan xatolar esa uni zaiflashtirishi mumkin. Dietvorst va hammualliflar tajribalarida algoritm xatosini kuzatish undan foydalanishni kamaytirgan, garchi algoritm inson prognozidan aniqroq bo‘lgan bo‘lsa ham [6]. Inson – robot o‘zaro ta’siriga oid meta-tahlil ham tizimga va faoliyat sharoitiga tegishli xususiyatlarni hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [4]; biroq robotlar bo‘yicha natijalar generativ suhbat tizimlariga bevosita umumlashtirilmaydi.

AI savodxonligi tizim nima qila olishi, ma’lumot va model cheklovi, ehtimollik hamda etik oqibatni tushunish kompetensiyalarini qamrab oladi [13], [14]. Biroq ko‘proq bilim avtomatik ravishda kamroq ishonch degani emas: u ishonchni vazifaga qarab differensiallashtirishi kerak. Sohaga oid bilim talabaning muqobil yechim yaratishi va faktni tekshirishi uchun tayanch beradi; bilim juda past bo‘lsa, ravon javobdagi xatoni ko‘rish qiyin, o‘ziga haddan tashqari ishongan boshlang‘ich foydalanuvchi esa o‘z hukmini ham noto‘g‘ri mezon qilishi mumkin. Tanqidiy fikrlash va kognitiv refleksiya birinchi intuitiv javobni to‘xtatib, dalilni qayta tekshirishga yordam beradi. Kognitiv majburlash tajribasi aynan shu sekinroq tahlilni faollashtirib ortiqcha tayanishni kamaytirgan, lekin foydalanuvchi qulayligini pasaytirgan [11].

Kognitiv resurslar bilan bir qatorda, noaniqlikni subyektiv baholash ham ishonchning ehtimoliy sharti sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Muallifning nazariy talqiniga ko‘ra, noaniq vaziyatda qat’iy ifodalangan tavsiya ayrim foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishni yengillashtirishi, boshqalarda esa nazoratni yo‘qotish xavotirini kuchaytirishi mumkin. Ushbu sharh doirasida bunday yo‘nalishlarni oliy ta’lim talabalari uchun tasdiqlangan sababiy bog‘lanish deb baholashga asos yetarli emas. Shu bois emotsional omillar mustaqil ta’sir sifatida emas, bilim darajasi, xato haqidagi axborot va qaror uchun javobgarlik bilan o‘zaro bog‘langan empirik tekshiruv yo‘nalishi sifatida talqin qilinadi.

Shaxsiy xususiyatlarning ta’siri tavsiyaning qanday taqdim etilishi bilan tutashadi. Idrok etilgan kompetentlik tizimning vazifani bajarish qobiliyatiga oid subyektiv bahoni ifodalaydi; bu baho haqiqiy aniqlik bilan doimo mos kelmaydi [1], [10]. Generativ tizimlarga tatbiqan ravonlik va qat’iy ohang mazmunni tekshirish o‘rnini egallashi mumkinligi ehtiyotkor nazariy taxmin sifatida ilgari suriladi. Ko‘rib chiqilgan klassik avtomatlashtirish tadqiqotlari ushbu taxminning o‘zbek tilidagi generativ javoblarga ta’sirini bevosita tasdiqlamaydi. Shunga

qaramay, lingvistik sifat va daliliy asoslanganlikni alohida baholash kompetentlik haqidagi taassurotni tekshirilgan bilimdan farqlash uchun muhimdir.

Izoh va manba mavjudligi odatda shaffoflik hissini kuchaytiradi, biroq dalillar uning foydasi shartli ekanini ko‘rsatadi. Izoh foydalanuvchiga tizim mantiqini sinash imkonini bersa, mos tayanish yaxshilanishi mumkin [5], [12]. Ammo tushuntirishning o‘zi qo‘shimcha ishontiruvchi signalga aylanib, noto‘g‘ri tavsiyaga tayanishni ham oshirishi mumkin; oddiy XAI yondashuvlari ortiqcha tayanishni ishonchli kamaytirmagan [11]. Manba havolasi ham faqat tekshirilganda dalil vazifasini bajaradi: mavjud bo‘lmagan yoki da’voni qo‘llamaydigan havola “ilmiy asoslanganlik taassuroti” bo‘lib qoladi.

Tizimga insoniy xususiyatlarni nisbat berish - suhbat ohangi, “menimcha” kabi ifodalar yoki ijtimoiy yaqinlik - emotsional ishonchni kuchaytirishi mumkin [10]. Biroq bu kompetentlikni oshirmaydi. Ayniqsa generativ chatbotni niyat, mas’uliyat va tushunishga ega shaxs sifatida idrok etish javobning statistik yaratilish tabiatini yashiradi. Ta’limda antropomorfik qulaylik butunlay yo‘qotilishi shart emas, lekin interfeys talabaning vosita bilan inson ekspertini chalkashtirishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Omillarni alohida ro‘yxatlash ularning o‘zaro ta’sirini yashirishi mumkin. 2-jadval shaxsiy resurs, javob signali va vaziyat sharti birgalikda ishonch yoki real amal qilishni qanday o‘zgartirishini mexanizm darajasida tizimlashtiradi.

2-jadval

Sun’iy intellekt tavsiyalariga ishonishning psixologik omillari va mexanizmlari

Omil	**Psixologik mexanizm**	**Ishonch yoki xulq-atvor bilan bog‘liqlik**	**Amal qilish sharti**	**Manba**
Umumiy ishonishga moyillik	Dastlabki kutish	Tajriba yo‘qligida boshlang‘ich ishonchni belgilaydi	Keyingi natijalar bilan yangilanadi.	[2; 4]
AI savodxonligi va soha bilimi	Imkoniyat-cheklov mental modeli	Sifatni farqlash va tekshirish imkonini beradi	Bilim amaliy tekshiruvga aylansa.	[13; 14]
Kognitiv refleksiya	Intuitiv qabulni to‘xtatish	Noto‘g‘ri tavsiyaga ortiqcha tayanishni kamaytirishi mumkin	Vaqt va motivatsiya yetarli bo‘lsa.	[11]
Oldingi	Mustahkamlash	Muvaffaqiyat	Xato sababi	[5; 6]

tajriba	va xato sezgirligi	ishonchni, ko‘zga tashlangan xato qochishni kuchaytiradi	tushuntirilsa, qayta kalibrlanadi.	
Idrok etilgan kompetentlik va ravonlik	Qayta ishlash osonligi evristikasi	Subyektiv ishonchni oshirishi mumkin	Faktik tekshiruv bo‘lmasa ortiqcha ishonch xavfi bor.	[1; 10]
Izoh va manbalar	Shaffoflik va nazorat hissi	Ishonchni oshiradi; mos tayanishga ta’siri bir xil emas	Izoh diagnostik va manba tekshiriladigan bo‘lsa.	[5; 11; 12]
Vaqt bosimi va kognitiv yuklama	Evristik qaror	Tez qabul va nusxalashni ko‘paytirishi mumkin	Murakkab topshiriq va kam vaqt birlashganda.	[3; 11]
Vazifa murakkabligi va xato oqibati	Xavf, mas’uliyat, moslik bahosi	Obyektiv vazifada qabul, “insoniy” vazifada qochish kuchayishi mumkin	Muqobil ekspertiza va tekshirish imkoniga bog‘liq.	[7; 8; 9]

Manba: [1–3; 5–14] asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Omillar qiyosiy tahlili ularning ta’sirini alohida va o‘zgarmas yo‘nalishda talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Bilim tekshirish uchun vaqt yoki motivatsiya bo‘lmaganda kuzatiladigan xulqqa aylanmasligi, izoh esa tahlil qilinmagan holda faqat ishonchlilik taassurotini kuchaytirishi mumkin. Muallif talqinida baholash kompetensiyasi, javobdagi tekshiriladigan dalillar va mustaqil tekshirish imkoniyati ishonchni kalibrlashning o‘zaro bog‘liq shartlari sifatida taklif etiladi. Ushbu bog‘liqlik empirik tasdiqlangan model emas, kelgusida sinovdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan nazariy umumlashtirishdir.

Mazkur mexanizmlarning xulqda namoyon bo‘lishi faoliyat sharoitiga ham bog‘liq. Vaqt cheklovi va kognitiv yuklama kuchayganda foydalanuvchi tavsiyani batafsil tekshirish uchun kamroq resurs ajratishi mumkin. Bunday sharoitdagi qabul qilishni yuqori ishonchning bevosita dalili sifatida talqin etish to‘g‘ri emas: u vazifani tez yakunlashga qaratilgan amaliy tanlovni ham ifodalashi mumkin. Buçinca va hammualliflar tajribasida tahliliy ishlov berishga undovchi kognitiv majburlash usullari oddiy izohli interfeyslarga nisbatan ortiqcha tayanishni

kamaytirgan [11]. Biroq ushbu natija vaqt bosimining talabalar xulqiga mustaqil sababiy ta’sirini tasdiqlamaydi; u qaror jarayonini tashkil etishning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Vazifa murakkabligi va xato oqibati ham bir xil yo‘nalishda ishlamaydi. Murakkablik oshganda foydalanuvchi yordamga ehtiyoj sezib ko‘proq tayanishi mumkin; ayni paytda vazifa “insoniy sezgi” talab qiladi deb qaralsa, algoritmik qochish kuchayadi [8]. Yuqori oqibatli qarorda ehtiyotkorlik ortadi, lekin soha bilimi yetishmasa foydalanuvchi tekshira olmagani uchun qaror qabul qilishni AI tavsiyasiga bog‘lashi ham mumkin. Talabaning bahosi, akademik halollik qoidalari, o‘qituvchining pozitsiyasi va tengdoshlar normasi shu individual hisob-kitobni ijtimoiy jihatdan shakllantiradi.

Mustaqil tekshirish imkoniyati kalibrlashning hal qiluvchi tashkiliy shartidir. Birlamchi manbaga kirish, qarama-qarshi javoblarni qiyoslash, o‘qituvchidan fikr olish va xatoga tuzatish kiritish imkoniyati bo‘lsa, ishonch dalilga mos yangilanadi. Aks holda “manba keltirildi” belgisi tekshirilmagan nufuzga aylanadi. Shu bois universitet siyosati faqat ruxsat yoki taqiq shaklida emas, qaysi vazifada qanday verifikatsiya izlari topshirilishini belgilashi kerak.

Ortiqcha ishonch tizim noto‘g‘ri bo‘lgan vaziyatlarda ham tavsiyani qabul qilish ehtimoli yuqoriligida namoyon bo‘ladi. Yetarli bo‘lmagan ishonch esa sifatli tavsiyani muntazam rad etib, foydali inson va tizim imkoniyatlarining o‘zaro to‘ldirilishini yo‘qotadi. Har ikkisi samaradorlikni pasaytiradi, shu sababli maqsad “AIga ko‘proq ishonch” emas. Schemmer va hammualliflar asoslangan tayanishni to‘g‘ri maslahatni qabul qilish hamda noto‘g‘ri maslahatni rad etishdan iborat ikki o‘lchamli tushuncha sifatida operatsionallashtiradi [12]. Bu yondashuv oddiy foydalanish chastotasidan ko‘ra aniqroq.

Algoritmlardan qochish va algoritmik afzallik o‘zaro inkor qiluvchi universal qonunlar emas. Birinchisi ko‘rinadigan xato va mukammallik kutishi fonida [6], ikkinchisi esa obyektiv baholash va algoritmning neytral ekspert sifatida idrok etilishi fonida yuzaga kelishi mumkin [7]. Tayanishning asoslanganligi esa natijaga tasodifan mos kelishdan ko‘ra, foydalanuvchi tavsiya kuchi va zaifligini farqlay olishi bilan belgilanadi. Muallif talqiniga ko‘ra, ta’limda “javobni olish”dan “tavsiya chegarasini diagnostika qilish”ga o‘tish asosiy pedagogik burilishdir.

Tahlilning amaliy ahamiyati ushbu mexanizmlarni O‘zbekiston oliy ta’limida tekshirish mumkin bo‘lgan takliflarga aylantirishda namoyon bo‘ladi. Mazkur sharh asosida mahalliy talabalar ishonchi yoki AI vositalaridan foydalanish darajasi haqida empirik xulosa chiqarilmaydi. O‘zbek tilidagi topshiriqlar, manbalarga kirish imkoniyati, fan yo‘nalishi va baholash amaliyoti xalqaro tadqiqotlardan olingan natijalarning tatbiq etilishiga ta’sir qilishi mumkin. Mazkur farqlar mahalliy tadqiqot dizaynida alohida nazorat qilinishi lozim.

Shunga qaramay, mexanizm darajasidagi dalillar uch amaliy yo‘nalishni asoslaydi. Birinchidan, AI savodxonligi alohida texnik mavzu emas, barcha fanlarda manbani tekshirish, noaniqlikni ifodalash va javobni dalilga ajratish amaliyoti bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, topshiriq dizayni yakuniy matnni emas, so‘rov tarixi, tekshirilgan manbalar va tuzatish sababini ham baholashi lozim.

Uchinchidan, o‘qituvchi AI javobini mutlaq taqiqlovchi yoki mutlaq tasdiqlovchi nufuz emas, kalibrlash uchun qayta aloqa beruvchi mediator sifatida qatnashadi.

Mazkur takliflarni o‘lchanadigan ta’lim amaliyotiga aylantirish uchun 2-jadvalda muammo, psixologik asos va baholash ko‘rsatkichi bir tizimda berildi. Tavsiyalar samaradorligi mahalliy tajriba bilan sinovdan o‘tkazilmaguncha ehtiyotkor taklif maqomida qoladi.

2-jadval

Ta’lim muhitida asoslangan ishonchni shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar

Muammo	Tavsiya	Psixologik asos	Natijani baholash ko‘rsatkichi
Ravon javobni to‘g‘ri deb qabul qilish	Har AI javobidan ikki tekshiriladigan da’vo va bir zaiflikni ajratish	Ravonlik evristikasini reflektiv tahlil bilan sekinlashtirish	To‘g‘ri/noto‘g‘ri da’voni farqlash aniqligi
Soxta yoki nomos havolalar	Kamida ikki birlamchi yoki taqrizli manbani ochib, da’vo bilan mosligini qayd etish	Autoritet signalini real verifikatsiyaga aylantirish	Tasdiqlangan havolalar ulushi
Vaqt bosimida nusxalash	Topshiriqda mustaqil dastlabki javob va AI bilan qayta ishlangan variantni talab qilish	Kognitiv majburlash va anchoringni kamaytirish	Asosli tuzatishlar soni va sifati
Bir xil ishonchni barcha vazifaga ko‘chirish	Fan va vazifa bo‘yicha “AI nima qila oladi/qila olmaydi” kartasini tuzish	Vazifaga xos mental model	Kalibrlash: to‘g‘ri qabul va xato rad etish
Niyatni foydalanish deb baholash	Anonim o‘zini-o‘zi hisobotni topshiriq izlari va tanlov vazifasi bilan birlashtirish	Munosabat-xulq tafovutini nazorat qilish	Niyat va real foydalanish o‘rtasidagi tafovut
O‘qituvchilar talabi notekisligi	Kafedra darajasida ruxsat etilgan foydalanish va verifikatsiya mezonlarini kelishish	Ijtimoiy norma va noaniqlikni kamaytirish	Mezonlarni tushunish va rioya qilish darajasi

Manba: [11–14] asosida muallif takliflari.

Baholash ko‘rsatkichlari oddiy “ishonch oshdi” natijasidan ongli ravishda farq qiladi. Masalan, asoslangan foydalanish sifati talaba to‘g‘ri tavsiyani qanchalik ko‘p qabul qilgani bilangina emas, noto‘g‘ri tavsiyani qanchalik aniq rad etgani bilan ham o‘lchanadi. Shu yo‘l bilan pedagogik aralashuv ishonchni pasaytirish yoki oshirishga emas, uni dalil sifatiga moslashtirishga qaratiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR Tadqiqot natiajalari asosida quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, sun’iy intellekt tavsiyalariga ishonch tizimning haqiqiy ishonchliligiga teng emas; u foydalanuvchining tizim yordam beradi degan subyektiv kutishidir. Tavsiyaga amal qilish esa ishonchdan tashqari vaqt, baholash talabi, muqobil manba va ijtimoiy norma bilan belgilanadigan xulqdir. Shu sababli oliy ta’lim tadqiqotlarida ishonch, niyat va real tayanish alohida o‘lchanishi lozim.

Ikkinchidan, ishonchni shaxsiy omillar – umumiy moyillik, AI savodxonligi, sohaga oid bilim, kognitiv refleksiya va oldingi tajriba – shakllantiradi. Ularning yo‘nalishi mutlaq emas: bilim tanqidiy tekshiruvni kuchaytirishi mumkin, biroq noto‘g‘ri o‘ziga ishonch bilan birlashsa xatoni mustahkamlashi ham ehtimol. Shu bois AI savodxonligi treningi nazariy tushunchadan ko‘ra xato topish, manba tekshirish va noaniqlikni ifodalash mashqlariga tayanishi kerak.

Uchinchidan, javobning ravonligi, qat’iy ohangi, idrok etilgan kompetentlik, izoh va insoniylashtirilgan uslub subyektiv ishonchni oshiruvchi signallardir, ammo ularning hech biri o‘z-o‘zicha faktik sifat kafolati emas. Universitet topshiriqlarida “ravonlik” va “daliliy tekshirilganlik” alohida mezon sifatida baholanishi, havolani keltirish emas, uning da’voni qo‘llashini ko‘rsatish talab qilinishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, vaqt bosimi, kognitiv yuklama, vazifa murakkabligi, xato oqibati va tekshirish imkoniyati ishonchni real tayanishga aylantiradi. Shuning uchun asoslangan foydalanishni faqat talabadan talab qilish yetarli emas; ta’lim muhiti tekshirish uchun vaqt, manbaga kirish va aniq qayta aloqa berishi kerak. Mustaqil dastlabki javob, muqobil yechim va AI javobidagi zaiflikni majburiy ko‘rsatish kabi kognitiv majburlash usullari sinovdan o‘tkazilishi mumkin.

Beshinchidan, sharhning tahliliy hissasi mavjud yondashuvlarni baholash kompetensiyasi, javobdagi tekshiriladigan dalillar va vaziyatdagi tekshirish imkoniyati o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida birlashtirishdan iborat. Muallif taklif etayotgan talqinga ko‘ra, ushbu shartlarning uyg‘unligi ishonchni tavsiya sifatiga moslashtirishga ko‘maklashishi mumkin. Biroq ularning zarur yoki yetarli shart ekanligi mazkur sharh bilan isbotlanmaydi. Taklif etilgan bog‘liqlik keyingi empirik tadqiqotlar uchun tekshiriladigan nazariy asos sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Lee J.D., See K.A. Trust in automation: Designing for appropriate reliance. Human Factors. 2004;46(1):50-80. https://doi.org/10.1518/hfes.46.1.50_30392
2. Hoff K.A., Bashir M. Trust in automation: Integrating empirical evidence on

factors that influence trust. Human Factors. 2015;57(3):407-434. https://doi.org/10.1177/0018720814547570
3. Parasuraman R., Riley V. Humans and automation: Use, misuse, disuse, abuse. Human Factors. 1997;39(2):230-253. https://doi.org/10.1518/001872097778543886
4. Hancock P.A., Billings D.R., Schaefer K.E., Chen J.Y.C., de Visser E.J., Parasuraman R. A meta-analysis of factors affecting trust in human-robot interaction. Human Factors. 2011;53(5):517-527. https://doi.org/10.1177/0018720811417254
5. Dzindolet M.T., Peterson S.A., Pomranky R.A., Pierce L.G., Beck H.P. The role of trust in automation reliance. International Journal of Human-Computer Studies. 2003;58(6):697-718. https://doi.org/10.1016/S1071-5819(03)00038-7
6. Dietvorst B.J., Simmons J.P., Massey C. Algorithm aversion: People erroneously avoid algorithms after seeing them err. Journal of Experimental Psychology: General. 2015;144(1):114-126. https://doi.org/10.1037/xge0000033
7. Logg J.M., Minson J.A., Moore D.A. Algorithm appreciation: People prefer algorithmic to human judgment. Organizational Behavior and Human Decision Processes. 2019;151:90-103. https://doi.org/10.1016/j.obhdp.2018.12.005
8. Castelo N., Bos M.W., Lehmann D.R. Task-dependent algorithm aversion. Journal of Marketing Research. 2019;56(5):809-825. https://doi.org/10.1177/0022243719851788
9. Yeomans M., Shah A., Mullainathan S., Kleinberg J. Making sense of recommendations. Journal of Behavioral Decision Making. 2019;32(4):403-414. https://doi.org/10.1002/bdm.2118
10. Glikson E., Woolley A.W. Human trust in artificial intelligence: Review of empirical research. Academy of Management Annals. 2020;14(2):627-660. https://doi.org/10.5465/annals.2018.0057
11. Buçinca Z., Malaya M.B., Gajos K.Z. To trust or to think: Cognitive forcing functions can reduce overreliance on AI in AI-assisted decision-making. Proceedings of the ACM on Human-Computer Interaction. 2021;5(CSCW1):1-21. https://doi.org/10.1145/3449287
12. Schemmer M., Kühl N., Benz C., Bartos A., Satzger G. Appropriate reliance on AI advice: Conceptualization and the effect of explanations. Proceedings of the 28th International Conference on Intelligent User Interfaces. 2023:410-422. https://doi.org/10.1145/3581641.3584066
13. Long D., Magerko B. What is AI literacy? Competencies and design considerations. Proceedings of the 2020 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems. 2020:1-16. https://doi.org/10.1145/3313831.3376727
14. Laupichler M.C., Aster A., Schirch J., Raupach T. Artificial intelligence literacy in higher and adult education: A scoping literature review. Computers and Education: Artificial Intelligence. 2022;3:100101. https://doi.org/10.1016/j.caeai.2022.100101

АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

ТАШКЕНТСКАЯ МОДЕРНИСТСКАЯ АРХИТЕКТУРА: СОВРЕМЕННОСТЬ И ТРАДИЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Эшназарова Солиха Зайниддиновна
Ташкент, Узбекистан

Аннотация. В тезисе рассматривается ташкентская модернистская архитектура второй половины XX века как результат взаимодействия советской модернизации, местных градостроительных традиций и архитектурной культуры Центральной Азии. Особое внимание уделено послевоенному развитию Ташкента и реконструкции после землетрясения 1966 года, которые ускорили формирование нового городского центра. На примере ряда объектов показано, что ташкентский модернизм сочетал новые конструктивные и типологические решения с традиционными пространственными, декоративными и климатическими принципами.

Ключевые слова: Ташкент, модернистская архитектура, советский модернизм, Центральная Азия, архитектурная традиция, реконструкция, городская среда, сейсмостойкость.

Введение. Во второй половине XX века Ташкент стал одним из крупнейших центров архитектурных и градостроительных экспериментов в Центральной Азии. Индустриализация, миграционные процессы, развитие научных и производственных учреждений, а также послевоенная модернизация существенно изменили структуру города. Особое значение имело землетрясение 26 апреля 1966 года, после которого реконструкция столицы приобрела масштаб общесоюзного проекта. В результате в Ташкенте сформировалась архитектурная среда, в которой модернистские принципы сочетались с региональными особенностями и традициями.

Формирование модернистского Ташкента. Архитектурное развитие столицы в 1960–1991 годах было связано с работой ташкентских и московских проектных институтов, поиском новых типологий и технических решений. Проектировщики решали задачи сейсмостойкости, климатической адаптации и создания новой системы общественных пространств. При этом важным направлением стало соединение старой и новой частей города через сеть проспектов, зелёных зон, каналов и общественных зданий. Таким образом, модернистская архитектура выступала не только как стиль, но и как инструмент пространственного переустройства столицы.

Характерной чертой ташкентского модернизма стало стремление связать универсальный язык архитектуры XX века с местной культурой. Это проявлялось в использовании традиционных принципов двора, махалли, купольных форм, солнцезащитных экранов, декоративной керамики и мотивов среднеазиатского орнамента. Вместе с тем эти элементы не всегда

воспроизводились буквально: во многих зданиях они переосмысливались средствами бетона, стекла, металла и новых конструктивных систем.

Ключевые объекты. Жилой дом «Жемчуг» является одним из наиболее показательных примеров соединения модернистской типологии с традиционной социальной моделью. Его подвесные многоуровневые дворы интерпретируют идею махалли в условиях высотного жилья. Экспериментальная монолитная конструкция позволила отойти от жёстких ограничений типового сборного строительства.

Дом издательства демонстрирует другую сторону ташкентского модернизма — формирование выразительного городского акцента в административном центре. Высотная композиция и технические новшества сделали здание заметным элементом силуэта города. В то же время Государственный музей истории Узбекистана показывает синтез модернистской композиции и традиционных мотивов, в частности системы солнцезащитных экранов, связанных с принципом панжары.

Дворец Дружбы народов сочетает монументальную общественную функцию, современные конструктивные решения и декоративные формы, отсылающие к исламской архитектуре. Солнцезащитные экраны и пластика верхней части здания формируют образ, в котором модернистская модульность сочетается с региональной орнаментальной традицией. Базар «Чорсу», напротив, демонстрирует взаимодействие модернистской функциональной организации и исторически сложившейся торговой функции старого города. Крупный купол, система павильонов и цветная керамика позволяют объекту сохранять связь с локальной культурной средой.

Кафе «Голубые купола» представляет ранний пример современной интерпретации купольной архитектуры. Купол здесь не связан с массивными стенами традиционного сооружения, а превращён в лёгкий павильонный элемент. Станция метро «Проспект Космонавтов» демонстрирует иной вариант синтеза архитектуры и прикладного искусства: современная транспортная инфраструктура получила тематическое художественное оформление, связанное с идеей космоса и научно-технического прогресса.

Солнечный гелиокомплекс и Ташкентская телебашня отражают техническую и научную составляющую модернистской архитектуры. Первый объединяет исследовательскую функцию с природным ландшафтом и использованием солнечной энергии, второй — сейсмостойкую инженерную конструкцию, высотную доминанту и произведения прикладного искусства. Эти объекты показывают, что модернизм в Ташкенте развивался не только через стилистические формы, но и через инженерные инновации.

Современность и традиция. Анализ рассмотренных объектов позволяет выделить несколько устойчивых принципов ташкентского модернизма: сочетание общественной функции и выразительной городской роли; адаптация к климату; учёт сейсмических условий; использование традиционных пространственных и декоративных мотивов; синтез архитектуры и монументального искусства. Важной особенностью стало то,

что традиция нередко воспринималась не как набор исторических форм, а как система пространственных, социальных и климатических принципов, которые могли быть переосмыслены средствами современной архитектуры.

Заключение. Ташкентская модернистская архитектура второй половины XX века сформировалась как результат сложного взаимодействия модернизации, градостроительных преобразований и местной архитектурной культуры. Послевоенное развитие и реконструкция после землетрясения 1966 года создали условия для масштабных экспериментов в области типологии, конструкций и городской среды. Рассмотренные объекты свидетельствуют о способности модернистской архитектуры адаптироваться к региональному контексту и вести диалог с историей и традициями Центральной Азии. Сохранение и научное изучение этого наследия важно для понимания архитектурной идентичности Ташкента и дальнейшего развития современной архитектуры Узбекистана.

Список литературы

1. Аскаров Ш.Д. Регион – пространство – город. М.: Стройиздат, 1988. 200 с.
2. Булатов М.С. Геометрическая гармонизация в архитектуре Средней Азии IX–XV вв. М.: Наука, 1988. 368 с.
3. Добросмыслов А.И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. Вып. 1–2. Ташкент, 1911–1912. 520 с.

BOLALAR TIBBIY MARKAZLARI DIZAYN ELEMENTLARINING BOLA PSIXOLOGIK HOLATI VA TIKLANISHIGA TA’SIRI

Egamnazarova Gulnoza G’ayratxo’ja qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti o’qituvchisi
gulnoza170797@ gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot bolalik davrining inson shaxsiy rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini, shuningdek, bolalar uchun mo‘ljallangan tibbiy muhitning bola rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, bola hayotining ilk yillari nafaqat uning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyat va butun dunyo taraqqiyotiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bolalik va o‘smirlik davri tug‘ilishdan 0–19 yoshgacha bo‘lgan yillarni qamrab oladi hamda atrof-muhit ta’siriga ayniqsa sezgir davr hisoblanadi. Bola atrofidagi muhitni doimiy kuzatish va undan o‘rganish orqali rivojlanadi. Shu sababli pediatriya muassasalarida shakllantirilgan muhit, bolaning u yerdagi tajribasi va tibbiyot xodimlari bilan o‘zaro munosabati uning hayot haqidagi qarashlari va rivojlanish jarayoniga muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *bolalar tibbiy markazlari, dizayn elementlari, shifobaxsh muhit, biofilik dizayn, tabiiy yorug‘lik, oilaviy yondashuv.*

Bolalar kichik tana tuzilishi, rivojlanish bosqichi va xatti-harakatlari tufayli o‘ta nozik va himoyasiz hisoblanadi. Kasallik va tibbiy markazga yotqizilish bilan bog‘liq xavotirlar ularning begona va g‘ayritabiiy tibbiy muhitni qabul qilishini qiyinlashtiradi. Bolalar stressli va qo‘rqinchli muhitlarga juda sezgir bo‘lib, bu ularda o‘zini xavfsiz his qilmaslik, xavotir va qo‘rquvni keltirib chiqaradi [1]. Demak, bolalar tibbiy markazi faqat davolanish joyi emas, balki bolaning umumiy rivojlanishi va farovonligiga xizmat qiluvchi makon bo‘lishi lozim. Bolalarning maxsus ehtiyojlari va nozik psixologik muvozanati tufayli pediatrik tibbiyot muassasalari kattalar uchun mo‘ljallangan muassasalarga nisbatan murakkabroq tizimga ega. Cleper-Borkovi (2009) fikricha, ideal bolalar kasalxonasi kashfiyot va murakkablik tuyg‘usini berishi, hislarni uyg‘otishi, harakatchanlikni rag‘batlantirishi hamda quvnoq va xilma-xil bo‘lishi kerak. McElroy-Anshen va Allen (2009) ta’kidlaganidek, dizayn bolaning tana, ong va ruh ehtiyojlarining barchasiga javob berishi lozim. Bunda har bir yosh guruhining o‘ziga xos ehtiyojlari, tartiblari va afzalliklari ham hisobga olinadi. Adabiyotlar tahlili dizaynning quyidagi asosiy elementlarini ajratish imkonini berdi: ichki makon (qabul xonasi va bemorlar xonalari), bino va tabiiy atrof-muhit o‘rtasidagi bog‘lanish, yorug‘lik, ranglar va materiallar hamda masshtab [2, 3].

Tibbiyot muassasasi dizaynida tashqi muhitdan ichki muhitga va aksincha uzluksiz o‘tish muhim, chunki sog‘liqni saqlash muassasalarining fazoviy rejasi

makonlar uzluksizligiga bog‘liq. Tiklanishni rag‘batlantirish uchun bemor xonasida xavfsizlik va tinchlikni bildiruvchi xususiyatlar bo‘lishi, bolalar xonasida esa ularning o‘zini qulay his qilishiga va og‘riqdan chalg‘ishiga yordam beradigan ijobiy chalg‘ituvchi elementlar nazarda tutilishi kerak.

Tabiiy atrof-muhit va sog‘liq o‘rtasidagi munosabat qadimiy jamiyatlardan beri ma’lum. Kichik bog‘lar, davolash bog‘lari, atriyalar va boshqa yaxshi loyihalangan ochiq maydonlar ijtimoiy aloqani rag‘batlantirib, noqulaylik va yolg‘izlik hislarini kamaytiradi. Ichki bog‘lar, yashil devorlar va tabiiy manzaraga qaragan katta derazalar orqali tabiatni kasalxona ichiga olib kirish bionik dizayn tamoyillarini amalda qo‘llash imkonini beradi. Tadqiqotlar tabiatda vaqt o‘tkazish stressni kamaytirishini va tiklanishga yordam berishini ko‘rsatadi [4].

Yorug‘lik — dizaynning eng kuchli tarkibiy qismlaridan biri. Tabiiy yoki sun’iy bo‘lishidan qat’i nazar, yoritish makonning ko‘rinishini, ohangini va undagi harakat yo‘nalishini sezilarli darajada o‘zgartiradi. Tabiiy yorug‘lik o‘zgarishlariga moslashgan sun’iy yoritish fazoviy orientatsiyaga yordam beradi. Yorug‘lik tananing kundalik jarayonlarini boshqaruvchi kuchli omil bo‘lgani uchun uning sifati bemorning hissiy va jismoniy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, davolanishni tezlashtirishi mumkin [5].

Ranglar va materiallar tanlovi makonning davolovchi xususiyatlarini belgilaydi [5]. Ranglar iliq va xilma-xil bo‘lishi, biroq haddan tashqari kuchli yoki xushlanmaydigan bo‘lmasligi kerak; teksturalar esa bolalarning narsalarga tegib, ularni o‘rganishiga imkon beradigan darajada xilma-xil bo‘lishi lozim. Chaqaloqlar bo‘limida yangi tug‘ilgan bolalarning yorug‘likka sezgirligi sababli yorqin ranglardan qochish kerak, pediatrik yo‘laklarga esa o‘yinli ranglar va yumshoq gilamlar iliqlik beradi. Masshtab jihatidan, bolalar palatada o‘zlarini “qamoqda” his qilmasligi uchun past derazalar o‘rnatish mumkin: ular bolaga o‘rindiqqa o‘tirmasdan yoki kattalar yordamisiz daraxtlarni ko‘rish imkonini beradi. Atrof-muhit bolaning “qo‘l ostida” bo‘lgani uning o‘zini xavfsizroq his qilishiga va noma’lum, g‘alati muhit ustidan nazoratni qo‘lga kiritishiga yordam beradi.

Bemorga yo‘naltirilgan dizayn yorqin ranglar, o‘yinli mavzular va qiziqarli san’at asarlari bilan qulay va tinchlantiruvchi makonlar yaratishni, bolaning qiziqishi va ijodkorligini uyg‘otuvchi elementlarni qo‘shishni nazarda tutadi. Bemor xonalarini sozlanadigan yoritish, ranglar sxemasi va o‘yin-kulgi variantlari bilan shaxsiylashtirish stressli muhitda bolaga nazorat va tinchlik tuyg‘usini beradi. Kutish xonalarini interaktiv ekranlar, o‘yinlar va qulay o‘rindiqlar bilan jihozlash uzoq kutish vaqtida bolalar va ularning oilalariga chalg‘ish va dam olish imkonini beradi [6].

Oilaviy yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. J. Robertson (1958) kasalxonaga yotish bola uchun travma ekanini va ota-onadan ajralish og‘ir ruhiy azobni keltirib chiqarishini ta’kidlagan. Newman (2009) ham bolalar kattalarga juda bog‘liq bo‘lgani uchun kasalxonada ularga g‘amxo‘rlik qiladigan e’tiborli kishilar bilan bir qatorda ota-onalari ham yonida bo‘lishi kerakligini yozgan. Shu sababli bola va uning oila a’zolari palatada o‘zlarini qulay his qilishi zarur: palatalarda qulay uxlash joylari, oilaviy kutish xonalari va aka-uka, singillar uchun o‘yin

maydonlarining bo‘lishi oilaning parvarish jarayonida ishtirokini qo‘llab-quvvatlaydi va bolalar hamda ularning oilalari uchun hissiy farovonlikni ta’minlaydi.

Xulosa. Bolalar tibbiy markazlarida dizayn elementlari estetik vosita emas, balki shifobaxsh muhitni shakllantiruvchi omil sifatida qaralishi lozim. Tabiat bilan uzviy bog‘liqlik, o‘ylangan yoritish, iliq ranglar, bola masshtabiga mos makon va oilaviy yondashuv bolaning qo‘rquvi va tashvishini kamaytirib, uning tiklanishiga yordam beradi. Bunday muhitni yaratish arxitektura, dizayn, san’at, texnologiya va psixologiya sohasidagi mutaxassislarning hamkorligini talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miller G.E., Chen E., Parker K.J. Bolalikdagi psixologik stress va qarilik davridagi surunkali kasalliklarga moyillik: xulq-atvor va biologik mexanizmlarni tushuntiruvchi model sari. Psychological Bulletin, 2011 yil noyabr; 137(6): 959.
2. Nourmusavi Nasab S., Karimi Azeri A.R., Mirbazel S. Bolalar kasalxonasining ideal fizik xususiyatlari: bolalarning qarashlari asosida. Facilities, 2020 yil 2-mart; 38(5/6): 445–466.
3. Lambert V., Coad J., Hicks P., Glacken M. Bolalarning kasalxona binolari uchun ideal dizayn xususiyatlari haqidagi qarashlari. Journal of Child Health Care, 2014 yil mart; 18(1): 57–71.
4. Herrington S., Lesmeister C. Bolalar parvarishi markazlaridagi landshaft dizayni: Yetti “S”. Landscape Research, 2006 yil 1-yanvar; 31(1): 63–82.
5. McGee B., Park N.K. Rang, yorug‘lik va material: biophilic ichki dizaynning tadqiqot va amaliyotdagi ifodasi. Interiority, 2022 yil 30-yanvar; 5(1): 27–52.
6. Jiang S. Pediatriya tibbiy muassasalaridagi jamoaviy makonlarda ijobiy chalg‘ituvchi omillar va o‘yin: adabiyotlar sharhi. HERD: Health Environments Research & Design Journal, 2020 yil iyul; 13(3): 171–197.

BOLALAR TIBBIY MARKAZLARINI LOYIHALASHDA INNOVATSION VA BARQAROR MATERIALLARNING O‘RNI

Egamnazarova Gulnoza G’ayratxo’ja qizi
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti o’qituvchisi
gulnoza170797@ gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy arxitektura yondashuvlari asosida kasalxona loyihalash jarayoni bugungi kunda faqat me’moriy estetikani emas, balki bemor xavfsizligi, qulaylik va psixologik holatini ham hisobga oladi. Ayniqsa, bolalar uchun mo‘ljallangan statsionar muassasalarda muhit ularning sog‘lig‘i va emotsional holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi: bola muassasaga tashrifi yoki davolanishi davomida atrofdagi makon uning ong va tana rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli bolalar muassasalarida ishlatiladigan materiallar va ularning funksional xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *bolalar tibbiy markazlari, innovatsion materiallar, antimikrobial yuzalar, biofilik materiallar, ekologik xavfsizlik, akustik komfort.*

Yosh bemorlar turli psixologik, jismoniy va ijtimoiy ehtiyojlarga ega bo‘lgani uchun material tanlovi aynan shu ustuvorliklar asosida amalga oshirilishi kerak. Bolalar kasalxonasi dizayni xavfsizlik, qulaylik va davolanishni yaxshilash uchun materiallarni diqqat bilan tanlashni talab qiladi, shu bilan birga ular chidamli, barqaror va yosh bemorlar uchun qiziqarli bo‘lishi lozim [1].

Zamonaviy bolalar tibbiyot muassasalarida qo‘llanilayotgan ilg‘or materiallarni tahlil qilish va ularning yosh bemorlar ehtiyojlarini qondirishdagi o‘rnini aniqlash. Tahlil natijasida bolalar tibbiy markazlarida qo‘llash mumkin bo‘lgan materiallarning bir necha asosiy guruhi ajratildi. Birinchi guruh — antimikrobial materiallar. Mis va mis qotishmalari hamda antimikrobial qoplamalar tabiiy antimikrobial xususiyatga ega bo‘lib, eshik tutqichlari, yotoq panjaralari va stollar kabi yuqori darajadagi kontakt sathlarida qo‘llanilganda yuqumli kasalliklarning tarqalishini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi guruh — biofilik materiallar. Dizaynda yog‘och elementlarini qo‘shish tabiat bilan bog‘lanish va iliqlik tuyg‘usini keltirib chiqaradi. Uzoq muddatli xizmat qilishi va gigiyenikligi uchun ishlov berilgan yog‘ochdan pol, devor panellari va mebellarda foydalanish mumkin. O‘simliklardan yoki saqlangan mosslardan tayyorlangan yashil devorlar ichki makonda tabiiy muhitni yaratib, havo sifatini yaxshilaydi hamda tinchlantiruvchi, estetik jihatdan yoqimli muhit hosil qiladi [2].

Uchinchi guruh — barqaror va ekologik toza materiallar. Kam-VOC (uchuvchan organik birikmalar) bo‘yoqlar zararli kimyoviy moddalar chiqishini kamaytirib, ichki havo sifatini yaxshilaydi va bolalarning sog‘liq xavfini pasaytiradi, ayniqsa nafas olish kasalliklari bilan og‘riganlar uchun. Qayta ishlangan kauchuk yoki plastikdan yasalgan pol atrof-muhitga ta’sirni kamaytirib, chidamli va oson

parvarishlanadigan yuzalarni ta’minlaydi. Yumshoq, sirpanmaydigan va tozalash oson bo‘lgan kauchuk pol bolalar o‘ynaydigan va harakatlanadigan joylar uchun ideal hisoblanadi hamda tushishdan kelib chiqadigan jarohatlar xavfini kamaytiradi. Tabiiy va yangilanadigan material bo‘lgan po‘kak esa qulay, elastik, issiq va tabiiy antimikrobial sathga ega.

To‘rtinchi guruh — akustik materiallar. Qayta ishlangan poliester yoki tabiiy tolalardan tayyorlangan akustik panellar shovqin darajasini kamaytirib, tinchroq va dam olish uchun qulayroq muhit yaratadi; ularni mebellarga hamda devor va shiftlarga integratsiya qilish mumkin. Shovqinni kamaytiruvchi xususiyatga ega laminatlangan shisha oynalar va bo‘linmalar shovqin tarqalishini minimallashtirib, bemor xonalari va umumiy maydonlarda tinchroq atmosferani ta’minlaydi.

Beshinchi guruh — interaktiv va moslashuvchan materiallar. Elektroxromik yoki o‘zgaruvchan shishadan oynalar va bo‘linmalarda maxfiylik hamda yorug‘lik darajasini boshqarish uchun foydalanish mumkin: tugmachani bosish bilan shisha shaffof holatdan xira holatga o‘tadi va makondan foydalanishda moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Magnitli yoki yoziladigan devor sathlari bolalarga o‘z atrof-muhiti bilan o‘zaro aloqada bo‘lish imkonini beradi va gigiyena yoki tozalashni buzmasdan devorlarni ijodiy o‘yin uchun joyga aylantiradi [3].

Oltinchi guruh — termal va sensorli komfort materiallari. Devor yoki shiftlarga integratsiya qilingan bunday materiallar kerak bo‘lganda issiqlikni yutib yoki chiqarib yuborish orqali ichki haroratni boshqarishga yordam beradi. Yotoq, mebel va pardalar uchun yumshoq, gipoallergen matolardan foydalanish bolalarning o‘zini qulay va xavfsiz his qilishini ta’minlaydi hamda tinchlantiruvchi muhitni shakllantirishga ko‘maklashadi.

Ko‘rib chiqilgan materiallar bolalar tibbiy markazlarida bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifani hal qiladi: gigiyena va yuqumli kasalliklar xavfini kamaytirish, ichki havo sifatini yaxshilash, jarohat xavfini pasaytirish, shovqinni kamaytirish, maxfiylik va yoritilganlikni boshqarish hamda bolaga o‘yin va ijod imkoniyatini berish. Bu esa yosh bemorlarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini kompleks qondirish imkonini beradi.

Xulosa. Innovatsion va barqaror materiallar bolalar tibbiy markazini nafaqat xavfsiz va chidamli, balki shifobaxsh muhitga aylantiradi. Dizayn xususiyatlari g‘amxo‘rlik sifati va qiymatiga ta’sir qilgani sababli materiallarni tanlash dizayn va tibbiyot sohalari hamkorligida, bolalarning yoshi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi zarur. Texnologiyalar rivoji bolalar sog‘liqni saqlash muassasalarida yoqimli va davolovchi muhitni sifat jihatidan yanada yaxshilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nourmusavi Nasab S., Karimi Azeri A.R., Mirbazel S. Bolalar kasalxonasining ideal fizik xususiyatlari: bolalarning qarashlari asosida. Facilities, 2020 yil 2-mart; 38(5/6): 445–466.
2. McGee B., Park N.K. Rang, yorug‘lik va material: biophilic ichki dizaynning tadqiqot va amaliyotdagi ifodasi. Interiority, 2022 yil 30-yanvar; 5(1): 27–52.

3. Jiang S. Pediatriya tibbiy muassasalaridagi jamoaviy makonlarda ijobiy chalg‘ituvchi omillar va o‘yin: adabiyotlar sharhi. HERD: Health Environments Research & Design Journal, 2020 yil iyul; 13(3): 171–197.

ТАРИХИЙ МЕЪМОРИЙ БИНОЛАР ВА АНСАМБЛЛАРНИ РЕКОНСТРУКЦИЯ ҚИЛИШ: УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИДА МАДАНИЙ МЕРОСНИ САҚЛАШ

Эшназарова Солиха Зайниддин қизи

Аннотация. Мазкур тезисда урбанизация шароитида тарихий меъморий бинолар ва ансамбларни сақлаш, реконструкция қилиш ва замонавий функцияларга мослаштириш масалалари кўриб чиқилади. Тарихий шаҳар муҳитини муҳофаза қилишда алоҳида объектни эмас, балки унинг фазовий, ижтимоий ва ландшафт контекстини биргаликда баҳолаш зарурлиги асосланади. Реконструкция жараёнида асллик, масштаб, фасад ритми, материал, муҳандислик инфратузилмаси, пиёдалар ҳаракати ва жамоат манфаатлари ўртасида мувозанат сақлашнинг асосий тамойиллари белгиланади.

Калит сўзлар: маданий мерос, реконструкция, реставрация, тарихий шаҳар, урбанизация, меъморий муҳит, адаптив фойдаланиш, барқарор ривожланиш.

Кириш. Урбанизация жараёни тарихий шаҳарларнинг функционал ва фазовий тузилишига босимни кучайтирмоқда. Янги қурилиш, транспорт инфратузилмаси ва хизмат кўрсатиш объектларига бўлган талаб тарихий муҳитни сақлаш вазифаси билан тўқнаш келади. Шу сабабли маданий меросни муҳофаза қилишни шаҳар ривожланишидан ажратилган ҳолда эмас, балки ягона режалаштириш тизими доирасида кўриш зарур. Замонавий тадқиқотларда тарихий муҳитни барқарор шаҳар ривожининг ресурси сифатида баҳолаш ва уни ижтимоий, иқтисодий ҳамда экологик мақсадлар билан уйғунлаштириш зарурлиги таъкидланади [1–4].

Тарихий биноларни реконструкция қилиш янги бино қуришга нисбатан мураккаброқ жараён бўлиб, лойиҳадан олдин объектнинг тарихий қиймати, конструктив ҳолати, физик эскириши, муҳандислик тизимлари ва атроф муҳит билан алоқаси ўрганилиши лозим. Бунда фақат фасадни сақлаб қолиш етарли эмас: бинонинг фазовий тузилиши, материаллари, конструктив схемаси ва шаҳар ансамблидаги ўрни ҳам баҳоланиши керак. Шу нуқтаи назардан, ЮНЕСКОнинг «Тарихий шаҳар ландшафти» ёндашуви маданий меросни алоҳида ёдгорлик эмас, балки кенгроқ шаҳар ландшафти, ижтимоий ҳаёт ва ривожланиш жараёнлари билан боғланган тизим сифатида кўришни таклиф этади [4,5].

Реконструкциянинг асосий тамойиллари. Тарихий муҳитда янги аралашув қуйидаги мезонларга таяниши керак: биринчидан, асл тарихий тузилма ва материалга минимал аралашув; иккинчидан, янги функцияни жорий этишда бинонинг фазовий тузилишига ҳурмат; учинчидан, янги қурилиш ҳажми, баландлиги, силуэти ва фасад ритмини мавжуд муҳит билан

мувофиқлаштириш; тўртинчидан, муҳандислик коммуникацияларини тарихий тўқимага зарар етказмай интеграция қилиш; бешинчидан, лойиҳалаш жараёнига маҳаллий аҳоли, мутахассислар ва давлат органларини жалб қилиш [2,3,6].

Тарихий шаҳар марказларида янги объектларни жойлаштиришда «эскига ўхшатиб қўйиш» ҳам, тарихий муҳитни бутунлай инкор этувчи кескин контраст ҳам ҳар доим мақбул натижа бермайди. Самарали ёндашув янги ва эски қатламларнинг ўзаро муносабатини масштаб, пропорция, материал, ранг, кўча фронти ва жамоат фазоси орқали мувофиқлаштиришдан иборат. Бунда янги элемент ўз даврига мансублигини йўқотмаслиги, шу билан бирга тарихий муҳитнинг устувор қийматларини соя остида қолдирмаслиги лозим.

Адаптив фойдаланиш ва барқарорлик. Тарихий биноларни сақлашнинг самарали усулларидан бири — уларга мувофиқ замонавий функция беришдир. Адаптив фойдаланиш бинодан иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан фойдаланишни давом эттиришга ёрдам беради, бироқ янги функция тарихий тузилмани кескин ўзгартирмаслиги керак. Энергия самарадорлиги, иситиш, шамоллатиш, ёнғин хавфсизлиги ва ахборот-коммуникация тизимларини жорий этишда қайтариладиган ва кам аралашувли ечимлар устувор бўлиши мақсадга мувофиқ. Маданий меросни барқарор ривожланиш билан уйғунлаштиришга бағишланган тадқиқотлар айнан шундай интеграцияланган ёндашувни қўллаб-қувватлайди [1–3,7].

Шаҳарсозлик даражасида тарихий марказларни реконструкция қилиш транспорт ва пиёдалар ҳаракати, туризм, савдо, жамоат хизматлари ва турар-жой функцияларини биргаликда кўриб чиқишни талаб қилади. Маданий мерос фақат туристик объектга айлантирилса, маҳаллий аҳолининг кундалик ҳаёти ва ҳудуднинг ижтимоий барқарорлиги заифлашиши мумкин. Шунинг учун жамоат иштирокини кучайтириш, маҳаллий функцияларни сақлаш ва тарихий марказда яшаш имкониятини қўллаб-қувватлаш муҳим [6,8].

Халқаро тажриба. Иккинчи жаҳон урушида жиддий вайрон бўлган Варшава тарихий марказининг ҳужжатлар, тасвирлар ва архив материаллари асосида қайта тикланиши тарихий шаҳар муҳитини тиклашнинг машҳур мисолидир. Унинг кейинчалик Жаҳон мероси сифатида эътироф этилиши реконструкциянинг ўзи ҳам тарихий хотира ва ижтимоий идентикликни тиклаш воситаси бўлиши мумкинлигини кўрсатади. Бироқ бундай тажрибани бошқа шаҳарларга механик кўчириш мумкин эмас: ҳар бир ҳолатда асллик, ҳужжатланганлик ва маҳаллий контекст алоҳида баҳоланиши зарур [5].

Ўзбекистоннинг Самарқанд, Бухоро, Хива ва бошқа тарихий шаҳарларида ҳам урбанизация ва туризм босими тарихий муҳитни сақлаш билан боғлиқ муаммоларни долзарб қилади. Шу сабабли реконструкция лойиҳаларида алоҳида ёдгорликни сақлаш билан чекланмасдан, кўча тармоғи, анъанавий масштаб, ҳовли тузилиши, ландшафт, визуал коридорлар ва жамоат ҳаётини комплекс баҳолаш мақсадга мувофиқ. Бу ёндашув тарихий муҳитни «музейлаштириш» эмас, балки уни замонавий шаҳар ҳаётининг фаол қисми сифатида сақлаш имконини беради.

Хулоса. Урбанизация жараёнида маданий меросни сақлаш реконструкция ва ривожланиш ўртасида мувозанат топишни талаб қилади. Тарихий бинолар ва ансамблларни муҳофаза қилишда асллик, минимал аралашув, мос функция, муҳит билан уйғунлик ва жамоат иштирокини биргаликда ҳисобга олиш зарур. Замонавий технологиялар тарихий муҳитга зарар етказмасдан қўлланилганда, реконструкция маданий қийматларни сақлаш билан бирга шаҳарнинг иқтисодий ва ижтимоий ҳаётийлигини ҳам таъминлаши мумкин. Шу боис тарихий шаҳарларни ривожлантиришда муҳофаза ва модернизация қарама-қарши вазифалар эмас, балки ягона барқарор шаҳар сиёсати доирасида уйғунлаштирилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Appendino F. Balancing Heritage Conservation and Sustainable Development – The Case of Bordeaux. IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. 2017;245:062002. https://doi.org/10.1088/1757-899X/245/6/062002.
2. Rodwell D. Sustainability and the Holistic Approach to the Conservation of Historic Cities. Journal of Architectural Conservation. 2003;9(1):58–73.
3. Tweed C., Sutherland M. Built Cultural Heritage and Sustainable Urban Development. Landscape and Urban Planning. 2007;83(1):62–69.
4. UNESCO. Recommendation on the Historic Urban Landscape. Paris, 2011.
5. Bandarin F., van Oers R. The Historic Urban Landscape: Managing Heritage in an Urban Century. Wiley-Blackwell, 2012.
6. Veldpaus L., Pereira Roders A.R., Colenbrander B.J.F. Urban Heritage: Putting the Past into the Future. The Historic Environment: Policy & Practice. 2013.
7. Fredheim L.H., Khalaf M. The Significance of Values: Heritage Value Typologies Re-examined. International Journal of Heritage Studies. 2016.
8. Rey-Pérez J., Pereira Roders A. Historic Urban Landscape: A Systematic Review, Eight Years after the Adoption of the HUL Approach. Journal of Cultural Heritage Management and Sustainable Development. 2020;10(3):233–258.

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

NEYRON TARMOQLARGA ASOSLANGAN ADAPTIV BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT ROBOTOTEXNIKASIDA QO'LLANILISHI

Assistant, Akbarxonova Dildora Zoir qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O‘zbekiston
dildora2528@GMAIL.COM

Assistant, Karimova Govxar Abduxalik qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O‘zbekiston
gavxark6@GMAIL.COM

Annotatsiya. Tezisda sanoat robototexnikasida neyron tarmoqlarga asoslangan adaptiv boshqaruv tizimlarining qo'llanilishi tahlil qilingan. Klassik PID regulyatorlar bilan neyron tarmoqli boshqaruv taqqoslanib, gibrid (Neuro-PID) tizimning aniqlik va moslashuvchanlik jihatidan ustunligi ko'rsatib berilgan. Natijalar bu tizimlarning aniq yig'ish va tibbiy robototexnika sohalarida samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: aqlli boshqaruv tizimlari, neyron tarmoqlar, robototexnika, inson miyasi, qatlam, sun**'iy**.

Sun'iy neyron tarmoq inson miyasidagi neyronlar ishlash prinsipidan ilhomlanib yaratilgan, matematik hisoblash tizimi. U ma'lumotlarni qabul qiladi, ularni qayta ishlaydi va natija (bashorat yoki qaror) chiqaradi xuddi inson miyasi tajriba orqali o'rganganidek.

Inson miyasi bilan taqqoslash

Inson miyasida milliardlab **neyronlar** bir-biri bilan **sinapslar** orqali bog'langan va bir neyron signal qabul qiladi, uni qayta ishlaydi va keyingi neyronga uzatadi. Ko'p marta takrorlangan tajriba orqali bu bog'lanishlar mustahkamlanadi biz shunday **o'rganamiz.** [2,1]

Sun'iy neyron tarmoq ham xuddi shunday ishlaydi, faqat bu yerda "neyronlar" matematik funksiyalar, "sinapslar" esa raqamli **vaznlar (weights)**.

Tuzilishi (3 asosiy qatlam)

1.Kirish qatlami. Tashqi ma'lumot shu yerdan kiradi. Masalan, robot uchun: sensor ko'rsatkichlari, burchak, tezlik, harorat.

2.Yashirin qatlam. Ma'lumot bu yerda qayta ishlanadi har bir "neyron" kiruvchi qiymatlarni vaznlar bilan ko'paytirib, qo'shib, **faollashtirish funksiyasi** (masalan, sigmoid, ReLU) orqali o'tkazadi.

3.Chiqish qatlami. Yakuniy natija masalan, robot motoriga beriladigan boshqaruv signali, yoki "bu rasmda mushuk bor" degan javob. **.** [4,1]

Neyron tarmoqli boshqaruv turlari

Bu sun'iy neyron tarmoqlarni texnik tizimlarni (robot, mashina, jarayon) boshqarishda qo'llashning turli usullari va arxitekturalari degani. Har biri muayyan

vazifa va tizim xususiyatiga qarab tanlanadi. Quyida har birini oddiy tilda tushuntiraman.

1. To'g'ridan-to'g'ri teskari dinamik boshqaruv (Inverse Dynamics Control)

Mohiyati: Neyron tarmoq robotning "teskari modelini" o'rganadi ya'ni, "robot qo'lini shu nuqtaga olib borish uchun motorlarga qancha kuch (moment) berish kerak?" degan savolga javob beradi.

Oddiy misol: Siz mashinani boshqarganda, "40 km/soat tezlikda 30 gradus burilish uchun rulni qancha burish kerak" buni tajriba orqali bilib olasiz. Neyron tarmoq ham robot uchun xuddi shu narsani o'rganadi.

Qachon ishlatiladi: Robot og'irligi yoki yuklamasi doimiy o'zgarib turadigan holatlarda.

Taqqoslash jadvali 1-jadval

Tur	Asosiy xususiyati	Qo'llanilish joyi
Inverse Dynamics	Kerakli momentni bashorat qiladi	Yuklama o'zgaruvchan robotlar
MRAC-NN	Etalon model bilan solishtiradi	Aniq traektoriyali tizimlar
RBF	Tez hisoblaydi	Real vaqt tizimlari
RNN/LSTM	Xotiraga ega, ketma-ketlikni tushunadi	Dinamik, vaqt bog'liq jarayonlar

2. Model Reference Adaptive Control + Neural Network (MRAC-NN)

Mohiyati: Tizimga "ideal namuna model" beriladi (robot qanday harakatlanishi kerakligi). Haqiqiy robot bu idealdan qanchalik farq qilsa, neyron tarmoq shu farqni (xatolikni) kamaytirishga harakat qiladi.

Oddiy misol: Instruktor bilan mashina haydashni o'rganish "namuna" (instruktorning harakati) bilan sizning harakatingiz orasidagi farqni kamaytirib borasiz.

Qachon ishlatiladi: Aniq belgilangan "etalon" harakat mavjud bo'lgan tizimlarda (masalan, konveyerdagi qat'iy traektoriya).

3. Radial Basis Function (RBF) tarmoqlari

Mohiyati: Oddiy ko'p qatlamli neyron tarmoqqa (MLP) nisbatan tezroq hisoblaydi va tezroq o'rganadi, chunki uning matematik tuzilishi soddaroq (markazga yaqinlik asosida ishlaydi). . [3,2]

Oddiy misol: MLP bu "uzoq yo'l bilan" o'rganish bo'lsa, RBF — "qisqa yo'l" bilan tezroq natijaga erishish.

Qachon ishlatiladi: Real vaqt (real-time) tizimlarida, ya'ni qaror millisekundlarda qabul qilinishi kerak bo'lganda masalan, tez harakatlanuvchi robot qo'llarida.

4. Recurrent Neural Network (RNN) / LSTM asosidagi boshqaruv

Mohiyati: Oddiy neyron tarmoqlar faqat "hozirgi lahza"ni ko'radi, lekin

RNN/LSTM **xotiraga ega,** ya'ni oldingi harakatlar tarixini ham hisobga oladi.

Oddiy misol: Shaxmat o'ynaganda faqat hozirgi holatga emas, balki oldingi yurishlar ketma-ketligiga qarab qaror qabul qilasiz bu xuddi RNN mantig'i.

Qachon ishlatiladi: Vaqt bo'yicha o'zgaruvchan, ketma-ket bog'liq jarayonlarda masalan, robotning yurish siklini (gait) boshqarishda yoki tebranishlarni bashorat qilishda. [3,6]

Xulosa

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, neyron tarmoqli boshqaruv turlarining har biri o'ziga xos afzallik va cheklovlarga ega bo'lib, ular tanlangan robototexnik tizimning xususiyatiga qarab qo'llaniladi. Inverse Dynamics usuli yuklamasi o'zgaruvchan robotlarda samarali bo'lsa, MRAC-NN aniq belgilangan traektoriya talab qilinadigan jarayonlarda qulay hisoblanadi. RBF tarmoqlari hisoblash tezligi muhim bo'lgan real vaqt tizimlarida, RNN/LSTM esa vaqt bo'yicha ketma-ket bog'liq, dinamik jarayonlarda yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

Bu esa sanoat robototexnikasida aniqlik, tezkorlik va ishonchlilikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Siciliano B., Khatib O.** Springer Handbook of Robotics. Springer, 2016.
2. **Lewis F.L., Jagannathan S., Yesildirek A.** Neural Network Control of Robot Manipulators and Nonlinear Systems. Taylor & Francis, 1999.
3. **Haykin S.** Neural Networks and Learning Machines. 3rd edition, Pearson, 2009.
4. **Murodullayev D.M.** Sun'iy neyron tarmoqlarning boshqaruv tizimlarida qo'llanilish istiqbollari // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2026, 6(5).

ZAMONAVIY 5G/6G ALOQA TARMOQLARIDA RAQAMLI SIGNALLARNI QAYTA ISHLASH VA ANTENNA-FIDER QURILMALARINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA OPTIMALLASHTIRISH

Assistant, Akbarxonova Dildora Zoir qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O‘zbekiston
dildora2528@GMAIL.COM

Assistant,Glopova Kamola Xabibjon qizi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, O‘zbekiston
k.glopova@GMAIL.COM

Annotatsiya: Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi zamonaviy 5G tarmoqlari va istiqbolli 6G (IMT-2030) tizimlarida raqamli signallarni qayta ishlash (RSQI) jarayonlari hamda antenna-fider qurilmalarining ishlash samaradorligini sun'iy intellekt (SI) va mashinaviy o'qitish usullari asosida optimallashtirish masalalariga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: 5G, 6G, IMT-2030, raqamli, antenna-fider qurilmalari, mashinaviy o'qitish, chuqur o'qitish, Massive MIMO.

Zamonaviy 5G va istiqbolli 6G aloqa tarmoqlari dunyo bo'ylab tobora murakkablashib bormoqda: ko'p antennali Massive MIMO tizimlari, yuqori chastotali mmWave diapazonlar, dinamik o'zgaruvchan radio-muhit va millionlab ulangan qurilmalar bularning barchasini an'anaviy analitik usullar bilan real vaqtda boshqarish deyarli imkonsiz bo'lib qolmoqda. Shu sababli sun'iy intellekt va mashinaviy o'qitish usullari zamonaviy aloqa tizimlarining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Raqamli signallarni qayta ishlash sohasida sun'iy intellekt bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. An'anaviy tizimlarda modulyatsiya turi QPSK, 16-QAM, 64-QAM va boshqalar oldindan belgilangan qat'iy qoidalar asosida tanlanadi, biroq sun'iy intellekt asosidagi tizimlarda neyron tarmoqlar kanal holatini tahlil qilib, real vaqtda eng optimal modulyatsiya-kodlash sxemasini tanlaydi, bu esa signal-shovqin nisbati o'zgarganda xatolik darajasini minimal saqlab, o'tkazish qobiliyatini maksimal darajada oshiradi. Shuningdek, chuqur o'qitish modellari, xususan konvolyutsion va rekurrent neyron tarmoqlar, kanal impuls javobini an'anaviy pilot-signal usullariga qaraganda ancha aniqroq baholay oladi, autoencoder arxitekturalari esa uzatuvchi va qabul qiluvchi qismlarni birgalikda o'qitib, signal-shovqin muammosini uchma-uch tarzda optimallashtiradi. Ko'p foydalanuvchili tizimlarda hujayralararo interferensiya jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, bu o'rinda mustahkamlangan o'qitish algoritmlari quvvat taqsimoti va chastota resurslarini dinamik boshqarib, interferensiyani sezilarli darajada kamaytiradi.

Antenna-fider qurilmalari sohasida ham sun'iy intellektning roli katta. 5G va 6G bazaviy stansiyalarida yuzlab antenna elementlari qo'llaniladi, sun'iy intellekt algoritmlari foydalanuvchi joylashuvi va harakatini bashorat qilib, beamforming vektorlarini oldindan hisoblab, nur yo'nalishini shakllantirish jarayonini tezlashtiradi bu ayniqsa mmWave diapazonida muhim, chunki bu yerda nurlar juda tor bo'lib, foydalanuvchi harakati signalni tez yo'qotishiga sabab bo'lishi mumkin. Faza boshqariluvchi antenna massivlarida sun'iy intellekt yordamida har bir elementning faza va amplitudasi real vaqtda moslashtiriladi, antenna diagrammasi avtomatik shakllantiriladi, natijada qoplash zonasi kengayadi va signal sifati oshadi. Bundan tashqari, chuqur o'qitish modellari fider kabeli, konnektorlar va radiochastota zvenosidagi anomaliyalarni masalan, to'lqinlar bir jinsli emasligi koeffitsienti oshishi yoki signal yo'qotishlarini oldindan aniqlab, uskuna butunlay ishdan chiqishidan avval muammoni bartaraf etish imkonini beruvchi bashoratli texnik xizmat ko'rsatish tizimini ta'minlaydi.

Tarmoq darajasidagi sun'iy intellekt texnologiyalari

Texnologiya	**Vazifasi**
SON (Self-Organizing Networks)	Tarmoqni avtomatik sozlash, optimallashtirish va nosozliklarni tuzatish
Network Slicing	Tarmoq resurslarini turli xizmatlar (IoT, video, avtonom transport) uchun SI orqali dinamik taqsimlash
Federated Learning	Foydalanuvchi ma'lumotlarini markazlashtirmasdan, taqsimlangan tarzda modellarni o'qitish (maxfiylikni saqlagan holda)
Digital Twin	Tarmoqning raqamli nusxasini yaratib, SI orqali turli stsenariylarni simulyatsiya qilish

Afzalliklari

Sun'iy intellekt asosidagi yondashuvlarning bir qancha muhim afzalliklari mavjud. Birinchidan, spektral samaradorlik oshadi, chunki resurslar ancha aniqroq taqsimlanadi. Ikkinchidan, energiya sarfi kamayadi, chunki bazaviy stansiyalar faqat zarur bo'lgan quvvatda ishlaydi. Uchinchidan, kechikish qisqaradi, chunki qarorlar real vaqtda qabul qilinadi, bu esa o'ta ishonchli va kam kechikishli aloqa talablarini qondiradi. To'rtinchidan, moslashuvchanlik oshadi, ya'ni tarmoq o'zgaruvchan yuklama va muhit sharoitlariga tezroq moslashadi. Beshinchidan, qoplash zonasi

kengayadi, buning sababi beamforming va antenna diagrammasini avtomatik shakllantirish hisobiga signal yo'nalishi optimal tanlanadi. Oltinchidan, uskunalar buzilishi oldindan aniqlanadi, bashoratli texnik xizmat ko'rsatish tizimi orqali muammo jiddiylashishidan avval bartaraf etiladi.

Kamchiliklari

Shu bilan birga, bu yondashuvlarning bir qancha sezilarli kamchiliklari ham mavjud. Birinchidan, hisoblash quvvatiga yuqori talab qo'yiladi, chunki sun'iy intellekt modellarini real vaqtda ishlatish katta hisoblash resurslarini talab qiladi va bu odatda edge computing yordamida yechiladi. Ikkinchidan, katta hajmdagi ma'lumot zarurati mavjud, ya'ni sifatli modellarni o'qitish uchun ko'p miqdordagi ma'lumot kerak bo'ladi.

Uchinchidan, izohlanuvchanlik (explainability) pastligi muammosi bor, chunki modellarning qanday qaror qabul qilishini tushuntirish qiyin bo'lib, bu tanqidiy tarmoq qarorlarida ishonchni pasaytiradi. To'rtinchidan, xavfsizlik tahdidi mavjud, chunki sun'iy intellekt modellariga qarshi maxsus tayyorlangan adversarial hujumlar xavfi yuzaga kelmoqda.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, Massive MIMO tizimlarida SI-asosidagi beamforming, hamda RSQI jarayonlarida adaptiv algoritmlarning qo'llanilishi tarmoq o'tkazish qobiliyatini sezilarli darajada oshirish, interferensiyani kamaytirish va foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish sifatini (QoS) yaxshilash imkonini beradi. Bu natijalar kelgusida 6G tarmoqlarining AIAC (Artificial Intelligence and Communication) stsenariysini amalga oshirishda, ya'ni aloqa va sun'iy intellektning chuqur integratsiyasida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Kelgusi tadqiqotlar yo'nalishi sifatida federativ o'qitish (federated learning) asosida taqsimlangan tarmoq boshqaruvi, hamda energiyani tejovchi "yashil" 6G tarmoq arxitekturalarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. *5G tarmoqlarini joriy etish konsepsiyasi.* Toshkent, 2021.
2. Aripov M.M., Xudoyberdiev X.A. *Telekommunikatsiya tizimlari va tarmoqlari.* Darslik. Toshkent: TATU nashriyoti, 2020. 344 b.
3. Karimov A.A. *Zamonaviy mobil aloqa tizimlari: 4G dan 5G ga o'tish.* O'quv qo'llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 216 b.
4. Nosirov Q.X., Tashev Sh.T. *Radiotўlqinlarni tarqatish va antenna-fider qurilmalari.* Darslik. Toshkent: TATU, 2019. 188 b.

EFFICIENCY OF APPLYING GIS AND REMOTE SENSING TECHNOLOGIES IN QUANTITATIVE LAND ACCOUNTING

Rustamova Dildora,
Master's Student of "TIIAME"NRU
drustamova116@gmail.com

Abstract: This paper highlights the issues of improving quantitative land accounting methods under the complex terrain conditions of Parkent district, Tashkent region. A comparative efficiency analysis was conducted between traditional survey methods and modern GIS and remote sensing (Sentinel-2) technologies. The dynamics of agricultural land fragmentation in the district during 2021–2025 were identified, and practical recommendations for automating land accounting were provided.

Keywords: Land cadaster, quantitative land accounting, GIS, Sentinel-2, NDVI, DEM, land fragmentation, Parkent district, digital map.

Introduction. Today, the rational use of land resources and the maintenance of accurate quantitative land accounting represent key priorities of state economic and environmental policy. In accordance with Presidential Decrees No. UP-6061 and UP-6243 of the Republic of Uzbekistan, digitizing land accounting and transitioning to a Transparent Land Cadaster system have been established as strategic goals. The mountainous and foothill terrain of Parkent district (slopes exceeding 16–30°) causes errors of up to 15–20% in traditional land surveying operations. Therefore, automating land accounting using open-source satellite data and GIS technologies is an issue of high relevance.

Materials and Methods. The land fund of Parkent district, Tashkent region, covering an area of 108,152 hectares, served as the object of research. Data from the Copernicus Data Space platform (Sentinel-2 L2A) and Digital Elevation Models (DEM) were utilized. NDVI vegetation indices and slope analysis were evaluated to assess ground vegetation cover and terrain slope

Results and Discussion. Between 2021 and 2025, although the total agricultural land area in Parkent district decreased from 67,849 hectares to 67,012 hectares, the number of land users increased significantly from 1,371 to 3,747. Consequently, the average area per parcel shrank by 63.9%, from 49.5 hectares to 17.9 hectares. This trend highlights the urgent need for rapid, automated land balance management. Remote sensing utilizing Sentinel-2 multispectral imagery (B4, B8, and red-edge bands) reduced land inventory processing time by 70–75% and lowered costs by 80–90% compared to traditional land surveying techniques (total stations, measuring tapes, etc.). Shadows and terrain distortions caused by steep slopes in mountainous areas were corrected using DEM, which improved the accuracy of land-use area calculations by 40–60%.

Table 1. Slope land condition of Parkent district

Color	Slope Range	Slope Land Surface Condition (Description)
	0-5.12	Flat and very gently sloping lands. These areas are the most suitable for irrigated agriculture, construction of buildings and infrastructure, and transportation networks.
	5.12-10.24	Slightly sloping areas, generally corresponding to foothill zones. These lands are suitable for horticulture; however, measures to prevent soil erosion during cultivation are required.
	10.24-16.25	Moderately sloping lands located in foothill regions. The use of agricultural machinery becomes more difficult in these areas, and the risk of soil erosion is relatively high.
	22.05-33.2	Steep slopes. Such territories are mainly used as grazing lands for livestock. Construction activities in these areas are highly unsuitable and economically expensive.
	33.2-56.8	Very steep slopes (mountain hillsides). These areas consist mainly of rocky or exposed mountainous terrain and are almost unsuitable for human activities other than seasonal grazing. The risks of mudflows and landslides are extremely high in these locations.




Figure 1. Slope map of the Parkent district

Results and Discussion. Between 2021 and 2025, although the total agricultural land area in Parkent district decreased from 67,849 hectares to 67,012 hectares, the number of land users increased significantly from 1,371 to 3,747. Consequently, the average area per parcel shrank by 63.9%, from 49.5 hectares to 17.9 hectares. This trend highlights the urgent need for rapid, automated land

balance management. Remote sensing utilizing Sentinel-2 multispectral imagery (B4, B8, and red-edge bands) reduced land inventory processing time by 70–75% and lowered costs by 80–90% compared to traditional land surveying techniques (total stations, measuring tapes, etc.). Shadows and terrain distortions caused by steep slopes in mountainous areas were corrected using DEM, which improved the accuracy of land-use area calculations by 40–60%.

Conclusion and Recommendations. Practical recommendations include phased implementation of the developed digital system, capacity building for specialists, integration of LiDAR and AI technologies, and scaling the methodology to other mountainous districts. In conclusion, the successful modernization of land accounting through advanced digital technologies is a key condition for ensuring food security, sustainable land use, investment attractiveness, and overall socio-economic development of the Republic of Uzbekistan. The findings of this dissertation can serve as a scientific and methodological basis for further large-scale digital transformation of the national cadaster system.

References

1. The Land Code of Uzbekistan Republic (1998).
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to fundamentally improve the system of land accounting and state cadasters” № PF-6061 (2020).
3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for organizing the activities of the Cadaster Agency under the State Tax Committee of the Republic of Uzbekistan” № PQ-4819 (2020).
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to ensure equality and transparency in land relations, reliable protection of land rights and turning them into a market asset” № PF-6243 (2021).
5. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures for the further improvement of the activities of the Cadaster Agency under the Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan” № PQ-405 (2022).
6. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On the approval of the regulation on maintaining the national report on the state of land resources” № 578 (2023).
7. Dale, P., & McLaughlin, J. Land Administration. Oxford: Oxford University Press (1999).
8. Williamson I, Enemark S, Wallace J, Rajabifard A. Land Administration for Sustainable Development. Redlands, CA: ESRI Press Academic (2010).
9. UNECE (United Nations Economic Commission for Europe) – Land Administration in the UNECE Region: Development Trends and Main Principles (2005).
10. FAO (Food and Agriculture Organization of the United Nations) Land Tenure and Rural Development (2002).

11. Eva Ivits, Erika Orlitova, Roger Milego, Gergely Maucha, Barbara Kosztra, Emanuele Mancos, Jaume Fons, Mirko Gregor, Manuel Löhnertz and Gerard Hazeu “Twenty years of Land accounts in Europe” Land, Switzerland (2024).
12. Ruqian Zhang, Penghui Li, Shuai Zhong, Hong Wei “An integrated accounting system of quantity, quality and value for assessing cultivated land resource assets: A case study in Xinjiang, China” China, Global Ecology and Conservation (2022).
13. Dr. Magnus Olofsson, Dr. Henrik Holmgren and Dr. Karin Persson “Comparative analysis of traditional and modern measured survey methods” International Journal of Surveying and Structural Engineering (2024).
14. The Governance of Land Use in the Netherlands the case of Amsterdam (2017).
15. Lars Hein, Roy P. Remme, Sjoerd Schenau, Patrick W. Bogaart, Marjolein E. Lof, Edwin Horlings “Ecosystem Accounting in the Netherlands” Ecosystem Services, (2020).
16. Rohan Mark Bennett, Eva-Maria Unger, Christiaan Lemmen, Paula Dijkstra “Land Administration Maintenance: A Review of the Persistent Problem and Emerging Fit-for-Purpose Solutions” Land, (2021).

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ВЫРАБОТКЕ ОКУЛОКАРДИАЛЬНОГО РЕФЛЕКСА У СТУДЕНТОВ – ДОБРОВОЛЬЦЕВ 2 КУРСА ОБУЧЕНИЯ

САМАТОВ М.У., САМАТОВ У.А.
КОКАНДСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
АНДИЖАНСКИЙ ФИЛИАЛ
КАФЕДРА НОРМАЛЬНОЙ
ФИЗИОЛОГИИ И СТОМАТОЛОГИИ
e-mail: madamin.samatov94@mail.ru

Аннотация: Рефлекс Данини-Ашнера или же окулокардиальный рефлекс вызывается при легком нажатии на закрытые глаза вследствие которого замедляются пульс и снижается артериальное давление. Рефлекс обусловлен связями тройничного и блуждающего нервов парасимпатической нервной системы.

Ключевые слова: окулокардиальный рефлекс, пульс, артериальное давление

Актуальность: теоретические знания, подкрепленные практическими навыками, очень легко запоминаются студентами и часто используются опытными преподавателями для обогащения портфолио студентов. При изучении нормальной физиологии студентами ВУЗов нередко возникают проблемы при изучении различного рода рефлексов. Одним из таковых является рефлекс Данини- Ашнера или окулокардиальный рефлекс, возникающий при легком нажатии на закрытые глаза вследствие которого замедляются пульс и снижается артериальное давление. Вследствие этого актуальным является выработка данного рефлекса у обучающихся на их же собственном примере

Цель исследования: провести сравнительный анализ функциональных данных сердечно-сосудистой системы при выработке окулокардиального рефлекса у студентов- добровольцев кафедры Физиологии 2 курса обучения

Материал и методы исследования: на базе Кокандского Университета Андижанского Филиала (КУАФ) кафедры Нормальной Физиологии проанализированы данные 57 студентов, которым вызывался рефлекс Данини-Ашнера. Критериями статистической обработки явились данные пульса, артериального давления (АД) и частоты дыхательных движений (ЧДД) в минуту. Средний возраст добровольцев составил 19.2 ± 1.4 лет

Результаты: выявлено, что средний пульс добровольцев до выработки окулокардиального рефлекса составил 78.2 ± 12.4 раз в минуту, АД 107,6 ± 15.4 мм.рт.ст., ЧДД 19.2 ± 1.8 в минуту. После выработки данного рефлекса средний пульс составил 72.1 ± 10.9 в минуту, АД 98,3 ± 12.8 мм.рт.ст., ЧДД 21.3 ± 1.4 в

минуту, что является статистически достоверным показателем по сравнению с исходными данными ($p < 0.05$).

Заключение: таким образом, изучение рефлексов в нормальной физиологии посредством практических навыков является неотъемлемой частью успешного закрепления знаний в данной области

Homilador ayollarda qalqonsimon bezning funksional holatini baholash

Mahkamova Mushtaribegim Bahodirjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Endokrinologiya va gematologiya kafedrasi assistenti, PhD

Mavzuning dolzarbligi.

Hozirgi vaqtda yod tanqisligi global muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat keng tarqalgan bo‘lib, qator mamlakatlarda ayollar reproduktiv o‘zgarishlariga sabab bo‘lib, bepushtlik, gestozlar, homiladorlik nuqsonlari, tug‘ish patologiyalarini chaqirib kelmoqda. Yod yetishmovchiligi hududida, xususan Samarqand viloyatida istiqomat qilayotgan homilador ayollardagi qalqonsimon bezdagi o‘zgarishlar kam o‘rganilgan. Homilador ayollardagi yod yetishmovchiligi chaqaloqlar nuqsoni, tug‘ma gipotireoz kasalliklariga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi:

Samarqand viloyatida yashovchi homilador ayollarda qalqonsimon bezning funksional holatini o‘rganish.

Tadqiqot obyektlari va usullari.

Samarqand tuman tibbiyot birlashmasi nazoratida turgan 100 nafar homilador ayol tahlil qilindi. Ularning yoshi 18 dan 40 gacha bo‘lgan.

Barcha bemorlarga umumiy klinik tekshiruv, shu jumladan qalqonsimon bez palpatsiyasi, qalqonsimon bez va limfa tugunlari regional oqimi hududining UTTsi, IHLA tekshiruvlari orqali T4, TTG va anti-TPO tireoid gormonlari miqdori tekshirildi.

Olingan natijalar:

JSST tasnifiga ko‘ra, homilador ayollarning qalqonsimon bezining 0-darajasi hech qaysi bemorda kuzatilmadi, 16 (40%) bemorda qalqonsimon bezning I darajasi, 24 (60%) bemorda qalqonsimon bezning II darajada kattalashganligi qayd qilindi.

Keyingi bosqichda homilador ayollarda tireoid gormonlar miqdori va tireoid statusi TTG, T3, T4 va anti-TPO miqdorlariga qarab baholandi. Homilador ayollarning 29 (72,5%) ida eutireoid holat, 7 (17,5%) bemorda subklinik gipotireoz, 3 (7,5%) bemorda manifest gipotireoz va 1 (2,5%) bemorda subklinik gipertireoz holati kuzatilgan.

Keyingi bosqichda tekshirilayotgan ayollarda ultratovush tekshiruvi orqali qalqonsimon bezda aniqlangan kasalliklar solishtirib baholandi.

Homilador ayollarda qalqonsimon bezida aniqlangan kasalliklarni tahlil qilganimizda, tugunli buqoq kasalligi 2 (5%) bemorda, aralash buqoq 1 (2,5%) bemorda, ko‘p tugunli buqoq 1 (2,5%) bemorda, autoimmun tireoidit esa 20 (50%) bemor ayolda aniqlangan.

Bu natijalar homilador ayollarda qalqonsimon bez to‘qimasida tugunli o‘zgarishlar, ya’ni ko‘p tugunli buqoq uchraganini ko‘rsatdi.

Yana bu guruhdagi bemorlarda qalqonsimon bez to‘qimasida autoimmun kasalliklar ko‘paygani aniqlandi. Bizning fikrimizcha, bu o‘zgarishlarda yod tanqisligining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi va bu borada dalillar beruvchi qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim.

Xulosa.

1. Yod tanqisligi bo‘lgan hudud — Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi homilador ayollarda qalqonsimon bezining 0-darajasi hech qaysi bemorda kuzatilmadi, 16 (40%) bemorda qalqonsimon bezning I darajasi, 24 (60%) bemorda qalqonsimon bezning II darajada kattalashganligi qayd qilindi.

2. Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi homilador ayollarning 29 (72,5%) ida eutireoid holat, 7 (17,5%) bemorda subklinik gipotireoz, 3 (7,5%) bemorda manifest gipotireoz va 1 (2,5%) bemorda subklinik gipertireoz holati kuzatilgan.

3. UTT ma’lumotlari taqqoslanganda, 1-guruhdagi 1-tur qandli diabet bilan bog‘liq homilador ayollarda qalqonsimon bezida aniqlangan kasalliklarni tahlil qilganimizda, tugunli buqoq kasalligi 2 (5%) bemorda, aralash buqoq 1 (2,5%) bemorda, ko‘p tugunli buqoq 1 (2,5%) bemorda, autoimmun tireoidit esa 20 (50%) bemor ayolda aniqlangan.

RELATIONSHIP BETWEEN VITAMIN D AND HORMONES IMPORTANT FOR WOMEN IN REPRODUCTIVE AGE

Nazarova Aziza Bakhronovna
Assistant of the Bukhara State Medical Institute
nazarovaaziza427@gmail.com

Resume. At present, vitamin D deficiency is considered widespread among women of reproductive age. Vitamin D plays a crucial role in maintaining fertility. Its deficiency in expectant mothers has been associated with adverse pregnancy outcomes, including gestational diabetes, preeclampsia, and low birth weight. Several studies have shown that vitamin D deficiency affects both insulin synthesis and insulin resistance. Insulin resistance is one of the most common endocrine disorders, particularly among women with overweight or obesity.

Key words: vitamin D deficiency, obesity, infertility, reproduction, hormone.

Vitamin D deficiency in women of reproductive age can often cause fertility problems, menstrual irregularities, and an increased risk of uterine fibroids, endometriosis, and polycystic ovary syndrome (PCOS) [1, 2, 4]. Vitamin D deficiency is also associated with increased muscle fatigue, decreased immunity, poor hair quality, and an increased risk of obesity and gestational diabetes during pregnancy [3, 5, 6]. In menopausal women, vitamin D deficiency can lead to osteoporosis.

Insulin resistance often occurs in overweight women of reproductive age, especially those with android obesity, and can manifest as menstrual irregularities, ovulation problems, and infertility. [4]

Study objective: To study the correlation of vitamin D metabolites with endocrine parameters, including follicle-stimulating hormone (FSH), luteinizing hormone (LH), TSH, T4, T3, anti-Müllerian hormone (AMH), 17-OP, and biochemical parameters.

Study materials and methods: The study involved 51 healthy women of reproductive age (mean age 28 years). Serum levels of both total and free 25(OH)D, as well as endocrine and biochemical parameters, were determined. Spearman's rank correlations were used to assess the correlation of 25(OH)D metabolites with the remaining selected parameters. For the study, blood was collected from women between days 2 and 5 of their menstrual cycle. The research was conducted at the Department of Obstetrics and Gynecology No. 1 of the Bukhara State Medical Institute.

Results and Discussion: The study data confirmed that 34 women (75.2%) had android obesity (WC≥80 cm), while WC was detectable in 17 women (24.8%). Serum 25(OH)D levels ranged from 8.8 to 48.0 ng/ml (mean 46.73 ± 7.63 ng/ml).

It was determined that all women of reproductive age examined had 25(OH)D levels below control values, despite being overweight or obese. Vitamin D

deficiency was detected in 48 (56.4%) women, and a deficiency was found in 37 women (43.6%). Women with normal body weight had high blood 25(OH)D levels, while overweight and obese women had similar levels (42.87±4.32 ng/ml; $p<0.05$). Of these, 8 women (26.6%) were vitamin D deficient, while the remaining 22 women (73.4%) had 25(OH)D levels within the normal range. Women with grades 1 and 2 obesity had significant 25(OH)D deficiency.

Conclusion: Obesity negatively impacts reproductive function in women, while weight management, a balanced diet, physical activity, and vitamin D supplementation in therapeutic doses contribute to its restoration. Overweight patients need evidence-based recommendations and support from specialized specialists.

References:

1. Gorbatenko N.V., Bezhenar V.F., Fishman M.B. The Impact of Bariatric Surgery on the Reproductive Health of Obese Women. / VIII Interregional Scientific and Practical Conference with Participation "Outpatient Obstetric and Gynecological Care from Birth to Old Age. Prevention Possibilities"; December 2-3, 2016; St. Petersburg.
2. Kosygina A.V., Vasyukova O.V. New in the Pathogenesis of Obesity: Adipokines – Adipose Tissue Hormones // Problems of Endocrinology. - 2009. - Vol. 55. - No. 1. - Pp. 44-50.
3. Kovaleva Yu.V. The Role of Obesity in the Development of Menstrual and Reproductive Disorders // Russian Bulletin of Obstetrician-Gynecologist. - 2014. - Vol. 14. - No. 2. - P. 43-51.
4. Negrusha N.A. Metabolic Syndrome in Pregnant Women: Features of the Course, Diagnosis, Treatment and Prevention: Diss. Cand. Sci. (Med.) - St. Petersburg; 2014.
5. AB Nazarova. Features of Vitamin D Metabolism in Women of Reproductive Age in the Background of Obesity. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, (2023) 64-66.
6. AB Nazarova The Role of Vitamin D in the Reproductive System of Women. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. (2993-2149). Vol.1 p-p50-54.

3D PROGRESS (MHT) VA TRIOS (3SHAPE) INTRAORAL SKANERLARI YORDAMIDA OLINGAN TISH KULTYASI RAQAMLI OTTISKLARINING O‘LCHAM ANIQLIGINI IN VITRO BAHOLASH

Axmedov L. Beysenbayev N. Akramova R.
Terapevtik stomatologiya kafedrasi
e-mail: axmedovstom@gmail.com

Tadqiqot maqsadi: 3D Progress (MHT S.p.A., Italiya; MHT Optic Research AG, Shveytsariya) va Trios (3Shape A/S, Daniya) intraoral skanerlari yordamida skanerlashda tish kultyasi raqamli tasvirining o‘lcham aniqligini in vitro sharoitida qiyosiy baholash.

Material va usullar. Plastmassadan tayyorlangan o‘quv jag‘ modelida 1.6 tish metallokeramik toj uchun preparatsiya qilindi. Preparatsiya chuqurligi 1,5 mm, kultya konusligi — 11°, ustup burchagi — 145° ni tashkil etdi; ustup milk chetidan 0,5 mm pastda joylashtirildi.

Preparatsiya qilingan tish SkyScan 1074 rentgen mikrotomografida skanerlandi va olingan model etalon sifatida qabul qilindi. Takroriy skanerlashlar seriyasi va ularni o‘zaro ustma-ust qo‘yish orqali aniqlangan asbobning o‘z aniqligi 9 mkm ni tashkil qildi. Geomagic Verify dasturida etalonning raqamli modelida kultya yuzasi bo‘ylab bir tekis taqsimlangan 16 ta nazorat nuqtasi belgilandi: uning asosida, o‘q devorlarida, yon qirralarida va cho‘qqisida 4 tadan nuqta.

So‘ngra 1.6 tish konfokal mikroskopiya va muar effekti uyg‘unligi tamoyilida ishlovchi 3D Progress va Trios ichki og‘iz skanerlari bilan har biri 10 martadan skanerlandi. Olingan raqamli modellar Geomagic Verify dasturida etalon bilan ustma-ust qo‘yildi va dastur etalondagi har bir nuqtadan uning skandagi proyeksiyasigacha bo‘lgan masofani (Gap Distance) avtomatik hisobladi. Ushbu qiymatlar asosida har bir skaner uchun GOST R ISO 5725-1-2002 ga muvofiq to‘g‘rilik va pretsizionlik hisoblandi. To‘g‘rilik o‘lchov natijalarining obyektning haqiqiy o‘lchamlaridan chetlanish darajasini, pretsizionlik esa takroriy o‘lchovlar natijalarining bir-biriga yaqinlik darajasini tavsiflaydi; ikkala ko‘rsatkich birgalikda usulning aniqligini belgilaydi.

Natijalar. 3D Progress skaneri uchun raqamli ottiskning to‘g‘riligi 40,5±8,9 mkm, pretsizionligi — 41,8±9,3 mkm ni tashkil etdi. Trios skanerida tegishli qiymatlar sezilarli darajada past bo‘ldi: 15,7±1,2 mkm va 16,2±1,3 mkm.

Xulosa. Trios skaneri yordamida olingan raqamli ottisklarning chetlanishlari 3D Progress ga nisbatan taxminan 2,5 baravar kam bo‘lib, etalon asbob aniqligiga eng yaqin bo‘ldi. Demak, Trios tizimi (3Shape A/S, Daniya) optik ottisklar olishda tish kultyasi o‘lchamlarini eng aniq aks ettirishni ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Алиева Н.М., Очилова М.У., Толипова М.А. Шинирующие системы в лечении пародонтита средней степени тяжести // Research and Education. — 2022. — Т. 1, № 9. — С. 74–78.
2. Алиева Н.М., Толипова М.А., Очилова М.У. Определение стабильности имплантатов при различных методах протезирования на дентальных имплантатах // Research and Education. — 2022. — Т. 1, № 9. — С. 222–230.
3. Салимов О. и др. Развитие технологий и методов имплантации зубов с использованием 3D-печати для создания индивидуальных имплантов // World Scientific Research Journal. — 2023. — Т. 22, № 1. — С. 152–162.

TISH PROTEZLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH: ORTOPEDIK DAVOLASH NATIJALARIGA TA’SIRI

Axmedov L. Tulambayev F. Mirhayidov M.
Terapevtik stomatologiya kafedrasi
e-mail: axmedovstom@gmail.com

Muammoning dolzarbligi: So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar ortopedik stomatologiyada tobora mustahkam o‘rin egallamoqda. Kompyuterli modellashtirish, 3D-skanerlash va CAD/CAM tizimlari ortopedik konstruksiyalarni tayyorlashning turli bosqichlarida tobora keng qo‘llanilmoqda. An’anaviy protezlash usullari bir qator kamchiliklarga ega: aniqlikning cheklanganligi, tayyorlash muddatlarining uzoqligi hamda laboratoriya bosqichlarida xatoliklar yuzaga kelish xavfi. Raqamli yondashuv protezlash jarayonini optimallashtirish, konstruksiyalarning aniqligi va uzoq muddatga chidamliligini oshirish, shuningdek, davolash natijasini yanada oldindan bashorat qilinadigan qilish imkonini beradi. Shu munosabat bilan raqamli texnologiyalarning ortopedik davolash sifatiga ta’sirini o‘rganish va ularni kundalik klinik amaliyotga joriy etishni asoslash dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi — tish protezlarini tayyorlashning raqamli va an’anaviy usullari samaradorligini, shuningdek, ularning ortopedik konstruksiyalar sifati va xizmat muddatiga ta’sirini qiyosiy baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Kuzatuv ostida ortopedik davolashga muhtoj bo‘lgan 25 yoshdan 65 yoshgacha bo‘lgan 50 nafar bemor bo‘ldi. Bemorlar har birida 25 nafardan iborat ikkita teng guruhga ajratildi: birinchi guruhda protezlar an’anaviy usulda, ikkinchi guruhda esa raqamli texnologiyalar (3D-skanerlash, CAD/CAM) yordamida tayyorlandi. Baholash mezonlari sifatida konstruksiyalarning zich yopishish aniqligi, tayyorlash muddatlari, fiksatsiyadan keyingi korreksiyalar soni hamda bemorlarning davolash natijasidan subyektiv qoniqishi olindi. Ma’lumotlarni statistik qayta ishlash Styudent t-mezoni va korrelyatsion tahlil yordamida amalga oshirildi.

Shaxsiy tadqiqot natijalari

Raqamli usulda tayyorlangan protezlar o‘rnatilgan bemorlarda fiksatsiyadan keyin korreksiyaga ehtiyoj atigi 2 holatda yuzaga keldi, an’anaviy protezlash guruhida esa bu ko‘rsatkich 10 tani tashkil etdi. Raqamli yondashuvda konstruksiyalarni tayyorlashning o‘rtacha muddati 3 kunni tashkil qildi, bu an’anaviy usulga (6 kun) nisbatan ikki baravar qisqa. Protezlarning estetik va funksional xususiyatlaridan qoniqish darajasi ham ikkinchi guruhda yuqoriroq bo‘ldi — birinchi guruhdagi 70% ga nisbatan 90%.

Xulosa. Ortopedik stomatologiyada raqamli texnologiyalardan foydalanish tish protezlarini tayyorlash aniqligi va sifatini oshiradi, davolash muddatlarini qisqartiradi hamda takroriy korreksiyalar sonini kamaytiradi. Raqamli usullarni joriy

etish klinik natijalarni ham, bemorlarning qoniqish darajasini ham yaxshilaydi, bu esa ularni zamonaviy stomatologik amaliyotda ustuvor qo‘llashni asoslaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Хабилов Н.Л., Мун Т.О., Хабилов Б.Н., Дадабаева М.У. Диоксид циркония — один из современных стоматологических материалов // Среднеазиатский научно-практический журнал «Stomatologiya». — 2017. — № 2. — С. 107–110.
2. Дадабаева М.У., Нормуродова Р.З. *Клинико-функциональные изменения слизистой оболочки протезного ложа до и после протезирования у больных сахарным диабетом 2 типа* // Journal of Prosthodontics. — 2021.
3. Bindl A., Mörmann W. *CAD/CAM for Prosthodontics: Fabrication and Clinical Outcome.* International Journal of Computerized Dentistry, 2019.
4. Hammerle C. H. F., Sailer I. *Digital Technology and Dental Prosthetics.* Periodontology 2000, 2020.
5. Miyazaki T., Hotta Y. *Advances in CAD/CAM Systems for Dental Restorations.* Journal of Prosthodontic Research, 2019.

ПРОФИЛАКТИКА БЕСПЛОДИЯ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА С ОЖИРЕНИЕМ И НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ ВИТАМИНА Д.

Назарова Азиза Бахроновна
Ассистент Бухарского государственного
медицинского института
nazarovaaziza427@gmail.com

Аннотация. Бесплодие - тяжёлая патология, отрицательно влияющая на многие факторы, среди которых разводы, стрессы, снижение производительности труда, которые приводят к значительным экономическим потерям, вызванные лечением бесплодных супружеских пар (Кулаков В.И., Леонов Б.В., 2018). В условиях Средней Азии, где распространены многодетные семьи и это традиционно поощряется, бездетность считается большим несчастьем и зачастую приводит к распаду семьи. (Ихтиярова Г. А.,Курбанова З.Ш.,2020). Данные ВОЗ свидетельствуют, что в специализированных клиниках развитых стран 22% случаев бесплодия бывает «мужским», 32% - женским. В 21% нарушения бывают комбинированные, в 14% причины не установлены (Локшин В.Н., Джусубалиева Т.М., 2019). Василевская Л.Н. (2018) и Подзолкова Н.М. (2019) отмечают, что частота бесплодия колеблется в пределах 10-20%, причем в 50% случаев имеет место женское бесплодие, в 40% случаев - мужское бесплодие, в 10% случаев встречаются смешанные формы.

Эндокринные (гормональные) нарушения — могут быть следствием патологии яичников (их истощения, синдрома поликистозных яичников и др.) и других эндокринных (гипоталамуса, гипофиза, надпочечников, щитовидной железы) и неэндокринных органов (печени, почек и др). К эндокринному бесплодию могут приводить нарушения обменных процессов, психический стресс и пр. Чем бы ни было вызвано эндокринное бесплодие, его ключевым моментом всегда является поломка механизма овуляции (ановуляция)

Ключевые слова: бесплодие, витамин Д, ожирение, репродуктивное здоровье.

Цель. Определить методом анкетирования состояние женщин репродуктивного возраста с нарушением обмена витамина Д с бесплодием на фоне ожирения.

Материалы и методы. Из амбулаторных карт выявлены и приглашены на прием женщины репродуктивного возраста с бесплодием на фоне ожирения. Измерение проводилось стандартными медицинскими весами; УЗИ половых органов, психологический статус, характер питания, лабораторные методы исследования, а также - определения 25 (OH) D в сыворотке крови, консультация смежных специалистов (акушер - гинеколога).

Результаты. Во время амбулаторного обследования и методом анкетирования у 150 бесплодных женщин репродуктивного возраста с избыточным весом и ожирением было выявлено следующие нарушения: общая слабость – 30%, тревожность – 25 %, нарушение сна или бессонница – 35%, снижение полового влечения – 4%. При исследовании ИМТ: с избыточным весом – 20%, ожирение 1 степени – 42%, ожирение 2 степени – 28%, ожирение 3 степени – 10%. Ведущими факторами для возникновения эндокринного бесплодия у женщин репродуктивного возраста в наших наблюдениях являлись СПКЯ-24 (33,3%), гиперпролактинемия 19 (26,4%) и гиперандрогения 18 (25%) случаев. Гормональный профиль изучен у всех женщин с определением содержания гонадотропных, стероидных и тиреоидных гормонов (ФСГ, ЛГ, ПРЛ, тестостерон, эстрадиол, прогестерон, ТТГ, Т3, Т4).

Данные лабораторной диагностики: ФСГ – 1 фаза 25-30 мЕд/мл -7%, 2 фаза 15-18 мЕд/ мл-3%, ЛГ - 1 фаза 34- 40 мЕд/мл- 4%, 2 фаза 26-30 мЕд/мл - 6%, ПРЛ 35 -40 нг/мл-5%, тестостерон 4- 8 нмоль/л-5%, эстрадиол I фаза – 20-50 пМ/л – 11% , прогестерон 1 фаза 0,2- 0,8 нмоль/л – 9%, ТТГ – 8,0- 14 мЕд/л-13%, Т3 - 0,8 -2 пмоль/л – 7%, Т4 – 0,1- 0,5 нг/дл- 12%.

Заключение: 1. Данные помогут определить ведущие факторы бесплодия у женщин репродуктивного возраста с избыточным весом и ожирением, а также позволят разработать принципы первичной профилактики у них.

2. Внедрение результатов исследования в практическое здравоохранение позволит снизить бесплодие среди женщин репродуктивного возраста.

Список литературы:

1. Von Websky K, Hasan AA, Reichetzeder C, Tsuprykov O, Tsuprykov O, Hocher B. Impact of vitamin D on pregnancy-related disorders and on offspring outcome. J Steroid Biochem Mol Biol (2018) 180:51–64. doi:10.1016/j.jsbmb.2017.11.008

2. Косыгина А.В., Васюкова О.В. Новое в патогенезе ожирения: адипокины – гормоны жировой ткани // Проблемы эндокринологии.- 2009. - Т. 55. - №. 1. - С. 44-50.

3. Ковалева Ю.В. Роль ожирения в развитии нарушений менструальной и репродуктивной функции // Российский вестник акушера-гинеколога. - 2014. - Т. 14. - №. 2. - С. 43-51.

4. AB Nazarova The Role of Vitamin D in the Reproductive System of Women. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences. (2993-2149). Vol.1 p-p50-54.

5. Нажмутдинова, Д. К. Влияние дефицитавитамина D на метаболические параметры у женщин с ожирением / Д. К. Нажмутдинова, Д. А. Урунбаева, Н. Г. Садикова, К. Э. Турдиева. — Текст : непосредственный //Молодой ученый. — 2020. — № 4 (294). —С. 204-209.

6. AB Nazarova . Features of Vitamin D Metabolism in Women of Reproductive Age in the Background of Obesity. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, (2023) 64-66.

MENOPAUZAL GORMON TERAPIYASINING UZOQ MUDDATLI FOYDASI VA XAVFLARI

Ismoilova ShoiraTulkinovna
Central Asian Medical University
xalqaro tibbiyot universiteti
“Akusherlik, ginekologiya va neonatologiya”
kafedrasi mudiri, PhD, dotsent
Khalikova Diyora Murodjon qizi
Central Asian Medical University
xalqaro tibbiyot universiteti klinik ordinatori

Annotatsiya. Maqolada menopauzal gormon terapiyasining (MGT) uzoq muddatli qo‘llanilishida yuzaga keladigan foyda va xavflar o‘rtasidagi muvozanat adabiyotlar tahlili asosida ko‘rib chiqilgan. Suyak, yurak-qon tomir va onkologik ta’sirlar bir-biriga qarshi qo‘yilgan holda, terapiya davomiyligiga qarab xavf-foyda nisbatining o‘zgarishi muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: menopauzal gormon terapiyasi, uzoq muddatli terapiya, xavf-foyda nisbati, osteoporoz, sinishlar xavfi, yurak-qon tomir xavfi, ko‘krak bezi saratoni, Women’s Health Initiative, terapiya davomiyligi, individual yondashuv

Menopauzal gormon terapiyasi vazomotor simptomlarni bartaraf etishning eng samarali usuli bo‘lishi bilan birga, uzoq muddat qo‘llanilganda bir nechta a’zo-tizimlarga bir vaqtning o‘zida ham foydali, ham xavfli ta’sir ko‘rsatadi. Suyak zichligini saqlash va sinishlar xavfini kamaytirish kabi ijobiy ta’sirlar, yurak-qon tomir va onkologik xavflarning ortishi bilan bir vaqtda kuzatiladi, bu esa uzoq muddatli terapiya to‘g‘risida qaror qabul qilishni murakkablashtiradi. Terapiya davomiyligi oshgani sari bu muvozanat ham o‘zgarib boradi, shu sababli “uzoq muddatli MGT” tushunchasini yagona xavf yoki yagona foyda sifatida emas, balki vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchan jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarur.

Women’s Health Initiative (WHI) tadqiqotining uzoq muddatli kuzatuv natijalarini tahlil qilgan Manson va hammualliflari MGTning turli ta’siri terapiya davomiyligi va to‘xtatilgandan keyingi vaqtga bog‘liq holda o‘zgarishini ko‘rsatgan. Cauley va hammualliflari MGT qabul qilgan ayollarda son bo‘yin va umurtqa pog‘onasi sinishlari xavfi sezilarli darajada pasayganini aniqlagan, biroq bu himoya ta’sir terapiya to‘xtatilgandan keyin nisbatan tez yo‘qolishini ko‘rsatgan. Collaborative Group on Hormonal Factors in Breast Cancer tomonidan o‘tkazilgan yirik meta-tahlil ko‘krak bezi saratoni xavfi terapiya davomiyligi bilan kumulyativ tarzda ortishini tasdiqlagan. Stuenkel va hammualliflarining Endocrine Society klinik amaliyot bo‘yicha tavsiyalari esa uzoq muddatli terapiyada xavf-foyda nisbatini individual baholash zarurligini asoslab bergan.

Uzoq muddatli MGTning eng izchil isbotlangan foydasi - bu osteoporotik sinishlar xavfining kamayishidir. Estrogen osteoklastlar faolligini pasaytirib, suyak

rezorbsiyasini sekinlashtiradi, natijada son bo‘yin va umurtqa pog‘onasi sinishlari xavfi statistik ahamiyatli darajada kamayadi. Biroq bu himoya ta’sir faqat terapiya davom etayotgan davrda saqlanadi; terapiya to‘xtatilgandan so‘ng bir necha yil ichida suyak zichligi asta-sekin bazaviy darajaga qaytadi, bu esa uzoq muddatli suyak himoyasi uchun terapiyani uzoq davom ettirish zarurligini, ammo bu esa boshqa xavflarni oshirishini anglatadi. Yurak-qon tomir ta’siri bo‘yicha “timing gipotezasi” asosida, erta boshlangan terapiya nisbatan xavfsiz bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, terapiya davomiyligi oshgani sari, ayniqsa besh yildan ortiq davom etganda, insult va venoz tromboemboliya xavfi asta-sekin ortib boradi. Ko‘krak bezi saratoni xavfi, ayniqsa kombinatsiyalangan sxemalarda, davomiylik bilan eng izchil bog‘liq bo‘lgan xavflardan biri hisoblanadi: besh yildan kam muddatda xavf ortishi minimal bo‘lsa, undan ortiq muddatda kumulyativ ravishda ortadi. Shunday qilib, uzoq muddatli MGTda vaqt o‘qi bo‘ylab ikki qarama-qarshi tendensiya kuzatiladi: bir tomondan suyak himoyasining mustahkamlanishi uchun davomiylik foydali, ikkinchi tomondan yurak-qon tomir va onkologik xavflar uchun davomiylik zararli omil hisoblanadi. Bu ikki tendensiyaning kesishish nuqtasini aniqlash - klinik qarorning markazida turadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, MGTning uzoq muddatli foyda-xavf nisbati statik emas, balki vaqt bilan dinamik tarzda o‘zgaradi. Terapiyaning dastlabki besh yilida, ayniqsa erta boshlangan bo‘lsa, foyda (suyak himoyasi, simptomlarning yengillashishi) nisbatan xavflardan ustun bo‘lishi mumkin. Besh yildan o‘n yilgacha bo‘lgan davrda ko‘krak bezi saratoni va yurak-qon tomir xavflari asta-sekin ortib, foyda-xavf nisbati muvozanatlashadi. O‘n yildan ortiq davomiylikda esa onkologik va trombotik xavflarning kumulyativ o‘sishi ko‘plab bemorlar guruhida ustunlik qila boshlaydi, garchi bu individual xavf profiliga qarab farq qiladi.

Menopauzal gormon terapiyasining uzoq muddatli qo‘llanilishida foyda va xavflar o‘rtasidagi muvozanat statik emas, balki terapiya davomiyligiga qarab dinamik tarzda o‘zgaradi, shu sababli davom ettirish to‘g‘risidagi qaror bir martalik emas, balki muntazam qayta ko‘rib chiqiladigan individual jarayon bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Manson J. E., Chlebowski R. T., Stefanick M. L., et al. Menopausal hormone therapy and health outcomes during the intervention and extended poststopping phases of the Women’s Health Initiative randomized trials // JAMA. – 2013. – Vol. 310, № 13. – P. 1353–1368.
2. Cauley J. A., Robbins J., Chen Z., et al. Effects of estrogen plus progestin on risk of fracture and bone mineral density: the Women’s Health Initiative randomized trial // JAMA. – 2003. – Vol. 290, № 13. – P. 1729–1738.

РЕВМАТОИД АРТРИТДА ЖИНСИЙ ГОРМОНЛАР ДИСБАЛАНСИ НЕГИЗИДА ИНТЕРЛЕЙКИН-40 ЎЗГАРИШИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Салимова Гулмира Холмурадовна,
Тошкент Давлат тиббиёт университети
мустақил изланувчиси
salimova.doc@inbox.ru

АННОТАЦИЯ: Мазкур мақолада тадқиқотга жалб қилинган репродуктив ёшдаги РА билан оғриган аёлларда жинсий аёллар гормонларининг хайз циклига кўра ўзгаришига кўра интерлейкин-40 экспрессиясини баҳолаш натижалари келтирилган.

КАЛИТ СЎЗЛАР: жинсий гормонлар, ИЛ-40, ревматоид артрит.

Замонавий тасаввурларга кўра [1], ревматоид артрит РА келиб чиқишида иммун тизимидаги аутотолерантликни бузилиши ҳисобига бўғимда иммун яллиғланиш, синовиал ўрама ичидаги бўшлиқда эксудатив суюқлик ва улар негизида тузилмавий бузилишлар ётади. РА патогенизи тўғрисида назарий ва амалий ревматология талайгина маълумотларга эга бўлишига қарамай, унинг ривожланиши ва авжланиши борасида олимлар ўртасида мунозакаралар сақланиб қолади.

Сўнгги йилларда интерлейкин-40 (ИЛ-40) га алоҳида эътибор қаратила бошланди, чунки у синовиал фибробластларда хемокинлар ва матрикс-металлопротеиназа секрециясини рағбатлантиради, бу эса унинг РАда тўқималарнинг яллиғланиши ва парчаланишини тартибга солишдаги ўрнини кўрсатади [2]. Бундан ташқари, у В-лимфоцитлар функцияси билан боғлиқ. Маълумки, организмнинг триггер омилга реакцияси иммун тизимининг бошқарувчи механизмларининг зўриқиши, хусусан, организмнинг турли функционал тизимлари биологик ритмининг структуравий ўзгариши билан тавсифланади. Одамнинг физиологик тизимларилари ичида репродуктив тизимнинг адаптацион реакциялари ривожланишининг хусусий қонуниятлари яхши ўрганилган [3]. Ўз навбатида, РАда гормонал номутаносибликнинг салбий оқибатларини тизимли яллиғланиш кўрсаткичларига таъсирини баҳолаш учун репродуктив функцияни эътиборга олиш муҳимдир. Шунинг учун, ИЛ-40 миқдорининг ўзгариши репродуктив ёшдаги РА билан оғриган аёлларда ўрганиш илмий қизиқиш уйғотади.

Материал ва усуллар. Тадқиқотга 2010-йилги ACR/EULAR мезонларига кўра таснифланган 55 нафар РА билан оғриган (36,5±7,1 ёш) ва 20 нафар (35,9±7,6) соғлом аёллар жалб қилинган. Уларда эрталабки қарахтлик 176,7±37,2 дақиқа, бўғимлардаги оғриқ ВАШ - 8,7±1,4 ва 3 ва ундан ортиқ бўғимлардаги шиш 94,5% да кузатилган. Қўл панжа бўғимларида РАнинг II ва III рентгенологик босқичлари 80,8% аёлларда устунлик қилди. Функционал

бузилишлар доирасида 47,3% аёллардадоирасида III даражадаги функционал бузилишлар хос бўлиб , 39,2% ни ташкил этган.

Натижалар. Тадқиқот натижалари прогестерон кўрсаткичларини ҳайз циклининг иккала фазасида ҳам пасайишини кўрсатди. Бунда, 1-фолликуляр фазада РА билан оғриган аёлларда назорат гуруҳидаги 1,35±0,02 нг/мл кўрсаткичларга нисбатан унинг ($p<0,0001$) сезиларли даражада пасайиши аниқланган. Шунингдек, РА билан оғриган аёлларда ҳам ҳайз циклининг 1-фазасида соғлом аёллар гуруҳидаги кўрсаткичларига нисбатан эстрадиолнинг ($p<0,02$) пасайиши кузатилган. Маълумки, ҳайз циклининг иккинчи, лютеин фазасида прогестерон энг юқори қийматга эга, яъни циклнинг 1-фазасидан бошлаб у аста-секин физиологик жиҳатдан ошади. Соғлом аёллар кўрсаткичларидан фарқли ўлароқ, РА билан оғриган аёлларда 2-фазада прогестероннинг физиологик ўсиши кузатилмади, аммо соғлом аёллар кўрсаткичларига нисбатан сезиларли даражада пасайиши ($p<0,05$) қайд этилган. Ўз навбатида, РА билан оғриган беморларда эстрадиол миқдори ($p<0,05$) соғлом аёлларнинг кўрсаткичларига нисбатан пасайган.

Кузатувдагиларда ҳайз цикли фазаларига кўра ИЛ-40 ўрганилганда, соғлом аёллар ҳайз циклининг 2-фазасида унинг миқдори кўрсаткичларидан фарқли ўлароқ, РА билан оғриган аёлларда физиологик камайиши кузатилмасдан, аксинча уларнинг ишонарли ортиши аниқланган. Лекин, икки фазадаги ИЛ-40 миқдори кўрсаткичлар ўзаро гуруҳлар ўртасида қиёсланганда, бемор аёлларда соғлом аёлларга нисбатан хайз циклининг 1-фазасида деярли 2 баробар, 2-фазасида эса 3 баробар гиперэкспрессияси билан фарқланган.

Хулоса. Тадқиқотга жалб қилинган репродуктив ёшдаги РА билан оғриган аёлларда жинсий аёллар гормонларининг пасайиши кузатилади. Бунда соғлом аёлларнинг кўрсаткичларидан фарқли ўлароқ, бемор аёлларда ҳайз циклининг лютеин фазасида ИЛ-40нинг физиологик камайиши кузатилмасдан, аксинча унинг гиперэкспрессияси хосдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Molteni E. et al. Novel insights into the management of rheumatoid arthritis: one year in review 2024 //Clin Exp Rheumatol. – 2024. – Т. 42. – №. 5. – С. 947-960.

2. Pask A. The reproductive system //Non-coding RNA and the Reproductive System. – 2015. – С. 1-12.

3. Navratilova A. et al. IL-40: a new B cell-associated cytokine up-regulated in rheumatoid arthritis decreases following the rituximab therapy and correlates with disease activity, autoantibodies, and NETosis //Frontiers in immunology. – 2021. – Т. 12. – С. 745523.

IDIOPATIK QORINCHA ARITMIYALARINI DAVOLASHDA ERTA KATETER ABLATSIYASINING KLINIK O‘RNI

Anorbayev Jahongir
American Hospital klinikasi kardiologi
E-mail: dra.jahongirbahromovich@gmail.com

Annotatsiya. Idiopatik qorincha aritmiyalari tarkibiy yurak kasalliklari aniqlanmagan bemorlarda qorincha ekstrasistoliyalari va idiopatik monomorf qorincha taxikardiyasi shaklida namoyon bo‘lib, bemorlarning hayot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Garchi ushbu aritmiyalar nisbatan xavfsiz prognozga ega bo‘lsa-da, simptomatik va qaytalanuvchi holatlar tibbiy aralashuvni talab qiladi. So‘nggi yillarda elektroanatomik xaritalash va ablatsion texnologiyalarning takomillashuvi kateter ablatsiyasining samaradorligini oshirdi. 2022-yilgi ESC tavsiyalariga ko‘ra, o‘ng qorincha chiqish yo‘li (RVOT) va chap qorincha fastsikulyar aritmiyalarida kateter ablatsiyasi birinchi qator davolash usuli sifatida e’tirof etilgan. Ushbu maqolada zamonaviy aritmologiyada kateter ablatsiyasini faqat preparatlar samarasiz bo‘lgandagina emas, balki davolashning dastlabki bosqichida qo‘llash imkoniyatlari va uning klinik ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: idiopatik qorincha aritmiyalari, qorincha ekstrasistoliyasi, monomorf qorincha taxikardiyasi, kateter ablatsiyasi, RVOT, ESC tavsiyalari, aritmologiya, elektroanatomik xaritalash.

Idiopatik qorincha aritmiyalari struktur yurak kasalligi aniqlanmagan bemorlarda qorincha ekstrasistoliyalari (QES) va idiopatik monomorf qorincha taxikardiyasi (QT) ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu aritmiyalar ko‘pincha nisbatan yaxshi prognozga ega bo‘lsa-da, simptomatik va qaytalanuvchi shakllar bemorning hayot sifatini pasaytirishi, takroriy tibbiy murojaatlarga sabab bo‘lishi va ayrim holatlarda qorincha funksiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. So‘nggi yillarda elektroanatomik xaritalash, intrakardial tasvirlash va ablatsion texnologiyalarning rivojlanishi natijasida kateter ablatsiyasining idiopatik qorincha aritmiyalarini davolashdagi o‘rni kengaydi. 2022-yilgi ESC tavsiyalarida simptomatik o‘ng qorincha chiqish yo‘li (RVOT) yoki chap qorincha fastsikulalaridan kelib chiquvchi idiopatik QES/QTda kateter ablatsiyasi birinchi qator davolash sifatida ko‘rsatilgan. Shu sababli zamonaviy aritmologiyada ablatsiyani faqat antiaritmik preparatlar samarasiz bo‘lgandan keyingi usul sifatida emas, balki bazi bemorlarda davolashning dastlabki bosqichida qo‘llash masalasi dolzarb hisoblanadi.

Idiopatik qorincha aritmiyalarining turli anatomik va elektrofiziologik fenotiplarida kateter ablatsiyasini davolashning dastlabki bosqichida qo‘llashning klinik o‘rnini zamonaviy ilmiy dalillar asosida baholash. Adabiyotlar sharhida PubMed ma’lumotlar bazasidagi ilmiy ishlar, 2022-yilgi ESC klinik tavsiyalari hamda HRS/EHRA/APHRS/LAHRS ekspert konsensusi tahlil qilindi. Dalillar

aritmiyaning anatomik manbai, kateter ablatsiyasining samaradorligi, qaytalanish chastotasi hamda protseduraning murakkabligi bo‘yicha sifat jihatidan tahlil qilindi.

Natijalar. O‘ng qorincha chiqish yo‘li idiopatik qorincha aritmiyalarining eng ko‘p uchraydigan manbalaridan biri hisoblanadi. HRS/EHRA/APHRS/LAHRS konsensusida simptomatik va tez-tez takrorlanuvchi RVOT QESlarida kateter ablatsiyasi effektivligi **80–95%** diapazonda qayd etilgan va asoratlar chastotasi nisbatan past bo‘lgan. Tez-tez va simptomatik RVOT QESlarida ablatsiya metoprolol yoki propafenonga nisbatan afzalroq deb tavsiya etiladi.

Chap qorincha fastsikulyar qorincha taxikardiyalarida kateter ablatsiyasining samaradorligi ham yuqori. 953 bemor kiritilgan, o‘rtacha 41,4 oylik kuzatuv tadqiqotida taxikardiya qaytalanishi 10,7% bemorda kuzatilgan.

Papillyar mushaklardan kelib chiquvchi qorincha aritmiyalarida natijalar RVOT va fastsikulyar aritmiyalarga nisbatan kamroq barqaror bo‘lgan. 536 bemorni qamrab olgan 21 ta tadqiqotda birlamchi protsedura effekti 88,1%, bir protseduradan keyingi uzoq muddatli aritmiyasiz holat 69,2%, takroriy ablatsiyalarni hisobga olganda esa 84,9% ni tashkil etgan. Olingan ma’lumotlar idiopatik qorincha aritmiyalarida “erta ablatsiya”ning klinik qiymati barcha anatomik fenotiplarda bir xil emasligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Idiopatik qorincha aritmiyalarida kateter ablatsiyasining klinik o‘rni aritmiyaning anatomik kelib chiqishi va elektrofiziologik holatiga bog‘liq. Simptomatik RVOT va chap qorincha fastsikulyar QES/QTda kateter ablatsiyasini birinchi qator yoki davolashning dastlabki bosqichida qo‘llash zamonaviy klinik tavsiyalar bilan qo‘llab-quvvatlanadi. Murakkab anatomik lokalizatsiyalarda esa ablatsiyani shunchaki erta bajarishdan ko‘ra, aritmogen o‘choqni aniq lokalizatsiya qilish va individual foyda–xavf nisbatini baholash muhim hisoblanadi. Shu sababli idiopatik qorincha aritmiyalarida erta ablatsiyaning zamonaviy mazmuni muolajani imkon qadar tez bajarish emas, balki ablatsiyadan ko‘proq foyda ko‘rishi mumkin bo‘lgan holatni erta aniqlash va tegishli interventsion strategiyani asossiz kechiktirmasdan tanlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zeppenfeld K, Tfelt-Hansen J, de Riva M, et al. 2022 ESC Guidelines for the management of patients with ventricular arrhythmias and the prevention of sudden cardiac death. Eur Heart J. 2022;43(40):3997–4126. doi:10.1093/eurheartj/ehac262.
2. Cronin EM, Bogun FM, Maury P, et al. 2019 HRS/EHRA/APHRS/LAHRS expert consensus statement on catheter ablation of ventricular arrhythmias. Heart Rhythm. 2020;17(1):e2–e154. doi:10.1016/j.hrthm.2019.03.002.
3. Creta A, Chow AW, Sporton S, et al. Catheter ablation for fascicular ventricular tachycardia: a systematic review. Int J Cardiol. 2019;276:136–148. doi:10.1016/j.ijcard.2018.10.080.
4. Mariani MV, Piro A, Magnocavallo M, et al. Catheter ablation for papillary muscle arrhythmias: a systematic review. Pacing Clin Electrophysiol. 2022;45(4):519–531. doi:10.1111/pace.14462.

5. Das SK, Hawson J, Koh Y, et al. Left Ventricular Summit Arrhythmias: State-of-the-Art Review of Anatomy, Mapping, and Ablation Strategies. JACC Clin Electrophysiol. 2024;10(11):2516–2539. doi:10.1016/j.jacep.2024.09.008.

"RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF DIABETIC NEPHROPATHY"

DSc. **Urmanova Yulduz Makhkamovna**
Republic of Uzbekistan, 100190,
Tashkent, Yuqori Karakamish str 2A
Alfraganus University, Department of Internal Medicine

INTRODUCTION. Prevention of the development and progression of end-stage CKD in type 2 diabetes is crucial as the first step towards its prevention. Among commonly measured variables, urine dipstick analysis (proteinuria, hematuria), blood pressure, serum creatinine, body mass index (BMI), and serum uric acid are significant predictors of end-stage CKD (t-CKD).

Risk factors for the development of terminal CKD are a discussed issue in endocrinology.

THE AIM OF INVESTIGATION - is to study the clinical and laboratory characteristics and risk factors of diabetic nephropathy stages 1-3.

MATERIAL AND METHODS. The study was conducted at the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Endocrinology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, Tashkent.

The study included 65 patients with type 2 diabetes and DN stages 1-3, who were divided into 2 groups:

The first group included patients with stage 3 CKD with SCF from 59 to 45 ml/min/1.73 m2, n=27 patients (C3a)

The second group included patients with stage 3 CKD with SCF from 44 to 30 ml/min/1.73 m2, n=26 patients (C3b).

The third group - patients with type 2 diabetes, without CKD, n = 20 patients.

The following methods were used in the study of patients: epidemiological, clinical, biochemical, instrumental and statistical.

RESEARCH RESULTS. the 2nd group of patients, there were significant differences compared to the 1st group in all parameters: mean age, systolic blood pressure (SBP), diastolic blood pressure (DBP), frequency of arterial hypertension (AH) 1, 2 and 3 st (arterial hypertension), family history of type 2 diabetes, overweight, obesity, coronary heart disease, depression, physical inactivity, smoking, abuse of analgesics ($p < 0.005$).

In the 2nd group of patients, there were significant differences compared to the 1st group in all parameters: average age, SBP, DBP, frequency of hypertension stage 1, 2 and 3 (arterial hypertension), hereditary burden of type 2 diabetes, overweight, obesity, coronary heart disease, depression, physical inactivity, smoking, abuse of analgesics ($p < 0.005$).

In the presence of kidney changes according to ultrasound examinations (US) performed in the past, the frequency of aulbuminuria (AU) ≥ 30 mg/L was 53.6%;

in individuals without kidney changes in ultrasound, the frequency of AU ≥ 30 mg/L was 38.7%. High AU was significantly more common in individuals whose immediate relatives had kidney disease according to the questionnaire.

CONCLUSIONS. The most common risk factors for the development of CKD in our study were arterial hypertension, obesity, physical inactivity, and depression ($p < 0.0001$).

KEY WORDS: diabetes mellitus type 2, diabetic nephropathy stage 1-3, clinical picture

REFERENCES

1. Krolewski AS, Fogarty DG, Warram JH. Hypertension and nephropathy in diabetes mellitus: what is inherited and what is acquired? *Diabetes Res Clin Pract.* 1998;39(Suppl):S1-S14. doi:10.1016/S0168-8227(98)00015-1.

2. Steffes MW, et al. Markers of and risk factors for the development and progression of diabetic kidney disease. *Am J Kidney Dis.* 2014.

3.Tuttle KR, et al. Epidemiology and risk factors for diabetic kidney disease. *Adv Chronic Kidney Dis.* 2014.

4.Krolewski AS, et al. Diabetic nephropathy: new approaches for improving glycemic control and reducing risk. *J Nephrol.* 2013;26:??. doi:10.5301/jn.5000281.

5.American Diabetes Association Professional Practice Committee for Diabetes. 11. Chronic Kidney Disease and Risk Management: Standards of Care in Diabetes—2026. *Diabetes Care.* 2026;49(Suppl 1):S246-S260. doi:10.2337/dc26-S011.

“COGNITIVE IMPAIRMENT IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS AND END-STAGE CHRONIC KIDNEY DISEASE"

DSc. **Urmanova Yulduz Makhkamovna**
Republic of Uzbekistan, 100190,
Tashkent, Yuqori Karakamish str 2A
Alfraganus University, Department of Internal Medicine

INTRODUCTION According to researchers,The prevalence of cognitive impairment is high among adults with chronic kidney disease (CKD), and these two conditions share several risk factors, suggesting they may share a common pathogenesis. Renal microvascular damage is a characteristic feature of the two most common causes of CKD, diabetes mellitus and hypertension.[Kurella Tamura M, Wadley V, Yaffe K, 2008].

Similarly, neuroimaging markers of microvascular brain damage are associated with an increased risk of cognitive decline and dementia.[Vermeer SE, Prins ND, den Heijer T, 2013; Debette S, Seshadri S, Beiser A, Au R,2011]These neuroimaging findings are more common in patients with CKD compared to patients with normal renal function.[Martinez-Vea A, Salvado E, Bardaji A, 2016]Furthermore, among patients with diabetes mellitus, cerebral microvascular diseases are predictors of the development of nephropathy and progression to end-stage renal disease (ESRD). [Manjula Kurella Tamura, 2016].

Thus, assessment of cognitive function may be potentially useful in refining the prognosis of end-stage renal disease in at-risk patients.

All of the above emphasizes the relevance of this study.

THE AIM OF INVESTIGATION -study characterization of cognitive impairment in patients with type 2 diabetes mellitus and end-stage chronic kidney disease

MATERIAL AND METHODS. We examined and screened a total of 115 patients with type 2 diabetes mellitus and stage IV-V CKD on program hemodialysis from January 1, 2019, to December 31, 2021.

Of these, there were 53 women and 62 men. The average age of men was 67 ± 4.2 years, and the average age of women was 64 ± 5.6 years. The control group consisted of 20 patients of the corresponding age.

According to the degree of chronic cerebral ischemia (CCI), patients were divided into 3 groups:1 group – 35 (30.4%) patients with CKD 4th-5th centuries with CCI grade 1; group 2 – 37 (32.2%) patients with 4th-5th centuries with CCI grade 2; group 3 - 43 (37.4%) patients with 4th-5th centuries with grade 3 CHI.

All 115 patients underwent all examinations, including general clinical, biochemical, and hormonal blood tests in the laboratory of the Republican Scientific and Practical Medical Center of Endocrinology of the Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan, as well as ECG, ultrasound of internal organs, Doppler

ultrasonography of the main arteries of the head, ultrasound of the internal and genital organs, and consultations with specialists.

Cognitive functions were assessed using **Mini-Mental State Examination - Mini-mental State Examination**(MMSE).

RESEARCH RESULTS. In the analysis of study results, cognitive impairment was associated with a 41% increased risk of end-stage CKD and a 50% increased risk of end-stage CKD or a 50% decrease in eGFR.

Participants with cognitive impairment dominated in groups 2 and 3, and had lower mean eGFR and higher levels of albuminuria.

A correlation was found between indicators of cognitive function and demographic indicators – age, education (r = 0.76/0.88).

Thus, the presence of cognitive impairment can identify patients with systemic microvascular disease, which is at risk for the development and progression of CKD. While assessing kidney microvascular disease requires biopsy and assessing brain microvascular disease requires imaging, cognitive testing is noninvasive and less expensive.

Cognitive impairment may also predispose patients to kidney disease progression due to decreased use or adherence to CKD risk reduction strategies. For example, hypertension treatment may be less intensive in patients with cognitive impairment due to concerns about side effects.

CONCLUSIONS A correlation was established between cognitive function indicators and demographic parameters – age, education (r = 0.76/0.88), as well as with the level of decline in glomerular filtration rate (r = 0.69).

KEY WORDS: diabetes mellitus type 2, diabetic nephropathy stage 1-3, clinical picture

REFERENCES

1.Murea M, et al. The contribution of kidney disease to cognitive impairment in patients with type 2 diabetes. *Curr Diab Rep.* 2020;20(10):52. doi:10.1007/s11892-020-01333-9.

2.McIntyre CW, Jain A. Dialysis and cognitive impairment. *Nat Rev Nephrol.* 2025;21(8):553-564. doi:10.1038/s41581-025-00960-3.

3. Liu J, Chen K, Chen J, Fu L, Zhang W, Lin J, et al. Incidence and risk factors of cognitive dysfunction in hemodialysis patients: a systematic review and meta-analysis. *Semin Dial.* 2023;36(5):358-365. doi:10.1111/sdi.13171.

4. Etgen T, Chonchol M, Förstl H, Sander D. Chronic kidney disease and cognitive impairment: a systematic review and meta-analysis. *Am J Nephrol.* 2012;35(5):474-482. doi:10.1159/000338135.

5.Georgianos PI, Agarwal R. Chronic kidney disease and cognitive impairment. *Clin Kidney J.* 2025;18(Suppl). doi:10.1093/ckj/sfae294.

ЙОД ТАНҚИСЛИГИ ХУДУДИДА ИСТИҚОМАТ ҚИЛУВЧИ ОРТИҚЧА ВАЗНЛИ ҚИЗЛАРДА ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ХОЛАТИ

Тожимахаматова Махлиё Мирзагани қизи
Фаргона шахар 4- оилавий поликлиникаси
врач-эндокринологи
Фарғона жамоат саломатлиги тиббиёт
институти мустақил изланувчиси

АННОТАЦИЯ: Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, болалар ва ўсмирлар орасида ортиқча вазнлиликнинг ошиши қалқонсимон без касалликларини ортиб боришига сабаб бўлмоқда. Бунинг натижасида ўсмир қизларда қалқонсимон безнинг функционал холатини пасайиши кузатилиб бир қанча симптомлар ортиши кузатилмоқда. Охирги йилларда ўсмир қизлар орасида ортиқча вазн ва семириш ҳолатларининг ортиб бориши бутун дунё соғлиқни сақлаш тизимининг долзарб муаммоларидан бирига айланмоқда. Айниқса, пубертат давридаги қизларда ортиқча тана вазни гипоталамо-гипофиз-қалқонсимон без тизими фаолиятига салбий таъсир кўрсатиб, қалқонсимонбезнинг катталашиши, хотирани сусайиши, хайз циклини бузилиши, бачадон ва тухумдонлар гипоплазиясига сабаб бўлмоқда. Бу эса саломатлик издан чиқиши хавфини оширади.

Тадқиқот мақсади: Фарғона вилоятида яшовчи ортиқчв вазни бор қизларда қалаонсимон без функционал холатини ўрганишдан иборат.

Тадқиқот объектлари ва усуллари РИЭИАТМ Фарғона филиалига амбулатор шароитда мурожаат қилган 120 нафар ортиқча вазни бор қизларнинг текширув натижалари таҳлил қилинди. Уларнинг ёши 12 дан-16 гача оралиқни ташкил этди.

Назорат гурухига эса 40 та ортиқча вазни йўқ 12-16 ёшдаги қизлар олинди. Барча қизларга умумий клиник текширув, шу жумладан ҚБ УТТси, ИХЛА текширувлар – ТТГ, Т3, Т4 ва АнтиТПО гормонлар миқдори текширилди.

Тадқиқот натижалари ва уларнинг мухокамаси.

1. Ортиқча вазни бор қизларнинг ҚБ нинг 0 даражаси хеч қайси қизда кузатилмади, 47 (39 %) қизларда ҚБнинг I –даражаси, 73 (61%) қизда ҚБнинг II даражада катталашганлиги қайд қилинди. Назорат гурухдаги қизларда ҚБнинг 0 даражаси 3(7,5%) аёлда, 20 (50%) беморда ҚБнинг I-даражаси, 17(42,5%%) аёлда ҚБининг II-даражасида катталашганлиги кузатилди. Бундан кўриниб турибдики ортиқча вазнли қизларда назорат гурухдаги қизларга нисбатан ҚБ нинг 2- даражадаги катталашиши 1,5 баравар кўплиги аниқланди.

2. Ортиқча вазни бор қизларда ҚБнинг функционал холатида эутиреоз 58%, субклиник гипотиреоз 33%, манифест гипотиреоз 2%, субклиник

гипертиреоз эса 7% қизларда кузатилган. Назорат гурухидаги қизларда 34 (85%) эутиреоидли холат, 6 (15%) субклиник гипотиреоз холати кузатилди. Манифест гипотиреоз ва субклиник гипертиреоз холати эса хеч қайси қизларда кузатилмади.

3. УТТ маълумотлари таққосланганда 1-гурухдаги қизларда қалқонсимон безида аниқланган касалликларни тахлил қилганимизда тугунли буқоқ касаллиги 3 (2,5%), аралаш буқоқ 4(3,3%), кўп тугунли буқоқ 3 (2,5%), аутоиммун тиреоидит эса 24 (20%) қизда аниқланган. 2-гурухдаги қизларда эса тугунли буқоқ касаллиги 1(2,5%), аралаш буқоқ 2(5%), аутоиммун тиреоидит эса 4(10%) қизда аниқланган, кўп тугунли буқоқ шакллари эса хеч қайси қизларда кузатилмаган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Влияние дефицита йода на репродуктивное здоровье девочек-подростков / Ящук А.Г., Иванова К.Н. // V Всероссийский конгресс «Амбула-торно-поликлиническая помощь - в эпицентре женского здоровья». - М., 2013. -С. 239-240.
2. Динамика репродуктивного здоровья девочек-подростков с подтвержденным йоддефицитом различной степени тяжести / Ящук А.Г., Даутова Л.А., Иванова К.Н. // Всероссийский конгресс «Новые технологии» - М., 2014. -С. 87-88.
3. Информационные образовательные программы по охране репродуктивного здоровья студенческой молодежи / Даутова Л. А., Ящук А.Г., Масленников А.В. [и др.] // V Всероссийский конгресс «Амбулаторно-поликлиническая помощь - в эпицентре женского здоровья» - М., 2013. - С. 67-68.
4. Микроэлементная обеспеченность беременных и кормящих матерей / Ящук А.Г., Даутова Л.А., Иванова К.Н., Грачева Л.В. // Методические рекомендации. - Уфа. - 2011.

BOLALARDAGI BIR TOMONLAMA XOANA ATREZIYASINI TASHXISLASH

Xasanova Umida Ergash qizi
uxasanova997@gmail.com

Annotatsiya. Xoana atreziyasi bolalar orasida uchraydigan tug‘ma rivojlanish nuqsonlaridan biri bo‘lib, burun bo‘shlig‘i va burun-halqum o‘rtasidagi xoanal yo‘lning to‘liq yoki qisman yopilishi bilan tavsiflanadi. Bir tomonlama xoana atreziyasi klinik jihatdan nisbatan yengil kechishi sababli ko‘pincha kech tashxislanadi. Kasallikning asosiy belgilari zararlangan tomonda burun bitishi, burun orqali nafas olishning qiyinlashishi, patologik ajralmalar va qaytalanuvchi rinitdan iborat. Mazkur tezisda bolalarda bir tomonlama xoana atreziyasini tashxislash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Xoana atreziyasi, bir tomonlama xoana atreziyasi, bolalar, endoskopiya, endonazal jarrohlik, burun-halqum, xoanal o‘tkazuvchanlik, restenoz.

Xoana atreziyasining kelib chiqishida embrional rivojlanish jarayonlarining buzilishi muhim o‘rin tutadi. Atreziya plastinkasi suyakli, pardasimon yoki aralash tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. Anatomik xususiyatlarni aniqlash jarrohlik davolash usulini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda burun bo‘shlig‘i endoskopiyasi xoana atreziyasini aniqlashda asosiy diagnostik usullardan biri hisoblanadi. Kompyuter tomografiyasi esa xoana sohasining anatomik tuzilishi, atreziya plastinkasining qalinligi, burun-halqum va atrofdagi suyak tuzilmalari holatini baholash imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda bir tomonlama xoana atreziyasini zamonaviy diagnostik usullar yordamida aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqotda bir tomonlama xoana atreziyasi bilan murojaat qilgan bolalarning klinik va instrumental tekshiruv natijalari o‘rganildi.

Olingan natijalar. Klinik kuzatuvlar bir tomonlama xoana atreziyasi bo‘lgan bolalarda kasallikning asosiy belgilarini uzoq davom etuvchi bir tomonlama burun bitishi va burun orqali nafas olishning qiyinlashishi tashkil etishini ko‘rsatdi. Ayrim hollarda patologik ajralmalar va qaytalanuvchi rinit ham kuzatildi. Endoskopik tekshiruv xoana sohasidagi atreziya to‘sig‘ini aniq vizualizatsiya qilish va operatsiya rejasini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yuqori aniqlikdagi kompyuter tomografiyasi xoana atreziyasining anatomik xususiyatlarini batafsil baholash imkonini beradi. KT yordamida atreziya plastinkasining suyakli, membranoz yoki aralash komponentlari, uning qalinligi va joylashuvi aniqlanadi. Bundan tashqari, burun bo‘shlig‘i, burun-halqum, burun to‘sig‘i va atrofdagi suyak tuzilmalarining anatomik holati baholanadi. KT ma’lumotlari jarrohlik yondashuvini tanlash va operatsiya vaqtida mumkin bo‘lgan anatomik qiyinchiliklarni oldindan baholash uchun muhim hisoblanadi.

Bir tomonlama xoana atreziyasini quyidagi holatlardan farqlash lozim:
- burun to‘sig‘ining keskin qiyshayishi;
- pastki burun chig‘anoqlarining gipertrofiyasi;
- burun bo‘shlig‘ining polipoz o‘zgarishlari, hajmli hosilalari.
- tug‘ma intranazal kistalar;
- burun bo‘shlig‘idagi boshqa tug‘ma to‘siqlar;
- adenoid vegetatsiyalar;
- surunkali rinit va rinosinusit;

Endoskopik tekshiruv va KT natijalarini birgalikda baholash differensial tashxis imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Xulosa.

1. Bir tomonlama xoana atreziyasi bolalarda uzoq davom etuvchi bir tomonlama burun bitishining muhim sabablaridan biridir.
2. Burun endoskopiyasi va kompyuter tomografiyasi xoana atreziyasini aniqlash hamda jarrohlik davolash taktikasini belgilashda muhim diagnostik usullardir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brown O.E., Pownell P., Manning S.C. Choanal atresia: a new anatomic classification and clinical management applications. // Laryngoscope. 1996.Vol. 106, No. 1. — P. 97–101.
2. Stankiewicz J.A. The endoscopic repair of choanal atresia. // Otolaryngologic Clinics of North America. — 2001. — Vol. 34, No. 2. — P. 391–400.

BOLALARDAGI XOANA ATREZIYASINI ZAMONAVIY JARROHLIK USULLARI

Xasanova Umida Ergash qizi
uxasanova997@gmail.com

Annotatsiya. Xoana atreziyasi bolalarda burun bo‘shlig‘i va burun-halqum o‘rtasidagi tabiiy yo‘lning tug‘ma berk bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Davolashning asosiy usuli — jarrohlik yo‘li bilan xoanal o‘tkazuvchanlikni tiklash. Hozirgi vaqtda endoskopik endonazal yondashuv keng qo‘llanilib, atreziya plastinkasini olib tashlash, xoanal yo‘lni yetarli darajada kengaytirish va shilliq qavatni maksimal saqlashga qaratiladi. Operatsiyadan keyingi tiklanish, shilliq qavatning epitelizatsiyasi va restenozning oldini olish davolash samaradorligining muhim qismidir. Restenoz rivojlangan hollarda revision endoskopik jarrohlik orqali chandiqli va granulyatsion to‘qimalarni bartaraf etish hamda xoanal o‘tkazuvchanlikni qayta tiklash mumkin.

Kalit so‘zlar: xoana atreziyasi, bolalar, endoskopik jarrohlik, endonazal yondashuv, shilliq qavat, posterior septektomiya, restenoz, revision jarrohlik.

Xoana atreziyasida jarrohlik davolashning asosiy maqsadi burun yo‘llarining anatomik va funksional o‘tkazuvchanligini tiklash hamda qayta torayishning oldini olishdan iborat. Zamonaviy jarrohlikda minimal invaziv endoskopik endonazal yondashuv anatomik tuzilmalarni aniq ko‘rish, atreziya plastinkasini nazorat ostida olib tashlash va sog‘lom shilliq qavatni maksimal darajada saqlash imkonini beradi. Jarrohlik natijasini belgilovchi muhim omillardan biri operatsiyadan keyingi davrni to‘g‘ri olib borishdir.

Maqsad.

Bolalarda xoana atreziyasini zamonaviy endoskopik jarrohlik usullari yordamida bartaraf etish, operatsiyadan keyingi tiklanish jarayonini yaxshilash va restenoz rivojlangan hollarda qayta jarrohlik davolash imkoniyatlarini yoritish.

Jarrohlik davolash va operatsiya muddati.

Operatsiya muddati bolaning umumiy holati, atreziyaning bir yoki ikki tomonlama ekanligi va nafas yo‘llarining klinik holatiga qarab individual belgilanadi. Ikki tomonlama xoana atreziyasida yangi tug‘ilgan chaqaloqda burun orqali nafas olishning keskin buzilishi sababli nafas yo‘lini tez tiklash talab etiladi va jarrohlik hayotning ilk kunlaridayoq bajarilishi mumkin. Bir tomonlama xoana atreziyasida bola odatda nisbatan barqaror nafas oladi, shuning uchun operatsiya ko‘pincha rejalashtirilgan tartibda amalga oshiriladi.

Zamonaviy endoskopik jarrohlik texnikasi. Endoskopik endonazal yondashuvda atreziya plastinkasiga burun bo‘shlig‘i orqali kiriladi. Endoskopik nazorat ostida atreziyaning yumshoq to‘qimali va suyakli komponentlari bosqichma-bosqich olib tashlanadi. Jarrohlikning asosiy prinsipi patologik to‘qimani yetarli hajmda olib tashlash bilan birga sog‘lom shilliq qavatni maksimal

darajada saqlashdir. Xoanal yo‘lning yetarli kengligi havo oqimini yaxshilash va qayta torayish xavfini kamaytirishga qaratilgan.

Shilliq qavatni saqlovchi flap texnikasida atreziya plastinkasi olib tashlangandan so‘ng atrofdagi shilliq qavat yangi hosil qilingan xoanal yuzaga moslashtiriladi. Bunday yondashuv ochiq suyak yuzasini kamaytirib, epitelizatsiyani yaxshilash va chandiqli bitish xavfini kamaytirishga yordam beradi. Suyakli komponentni olib tashlashda endoskopik burr, mikrodebrider va boshqa nozik instrumentlardan foydalanish mumkin. Yana bir usuli orqa septektomiya -anatomik jihatdan tor xoanal yo‘lda yoki ayrim ikki tomonlama holatlarda burun to’sig’ining cheklangan orqa qismini ‘shimcha kenglik yaratish uchun rezeksiya qilinadi Usul individual anatomik sharoitga qarab tanlanadi.

Xulosa. Endoskopik endonazal jarrohlikda atreziya plastinkasini aniq olib tashlash, xoanal yo‘lni yetarli kengaytirish, shilliq qavatni saqlash va zarur hollarda posterior septektomiyadan foydalanish muhimdir. Operatsiyadan keyingi to‘g‘ri parvarish va endoskopik nazorat restenozni erta aniqlashga, revision jarrohlik esa xoanal o‘tkazuvchanlikni qayta tiklashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Newman J.R., Harmon P., Shirley W.P. et al. Operative management of choanal atresia // Otolaryngology–Head and Neck Surgery. — 2007. — Vol. 136. — P. 181–187.
2. Reddy V.M., Rutter M.J., Cotton R.T. Management of congenital choanal atresia // Pediatric Clinics of North America. — 2003. — Vol. 50. — P. 1379–1394.

HOMILADOR AYOLLARDA QALQONSIMON BEZNING FUNKSIONAL HOLATINI BAHOLASH

Mahkamova Mushtaribegim Bahodirjon qizi
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Endokrinologiya va gematologiya kafedrasi assistenti, PhD

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi vaqtda yod tanqisligi global muammolardan biri hisoblanadi. Bu holat keng tarqalgan bo‘lib, qator mamlakatlarda ayollar reproduktiv o‘zgarishlariga sabab bo‘lib, bepushtlik, gestozlar, homiladorlik nuqsonlari, tug‘ish patologiyalarini chaqirib kelmoqda. Yod yetishmovchiligi hududida, xususan Samarqand viloyatida istiqomat qilayotgan homilador ayollardagi qalqonsimon bezdagi o‘zgarishlar kam o‘rganilgan. Homilador ayollardagi yod yetishmovchiligi chaqaloqlar nuqsoni, tug‘ma gipotireoz kasalliklariga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand viloyatida yashovchi homilador ayollarda qalqonsimon bezning funksional holatini o‘rganish.

Tadqiqot obyektlari va usullari. Samarqand tuman tibbiyot birlashmasi nazoratida turgan 100 nafar homilador ayol tahlil qilindi. Ularning yoshi 18 dan 40 gacha bo‘lgan.

Barcha bemorlarga umumiy klinik tekshiruv, shu jumladan qalqonsimon bez palpatsiyasi, qalqonsimon bez va limfa tugunlari regional oqimi hududining UTTsi, IHLA tekshiruvlari orqali T4, TTG va anti-TPO tireoid gormonlari miqdori tekshirildi.

Olingan natijalar: JSST tasnifiga ko‘ra, homilador ayollarning qalqonsimon bezining 0-darajasi hech qaysi bemorda kuzatilmadi, 16 (40%) bemorda qalqonsimon bezning I darajasi, 24 (60%) bemorda qalqonsimon bezning II darajada kattalashganligi qayd qilindi.

Keyingi bosqichda homilador ayollarda tireoid gormonlar miqdori va tireoid statusi TTG, T3, T4 va anti-TPO miqdorlariga qarab baholandi. Homilador ayollarning 29 (72,5%) ida eutireoid holat, 7 (17,5%) bemorda subklinik gipotireoz, 3 (7,5%) bemorda manifest gipotireoz va 1 (2,5%) bemorda subklinik gipertireoz holati kuzatilgan.

Keyingi bosqichda tekshirilayotgan ayollarda ultratovush tekshiruvi orqali qalqonsimon bezda aniqlangan kasalliklar solishtirib baholandi.

Homilador ayollarda qalqonsimon bezida aniqlangan kasalliklarni tahlil qilganimizda, tugunli buqoq kasalligi 2 (5%) bemorda, aralash buqoq 1 (2,5%) bemorda, ko‘p tugunli buqoq 1 (2,5%) bemorda, autoimmun tireoidit esa 20 (50%) bemor ayolda aniqlangan.

Bu natijalar homilador ayollarda qalqonsimon bez to‘qimasida tugunli o‘zgarishlar, ya’ni ko‘p tugunli buqoq uchraganini ko‘rsatdi.

Yana bu guruhdagi bemorlarda qalqonsimon bez to‘qimasida autoimmun kasalliklar ko‘paygani aniqlandi. Bizning fikrimizcha, bu o‘zgarishlarda yod tanqisligining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi va bu borada dalillar beruvchi qo‘shimcha tekshiruvlar o‘tkazilishi lozim.

Xulosa. 1. Yod tanqisligi bo‘lgan hudud — Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi homilador ayollarda qalqonsimon bezining 0-darajasi hech qaysi bemorda kuzatilmadi, 16 (40%) bemorda qalqonsimon bezning I darajasi, 24 (60%) bemorda qalqonsimon bezning II darajada kattalashganligi qayd qilindi.

2. Samarqand viloyatida istiqomat qiluvchi homilador ayollarning 29 (72,5%) ida eutireoid holat, 7 (17,5%) bemorda subklinik gipotireoz, 3 (7,5%) bemorda manifest gipotireoz va 1 (2,5%) bemorda subklinik gipertireoz holati kuzatilgan.

3. UTT ma’lumotlari taqqoslanganda, 1-guruhdagi 1-tur qandli diabet bilan bog‘liq homilador ayollarda qalqonsimon bezida aniqlangan kasalliklarni tahlil qilganimizda, tugunli buqoq kasalligi 2 (5%) bemorda, aralash buqoq 1 (2,5%) bemorda, ko‘p tugunli buqoq 1 (2,5%) bemorda, autoimmun tireoidit esa 20 (50%) bemor ayolda aniqlangan.

АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA G‘O‘ZANI SUG‘ORISHNING YERLARNING MELIORATIV HOLATI VA G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI

Bo‘riyev Xurshid Bahodir o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
ORCID ID: 0000-0003-3821-922X
Jo‘rayev Umid Anvarovich
Buxoro davlat universiteti kafedra professori,
q/x.f.d., professor.
ORCID ID: 0000-0002-7828-9524

Annotatsiya: Ushbu maqolada sho‘rlangan tuproqlar sharoitida g‘o‘zani tomchilaatib sug‘orishning yerlarning meliorativ holati hamda uning hosildorligiga ta’siri bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda Buxoro viloyatining o‘rta qumoq, o‘rtacha darajada sho‘rlangan tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning Buxoro-10 navini tomchilatib sug‘orishda ProBioFito biostimulyatorini qo‘llab sug‘orish ishlari amalga oshirilganda tuproqlarning meliorativ holati yomonlashuvi oldi olinganligi va g‘o‘zaning global iqlim o‘zgarishi, tuproq sho‘rlanishi va suv tanqisligiga bardoshlili oshganligi hamda undan yuqori hosil olinganligi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: g‘o‘zaning Buxoro-10 navi, ProBioFito biostimulyatori, sho‘rlangan tuproqlar, tuproqdagi tuzlar miqdori, hosildorlik, sug‘orish.

THE EFFECT OF COTTON IRRIGATION ON THE RECLAMATION STATUS OF SOILS AND COTTON YIELD UNDER SALINE SOIL CONDITIONS

Annotation: This article presents the results of a study on the effects of drip irrigation of cotton under saline soil conditions on the reclamation status of agricultural lands and cotton yield. The study was conducted under moderately saline, medium-loamy soil conditions in the Bukhara region. It presents data showing that the use of the “ProBioFito” biostimulant during drip irrigation of the Bukhara-10 cotton variety helped prevent deterioration of the soil reclamation status, increased the cotton plant’s tolerance to global climate change, soil salinity, and water scarcity, and resulted in higher yields.

Key words: Bukhara-10 cotton variety, “ProBioFito” biostimulant, saline soils, soil salt content, yield, irrigation.

ВЛИЯНИЕ ОРОШЕНИЯ ХЛОПЧАТНИКА НА МЕЛИОРАТИВНОЕ СОСТОЯНИЕ ЗЕМЕЛЬ И УРОЖАЙНОСТЬ ХЛОПЧАТНИКА В УСЛОВИЯХ ЗАСОЛЕННЫХ ПОЧВ

Аннотация: В статье представлены результаты исследований влияния капельного орошения хлопчатника в условиях засоленных почв на мелиоративное состояние земель и урожайность хлопчатника. Исследования проводились в условиях среднесуглинистых, среднезасоленных почв Бухарской области. Приведены данные о том, что применение биостимулятора «ProBioFito» при капельном орошении хлопчатника сорта Бухоро-10 способствовало предотвращению ухудшения мелиоративного состояния почв, повышению устойчивости хлопчатника к глобальным климатическим изменениям, засолению почв и дефициту воды, а также получению более высокой урожайности.

Ключевые слова: Сорт хлопчатника Бухоро-10, биостимулятор «ProBioFito», засоленные почвы, содержание солей в почве, урожайность, орошение.

Ma’lumki suv – tiriklikning asosiy manbai hisoblanib, hozirgi davrda suvga bog‘liq muammolar butun insoniyatni tashvishga solmoqda. Ayniqsa chuchuk suv zaxiralarining kamayib borishi, ularning turli ta’sirlar natijasida ifloslanishi hamda suv resurslariga bo‘lgan talabning muttasil oshib borishi namoyon bo‘lmoqda. Suvning yetishmasligi va taqchilligi esa ko‘plab davlatlarga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Respublikamiz Markaziy Osiyo davlatlari orasida aholisi hamda iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallagani bilan bir qatorda, suvga bo‘lgan talab ham yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, suv tanqisligi kuzatiladigan yillarda yuqoridagi muammolar yanada sezilarli darajada namoyon bo‘lib, suv tanqisligini bartaraf etishda bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqish hamda suvni tejash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan qarorlar qabul qilinadi. O‘zini-o‘zi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash zaruriyati mamlakatning milliy mustaqillik, iqtisodiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish shartlaridan biri hisoblanadi. Yer va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida insoniyatning oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabning yildan-yilga ortib borayotganligi yerdan oqilona foydalanish, yerlarning meliorativ holatini va unumdorligini yaxshilash, suv resurslaridan samarali foydalanish orqali ekinlar hosildorligini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Buxoro viloyatining sug‘oriladigan maydonlariga sarflanadigan o‘rtacha yillik suv resurslari 3,6-4,0 mlrd. m^3 ni tashkil qilib, ushbu suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orish maqsadida sarflanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv resurslarini iqtisod qilish hamda ekinlarni yetishtirishda biostimulyatorni qo‘llash yuqori samaradorlikka erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar Buxoro viloyatining o‘tloqi allyuvial, o‘rtacha daraja sho‘rlangan, o‘rta qumoq tuproqlari sharoitida g‘o‘zaning Buxoro-10 navini tomchilatib sug‘orish usulining samaradorligini oshirish maqsadida ProBioFito biostimulyatoridan foydalanish texnologiyasini xamda sug‘oriladigan yerlarning maqbul meliorativ rejimini ta’minlovchi g‘o‘zaning sug‘orish tartiblari ishlab chiqishga qaratilgan. G‘o‘zani tomchilatib sug‘orish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar Buxoro viloyati Peshku tumani Buxoro Agroklaster MChJ ning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida 2023-2025 yillar davomida olib borildi.

Iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida g‘o‘zani yetishtirishda tuproqning sho‘rlanish darajasi va sho‘rlanish turi g‘o‘zaning o‘sib rivojlanishi hamda hosil ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omillardan biri hisoblanadi. Tuproq tarkibida o‘simliklar uchun zararli tuzlar miqdorining yuqori bo‘lishi o‘simlikning stress xolatiga tushishiga sabab bo‘lishi mumkin. Buning natijasida uning hosildorligi payishi, shu bilan birga eng yomon holatlarda o‘simlikning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Tajriba maydonida dalaning umumiy tuz muvozanatini o‘rganishda V.A.Kovda tomonidan tavsiya etilgan quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$\Delta S = (S_{s.sh.} + S_{sizot\ bug'.} + S_{o'g'it}) - S_{zovur} + S_{o'sim} \quad (t/ga)\ (1)$$

Bunda $S_{s.sh.}$ - sug‘orish hamda sho‘r yuvish bilan muvozanat maydoniga kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori;

$S_{sizot\ bug'.}$-muvozanat maydoniga sizot suvlari orqali kelib qo‘shilgan tuzlar;

$S_{o'g'it}$-muvozanat maydoniga o‘g‘itlar yordamida kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori;


S_{zovur}-zovur suvlari bilan muvozanat maydonidan chiqib ketgan tuzlar;

$S_{o'sim}$- g‘o‘za tanasi va hosili orqali muvozanat maydonidan chiqib ketgan tuzlar miqdorlari hisoblanadi.

Tadqiqotlar davomida g‘o‘za maydonida dalaning umumiy tuz muvozanati tahlil qilinganda 2023-2025 yillar davomida izlanishlarning 1-variantida ya’ni, g‘o‘zani to‘g‘ridan to‘g‘ri tomchilatib sug‘orish texnologiyasida sug‘orilgan variantda sug‘orish suvlari bilan kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 4,1 t/ga, yer osti sizot suvlari bilan kirgan tuzlar miqdori 4,8 t/ga ni, mineral o‘g‘itlar bilan kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 0,75 t/ga ni tashkil qilib, umumiy kirim tuzlar miqdori 9,65 t/ga ga teng bo‘lganligi aniqlandi. Muvozanatning chiqim tuzlar miqdori tahlil qilinganda zovur suvlari bilan chiqib ketgan tuzlar miqdori 3,7 t/ga ga, o‘simlik tanasi va paxta hosili bilan chiqib ketgan tuzlar miqdori 1,15 t/ga ga teng bo‘lib, jami chiqib ketgan tuzlar miqdori 4,85 t/ga ni tashkil qilib, dalada qolgan tuzlar miqdori 4,8 t/ga ni tashkil qildi.

Izlanishlarning 2-variantida ya’ni, g‘o‘zaning Buxoro-10 navini tomchilatib sug‘orishda ProBioFito biostimulyatori yordamida ekishdan oldin chigitga hamda 1, 2 sug‘orishlardan oldin o‘simlik bargidan ishlov berilgan variantda sug‘orish suvlari bilan kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 3,7 t/ga ni yoki umumiy kirim tuzlari miqdorining 45,5 % ni tashkil qildi. Shuningdek, sizot suvlarining tuproqdan

bug‘lanishi hisobiga kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 4,6 t/ga ni tashkil qilib, umumiy kirim tuzlar miqdorining 51,6 % ga, mineral o‘g‘itlar hisobiga qo‘shilgan tuzlar miqdori esa 0,75 t/ga ga teng bo‘lib, umumiy kirim tuzlar miqdorining 2,8 % ni tashkil qildi. Jami kirim tuzlar miqdori 9,2 t/ga ga teng bo‘lib, nazorat variantga nisbatan 0,63 t/ga ga kam to‘planganligi aniqlandi. Shuningdek, muvozanat maydonidan sarf bo‘lgan tuzlar miqdori zovur suvlari yordamida muvozanat maydonidan chiqib ketgan tuzlar miqdori 3,5 t/ga ga, o‘simlik tanasi orqali chiqib ketgan tuzlar miqdori 1,15 t/ga ga teng bo‘lib, umumiy chiqim tuzlari miqdori mos ravishda 4,68 t/ga ga teng bo‘lib, nazorat variantiga nisbatan 0,17 t/ga ga kamayib, tadqiqot natijasida 4,33 t/ga tuzlar yig‘ilganligi aniqlandi.



1-Расм. Tajriba maydonining umumiy tuz muvozanati natijalari (2023-2025 yy).

G‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda ProBioFito biostimulyatori yordamida ekishdan oldin chigitga hamda 1, 2 va 3-sug‘orishlardan oldin o‘simlik bargidan ishlov berilgan 3-variantda tajriba maydonida sug‘orish suvlari hisobiga kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 3,5 t/ga ni, sizot suvlari bug‘lanishi hisobiga kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 4,5 t/ga ga teng bo‘lib mineral o‘g‘itlar bilan kelib qo‘shilgan tuzlar miqdori 0,75 t/ga ga va umumiy kirim tuzlar miqdori 8,72 t/ga ga teng bo‘lib, nazorat variantiga nisbatan 0,93 t/ga ga kam yig‘ilganligi aniqlandi. Tadqiqotlarning umumiy chiqim tuzlar miqdori tahlil qilinganda zovur suvlari bilan chiqib ketgan tuzlar miqdori 3,5 t/ga ga, o‘simlik bilan chiqib ketgan tuzlar 1,15 t/ga ga teng bo‘lib, umumiy chiqim tuzlar miqdori 4,65 t/ga ni tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan umumiy chiqim tuzlar miqdori 0,20 t/ga ga kam bo‘lib,

muvozanat natijasida qolgan tuzlar miqdori 4,07 t/ga ga teng bo‘ldi. Bu esa nazorat variantiga nisbatan 0,73 t/ga kam tuz yig‘ilganligi aniqlandi.

G‘o‘za yetishtirishda ProBioFito biostimulyatorining ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda tadqiqotlarning nazorat, ya’ni g‘o‘zani to‘g‘ridan to‘g‘ri tomchilatib sug‘orish texnologiyasi joriy qilingan 1-variantda paxta hosili o‘rtcha 44,3 s/ga ni tashkil qilgan bo‘lsa, izlanishlarning 2-variantida g‘o‘za hosildorligi 47,7 s/ga ga teng bo‘lib, nazorat variantiga nisbatan 3,4 s/ga ga yuqori hosil olingan. Izlanishlar davomida g‘o‘zaning Buxoro-10 navini tomchilatib sug‘orishda ProBioFito biostimulyatori yordamida ekishdan oldin chigitga hamda 1, 2 va 3-sug‘orishlardan oldin o‘simlik bargidan ishlov berilgan 3-variantda paxta hosildorligi o‘rtacha 49,8 s/ga ni tashkil qilib, nazorat variantiga nisbatan 5,5 s/ga ga yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

Olib borilgan izlanishlar natijasida xulosa qiladigan bo‘lsak, tadqiqot maydonida tuproq tarkibidagi tuzlar miqdori g‘o‘zani tomchilatib sug‘orishda ProBioFito biostimulyatori yordamida ekishdan oldin chigitga hamda 1, 2 va 3-sug‘orishlardan oldin o‘simlik bargidan ishlov berilgan 3-variantda tuproq tarkibida tuzlarning to‘planishi boshqa variantlarga nisbatan kam bo‘lib, o‘simlikning yaxshi o‘sib rivojlanishi hamda hosildorligining oshishi va uning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilanganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 5 fevraldagi PQ-47 son “Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.

3. Xamidov M.X., Bobojonov P.X. «Химические мелиорации» Toshkent. TIIM. 2007. 66-71-b.

4. Jo‘rayev A. Q., Jo‘rayev U. A., Saksonov U. S. G‘o‘zani tomchilatib sug‘orish tartiblarining tuproqning sho‘rlanishiga ta’siri //Uz-conferences. – 2024. – №. 1. 195-202-b.

5. Khamidov M. K. et al. Efficiency of drip irrigation technology of cotton in saline soils of Bukhara oasis //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – 2023. – Т. 1138. – №. 1. – С. 012007.

6. Rijov S.N., Bespalov N.F. «Пахтачилик справочниги». Mehnat nashriyoti. -T, 1989. 300-b.

7. Dospexov B.A. «Методика полевого опыта»// «Агропромиздат». Moskva-1985 . 351-b.

8. Komilov B.S. va Xasanov M.M. Tomchilatib sug‘orish usulining g‘o‘za hosildorligiga ta’siri. “Paxtachilikdagi dolzarb masalalar”. Tavsiya. -T., 2009. 22-b.

9. www.lex.uz

10. www.fao.org

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Husanov Diyor Sheraluevich
INSON HUQUQLARINI CHEKLASHNING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI VA MUTANOSIBLIK (PROPORSIONALLIK) PRINSIPI: O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY QO‘LLANILISHI…..6
Mexmanov Samar Lutfullo o‘g‘li
SUN’IY INTELLEKT SHAROITIDA PROKURATURA ORGANLARIDA KOLLEGIAL QARORLAR QABUL QILISH: HUQUQIY IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR……...11
Mexmanov Samar Lutfullo o‘g‘li
PROKURATURA ORGANLARIDA YUQORI TURUVCHI PROKUROR KO‘RSATMALARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH: YEVROPA STANDARTLARI VA MILLIY QONUNCHILIK……16
Qurbonov Sobir Sultonovich
TA’LIM SOHASIDA PROKUROR NAZORATINING AMALGA OSHIRISHNING MAZMUN-MOHIYATI…….21
Qurbonov Sobir Sultonovich
MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA PROKUROR NAZORATI: TAHLIL VA TAKLIF……...25

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШАЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Мурадов Намиг Вагиф оглы
НАСИЛИЕ И МАССОВЫЕ УБИЙСТВА АЗЕРБАЙДЖАНСКОГО ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКОГО НАСЕЛЕНИЯ ЗАНГЕЗУРА, ОСУЩЕСТВЛЯВШИЕСЯ АРМЯНСКИМИ ВООРУЖЁННЫМИ ФОРМИРОВАНИЯМИ В 1918–1920 ГГ.: ИСТОРИКО-ДОКУМЕНТАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ……..29
Bekbaulieva Nasiba Barliqbay qizi
ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKA DAVRIDA JANUBIY OROL BO‘YI XALQLARINING AHVOLI.....31

СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДАГИ ТУТГАН ЎРНИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Azimova Zahroxon Alisher qizi
MARKAZIY OSIYODA “YUMSHOQ KUCH’NING SIYOSIY-INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI……36
Rajabova Maftuna Ikrom qizi

CITIZEN PARTICIPATION AND INCLUSIVE GOVERNANCE: WHAT UZBEKISTAN CAN LEARN FROM SOUTH KOREA AND GERMANY…….38
Azimova Zahroxon Alisher qizi
MARKAZIY OSIYODA “YASHIL” IQTISODIYOT VA IQLIM DIPLOMATIYASINING SIYOSIY MEXANIZMLARI……41

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ

Rajabova Maftuna Ikrom qizi
O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV BOSHQARUVNING HUQUQIY-INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI……44

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Rasulova Mohigul Maxammadjon qizi
OILAVIY MULOQOTDA BILVOSITA MANIPULYATIV TA’SIRNING ADRESATI……..48
Pratova Gulshoda O‘tkirbek qizi
BILINGVIZMNING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI……...51
Tulanbayeva Shaxnozaxon Shavkatbekovna
INGLIZ VA O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA AKSIOLOGIK VA EMOTSIONAL FREYMINGNING MANIPULYATIV POTENSIALI.....55
To‘xtasinova Shoxsanam Abdujalil qizi
RAQAMLI MULOQOTDA INGLIZ VA O‘ZBEK YOSHLAR SLENGI MA’NOSINI FARQLOVCHI LINGVISTIK BELGILAR.....59

ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Сулнатов Азизбек Баходир ўғли
ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШДА РАҚАМЛИ МОНИТОРИНГ ВА “ЯШИЛ” МОЛИЯЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ……...63
Zokirova Gavhar Abdumannonovna
TASHQI MEHNAT MIGRANTLARINI PENSIYA TA’MINOTI TIZIMIGA JALB QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....66
Abruyev Abdumalik Oynazarovich
KAMBAG‘ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI……72
Jo‘rayeva Sitora Samadovna
MEHNATGA HAQ TO‘LASH XARAJATLARINING TASHKILOT MOLIYAVIY NATIJALARIGA TA’SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH…….76

D.Saidov, O.R.Boltaboyeva
MINTAQAVIY IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOMOBIL SERVIS XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI……..79
Сулнатов Азизбек Баходир ўғли
ЕРЛАРНИНГ МЕЛИОРАТИВ ҲОЛАТИНИ ЯХШИЛАШНИ ИҚТИСОДИЙ РАҒБАТЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ……..85
Kadirov San’at Yuldashevich, Nurullayev Baxrom Botirovich
MINTAQADA KLASTERLARNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMLARI……..88
Sodiqova E’zoza Komiljon qizi
O‘ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH: ZAMONAVIY BAHOLASH VA BOSHQARUV MEXANIZMLARI……..91
Ochilov Ismat Ochilovich
LOGISTIKA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH: RAQAMLI PLATFORMALARNING YUK TASHUVCHILAR FAOLIYATIGA TA’SIRI…..97
Yuldosheva Oygul
THE ROLE OF GREEN INDUSTRIALIZATION IN DEVELOPING COUNTRIES: A REVIEW OF THEORETICAL APPROACHES AND POLICY LESSONS……..101
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHNING FISKAL BOSHQARUV MEXANIZMLARI: NAZARIY VA INSTITUTSIONAL YONDASHUVLAR..106

ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Maxammetov Bexzodbek Salohiddinovich
SIFAT NAZORATINING METROLOGIK ASOSLARINI O‘QITISH HOLATINI BAHOLASH VA O‘QUV QIYINCHILIKLARINI ANIQLASH.....111
Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna
ALOHIDA TA’LIM EHTIYOJIGA EGA O‘QUVCHILARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINI TA’MINLASHDA INKLYUZIV PEDAGOGIK YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI……..115
Uzakova Nazira To‘lqin qizi
BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARIDA KASBIY MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING MEDIATIV MEXANIZMLARI……119
Murodova Dilnoza Ahmad qizi
SUN’IY INTELLEKT TAVSIYALARIGA ISHONISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI……124

АРХИТЕКТУРА ВА ДИЗАЙН ЙЎНАЛИШИ РИВОЖЛАНИШИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Эшназарова Солиха Зайниддиновна
ТАШКЕНТСКАЯ МОДЕРНИСТСКАЯ АРХИТЕКТУРА: СОВРЕМЕННОСТЬ И ТРАДИЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ…….133
Egamnazarova Gulnoza G'ayratxo'ja qizi
BOLALAR TIBBIY MARKAZLARI DIZAYN ELEMENTLARINING BOLA PSIXOLOGIK HOLATI VA TIKLANISHIGA TA'SIRI.....136
Egamnazarova Gulnoza G'ayratxo'ja qizi
BOLALAR TIBBIY MARKAZLARINI LOYIHALASHDA INNOVATSION VA BARQAROR MATERIALLARNING O'RNI.....139
Эшназарова Солиха Зайниддин қизи
ТАРИХИЙ МЕЪМОРИЙ БИНОЛАР ВА АНСАМБЛЛАРНИ РЕКОНСТРУКЦИЯ ҚИЛИШ: УРБАНИЗАЦИЯ ЖАРАЁНИДА МАДАНИЙ МЕРОСНИ САҚЛАШ…….142

ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Akbarxonova Dildora Zoir qizi, Karimova Govxar Abduxalik qizi
NEYRON TARMOQLARGA ASOSLANGAN ADAPTIV BOSHQARUV TIZIMLARINING SANOAT ROBOTOTEXNIKASIDA QO'LLANILISHI…..145
Akbarxonova Dildora Zoir qizi, Glopova Kamola Xabibjon qizi
ZAMONAVIY 5G/6G ALOQA TARMOQLARIDA RAQAMLI SIGNALLARNI QAYTA ISHLASH VA ANTENNA-FIDER QURILMALARINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA OPTIMALLASHTIRISH……..148
Rustamova Dildora
EFFICIENCY OF APPLYING GIS AND REMOTE SENSING TECHNOLOGIES IN QUANTITATIVE LAND ACCOUNTING……..151

БИОМЕДИЦИНА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

САМАТОВ М.У., САМАТОВ У.А.
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ДАННЫХ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ ПРИ ВЫРАБОТКЕ ОКУЛОКАРДИАЛЬНОГО РЕФЛЕКСА У СТУДЕНТОВ – ДОБРОВОЛЬЦЕВ 2 КУРСА ОБУЧЕНИЯ……155
Nazarova Aziza Bakhronovna
RELATIONSHIP BETWEEN VITAMIN D AND HORMONES IMPORTANT FOR WOMEN IN REPRODUCTIVE AGE……..158

Axmedov L. Beysenbayev N. Akramova R.
3D PROGRESS (MHT) VA TRIOS (3SHAPE) INTRAORAL SKANERLARI YORDAMIDA OLINGAN TISH KULTYASI RAQAMLI OTTISKLARINING O‘LCHAM ANIQLIGINI IN VITRO BAHOLASH……160
Axmedov L. Tulambayev F. Mirhayidov M.
TISH PROTEZLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH: ORTOPEDIK DAVOLASH NATIJALARIGA TA’SIRI……..162
Назарова Азиза Бахроновна
ПРОФИЛАКТИКА БЕСПЛОДИЯ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА С ОЖИРЕНИЕМ И НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ ВИТАМИНА Д……164
Ismoilova ShoiraTulkinovna, Khalikova Diyora Murodjon qizi
MENOPAUZAL GORMON TERAPIYASINING UZOQ MUDDATLI FOYDASI VA XAVFLARI…….167
Салимова Гулмира Холмурадовна
РЕВМАТОИД АРТРИТДА ЖИНСИЙ ГОРМОНЛАР ДИСБАЛАНСИ НЕГИЗИДА ИНТЕРЛЕЙКИН-40 ЎЗГАРИШИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ….169
Anorbayev Jahongir
IDIOPATIK QORINCHA ARITMIYALARINI DAVOLASHDA ERTA KATETER ABLATSIYASINING KLINIK O‘RNI…….171
Urmanova Yulduz Makhkamovna
"RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF DIABETIC NEPHROPATHY"…….174
Urmanova Yulduz Makhkamovna
“COGNITIVE IMPAIRMENT IN PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES MELLITUS AND END-STAGE CHRONIC KIDNEY DISEASE"…….176
Тожимахаматова Махлиё Мирзагани қизи
ЙОД ТАНҚИСЛИГИ ХУДУДИДА ИСТИҚОМАТ ҚИЛУВЧИ ОРТИҚЧА ВАЗНЛИ ҚИЗЛАРДА ҚАЛҚОНСИМОН БЕЗИНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ХОЛАТИ……...178
Xasanova Umida Ergash qizi
BOLALARDAGI BIR TOMONLAMA XOANA ATREZIYASINI TASHXISLASH……180
Xasanova Umida Ergash qizi
BOLALARDAGI XOANA ATREZIYASINI ZAMONAVIY JARROHLIK USULLARI……...182
Mahkamova Mushtaribegim Bahodirjon qizi
HOMILADOR AYOLLARDA QALQONSIMON BEZNING FUNKSIONAL HOLATINI BAHOLASH…….184

АГРОПРОЦЕССИНГ РИВОЖЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ЙЎЛИДАГИ ТАДҚИҚОТЛАР

Bo‘riyev Xurshid Bahodir o‘g‘li, Jo‘rayev Umid Anvarovich
SHO‘RLANGAN TUPROQLARDA G‘O‘ZANI SUG‘ORISHNING YERLARNING MELIORATIV HOLATI VA G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI…….186

TADQIQOT.UZ ТОМОНИДАН
ТАШКИЛ ЭТИЛГАН

”ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР” МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 92-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(2-қисм)

Маъсул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович

Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович

Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Эълон қилиш муддати: 30.09.2026